O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

XONQUL SAMAROV

TURIZMDA MADANIY MEROS VA QADRIYATLAR

(Darslik)

Samarqand-2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 95 yilligiga bag‘ishlanadi

XONQUL SAMAROV

TURIZMDA MADANIY MEROS VA QADRIYATLAR

(Darslik)

Samarqand-2025

Samarov X.Q., Turizmda madaniy meros va qadriyatlar. Darslik. SamISI, Samarqand, 2025.-206 b.

Zamonamizning hozirgi sharoitida davlatlar va xalqlarning haqiqiy xalqaro hurmatga loyiqligi o‘zining harbiy qudrati yoki aholisining ko‘pligi bilan emas balki, jahonning madaniyatiga, ilmiga, iqtisodiga, taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan o‘lchanadi. Shuning uchun, mamlakat xalqining qadimdan saqlab, e’zozlab kelayotgan milliy merosi boyliklari, qayd qilingan faktlar bo‘yicha uning hurmatini xalqaro miqyoslarda aniqlovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur o‘quv qo‘llanma xalqimizning milliy madaniy merosi va qadriyatlaridan turizmda samarali foydalanishning barcha talablariga javob beruvchi ma’ruzalardan tashkil topgan. Darslik universitetlarning, institutlarning prof-o‘qituvchilari, turizm ta’limidagi magistrlar, talabalar va turizmdagi tadbirkorlarga mo‘ljallangan.

Mas`ul muharrir: professor, i.f.d. M.Q Pardayev

Taqrizchilar: i.f.d., professor D.A. Nasimov
i.f.f.d., dotsent S.A.Abduxamidov

Darslik Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy Kengashida muhokama qilinib chop qilishga tavsiya qilingan (2025 yil. №..... Bayonnoma)

MUNDARIJA:

Kirish……		
I.BOB “Turizmda madaniy meros va qadriyatlar” fanining maqsadi va vazifalari		
1.1.	“Turizmda madaniy meros va qadriyatlar” fani haqida……	
1.2.	Xalqimizning madaniy merosi va qadriyatlaridan turizmda foydalanish zaruriyatining kelib chiqganligi…..	
1.3.	“Turizmda madaniy meros va qadriyatlar” fanining maqsadi va vazifalari…….	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……		
II.BOB Turizmda O‘zbekistonning moddiy madaniy meros boyliklaridan foydalanish		
2.1.	O‘zbekistonning moddiy madaniy merosi boyliklari……...	
2.2.	Turizmda O‘zbekistonning moddiy madaniy merosi boyliklaridan foydalanish……..	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……		
III.BOB.Turizmda O‘zbekistonning nomoddiy madaniy meros boyliklaridan foydalanish		
3.1	Xalqimizning nomoddiy madaniy merosi boyliklari……..	
3.2.	Turizmda xalqimizning nomoddiy madaniy merosi boyliklaridan foydalanish……..	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar….....		
IV.BOB Turizmda milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlarining geografiyasi		
4.1.	O‘zbekistonda milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlarining geografiyasi…….	
4.2.	O‘zbekistonda milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlarining joylashishi xususiyatlaridan turizmdafoydalanish……..	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……...		

V.BOB Turizmda UNESCO ning moddiy va nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga O‘zbekistondan kiritilgan milliy meros obyektlaridan foydalanish		
5.1.	Turizmda UNESKOning moddiy madaniy merosi ro‘yxatiga O‘zbekistondan kiritilgan obyektlar……	
5.2.	Turizmda UNESKOning nomodddiy madaniy merosi ro‘yxatiga O‘zbekistondan kiritilgan obyektlar……	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……		
VI.BOB Turizmda xalqimizning milliy madaniy merosidagi milliy hunarmandchilik yo‘nalishlaridan foydalanish		
6.1.	Milliy madaniy merosdagi milliy hunarmandchilik yo‘nalishlari……..	
6.2	Turizmda milliy madaniy merosdagi milliy hunarmandchilik yo‘nalishlaridan foydalanish…….	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……...		
VII.BOB Turizmda xalqimizning milliy madaniy merosidagi milliy ustachilik yo‘nalishlaridan foydalanish		
7.1.	Milliy madaniy merosdagi milliy ustachilik yo‘nalishlari……..	
7.2.	Turizmda milliy madaniy merosdagi milliy ustachilik yo‘nalishlaridan foydalanish…….	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar…….		
VIII.BOB Turizmda xalqimizning milliy madaniy merosidagi milliy o‘yinlaridan foydalanish		
8.1.	Milliy madaniy merosdagi milliy o‘yinlar…….	
8.2.	Turizmda milliy madaniy merosdagi milliy o‘yinlardan foydalanish……	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar…….		
IX.BOB Turizmda xalqimizning milliy madaniy merosidagi milliy san’atdan foydalanish		
9.1.	Milliy madaniy merosdagi milliy san’at yo‘nalishlari…...	
9.2.	9.2.Turizmda milliy madaniy merosdagi milliy san’at yo‘nalishlaridan foydalanish…….	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……		

X.BOB Turizmda xalqimizning milliy madaniy merosidagi qadriyatlardan foydalanish		
10.1	Xalqimizning milliy madaniy qadriyatlari va ularning turlari…….	
10.2.	Turizmda milliy madaniy qadriyatlardan foydalanish…..	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……..		
XI.BOB Turizmda xalqimizning milliy madaniy merosidagi qadriyatlarning turlaridan foydalanish		
11.1.	Ma’naviy qadriyatlar…….	
11.2.	Milliy qadriyatlar……..	
11.3.	Oilaviy qadriyatlar……	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……...		
XII.BOB Turizmda milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan foydalanishdagi imkoniyatlar		
12.1.	Turizmda milliy madaniy meros qadriyatlardan foydalanish va rivojlantirish imkoniyatlari…….	
12.2.	Turizmda milliy madaniy merosdagi urf-odat va an’analardan foydalanish……	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……		
XIII.BOB Turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanishdagi muammolar		
13.1.	Turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanishdagi muammolar……	
13.2.	Turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanishdagi muammolarning yechimlari……	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……		
XIV.BOB Turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanishning dasturi va strategiyasi		
14.1.	Turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanishning dasturi…….	

14.2.	Turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanishning strategiyasi……..	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……...		
XV.BOB Turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlari		
15.1.	Milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlari…….	
15.2.	Milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlariga gid-ekskursiyachilar tayyorlash……...	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……		
XVI.BOB Turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlarni rivojlantirishda muzeylardan foydalanish		
16.1.	Muzeylarning tarixi……...	
16.2.	O‘zbekiston muzeylarining tarixi……..	
16.3.	Muzeylardan turizmda foydalanish……...	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……		
XVII.BOB Turizmda milliy madaniy meros obyektlari va qadriyatlaridan foydalanishda turistlarning xayoti xavfsizligini ta’minlash		
17.1.	O‘zbekistonda turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslari……	
17.2.	Xalqaro sayohatlarda davlatlarning turistlarning hayoti xavfsizlini ta’minlashdagi ma’sulligi……	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……		
XVIII.BOB Turizm xizmatlarida dunyo davlatlarida yashayotgan xalqlarning xulq-atvor va imo-ishoralaridagi xususiyatlarni o‘rganishning zarurligi		
18.1.	Dunyo xalqlaridagi xulq-atvor va imo-ishoralar haqida……	
18.2.	Davlatlarning xalqlaridagi imo-ishoralar haqida…….....	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar……		
	Glossariy……...…….	

	Testlar…….....	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati……..	

KIRISH

Turizm jamiyat faoliyatining barcha sohalariga, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotiga kirib bormoqda. Turizmning chegaralari, rivojlanishining tezligi mamlakatning milliy boyligi, tabiiy boyliklari, milliy merosi boyliklarining jahonda ma'lumligi va tanishligi bilan o'lchanadi. Hozirgi vaqtda aynan xalqlarning milliy merosi boyliklari, qadriyatlari xalqaro hamjamiyatning, mamlakatning nafaqat turizm resurslarining jozibadorligiga, ijtimoiy sharoitlarga yoki turizmga balki, biznesga bo'lgan munosabatlaridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonnning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida *"Turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish*[1]*"* belgilangan.

Zamonamizning hozirgi sharoitida davlatlar va xalqlarning haqiqiy xalqaro hurmatga loyiqligi o'zining harbiy qudrati yoki aholisining ko'pligi bilan emas balki, jahonning madaniyatiga, ilmiga, iqtisodiga, taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi. Shuning uchun mamlakat xalqining qadimdan saqlab, e'zozlab kelayotgan milliy merosi boyliklari qayd qilingan mezonlar bo'yicha uning hurmatini xalqaro miqyoslarda aniqlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bunda xalqlarning milliy madaniy merosi boyliklaridagi jozibadorlik asosiy o'rinni egallaydi.

Keltirilgan dalillar va tahlillar to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston imizga ham tegishli deb hisoblaymiz. Chunki jahon taraqqiyotiga o'zining asarlari bilan ming yillardan beri lol qoldirib kelayotgan jahonshumul ajdodlarimizni dunyo taniydi. Bu o'rinda o'zbek xalqinining milliy merosi boyliklari, qadriyatlarining kelib chiqishi, tarkib topishi va asrlar davomida sayqallanganligini va sayqallanib, saqlanib kelinayotganligini ushbu darslik o'rgatadi.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. 2022-yil 28- yanvar.

Hozirgi kundagi xalqaro turizmda millatimizning insoniyat qadim madaniyat markazlaridan biri ekanligini, millatimiz betakror odob-axloq madaniyatiga ega ekanligini, yaratuvchilik san’atiga ega ekanligini jahon xalqlariga yetkazish yo‘lida turizmdan foydalanishning istiqbolli yo‘llarini, ilmi va amaliyotining uslubiyatlari va usullarini ishlab chiqish O‘zbekiston milliy turizmini rivojlantirishdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Millat va elatlarning o‘ziga xos tarixiy merosi, milliy san’ati va milliy adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odati, an’analari va marosimlari, milliy hunarmandchilik, milliy o‘yinlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 16-yanvarda, “Moddiy, madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi[2] PF-5181-sonli Farmonini qabul qildi. Bu farmonda xalqimizning qadimdan saqlanib, takomillashib, asralib kelinayotgan moddiy, madaniy merosi boyliklari, bu merosiy boyliklarni saqlab qolishimiz, rivojlantirishimiz belgilangan. “O‘zbekistonda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda qabul qilgan qarorida *“xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ‘ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o‘rni bosh maqsad deb belgilangan*[3].

Ikkinchidan, DTSdagi talablar bilan “Turizmda madaniy meros va qadriyatlari” fani turizm ta’limidagi bakalavlar o‘quv rejasiga kiritildi. Turizm ta’limida tayyorlanayotgan mutaxassislardan O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda xalqimizning milliy madaniy

[2] O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 16-yanvarda, “Moddiy, madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida” PF-5181-sonli Farmoni.

[3] “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda qabul qilgan Qarori.

merosi va qadriyatlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy, ma’naviy va ma’rifiy asoslarini, resurslarini, xalqimizning milliy madaniy meros boyliklari yo‘nalishlariga turizm marshrutlari va ekskursiyalarni, zamonaviy turizm mahsulotlarini ishlab chiqish usullarini puxta o‘rganishlari lozim.

I.BOB. “TURIZMDA MADANIY MEROS VA QADRIYATLAR” FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Tayanch so‘zlar: milliy meros, qadriyatlar, milliy madaniyat, ma’naviy qadriyat, daho, mezon, tafakkur, sivilizatsiya, chorraha.

1.1. “Turizmda madaniy meros va qadriyatlar” fani haqida

Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik:
biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk
madaniyat yaratgan xalqmiz
Shavkat Mirziyoyev

Turizm sohasi davlatlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’naviy aloqalarni mustahkamlashga o‘zining hissasini qo‘shib, dunyoda jadal rivojlanayotgan va yuqori daromad keltiruvchi sohalardan biriga aylangan. So‘nggi yillarda, dunyo YaIMda turizmning ulushi o‘rtacha 11% ni tashkil qilib, jahon iqtisodiyotining asosiy eksport qiluvchi sohasiga aylandi. Oxirgi 40 yil davomida boshqa mamlakatlarga chiqib ketgan turistlar soni deyarli 20 barobarga, turizmdan daromad 60 marotabaga va xalqaro turizmdan tushgan tushumlar 400 milliard dollardan ortiq foydani tashkil etmoqda. Turizm sohasi 200 million ishchilarni ish bilan ta’minlaydi, bu esa, o‘z navbatida dunyo aholisining 8% ini tashkil qiladi.

Hozirgi kundagi xalqaro turizmda millatimizning insoniyat qadim madaniyat markazlaridan biri ekanligini, millatimiz betakror odob-axloq madaniyatiga ega ekanligini, yaratuvchilik san’atiga ega ekanligini jahon xalqlariga yetkazish yo‘lida turizmdan foydalanishning istiqbolli yo‘llarini, ilmi va amaliyotining uslubiyatlari va usullarini ishlab chiqish O‘zbekiston milliy turizmini rivojlantirishdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Millat va elatlarning o‘ziga xos tarixiy merosi, milliy san’ati va milliy adabiyoti bilan bir qatorda, ularning urf-odat, milliy an’analari va marosimlari, milliy hunarmandchilik, milliy o‘yinlari, madaniy

munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Har bir millatning milliy madaniy merosi boyliklari shu millat tomonidan insoniyat taraqqiyotining dastlabki qadamlaridan yaratilib to hozirgi kunlargacha saqlanib, rivojlantirilib kelinayotgan moddiy, ma’naviy va barcha turdagi merosni qamrab oladi. Bir xalqga, bir millatga tegishli milliy meros boyliklari shu xalqni boshqa xalqlarga va shu millatni boshqa millatlarga, dunyoga tanitadi.

Mamlakatimizda ham turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun tegishli huquqiy zamin yaratildi. “Turizm to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. O‘nlab turli qonunosti hujjatlari yaratildi. Kelajakda turizm sohasi jadal rivojlanadigan sohaga aylanishi tayin. Chunki bizda turizm resurslarining katta salohiyatlari mavjud. Bularni inobatga olib, mamlakatni rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi”da ushbu soha iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i sifatida jadal rivojlanishi belgilandi.

Bu vazifalarning hammasi, o‘z navbatida sohada iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish va zamon talabidan kelib chiqqan holda takomillashtirish lozimligini talab qiladi. Tadqiqotlar jarayonida turizm sohasining, uning tarkibiy qismi bo‘lgan xalqaro turizmda milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda to‘liq foydalanilmayotganligi ma’lum bo‘ldi.

Ikkinchidan, DTS talabi bilan “Turizmda madaniy meros va qadriyatlari” fani turizm ta’limidagi bakalavlar o‘quv rejasiga kiritilishi, turizm ta’limida tayyorlanayotgan mutaxasislarning O‘zbekiston turizmini rivojlantirishda xalqimizning milliy madaniy merosi va qadriyatlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini, milliy madaniy meros boyliklarining resurslarini, xalqimizning milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlari bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarga turizm marshrutlarini va ekskursiyalarini, zamonaviy turmahsulotlarini ishlab chiqish usullarini puxta o‘rganishlari talab qilinishi ushbu fanning o‘quv dasturini va o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashni keltirib chiqardi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 17-noyabrda “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va

hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”[4] PF-5242-sonli Farmonni qabul qildi. Farmonda O‘zbekiston xalqlarining boy milliy madaniy merosi va tarixiy an’analarini to‘liq saqlab qolish va ko‘paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san’atini yanada rivojlantirish, davlatimizda xalq hunarmandchiligi va ijodiy an’analari keng rivojlangan shahar va tumanlarda hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari tashkil etish, hunarmandchilikning noyob turlarini qayta tiklash va yanada rivojlantirish, kabi davlat ahamiyatiga molik milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari belgilangan.

Keltirilgan farmonlar asosida mamlakatimizda milliy turizmni jadal rivojlantirishga o‘z hissamizni qo‘shishga ma’sulligimizni anglagan holda to‘plangan ma’lumotlar, o‘rganilgan va o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari bo‘yicha ushbu o‘quv qo‘llanma tayyorlandi. Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 6-fevralda “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3509-sonli Qarori ham, mamlakatimizda xalqaro turizmni rivojlantirishni davlat miqyosidagi dolzarb vazifalar qatoriga kiritilgan[5]. Shuning uchun ham, mamlakatimizda kirish turizmiga ham, xalqaro turizmga ham milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlari haqidagi zamonaviy, mahsulotlarini tayyorlashimiz lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublik-asi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 16-mart 2018-yil PQ-3609 sonli “Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida[6] ham bugungi kunda Samarqand viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish, turistlarni noyob milliy madaniy meros obyektlari bilan keng tanishtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hamda “Samarkand city” turizm zonasini barpo etish maqsadida

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 17-noyabrda “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5242-sonli Farmoni.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 6-fevralda “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3509-sonli Qarori

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 16.03.2018 y. PQ-3609 sonli “Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori

tegishli chora-tadbirlar belgilanganligi, milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishning ilmiy-amaliy tadqiqotlarini o‘tkazish va natijalarini O‘zbekiston turizmiga joriy qilishning dolzarbligini bildiradi.

“O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda qabul qilgan Qarorida “Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ‘ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o‘rni bosh maqsad[7]” deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasida 2019-2025-yillarda turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasida “Milliy, madaniy meros obyektlari holatini yaxshilash, ushbu obyektlar atrofida sayyohlar uchun zarur infratuzilmani shakllantirish; marketing va brendni ilgari surishning samarali mexanizmini ishlab chiqish[8]” belgilangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida UNESKOning Umumjahon moddiy madaniy merosi va nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga O‘zbekistondagi yangi moddiy va nomoddiy meros obyektlarini kiritishni tezlashtirish taklif qilingan[9].

Xalqimizning milliy madaniy merosi boyliklaridan va qadriyatlaridan turizmda foydalanish yo‘nalishida dastlabki ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan[10]. Lekin bu tadqiqotlarda milliy madaniy meros boyliklari turizmning maxsus turlari deb atalgan. Shuningdek, boshqa tadqiqotlarda ham milliy meros boyliklari turizmning kichik ko‘lamli maxsus turlar deyilgan. Bu nomlanish va tavsiflarda ancha noaniqliklar kelib chiqadi. Birinchidan, turizmning maxsus turlari hozirgi vaqtda jahon turizmida shiddat bilan rivojlanib borayotgan tarixiy-madaniy obidalar turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizm kabi turlar hisoblanadi.

[7] “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda qabul qilgan Qarori.
[8] O‘zbekiston RespublikasiPrezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoniga 2-Ilova
[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 25.01.2020
[10] R.Xaitboyev., R.Amriddinova, Turizmning maxsus turlari, Samarqand, SamISI, 2008, -63 b.

Xalqimizning milliy madaniy merosi boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanish yo‘nalishida tadqiqotlar ancha sust holatlarda boshlanmoqda. Keltirilgan qaydlardan ma’lum bo‘ladiki, “Turizmda madaniy meros va qadriyatlar” fanining o‘rganish obyekti xalqimizning milliy madaniy merosi boyliklari va milliy madaniy qadriyatlari hisoblanadi.

O‘zbek xalqining madaniy merosi boy va ko‘hna tarixga ega. Shu bois mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, eng avvalo, tarixiy merosimiz, ma’naviy qadriyatlarimiz va an’analarimizni tiklashga katta e’tibor qaratildi. Ayniqsa, nomoddiy madaniy meros namunalarini o‘rganish, targ‘ib qilish borasidagi ishlar dunyo hamjamiyati e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlari millatning aql-idroki, madaniyati va yaratuvchilik ijodi, taraqqiyot salohiyatining mevasi hisoblanadi.

Milliy madaniy meros va qadriyatlar millat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida vujudga kelib, millatning o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan boylik hisoblanadi. Shuning uchun ham, u millatning o‘z kelajagini yaratishda tayanch va tajriba manbai bo‘lib xizmat qiladi. Xalqimizning milliy madaniy merosi boyliklari va qadriyatlari haqida mukammal asarlar bitilgan. Bu asarlarda xalqimiz o‘zining qadimiy an’analari, urf-odatlari, milliy muhandislik san’ati, milliy madaniyati, milliy qadriyatlari va milliy o‘yinlarini ko‘z qorachig‘idek saqlab kelayotganligi milliy g‘urur bilan yozilgan. Bu meros boyliklaridan milliy turizmda foydalanish, milliy turizmni rivojlantirishdagi muammolar hali o‘rganilgan emas.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini mustahkamlash, jahon hamjamiya tida o‘zining mustahkam o‘rnini egallashi jarayonida siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda kishilar tafakkurida o‘zgarish, shakllanishi jarayoni kechmoqda. Bor narsani izlash, ma’lum narsani ochish, qilingan kashfiyotni kashf etish kerak bo‘lmaganidek, o‘tmish ajdodlar qilgan ishni takrorlash shart emas. Erishilgan yutuqlardan kelib chiqib, jamiyat o‘z maqsadlarini amalga oshirishning qisqa yo‘llarini tanlaydi, hissiy jihatdan boyitadi, bilimning tuganmas manbai bo‘lib xizmat qiladi.

O‘tmishdan qolgan barcha narsalar butunlay o‘zlashtirilmaydi, balki yangi davr talabiga, ruhiy javob beruvchi, mohiyatan zarur narsalargina olinadi. Hozirda eskirgan va kerakmas deb hisoblangan narsalar, kelajakda balki, yangi mohiyat va muhim ahamiyat kasb etar. Allaqaysi davrda qolib ketgan kiyinish usuli kutilmaganda odatga aylanishi mumkin. Yangi hayot qadim donishmandligidan g‘oya oladi. Har bir millatning milliy merosi o‘sha millat tomonidan yaratilgan moddiy ma’naviy va boshqa barcha turdagi merosni qamrab oladi. Ularning ayrimlari umumjahon mezonlariga ega bo‘lsa, ba’zilari shu millat e’tiboridagi meros sanaladi. Milliy meros millatning tafakkuri, dahosi, dunyoqarashi va yaratuvchilik salohiyatining mahsulidir.

O‘zbek xalqining madaniy merosi ming yillar davomida yaratilgan. Unda turli davrlarda O‘zbekiston hududida etiqod qilingan zardushtiylik, buddizm, islom dini va boshqa dinlar yaratgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mujassamlangan. Unda butun dunyoga mashhur imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Bahoviddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, al-Xorazmiy, A.Navoiy kabi ko‘plab buyuk mutafakkirlarning bilimi va salohiyati tarkib topgan, bu merosda Amir Temur va Zahiriddin Boburlarning davlatchilik va siyosiy qurilish tajribalari; buyuk me’morchilik yodgorliklari, tasviriy san’at, musiqa, amaliy san’at asarlari: xalq urf-odatlari va an’analari, milliy o‘yinlar, sport turlari uyg‘unlashgan.

Mustaqillik yillarida xalqga uning ma’naviy va madaniy boyliklarini qaytarish borasida ko‘plab ishlar qilinmoqda. Dastlabki, eng muhim qadam “O‘zbek tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi bo‘ldi. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga qaramasdan milliy madaniyatni asrovchi yangi muzeylar barpo etildi: Temuriylar davri tarixi muzeyi, Olimpiya shon-sharafi muzeyi va O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi yangi mazmunda boyitildi. Maqomchilik muzeyi va boshqalar dunyoga mashhur bo‘ldi.

Har bir xalqning o‘zi uchun e’zozli, qimmatli bo‘lgan ma’naviy boyliklari bo‘ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelgan, hozirgi kunda ham o‘zining ahamiyati va qadrini yo‘qotmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalardir. Bular xalqning

o‘ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning barkamolliligida muhim ahamiyatga ega.

Milliy ma’naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uning tarkibi quyidagilardan tashkil topgan:

- tarixiy meros va tarixiy xotira;
- madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, qadimiy qo‘lyozmalar;
- ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;
- san’at va milliy adabiyot;
- axloqiy fazilatlar;
- diniy qadriyatlar;
- urf-odat, an’ana va marosimlar;
- ma’rifat, ta’lim-tarbiya va hokazolar.

Milliy ma’naviy qadriyatlarning ana shu har bir ko‘rinishi muhim ahamiyatga ega. Milliy an’analar-milliy qadriyatlarning bir bo‘lagi bo‘lib, u millat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va islohotlarning avloddan-avlodga o‘tish hamda meros bo‘lib qolish tarzidir.

Mustaqillik yillarining mevasi sifatida kelib chiqqan an’analarga aylanib borayotgan bayramlar ham mavjud:

- 1 yanvar - Yangi yil;
- 8 mart - Xalqaro xotin - qizlar kuni;
- 21 mart - Navro‘z bayrami;
- 9 may - Xotira va qadrlash kuni;
- 31 avgust - Qatag‘on qurbonlari shahidlari kuni;
- 1 sentabr - Mustaqillik kuni;
- 1 oktabr - O‘qituvchilar va murabbiylar kuni;
- 8 dekabr - Konstitutsiya kuni;
- “Ramazon hayit”i (Iyd al-Fitr)
- “Qurbon hayit”i (Iyd al-Adha)

Bu ulug‘ bayramlarimizdan boshqa, kasb-hunar bayramlarimiz ham borki, bu bayramlar har bir kasb egalariga yaxshi kayfiyatlar

bag‘ishlaydi. Madaniyat xalqlarning o‘ziga xosligini va mustaqilligini mustahkamlovchi, saqlovchi, rivojlanishi jarayonlarining poydevori hisoblanadi. Xalqlarning milliy merosi boyliklari ham ularning madaniyati taraqqiyoti bilan hamohang rivojlanishi natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun ham, har bir xalqning, har bir millatning milliy merosi boyliklarini ko‘rish zamirida ana shu millatlarning, xalqlarning o‘tmish va hozirgi madaniyatiga qiziqish kelib chiqadi.

Mana shu qiziqishni qondirish uchun milliy meros boyliklari va qadriyatlardan turizmda foydalanish dolzarb bo‘lib yuzaga chiqdi. Shavkat Mirziyoyev *“Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik:biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz”*- degan so‘zlari ham buyuk tariximiz, madaniyatimiz bilan chambarchas bog‘langan milliy meros va qadriyatlarimizni jahonga aynan turizm orqali ko‘rsatishimiz lozim”.

1.2. Xalqimizning madaniy merosi va qadriyatlaridan turizmda foydalanish zaruriyatining kelib chiqqanligi

O‘zbekistonda milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan foydalanib, milliy turizmni rivojlantirish zarurligining kelib chiqqanligini quyidagi rasmiy manbalar tasdiqlaydi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning farmonlari va qarorlarida xalqimizning milliy merosi boyliklari va qadriyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq qilish va xalqaro miqyoslarda targ‘ib qilish bo‘yicha ko‘rsatmalari, topshiriqlarining belgilanganligi.

2. O‘zbekiston xalqlarining milliy merosi boyliklarini, qadriyatlarini asrab-avaylash va ularni xalqaro miqyoslarda targ‘ib qilish bo‘yicha mamlakatimizda xalqaro anjumanlar va simpoziumlar, tadbirlar o‘tkazilayotganligi.

I. O‘zbekistonda milliy merosi boyliklari va qadriyatlaridan foydalanib turizmini rivojlantirish zaruratining Prezidentimiz ning farmonlari va qarorlaridagi ko‘rsatmalari asosida kelib chiqqanligi:

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-sonli Farmonini ijro etish, shuningdek, Respublikaga turistlar oqimini ko‘paytirish, kirish turizmini milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirish, mamlakatning madaniy-tarixiy merosi, qadriyatlari va tabiiy boyliklarini keng targ‘ib qilish maqsadida “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi[11].

O‘zbekistonda xalqimizning milliy madaniy merosi boyliklari va qadriyatlaridan foydalanib turizmini rivojlantirishning zarurligi ushbu qarorning maqsadida belgilanganligini keltiramiz:

- kirish turizmini milliy iqtisodiyotning muhim tarmog‘iga aylantirish;
- mamlakatning madaniy-tarixiy boyliklari merosi va tabiat boyliklarini keng targ‘ib qilish.

Qarorda keltirilganidek, mamlakatimizga turistik oqimni ko‘paytirish hozirgi kunda turizmning ikki turi: tarixiy-madaniy turizm va ziyorat turizmi orqali amalga oshirilmoqda. Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida[12] “*Respublikaning turizm salohiyatini, birinchi navbatda investitsiyalarni faol jalb qilish, sohaga innovatsion g‘oya va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, mamlakatning boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosining mavjud resurslari va imkoniyatlaridan har tomonlama foydalanish hisobiga rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish”* maqsadi belgilangan.

a) O‘zbekistonda milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan foydalanib turizmini rivojlantirish farmonda belgilangan tarixiy

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori (Toshkent sh., 2018-yil 6-fevral, PQ-3509-son).

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent shahri, 2018-yil 3-fevral

madaniy merosimizdan “Har tomonlama imkoniyatlardan foydalanish” ko‘rsatmasiga kiradi.

b) Kirish turizmini milliy iqtisodiyotning muhim tarmog‘iga aylantirish davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati tarkiblariga kiradi. Bu kirish turizmini mamlakatimizdagi mavjud imkoniyatlarning barchasidan foydalanib, xalqaro turistlarning miqdorini ko‘paytirishni ana shu siyosat oldiga talab qilib qo‘yadi. O‘zbekistonda milliy meros boyliklarini, qadriyatlarini asrash xalqaro miqyoslarda targ‘ib qilish, milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan foydalanish tizimlarini ishlab chiqish bo‘yicha xalqaro miqyoslardagi tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2. “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ‘ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash maqsadi va Konsepsiyaning asosiy vazifalari etib, tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo‘llash milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an’analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo‘llab-quvvatlash belgilanganligi ham mamlakatimizda xalqimizning milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan foydalanib turizmni rivojlantirishning obyektiv zarurati kelib chiqqanligini bildiradi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (2018 y)da[13] *“Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan tarmoqlardan biri-bu turizmdir. O‘zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. “Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati UNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga mamlakatimizning betakror tabiati, go‘zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik*

[13] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2018 y)

yo‘nalishlarni ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishimiz zarur”-degan ko‘rsatmalari ham milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishning zaruratini keltirib chiqardi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida[14] “*Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish ustuvor vazifa bo‘lib qolishi, nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalari 2020-yilda O‘zbekistonni sayohatga albatta borish tavsiya etilgan mamlakatlar qatoriga kiritganligini ham e’tiborga olib, madaniy meros obyektlariga turizm marshrutlarini ko‘paytirishni”* tavsiya qildi.

Murojaatnomada yana bir vazifa UNESKOning umumjahon moddiy madaniy merosi va nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga O‘zbekistondagi yangi obyektlarni kiritishni tezlashtirishni belgiladi. Prezidentimizning turizmni iqtisodiyotimizning strategik tarmog‘iga aylantirishning ustivor vazifalardan ekanligini qayta-qayta ta’kidlashi va xalqimizning moddiy madaniy merosi va nomoddiy madaniy merosi boyliklarini UNESKO ro‘yxatiga kiritishni keltirganligi ham bu meros boyliklaridan foydalanib turizmni rivojlantirish zaruratining kelib chiqqanligini asoslaydi.

II. O‘zbekiston xalqlarining milliy merosi boyliklari va qadriyatlarini asrab-avaylash va ularni xalqaro miqyoslarda targ‘ib qilish bo‘yicha mamlakatimizda xalqaro anjumanlar va simpoziumlar, tadbirlar o‘tkazilayotganligi ham milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan foydalanib, turizmni rivojlantirishning obyektiv zaruratini yuzaga chiqarganligini bildiradi.

2.1. 2019-yilning 26-avgust kuni Samarqand shahrida mamlakatimizda madaniy-tarixiy merosni o‘rganish, asrab-avaylash va targ‘ib qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bilan jahon hamjamiyatini tanishtirish, bu ishlarni keng qamrovda davom ettirish va mazkur yo‘nalishdagi xalqaro tajribalarni o‘rganish maqsadida

[14] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 25.01.2020.

“Moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash: dolzarb muammolar va ularni hal qilish strategiyasi” xalqaro anjumani o‘tkazildi. Ushbu xalqaro konferensiyani o‘tkazishdan asosiy maqsad, moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlashda UNESKO tamoyillarini amalga oshirish, tarixiy madaniy merosni asrab-avaylash va ommalashtirishda jahon tajribalarini o‘rganish, ularni tiklashda yangi strategiya va texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida madaniy meros obyektlaridan tijorat maqsadlarida foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish belgilandi.

2. Xalqaro konferensiya 2019-yilning 22-27-avgust kunlari Toshkent, Termiz va Samarqand shaharlarida “O‘zbekiston - buyuk yo‘llar va sivilizatsiyalar chorrahasi: imperiya, din madaniyat” meros haftaligi o‘tkazildi. Ushbu haftalik doirasida Toshkent shaharida O‘zbekiston madaniy merosini asrash, o‘rganish va targ‘ib qilish bo‘yicha Butunjahon jamiyatining III xalqaro kongressi, Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida O‘zbekistonning yozma merosi durdonalari ko‘rgazmasi, O‘zbekiston tasviriy san’at galereyasida “Dalvarzin oltini: Kushon imperiyasi va uning jahon sivilizatsiyasi rivojiga hissasi” ko‘rgazmasi va Termiz shaharida “O‘zbekiston -sivilizatsiyalar chorrahasi” nomli xalqaro arxeologiya forumi o‘tkazildi.

3. 2019-yil 26-avgust Samarqand shahridagi Forumlar saroyida “Moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash: dolzarb muammolar va ularni hal qilish strategiyasi” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. BMTning ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (UNESKO) shafeligida tashkil etilgan anjumanda xalqaro tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot institutlari vakillari, dunyoning 77 davlatidan arxitektorlar, olimlar, xalqaro ekspertlar ishtirok etdi.

4. Samarqand shahrida “Sharq taronalari”XII xalqaro musiqa festivalining tantanali ochilish marosimi o‘tkazildi. Dunyoning 85 davlatidan kelgan ishtirokchilarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda BMTning UNESKO bosh direktori Odri Azule xonim tabrikladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Turizm va milliy madaniyat vazirligi, UNESKOning Osiyo va Tinch okeani mintaqasi nomoddiy madaniy merosi xalqaro axborot va hamkorlik markazi (ICHCAP) o‘rtasida Ipak yo‘lidagi madaniy merosni saqlash bo‘yicha memorandum imzolandi.

6. Samarqandga tashrif buyurgan jahon hunarmandlar kengashi (WCC)ning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bo‘yicha prezidenti Gada Kaddumi Samarqandga “Xalqaro hunarmandlar shahri” maqomini berishni taklif qildi.

7. Bulung‘ur tumanida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li asos solgan dostonchilik maktabi an’analarini davom ettirish maqsadida “Baxshilar sayli” o‘tkazildi.

8. Xalqaro sayyohlik kuni munosabati bilan Samarqandda “Silk road bazaar” milliy hunarmandchilik va savdo festivali o‘tkazildi.

9. Samarqand shahrida “Madaniy merosni asrash va uning turizm rivojiga hissasi” mavzuida I xalqaro amaliy simpozium o‘tkazildi.

10. Qo‘qon shahrida xalqaro hunarmandchilik festivali o‘tkazildi. Anjumanda 100 dan ortiq davlatdan faxriy mehmonlar, mohir hunarmandlar, taniqli madaniyat arboblari, san’atshunos olimlar, Jahon hunarmandlar kengashining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bo‘yicha prezidenti Gada Kaddumi, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

11. Prezidentning xalqaro “Zardo‘zlik va zargarlik” festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi e’lon qilindi. Festival doirasida “An’anaviy zardo‘zlik va zargarlik san’atini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2022-yilning 21-25-may kunlari o‘tkaziladi.

O‘zbekiston xalqlarining milliy merosi boyliklarini asrab-avaylash va ularni xalqaro miqyoslarda targ‘ib qilish bo‘yicha mamlakatimizda yuqorida qayd qilingan xalqaro anjumanlar va simpoziumlar, tadbirlar o‘tkazilayotganligi, rejalashtirilayotganligi ham milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanib turizmni rivojlantirishning obyektiv zaruratini yuzaga chiqarganligini bildiradi.

1.3. “Turizmda madaniy meros va qadriyatlar” fanining maqsadi va vazifalari

Faning maqsadi-turizm ta’limida tayyorlanayotgan mutaxassislarga O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan foydalanishning ilmiy-uslubiy-nazariy asoslarini, talablarini, istiqbolli yo‘nalishlarini ishlab chiqishni, milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanish mahsulotlarini ishlab chiqishni o‘rgatish hisoblanadi.

Fanning vazifalari-O‘zbekistonda milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlarini, milliy ishlab chiqarish, milliy an’analar, milliy o‘yinlar, milliy merosdagi yo‘nalishlar xalqimizning asrlar davomidagi ijodi, mehnati, milliy madaniy merosi boyliklarini, ularning tasnifi va tariflarini, geografiyasini, milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlari bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarga turizm marshrutlari va ekskursiyalarni ishlab chiqish usullarini o‘rgatishdan iborat.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. “Turizmda madaniy meros va qadriyatlar” fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. “Xalqimizning milliy madaniy merosi boyliklari” mavzusida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering?
3. “Xalqimizning milliy madaniy qadriyatlari” mavzusida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering?
4. Siz institut talabasi sifatida o‘zingiz qaysi qadriyatlarimizga amal qilishni maqsad qilib qo‘ydingiz?
5. Oiladagi qadriyatlar deganda nimalarni tushunasiz?

II. BOB. TURIZMDA O‘ZBEKISTONNING MODDIY MADANIY MEROSI BOYLIKLARIDAN FOYDALANISH

Tayanch so‘zlar: ansambl, estetika, antropologiya, marosim, etnografiya, numizmatika, kartografiya, memorial uy, mo‘jiza.

2.1. O‘zbekistonning moddiy madaniy merosi boyliklari

O‘zbekiston milliy turizmida milliy madaniy merosi boyliklaridan turizmda foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirishda, albatta, milliy meros boyliklarini tushunib, bilib olishimiz lozim. Shuning uchun ham, O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo‘lmish madaniy meros boyliklarining, obyektlarining guruhlari va tasniflari bilan tanishish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasining *“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi* Qonunida belgilanganidek, madaniy meros obyektlari quyidagi ikki guruhga bo‘linadi:

I. *Moddiy madaniy meros obyektlari* - tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

1.1. *Ansambllar*-tarixan tarkib topgan hududda aniq ko‘zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me’moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo‘lgan, ijtimoiy, ma’muriy, diniy, ilmiy, o‘quv-ta’lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati, me’morchilik asarlari bilan bog‘liqlikda alohida yoki o‘zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek, tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlari, imoratlarning qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog‘-rog‘ san’ati asarlari (bog‘lar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar, sayilgohlar)[15];

[15] O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent sh., 2001-yil 30-avgust, 269-II-son

1.2. ***Diqqatga sazovor joylar***-inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo‘lgan hududlar, shu jumladan, xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgoh lar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan, harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko‘hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.

1.3. ***Yodgorliklar***-tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek, memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san’at asarlari, fan va texnika obyektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio, video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san’at asarlari, arxiv, qo‘lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo‘lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo‘lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o‘yib solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari.

Qonunda keltirilgan axborotlardan ma’lum bo‘ladiki, madaniy meros-keng qamrovli tushuncha. U arxeologiya yodgorliklaridan boshlanadi. Arxeologiya yodgorliklariga qazilmalar jarayonida tanilgan san’at asarlari (masalan, haykallar, xalq amaliy san’ati va zargarlik buyumlari, Afrosiyob va Panjakent freskalari kabilar), ayrim ro‘zg‘or buyumlari va mehnat qurollari kiradi. Albatta, butun qazilma majmuasining o‘zi ham arxeologiya yodgorligi-madaniy merosni tashkil etadi. Arxeologiya yodgorliklaridan keyin madaniy merosga me’morlik yodgorliklari va qadimgi qo‘lyozmalar, manuskriptlar kiradi. Qo‘lyozmalarning mazmuniga qarab, ularni din, falsafa,tabiiy

ilm-fanning turli yo‘nalishlari, tarix, ilohiyat, axloq, huquq, adabiyot va san’at kabilarga bo‘lish mumkin.

Moddiy madaniy meros obyektlari ro‘yxati tasdiqlandi[16].

O‘zbekistonda moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxati tasdiqlandi. Bu haqda Adliya vazirligi xabar bermoqda. Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxati tasdiqlandi. Qarorga muvofiq, respublika bo‘yicha jami 8 ming 208 ta moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari mavjud bo‘lib, shundan 4 ming 748 tasi arxeologiya yodgorliklari 2 ming 250 tasi arxitektura yodgorliklari, 678 tasi monumental san’at yodgorliklari, 532 tasi diqqatga sazovor joylardir.

Qaror bilan Madaniyat vaziriga zarurat bo‘lganda tegishli buyruq bilan, obyektning nomi, davri va manziliga aniqlik kiritish (tushuntirish berish) huquqi berildi. Shuningdek, Madaniyat vazirligi asosli zarurat paydo bo‘lganida milliy ro‘yxatga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida Hukumatga taklif kiritib boradi. Milliy ro‘yxatga kiritilgan obyektlarga tarixiy, badiiy yoki o‘zga madaniy qimmatliligi tufayli garov va ipoteka qo‘llanilishi mumkin emas, xususiy mulk hisoblangan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari bundan mustasno.

I. *Nomoddiy madaniy meros obyektlari*-tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek, ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar[17].

O‘zbekiston turizmini rivojlantirishda milliy madaniy meros obyektlaridan va qadriyatlaridan foydalanishning maqsadi va vazifalari aniqlanganda shunga e’tibor berish kerak-ki, har bir davlat o‘z xalqining o‘tmish madaniy merosining boshqa xalqlarda uchramaydigan ko‘rinishlarini, milliy an’analarini jahondagi boshqa xalqlarga ko‘rsatishni, va o‘tmishidagi voqe’liklar va jarayonlar bilan

[16] Akbarjon Abduraimov, Jamiyat 09-Oktabr 2019 16:19, 4117

[17] O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent sh., 2001-yil 30-avgust, 269-II-son

tanishtirishni xohlaydi. Chunki, hozirgi globallashuv jarayonida geosiyosatning xalqlarni, millatlarni kamsituvchi yo‘nalishlari ham shiddat bilan ishlamoqda. Hozirda jahon turizmida milliy meros boyliklarining moddiy madaniy meros obyektlari tarixiy-madaniy turizm turining asosiy resurslari hisoblanadi.

Turizmni rivojlantirishda milliy meros obyektlaridan va qadriyatlaridan foydalanishning maqsadi va vazifalari bu milliy meros boyliklaridan turizmda foydalanib faqatgina daromad olish emas. Aksincha:

- Vatanimizning boy ma’naviy merosi va qadriyatlari bilan dunyo xalqlarini tanishtirish, ularda xalqimizga bo‘lgan hurmat va ehtiromni shakllantirish, ularning xalqimizga nisbatan etik-estetik tushunchalarini shakllantirish;
- Mustaqil davlatimiz - O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga qiziqishni oshirish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o‘z xalqining turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to‘g‘ri tushuntirish;
- Tuman, shahar, viloyat va respublika ma’naviyat-ma’rifat markazlari, oliygohlar, ilmiy tekshirish institutlari, muzeylar, sayohat muassasalari, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ishlashlarini, do‘stona hamkorlik qilishlarini yo‘lga qo‘yish;
- Xalqimizning dunyo xalqlari taraqqiyotiga qo‘shgan milliy madaniy an’analari, milliy etiketi, milliy madaniyati va san’ati, milliy urf-odatlari, milliy o‘yinlari va milliy mahsulotlar ishlab chiqarish hunarmandchiligini ko‘rsatish;
- Qayd qilingan manzillar, obidalar, milliy ishlab chiqarish, milliy uyinlar, arxeologik manzillar, yo‘nalishlar sabr-toqatli, chidamli xalqimizning asrlar davomidagi ijodi, mehnati, butun boyliklarini asrab-avaylab, saqlab kelayotganligi, o‘ziga xos bo‘lgan turmush kechirishini ko‘rsatish.

2.2. Turizmda O‘zbekistonning moddiy madaniy merosi boyliklaridan foydalanish

O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan:

I-guruh: 1.1-ansambllar; 1.2.-diqqatga sazovor joylar; 1.3-yodgorliklar turizm sohasidagi eng katta tur bo‘lgan-tarixiy madaniy turizm turi resurslariga kiritilgan. Jahondagi barcha davlatlarda ham shu nomlanish qabul qilingan. Ya’ni insoniyatning tarixi davomida yaratilgan moddiy inshotlar tarixiy-madaniy turizmning resurslari deyiladi. Tarixiy-madaniy turizm turi davlatlarning ichki va xalqaro turzmini rivojlantirishda turizm sohasidagi eng katta yo‘nalish hisoblanadi.

Ma’lum hududda rivojlantirishda u joyning tarixiy-madaniy yodgorliklari salohiyati asosiy o‘rinni egallaydi. Madaniy-tarixiy yodgorliklardan ko‘p maqsadlarda foydalanish mumkin. Madaniy majmualarning jozibadorligi ularning tarixiy va ta’sviriy bahosiga, foydalanish qulayliliga bog‘liq. Tarixiy-madaniy yodgorliklardan inson faoliyatida intensiv foydalanish, ya’ni antropogen yukning oshib borishi natijasida tarixiy-madaniy yodgorliklari ifloslanishiga, tarixiy obidalarning tez buzilishiga olib keladi. Bunday noxush holatlar so‘ngi 20 yilliklarda tarixiy-madaniy turizmning rivojlanishi bilan kuchayib bormoqda. Shuning uchun ham turizmga oid Gaaga deklaratsiyasida qo‘yidagi takliflar bildirilgan:

- turistlarni mamlakat ichkarisida yoki chet elda borgan joylarida madaniy meros va atrof-muhitni saqlashga, ularga nisbatan hurmatda bo‘lishga o‘rgatish, hamda targ‘ib qilish;
- joylarda turistlarni qabul qilish darajasini aniqlash, me’yordan ortishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- turistlar har bir davlatlarning xalqaro turistlarni qabul qilish nizomlariga, qonuni va qoidalarga so‘zsiz amal qilishligi lozim deb ta’kidlanadi.

Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritiladigan obyektlarning qo‘yidagi xususiyatlari hisobga olinadi:

- inson ijodining noyob namunalari;
- ajoyib madaniy, arxitektura obyektlari, hamda madaniy landshaftlarining alohida ahamiyatga ega hududlari;
- zamonaviy taraqqiyotning noyob namunalari, qurilishlari;
- inson tarixi bilan bog‘liq binolar yoki arxitektura ansambllari, landshaftlari.

O‘zbekistonda jahon madaniyati xazinasiga kiruvchi ko‘plab arxitektura yodgorliklari mavjud. Xiva, Buxoro va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari,qadimiy Samarqandning tarixiy yodgorliklari UNESKOning “Jahon merosi” deb nomlangan ro‘yhatiga, Boysun tumani aholisining folklor ansambli “Jahon nomoddiy merosi xazinasi” ro‘yxatiga kiritilgan.

Qadimgi zamonlardan boshlaboq, O‘zbekiston jahonning ko‘plab mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy va madaniy hamkorlikka kirishib kelgan. Savdo karvonlari orqali Sharq va G’arbni bog‘lagan Buyuk Ipak yo‘li ham aynan O‘zbekistondan o‘tgan, O‘zbekiston uning eng muhim markazlaridan biri hisoblangan.

Buyuk Ipak yo‘li orqali Sharq va G’arb mamlakatlarida ishlab chiqarilgan xilma-xil mahsulotlardan tashqari turli madaniyatlar, an’analar, kasb-hunarlar va dinlar ham tarqalgan. Ma’naviy qadriyatlar bilan almashinuvlar amalga oshirilgan. Mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishi jahon madaniyatining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan Buyuk Ipak Yo‘li uzoq mamlakatlardagi yangi ixtirolar, ilm-fan yutuqlari va madaniy-ma’rifiy qadriyatlarni qo‘lga kiritish imkoniyatini berganki, bu xalqaro aloqalarda faol ishtirok etayotgan barcha davlatlarning ijtimoiy - iqtisodiy yuksalishiga sabab bo‘lgan.

O‘zbekistonda turizmni rivojlatirish va uni yangi bosqichlarga ko‘tarish borasida, avvalo ko‘hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg‘ilon, Qo‘qon kabi shaharlar muhim ahamiyatga ega. Bu shaharlarda butun dunyo aholisini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi qadimiy tarixiy yodgorliklar beqiyos ko‘p. Er yuzining


turli mamlakatlarida istiqomat qiluvchi har bir inson bu shaharlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish orzusida yashaydilar. Ko‘p mamlakatlarda O‘zbekiston o‘zining ana shu shaharlari bilan mashhurdir. O‘zbekistonning ana shu tarixiy shaharlarini ko‘pincha “Sharqning javohirlari” deb atashadi.

“Dunyoning yetti mo‘jizasi”: Misr ehromlari, Bobilning osma bog‘lari, Artemida ibodatxonasi, Galikarnas maqbarasi, Quyosh xudosi-Gelios haykali, Aleksandr Mayoqi, Olimpiya xudosi-Zevs haykali ro‘yxati miloddan avvalgi ikkinchi asrda yashab o‘tgan grek arxitektori Antipar Sidonskiy tomonidan tuzilgan edi. Bugungi kunda UNESKO mutaxassislari fikricha dunyoda 800 dan ortiq mo‘jiza deb atashga loyiq yodgorliklar mavjud ekan.

2007-yil 7-iyul kuni Portugaliyaning Lissabon shahridagi 50 ming kishidan ziyod tomoshabin to‘plangan stadionda dunyoning yangi yetti mo‘jizasi tantanali ravishda e’lon qilindi. Unga quyidagi tarixiy yodgorliklar kiritildi: Buyuk Xitoy devori, Rio-de-Jineyrodagi Iso Masih haykali, Ay-Petra tosh shahari, Machu-Pikchudagi inklarning tosh shahri, Chichen-Itsadagi mayyalar ibodatxonasi, Rim Kolizeyi, Tojmahal.

O‘zbekistondagi noyob obidalarning yetti mo‘jizasi: 1.Registon ansambli (Samarqand); 2.Igor Savitskiy nomidagi san’at muzeyi (Nukus); 3.Toshkent teleminorasi (Toshkent); 4.Forumlar saroyi (Toshkent); 5. Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi (Samarqand); 6.Ichan qal’a qadimiy shahri (Xiva); 7.Amir Temur maqbarasi (Samarqand).

Madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirish uchun dastlabki bajariladigan ishlar albatda tashkiliy tuzilmalarni yaratishni talab qiladi. Bizning xulosalarimiz bo‘yicha bu tuzilmalar yuqorida belgilangan vazifalarni bajarish bo‘yicha tashkil qilinishi maqsadli bo‘ladi. Dastlab madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy dasturini ishlab chiqishimiz zarur. Bu dastur madaniy merosimizdagi ikki yo‘nalishdan (moddiy madaniy meros boyliklari, nomoddiy madaniy meros boyliklari) foydalanishdagi rejalarni ishlab chiqishni yengillashtiradi (1-rasm).



1-rasm. Madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishning dastlabki tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalarini yaratish va amalga oshirish

Madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirish uchun dastlabki bajariladigan ishlar albatda tashkiliy tuzilmalarni yaratishni talab qiladi. Bizning xulosalarimiz bo‘yicha bu tuzilmalar yuqorida belgilangan vazifalarni bajarish bo‘yicha tashkil qilinishi maqsadli bo‘ladi. Dastlab madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy dasturini ishlab chiqishimiz zarur. Bu dastur madaniy merosimizdagi ikki yo‘nalishdan (moddiy madaniy

meros boyliklari, nomoddiy madaniy meros boyliklari) foydalanishdagi rejalarni ishlab chiqishni yengillashtiradi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. Moddiy madaniy meros boyliklari va nomoddiy madaniy meros boyliklaridagi farqlarni tushuntirib bering?
2. Milliy meros boyliklaridan turizmda foydalanishning zaruratlarini asoslab bering?
3. O‘zbekistonning tarixiy obidalaridan turizmdagi qaysi turda foydalanish mumkin?
4. Tarixiy-madaniy turizm turini O‘zbekistonning qaysi shaharlarida rivojlantirish mumkin?
5. Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritiladigan obyektlarning qanday hususiyatlari yoki belgilari hisobga olinadi?

III. BOB. TURIZMDA O‘ZBEKISTONNING NOMODDIY MADANIY MEROSI BOYLIKLARIDAN FOYDALANISH

Tayanch so‘zlar: milliy folklor, o‘lan, askiyalar, laparlar, aytishuvlar, tildagi shevalar, baxshilar, me’mor.

3.1. Xalqimizning nomoddiy madaniy merosi boyliklari

O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunda xalqimizning madaniy merosidagi *2-guruh-nomoddiy madaniy meros boyliklari*-tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati) shuningdek, ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar deb belgilangan.

Nomoddiy madaniy meros boyliklaridan turizmda foydalanishdagi dastlabki tadqiqotlarni X.Q.Samarov amalga oshirdi. U bajargan ilmiy natijalarning xulosalari bo‘yicha milliy turizm sohasiga quyidagi tavsiyani taklif qildi “Nomoddiy madaniy meros boyliklaridan turizmda foydalanishni turizmdagi yangi tur-*milliy madaniy meros turizmi* turi amalga oshiradi va nomoddiy madaniy meros boyliklari milliy madaniy meros turizmining resurslari deb qabul qilinadi[18]. Shuning uchun ham, BOBni tushuntirish O‘zbekiston turizmidagi yangi tur-milliy madaniy meros turizmining tushunchasi, mazmuni, mohiyati, faoliyatlari, maqsadi va vazifalari bilan bog‘langan holda olib boriladi.

Milliy madaniy meros turizmining tarifi “Tarixiy va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish xalqaro Kengashi”da (ICOMOS International Council on Monuments and Sites) qabul qilingan “Xalqaro turizm xartiyasi” (International Tourism Charter, 2002)da keltirilgan. Bu tarif quyidagicha berilgan-*“Madaniy meros turizmi-bu madaniyat va tashrif joylaridagi madaniy muhit, aholining an’analari,*

[18] Samarov X.Q. Milliy madaniy meros turizmi. Monografiya. Toshkent, 2022. -187 b.

ularning yashash tarzlari, badiiy madaniyati va san'ati, mahalliy aholining bo'sh vaqtlarini o'tkazish shakllarini bilan tanishishdan iborat turizmdir". Xorij davlatlarida milliy madaniy meros turizmini madaniy meros turizmi deb nomlashgan[19].

O'zbekistonning milliy turizmida hozirda xalqimizning milliy meros boyliklaridagi moddiy madaniy meros boyliklaridan turizmda foydalanmoqdamiz. Bu yo'nalishda tarixiy-madaniy turizm va ziyorat turizmi tobora rivojlanib bormoqda. Moddiy madaniy meros boyliklaridan turizmda foydalanishda zahirada arxeologik turizmni tashkil qilish va rivojlantirish o'zining tadqiqotchi-tashkilotchi-tadbirkorlarini kutib turibdi.

Milliy meros boyliklaridan turizmda foydalanish bo'yicha vatanimizda amaliy tadqiqotlar boshlanmaganligini qayd qilgan edik. Xorijiy davlatlarda xalqlarning milliy merosi boyliklaridan turizmda foydalanishda moddiy meros boyliklaridan foydalanish ustivor ekanligi ma'lum bo'ldi[20] Rossiyada milliy meros boyliklaridan turizmda foydalanishni-"madaniy bilish turizmi" deb nomlashadi[21], Yevropada esa asosan tarixiy madaniy turizmga kuchli e'tibor berishgani ma'lum[22]. Madaniy bilish turizmining mohiyatiga to'liq ta'rif berganimizda bu turizm turining ijtimoiy-iqtisodiy-madaniy jihatlarida baho berish to'g'ri bo'ladi.

Turizmning har bir turlariga qiziquvchilar, ishqibozlar bor. Birovlar faqat tarixiy obidalarga qiziqadi, ikkinchi bir turist esa faqat tabiat bag'rida bo'lishni xo'sh ko'radi. Hayotni xavf ostida qo'yib dengiz va okayenlardagi g'orlarga sayohat qiluvchilar ham anchagina va hokazolar. Lekin insonlarning ko'pchiligi har qanday sohaga qiziqadi, ko'rishni, o'rganishni, xullas bilishni, bilim olishni xohlaydi. Turizmdagi bu yo'nalish alohida-madaniy bilish turizmi yo'nalishini hosil qilgan. Bu insonlarning maqsadi dunyodagi har xil davlatlar va

[19] Romania: geography a. tourism / [Mihai Ielenicz a. o. ; ed. by: Ioan Mihailescu ; pict.: Felics Florian Munteanu a. o.]. Bucharest : Royal Company, [2001]. 327 p.: col. ill., maps.; Vsemirnoye kulturnoye i prirodnoye naslediye: Dokumenti, kommentari spiski obyektov. M., 1999.- 267- 31 s

[20]Aleksandrova A.Yu. Struktura turistskogo rinka. -M.: Press-Solo, 2002.-384 s.

[21] Korjanova A.A. Perspektivi napravleniya razvitiya kulturno-poznavatelnogo turizma v Rossii. Fundamentalnie issledovaniya., № 2-18, M.:2015.-S. 4044-4047.

[22] Romania: geography a. tourism / [Mihai Ielenicz a. o.; ed. by: Ioan Mihailescu; pict.: Felics Florian Munteanu a. o.]. Bucharest: Royal Company, [2001]. – 327 p.: col. ill., maps.

xalqlarning ma’naviy boyliklarini va moddiy boyliklarini o‘zida boyitish hisoblanadi. Madaniy bilish turlarida turist alohida xalqlarning, elatlarning madaniyati, bu madaniyatning tarixi, hozirdagi holatlari bilan tanishadi.

Madaniy bilish turizmi insonlarning dunyoqarashini kengaytiradi, o‘rganayotgan xalqlarning madaniyati, yashash tarzi, maishiy yashashi, urf-odatlari, hozirdagi rivojlanishi darajalari bilib olishga yordam beradi. Inson bilish qobiliyatini kuchaytirgani sari dunyodagi jarayonlar, hodisalar va voqe’likning mohiyatiga, sabab va oqibatlariga tezroq tushunib yetadi. Bilish faoliyati natijasida inson dunyoning ichki va tashqi omillarining kelib chiqishini sezadi, hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlaydi. Insonning bilishga qiziqishi uning o‘z ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan jismoniy yoki aqliy harakati hisoblanadi. Lekin, bu harakatni amalga oshirish uchun insonga u xohlagan sharoit, muhit yaratilishi kerak bo‘ladi.

Madaniy bilish turizmida inson o‘z xalqi, millati madaniyatini, ko‘rib, bilib, kelgan xalqlar, ellar madaniyati bilan solishtiradi, taqqoslaydi va o‘z hayoti, oilasi hayotida qandaydir qulay yo‘llarni kashf qiladi. Bundan tashqari boshqa davlatlar bilan, boshqa xalqlar bilan tanishishi natijasida u kitoblarda aynan shu davlatlar va xalqlar haqida xulosalar chiqaradi. Bu bilan u nazariy bilimlarining amaldagi holati haqida o‘zi uchun kerakli xulosalar chiqarib oladi.

Inson o‘zining madaniy bilish turizmi faoliyatida jamiyatdagi o‘rnini anglaydi, u dunyoni his qilishini belgilaydi va dunyo xalqlari madaniyatiga baho beradi. Bu xulosalarga kelish esa har bir inson uchun juda muhim hisoblanadi. Arablardagi madaniyat va taraqqiyot albatda yaqin Sharq va Vizantiya madaniyatiga suyanish, Ruslarning Konstantinopolga sayohatlari Rusda xristianlikning yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Ko‘plab sayohatchilar o‘z sayohatlari natijasida dunyodagi ko‘plab xalqlar madaniyati, yashash sharoitlari haqida asarlar qoldirib ketgan. Bu ilmiy manbalar albatta ko‘plab xalqlarning iqtisodiy va ma’naviy yaqinlashishiga keyinchalik xizmat qildi. Ko‘plab xalqlar o‘rtasida iqtisodiy, madaniy aloqalarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Madaniy bilish turizmi turistlarning o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlari bo‘yicha 2 guruhga, ya’ni turizmda 2 yo‘nalishga bo‘linadi:

1. Ixtisoslashgan madaniy bilish turizmi.
2. Ixtisoslashmagan madaniy bilish turizmi.

Ixtisoslashgan madaniy bilish turizimidagilar o‘z maqsadlari, qiziqishlari bo‘yicha ham turli yo‘nalishlarga bo‘linib ketadi. Masalan, ko‘plab turistlar dunyodagi qadimiy tarixiy obidalarga qiziqadi, ko‘plab turistlar esa o‘zga xalqlarning yashash tarzi, milliy madaniyati, urf-odatlariga qiziqadi. Xuddi shuningdek, ko‘plab xalqlarning milliy san’atiga qiziqadi, boshqa jihatlari ular uchun hech qiziqarli emas. Bu yo‘nalishlarning barchasi ixtisoslashgan madaniy bilish turizmini hosil qiladi.

Ixtisoslashmagan madaniy bilish-turizmida faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘zga davlatlardagi barcha narsalarga, tarixiy obidalarga ham, bu davlatning xalqiga ham, tabiatiga ham qiziqishadi ya’ni yo‘l-yo‘lakay, oldidan nima chiqsa qiziqadi, so‘rab - surishtiradi.

Keltirilgan tahlillardan xulosa qilib, xorij davlatlarida madaniy bilish turizmini o‘zimizning tilimiz, tushunchalarimizga moslab-milliy madaniy meros turizmi deb atashimizga hech qanday mone’lik kelib chiqmaydi. Bizning milliy madaniy meros boyliklari deyishimiz bilan ular nimalar ekanligi aynan shu so‘z va shu atama bilan bolaligimizdan ongimizga singdirilgan. Madaniy bilish turizmi deyishimiz bilan qanday madaniyatni bilish savoli kelib chiqadi. Ikkinchidan, hayotimizdagi har qanday yangilik, voqe’lik va jarayonlarni tilimizdagi o‘z so‘zimiz bilan nomlashga ham ma’sul bo‘lishimiz lozim. Shunday qilib, *milliy madaniy meros turizmining mohiyati* xalqning, millatning milliy merosi boyliklari orqali birinchi navbatda o‘zga davlatlar va o‘zga xalqlarning madaniyati, ma’naviyati va yashash tarzini, an’analarini, qadriyatlarini o‘rganish, bilish va bundan o‘zi uchun xulosalar olishdir.

Rossiyalik mutaxassislarning xulosalari bo‘yicha milliy madaniy meros turizmi (madaniy bilish turizmi) XXI asrda xalqaro turizmda istiqbolli turlarning biriga aylanadi. Faqatgina milliy madaniy meros

turizmi jahon xalqlarining, millatlarning bir-biri bilan o‘zaro tanishishiga olib keladi. Aynan milliy madaniy meros turizmi xalqlarning milliy an’analari bilan tanishish, milliy qadriyatlarini hurmat qilishga zamin yaratadi[23].

O‘zbekiston xalqlarida milliy meros boyliklarining turli-tumanligi, ko‘plab yo‘nalishlarining mavjudligi, hatto alohida sohalarni hosil qilishi bu boyliklardan turizmda foydalanish ma’naviy, ijtimoiy va iqtisodiy, siyosiy jihatlardan faqat va yana faqat ijobiy va istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘ladi. Dastlab milliy meros boyliklaridan turizmda foydalanishning, turizmdagi bu yangi turni tashkil qilish va rivojlantirishning nazariy asoslari va ilmiy-amaliy usullarin ishlab chiqildi[24].

3.2.Turizmda xalqimizning nomoddiy madaniy merosi boyliklaridan foydalanish

Biz turizmda turizmining sohalari, yo‘nalishlarining resurslari, obyektlari bu turizm turining kelgusidagi taraqqiyotida istiqbolli maxsus turlar bo‘lishi mumkinligini hisobga olib, xalqimizning milliy merosi boyliklaridagi va qadriyatlaridagi milliy etika, milliy madaniyat va milliy san’at sohalarini, milliy urf-odatlar va marosimlar, milliy hunarmandchilik, milliy o‘yinlar va milliy ishlab chiqarish sohalarini milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanish bo‘yicha 5 ta guruhlarga ajratdik (1-jadval).

[23]Korjanova A.A. Perspektivi napravleniya razvitiya kulturno-poznavatelnogo turizma v Rossii. Fundamentalnie issledovaniya. № 2-18, M.:2015. S. 4044-4047.; Gorbunova M.Yu. Organizatsionnie osnovaniya kulturnogo turizma // Problemi i perspektivi razvitiya kulturnogo turizma Saratovskoy oblasti. Saratov, 2006. -21-223 s.; Otnyukova M.S. Kulturniy turizm i sotsialnoye konstruirovaniye dostoprimechatelnostey // Problemi i perspektivi razvitiya kulturnogo turizma Saratovskoy oblasti. Saratov, 2004.-125-136 s.

[24]SamarovX.Q. Milliy madaniy meros turizmi. Monografiya. Toshkent, 2022.-187 b.; Hayitboyev R. O‘zbekistonning cho‘llarida turizmni tashkil qilish va rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari. Monografiya, Samarqand, 2022.-175 b.

1-jadval

Madaniy meros turizmi resurslarining guruhlari va guruhlardagi turizm obyektlari

1.Madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanish resurslarining guruhlari	Madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanish bo‘yicha resurslarining guruhidagi obyektlarga qiziqish
2.Madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanish resurslarining milliy madaniyatdagi guruhlari	Xalqimizning urf-odatlari, tildagi shevalar, oila hayoti, kattalar va yoshlar munosabatlari, salomlashish, mehmon kutish va mehmondorchilik, to‘y va diniy marosimlar, oila bayramlari, oiladagi huquqlar, kelin va sunnat to‘ylari, uy tutish va hokazolarga qiziqish.
3. Madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanish resurslarining milliy etnik hayotdagi guruhlari	Xalqlar, ellar, urug‘lar, ularning yashash tarzi, millatlarning urf-odatlari, kelib chiqishi tarixi, joylashishi, o‘zaro aloqalari. Xalqlarning, millatlarning har xil sabablar bilan dunyo bo‘ylab tarqalib ketishi, ularning bir-birlariga intilishi, sog‘inishi, qumsashi hayotiy jarayonlarga qiziqish
4. Madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanish resurslarining milliy san’atdagi resurslari	Milliy sanat, milliy folklor, qo‘shiqchilik, milliy raqslar, askiyalar, laparlar, aytishuvlar, rassomchilik va haykaltaroshlik, baxshilar,o‘lan aytish qo‘shiqchiliklari kabi sanat turlariga qiziqish. Bu tur quyidagi yo‘nalishlarga bo‘linadi: 4.1. Qo‘shiqchilik va raqs sanati yo‘nalishlari; 4.2. Baxshilar qo‘shiqchiligi maktablari; 4.3. Askiyalar,laparlar, aytishuvlarga qiziqish; 4.4. Milliy rassomchilik va haykaltaroshlik; 4.5. Milliy folklor turlari.
5. Madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanish resurslarining milliy	Milliy hunarmandchilikning turlari, milliy hunarmandchilikdagi yo‘nalishlar, xalq memor, xalq-usta shiori va reklamasi, milliy hunarmandchilik buyumlarining mukammal va mo‘jizakorligiga qiziqish. Bu turizm turi quyidagi tarmoqlarga bo‘linib ketadi:

hunarmandchilikdagi guruhlari	5.1. Duradgorlik va uning maktablari 5.2. Kulolchilik va uning maktablari 5.3. Kashtachilik, zardo‘zlik, guldo‘zlik, milliy liboslar tikishdagi yo‘nalishlar 5.4. Mahsido‘zlik, poyafzallar Milliy ustachilik: 5.5. Temirchilik pichoqsozlik, taqachilik, qishloq xo‘jaligi asboblari; 5.6. Misgarlik; 5.7. Musiqasozlik 5.8. Beshiksozlik; 5.9. Aravasozlik 5.10. Sandiqsozlik; 5.11. Egarsozlik 5.12. Mahsido‘zlik; 5.13.Gilamchilik va palos
6. Madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanish resurslarining milliy o‘yinlardagi guruhlari	O‘zbekiston xalqlarida milliy o‘yinlar nomini olgan o‘ziga xos musobaqalari, mardlik, jasurlikni namoyish qiluvchi bellashuvlar va parrandalarning jangiga qiziqish. Bu tur quyidagi yo‘nalishlardan iborat: 6.1. Ko‘pkari-uloq; 6.2. Milliy kurash; 6.3. Qo‘chqorlar jangi; 6.4. Parrandalar jangi; 6.5. Dorbozlik.

Madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanish resurslarini guruhlashdan - tasniflashdan ma’lum bo‘ldiki, O‘zbekistonda yangi tashkil qilinayotgan va rivojlantirish mo‘ljallanayotgan milliy madaniy meros turizmini turizmning katta turlariga aylantirishda juda katta turistik salohiyatlari borligi tasdiqlandi. Milliy madaniy meros turizmining 1-Jadvalda keltirilgan 5 ta guruhlaridagi resurslarning barcha obyektlarida milliy madaniy meros turizmini rivojlantirish mumkin. Bu turlar ham ko‘p qirraliligi va ko‘p variantliligi jihatidan o‘ziga xos milliy betakrorlik va milliy ijodiy yaratuvchanlik yo‘nalishlariga, tarmoqlariga bo‘linib ketadi.

Milliy madaniy meros turizmi resurslariga ichki va ayniqsa xalqaro turistlarni jalb qilish, taklif qilishdagi tashkiliy tadbirlar ishlab chiqilsa, bu resurslardan turizmda foydalanishning dastlabki rejalari amalga oshirilgan bo‘ladi. Milliy madaniy meros resurslaridan ichki turizmda foydalanishning ommaviy rivojlanmayotganligining bosh sababi milliy meros obyektlariga, manzillariga aniq axborotlarning, ekskursiyalarning, marshrutlarning yo‘qligi, bu turlar manzillarini hatto ekskursiyaga chiquvchilar ham, shuningdek, shaharlarda yashayotgan aholining ham ko‘pchiligi bilmasligidir. Chunki, mustaqilligimizdan keyin deyarli barcha makonlar-u va manzillarning nomlari o‘zgarib ketdi.

Bu holatning yana bir sababi, qadimiy xalq hunarmandchiligi manzillari, xalq ustalari haqida kam yozilishi, radio, ommaviy axborotlar va televideniyeda malumotlar, reklamalarning juda siyrak holatda berilayotganidir. Chunki Samarkand shahariga boshqa viloyat va shaharlardan kelgan mehmonlar albatta xalq ustalari, hunarmandlarining ishlarini tomosha qilishga qiziqish tufayli bunday joylarga ekskursiyalar, tashriflar qilishi mumkin edi. O‘zbekiston azaldan xalk hunarmandchiligi bilan mashhur bo‘lib kelgan. Hozirgi vaqtda respublikada xalq hunarmandchiligi asosida esdalik, sovg‘a buyumlar ishlab chiqaruvchi 500 ga yaqin korxona mavjud. Ular chinni va sopol buyumlar, pichoqlar, sopol o‘yinchoqlar, zardo‘zi mahsulotlar, gilam, poloslar va milliy kiyimlar va boshqa buyumlar ishlab chiqarmoqda.

Milliy madaniy merosning ayrim turlarni hozirdanoq ommaviylashtirishning katta imkoniyatlari bor. Masalan, tobora unutilib borayotgan dorbozlik o‘yinlarini qaytadan tiklash, doimiy dorbozlik maskanlarini belgilash lozim. Bunday holatda turistlarni bu o‘yinlarga taklif qilish vaqtlari aniq bo‘ladi. Xuddi shuningdek, ko‘pkari-uloq 2-3 oy davom etadigan, ichki va xalqaro turistlarning katta oqimlarini o‘ziga jalb qiladigan g‘oyat qiziqarli turistik obyekt. Bu turni ommaviylashtirish uchun eng muhim muammo turistlarni kutib olish, xizmatlarni tashkil qilish, joylashtirish, dam olish,

ovqatlantirish va tunashi sharoitlarini tashkil qilish ishlarining haligacha boshlanmaganligidir.

Milliy madaniy meros resurslarini tasnifini va tavsifini tayyorlashdagi ma’lumotlarning tahlili natijasida shunday asosiy xulosaga kelish mumkinki, bu resurslardan milliy madaniy meros turizmda foydalanish istiqbollari juda katta va murakkab muammolarni yechishni talab qilmaydi. Dastlab tashkiliy jarayonlar va bu turlarning reklamasini ishlab chiqarish va turizm bozoriga chiqarish talab qilinadi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. Xalqimizning milliy madaniy merosi boyliklari nimalar?
2. Moddiy madaniy meros boyliklari nimalar?
3. Nomoddiy madaniy meros boyliklari nimalar?
4. Milliy merosdan turizmda foydalanishning maqsadi va vazifalarini tushuntiring?
5. Milliy madaniy meros turizmining kelib chiqishini tushuntiring?

IV.BOB. TURIZMDA MILLIY MADANIY MEROS BOYLIKLARI VA QADRIYATLARINING GEOGRAFIYASI

Tayanch so‘zlar: geografiya, obida, antiqa, an’ana, milliy o‘yinlar, milliy san’at, osori-atiqa, ekspeditsiya, folklor, askiya.

4.1. O‘zbekistonda milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlarining geografiyasi

Nomoddiy meros resurslarining geografiyasi. Nomoddiy madaniy meros resurslari va obyektlarining ko‘pchiligi hozirgacha aniq manzillar bo‘yicha aniqlanmagan. Mazkur resurslar va obyektlarning geografiyasini biz to‘plangan va tarixiy ma’lumotlar asosida viloyatlar bo‘yicha guruhladik. Nomoddiy madaniy meros boyliklarining har bir viloyatlardagi, viloyatlarning tumanlari va qishloqlaridagi resurslari va obyektlarining aniq manzillari (xususiy hunarmandchilik uylari, milliy nomoddiy madaniy meros turlarining ommaviy o‘tkaziladigan joylari, vaqtlari, mavsumlari va b.) o‘rganish davom etmoqda. Bu tadqiqotlarning yo‘nalishida milliy nomoddiy madaniy meros resurslari va obyektlari, milliy meros boyliklarini ishlab chiqarish sohalari, xalq hunarmandchiligi uylari, markazlari, milliy o‘yinlar rayonlari va hokazolarning aniq manzillari ro‘yxatga olinmoqda[25].

Samarqand shahridagi o‘lkashunoslik va O‘zbekiston xalqlari tarixiy muzeyidan ham O‘zbekistonda hunarmandchilik rivojlangan tumanlar, yoki milliy folklor guruhlari, zardo‘zlik yoki milliy o‘yinlarning geografik manzillari aniqlash davom ettirilmoqda. Milliy nomoddiy madaniy meros resurslari va obyektlarining geografiyasi asosan so‘rov, savdo-tijoratdagi axborotlar, amalga oshirilgan ekspeditsiyalar asosida tuzildi (2-jadval).

[25]. Samarov X.Q. Milliy madaniy meros turizmi, Toshkent, 2022.-188 b.

2-jadval

Milliy madaniy meros boyliklarining geografiyasi[26]

T\R	Madaniy meros boyliklari va qadriyatlarining guruhlari	Madaniy meros boyliklari va qadriyatlarining guruhidagi obyektlarning manzillari
I.	Madaniy merosning milliy madaniyatdagi resurslari	O‘zbekiston Respublikasining barcha viloyatlari, shaharlari, tumanlari, qishloqlari
II.	Madaniy merosning milliy etnik hayotdagi resurslari	1.O‘zbekiston va dunyo mamlakatlari doirasida 2.O‘zbekiston Respublikasi va qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlari
III.	Madaniy merosning milliy san’atdagi resurslari	O‘zbekiston Respublikasining barcha viloyatlarida, tumanlarida va qishloqlarida
3.1.	*Milliy qo‘shiqchilik san’ati yo‘nalishlari:* 3.1.1. Xorazm yo‘nalishi 3.1.2. Buxoro yo‘nalishi 3.1.3. Farg‘ona yo‘nalishi 3.1.4. Toshkent yo‘nalishi 3.1.5. Qoraqalpoq yo‘nalishi 3.1.6. Samarqand yo‘nalishi 3.1.7. Katta qo‘shiq 3.1.8. Maqom yo‘nalishi 3.1.9.Baxshilar san’ati	 Xorazm viloyati Buxoro viloyati Farg‘ona vodiysi Toshkent viloyati Qoraqalpog‘iston respublikasi Zarafshon vodiysi Farg‘ona fodiysi Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Samarqand va Xorazm viloyatlari
3.2.	*Baxshilar qo‘shiqchiligi san’ati yo‘nalishlari:* 3.2.1. Qashqadaryo-Surxondaryo yo‘nalishi 3.2.2. Zarafshon - Nurota yo‘nalishi 3.2.3. Xorazm yo‘nalishi 3.2.4.Qoraqalpoq yo‘nalishi	 Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari Samarqand va Navoiy viloyatlari Xorazm viloyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi
3.3.	*Milliy folklor san’ati yo‘nalishlari:*	

[26] Hayitboyev R. O‘zbekistonning cho‘llarida turizmni rivojlantirish istiqbollari, MChD “Navro‘z poligraf”, Samarqand, 2021.-175 b.

	3.3.1.”Lazgi” folklori 3.3.2. «Boysun» folklori 3.3.3. «Ayqulash « folklori	Xorazm viloyati Surxondaryo viloyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi
3.4.	*Milliy raqs san’ati yo‘nalishlari:* 3.4.1. Xorazm yo‘nalishi 3.4.2. Qoraqalpoq yo‘nalishi 3.4.3. Buxoro yo‘nalishi 3.4.4. Farg‘ona yo‘nalishi	Xorazm viloyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Buxoro va Samarqand viloyatlari Farg‘ona vodiysi,Toshkent viloyati,
3.5.	*Milliy askiya va milliy aytishuv san’ati:* 3.5.1. Milliy askiyalar 3.5.2. Milliy aytishuvlar	Farg‘ona vodiysi Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi
3.6.	*Milliy rassomchilik va haykaltaroshlik san’ati:* 3.6.1. Milliy rassomchilik 3.6.2. Milliy hakaltaroshlik	Samarqand, Buxoro, Toshkent va Xiva shaharlari Samarqand va Toshkent shaharlari
3.7.	*Qadimiy, milliy tarixiy tasvirlar san’ati:* 3.7.1. Qoyatoshlardagi qadimiy rasmlar 3.7.2. Tarixiy muzeylar	Navoiy,Surxondaryo va Jizzax viloyatlari O‘zbekistonning barcha viloyatlarida
IV	**Milliy madaniy meros turizmining milliy hunarmandchilikdagi resurslari**	
	Milliy hunarmandchilik san’ati: 4.1.1. Milliy duradgorlik maktablari 4.1.2. Milliy kulolchilik maktablari 4.1.3. Oddiy kashtachilik maktablari 4.1.4. Milliy zardo‘zi kashtachiligi maktablari *Milliy liboslar san’ati:* 4.2.1. Milliy bosh kiyimlari 4.2.2. Milliy to‘n (chopon) kiyimlari	Xorazm, Urgut, Samarqand, Farg‘ona va Buxoro yo‘nalishlari Buxoro, Samarqand, Xorazm, Surxondaryo, Farg‘ona yo‘nalishlari Buxoro, Samarqand, Jizzax, Cho‘l xalqlari yo‘nalishlari Buxoro, Samarqand, Urgut, Farg‘ona yo‘nalishlari Farg‘ona, Xorazm,Namangan viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

	4.2.3. Milliy atlas va milliy beqasam kiyimlari 4.2.4. Baxmal buyumlar 4.2.5. Mahsido‘zlik va poyafzallar *Milliy ustachilik san’ati:* 4.3.1. Temirchilik, qadimiy asboblar 4.3.2. Misgarlik 4.3.3.Musiqasozlik 4.3.4. Beshiksozlik 4.3.5. Aravasozlik 4.3.6. Sandiqsozlik 4.3.7. Egarsozlik 4.3.8. Mahsido‘zlik va poyafzallar 4.3.9. Gilamchilik va palos to‘qish 4.3.10. Ganchkorlik	Jizzax, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari, Farg‘ona vodiysi Marg‘ilon shahari Samarqand shahari Farg‘ona vodiysi, Namangan shahari, O‘zbekistonning barcha viloyatlari O‘zbekistonning tarixiy shaharlari, tumanlari va qishloqlari Samarkand, Buxoro,Farg‘ona vodiysi, Xiva, Toshkent shaharlari Samarkand, Xiva, Toshkent, Buxoro shaharlari,Farg‘ona vodiysi Samarkand, Buxoro, Toshkent shaharlari, Urgut tumani, Farg‘ona vodiysi Qo‘qon shahri, qishloqlar Urgut tumani, Samarkand, Buxoro, Toshkent, Xiva shaharlari, Farg‘ona vodiysi Baxmal Tumani, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari Namangan shahari, O‘zbekistonning barcha viloyatlari G’allaorol, Baxmal, Nurota tumanlari Xorazm, Jizzax, Samarqand viloyatlari, Cho‘l xalqi.Barcha viloyatlarimizda
V	**Milliy merosning milliy o‘yinlardagi resurslari**	
5.1.	*Milliy uyinlar:* 5.1.1. Ko‘pkari- uloq 5.1.2. Milliy kurash	O‘zbekistonning barcha viloyatlari, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo

	5.1.3. Darbozlik 5.1.4. Qo‘chqorlar jangi 5.1.5. Parrandalar jangi	Farg‘ona vodiysi, Toshkent viloyati, Farg‘ona vodiysi, Xorazm, Buxoro viloyatlari, Qoraqalpog‘iston, Samarkand, Buxoro shaharlari, Farg‘ona vodiysi

Milliy madaniy meros boyliklarining geografiyasini o‘rganishdan quyidagi xulosalar kelib chiqdi:

1.O‘zbekistonning milliy turizmida yangidan tashkil qilinadigan va rivojlantiriladigan milliy madaniy meros turizmidagi resurslar Respublikamizning barcha viloyatlarida, shaharlarida, tumanlar va qishloqlarida bor. 2-jadvaldagi malumotlar dastlabki kuzatuvlar natijasi bo‘lib, bu kabi resurslar va obyektlarning biz bilmagan manzillari ham juda ko‘plab tumanlar, shaharlar va qishloqlarda faoliyat ko‘rsatib kelayotganligini anglash, tushunish qiyin emas.

2.Respublikamizda milliy madaniy meros turizmidagi resurslarning barcha yo‘nalishlari va obyektlari shaharlarimizda va tumanlarda joylashgan. Ayniqsa, Buxoro, Samarkand, Toshkent, Xiva shaharlarida boshqa xalqlarda, mamlakatlarda uchramaydigan mo‘jizaviy, insonni hayratga soladigan, sovg‘abop va umumiy foydalanishga juda zarur bo‘lgan osori-atiqa buyumlar, qadimiy asbob-uskunalar ishlab chiqarilmoqdaki, ichki va xalqaro milliy madaniy meros turizmida bunday imkoniyatlardan hanuzgacha foydalanilmay kelinayotganligini e’tiborimizga olishimiz lozim.

3.Milliy madaniy meros turizmining Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva va Shaxrisabz shaharlaridagi resurslari va obyektlaridan turizmda majmuali foydalanishning tashkiliy jihatlari tezkor usullarda ishlab chiqilishi kerak. Chunki, O‘zbekistonga kelayotgan xalqaro turistik oqim asosan shu shaharla rimizda qayd qilinmoqda. Bu xalqaro turistlar asosan tarixiy va madaniy obidalarga va ziyoratgoh joylarga tashrif qilmoqdalar. Ana shu turistlarni ushbu shaharlardagi milliy madaniy meros turizmi resurslariga, obyektlariga va turlariga takliflar qilish, qiziqtirish usullarini qo‘llash vaqti keldi.

Bunday maqsadlarni, rejalarni amalga oshirish uchun shaharlardagi milliy madaniy meros turizmini resurslarining, obyektlarining jahon andozalari bo‘yicha shakllantirilgan, sifatli naqshlangan buklov reklamalarini o‘zbek-rus, arab, Evropa va ingliz tillarida axborot va tushuntirishlar bilan mehmonxonalar, turistik firmalarga tarqatish va bu buklovlarni xorij davlatlardan kelgan turistlar bepul yoki sovg‘a sifatida olishlarini taminlash amalda kutilgan usullardan bo‘lishi shubhasizdir.

4.Milliy madaniy meros turizmining ko‘plab resurslari, obyektlari, hunarmandchilik, ustachilik markazlari shaharlarda joylashganligi uchun shahardagi talabalar, kollej va akademik litseylar o‘quvchilarini shuningdek, atrof tumanlardagi maktablar o‘quvchilarini imtiyozli asosda ekskursiya usulida bu hunarmandchilik va ustachilik markazlarini ko‘rishlarini taminlash ichki milliy madaniy meros turizmning rivojiga ijobiy tasir ko‘rsatishini yaxshi anglashimiz kerak.

5.Milliy madaniy meros turizmidagi milliy o‘yinlarimizni turistik firmalar yoki turistik tashkilotlar tashkil qilishiga aslo hojat yo‘q. Bu o‘yinlarni xalqimiz o‘z mavsumlarida doimo tashkil qilmoqdalar. Turizm sohasidagi mutaxassislarning vazifasi turistlarni bu milliy o‘yinlarga taklif qilish hisoblanadi. Taklifgacha esa o‘yinlarga yetib borish marshrutlari aniqlangan va turistlarga ko‘rsatiladigan barcha xizmatlar ko‘rsatish majmualari, sharoitlari yaratilishi lozim.

6.O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishda milliy madaniy meros turizmining 5 ta asosiy resurslari guruhidan foydalanish maqsadli bo‘ladi. Istiqbolda bu yo‘nalishlar milliy madaniy meros turizmidan alohida-alohida turizm turlari bo‘lib, ajralib chiqishi, shakllanishining katta imkoniyatlari ham mavjud. Turizmda turlarning ko‘payishi turizmni rivojlantirayotgan davlatning turizmdagi xalqaro o‘rnini bildiradi.

7.Turizm rivojlangan davlatlarning tajribalarini ko‘rib chiqsak, AQSh da turizmning 100 turi, Rossiyada turizmning 25 turi rivojlantirilmoqda.

4.2.O‘zbekistonda milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlarining joylashishi xususiyatlaridan turizmda foydalanish

O‘zbekistonda madaniy meros boyliklarining joylashishi xususiyatlaridan milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishda har viloyatimizda ommaviylashgan, shu viloyatga xos, ba’zida faqat shu viloyatda tashkil qilinadigan madaniy meros yo‘nalishlarini hisobga olish kerak. Masalan, milliy kurash Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm viloyatlaridagi xalq sayillari, bayramlari, to‘ylarida milliy kurash katta qiziqishlar bilan tashkil qilinadi. Xuddi shunday marosimlarda askiya davralari faqat Farg‘ona vodiysining xalqlarida saqlanib qoldi.


Qadimiy musiqa ovozlaridan biri bo‘lgan-baxshichilik milliy qo‘shiqchiligi Surxondaryo, Qashqadaryo, Qoraqalpog‘iston Respublikasida davom ettirilmoqda. Qo‘chqorlar jangi, parrandalar jangi Navoiy, Buxoro, Xorazm viloyatlaridagi barcha to‘ylarda tashkil qilinadi. Milliy folklor san’ati bo‘yicha Surxondaryoliklar va Qoraqalpog‘iston Respublikasi oldingi o‘rinlarda. Ko‘pkari-uloq milliy o‘yini barcha viloyatlarda kech kuzdan to fevralning oxirigacha tashkil qilinadi.

O‘zbekistonning viloyatlaridagi “Turizm qo‘mitasi” xalqimizning madaniy merosi boyliklari va qadriyatlaridan foydalanib, viloyatda milliy meros turizmini rivojlantirishda xalqaro turistlarni qiziqtirishi, jalb qilishni o‘zlarining faoliyatidagi birinchi rejalari qatoriga kiritishlari maqsadli bo‘ladi. Bu holatda xalqaro turistlarni viloyatning shaharlarida va tumanlarida yana 2-3 kun ushlab qolish mumkin.

Chunki, milliy to‘ylarimiz, an’analarimiz ayniqsa, milliy o‘yinlarimizni tomosha qilgan xalqaro turistlar albatda shaharlarimiz va qishloqlarimizning hayotiga qiziqishadi, ularning milliy taomlarimizga, qishloq turizmining resurslariga, qishloq fermerlarining hayotiga qiziqib qolishligini turoperatorlar tashkil

qilishlari lozim. Yevropa davlatlaridagi turoperatorlar, gid-ekskursiyachilar shu usullarda ishlashadi.

Milliy urf-odatlarimiz, an’analarimiz, milliy marosimlarni o‘tkazishda ham viloyatlarda yashovchi xalqlar o‘rtasida farqlar bor. Halqimizning nomoddiy madaniy merosi boyliklaridan foydalanib, milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishda nomoddiy madaniy meros boyliklarining joylashishi xususiyatlarini e’tiborga olish zarur.



2-rasm. Xalqimizning milliy merosidaga milliy madaniyat, milliy san’at va milliy o‘yinlaridan turizmda foydalanishda tashkil qilinadigan “Axborot markazi”ning tuzilmasi

Buning uchun albatta, O‘zbekistonning barcha viloyatlarida milliy madaniy meros boyliklaridagi, qadriyatlaridagi urf-odatlar, milliy an’analar, milliy to‘ylar va turli milliy marosimlar, milliy san’at yo‘nalishlari, milliy o‘yinlar va bu milliy o‘yinlarning tashkil qilinishi, o‘tkazilishi vaqtlari, makonlari, bu milliy jarayonlarga qatnashishning

imkoniyatlari, masofa, xayot xavfsizligi xizmatlari, xizmatlar ko‘rsatish infratuzilmalari bo‘yicha axborot markazlarini tashkil qilish maqsadli bo‘ladi (2-rasm). Axborot markazlarining birinchi navbatdagi vazifasi viloyatlarimizdagi aholining milliy madaniy merosi va qadriyatlarining tavsiflarini va tasniflarini, reklamalrini, marshrutlarini yaratish va turizm firmalariga tavsiya qilish hisoblanadi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1.Xalqimizning milliy madaniy merosi boyliklarining viloyatlar bo‘ylab joylashishida qanday xususiyatlar bor?

2.Milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishimizning maqsadi va vazifalarini tushuntiring?

3.Xalqimizda saqlanib kelayotgan hunarmandchilik yo‘nalishlarini tushuntiring?

4.Milliy madaniyat merosi boyliklaridan turizmda foydalanishning yo‘llari qanday?

5.Madaniy merosdaga milliy madaniyat, milliy san’at va milliy o‘yinlaridan turizmda foydalanish “Axborot markazi”ning tuzilmasining ishlash tartibini tushuntiring.

V. BOB. TURIZMDA UNESKONING MODDIY VA NOMODDIY MADANIY MEROS RO‘YXATIGA O‘ZBEKISTONDAN KIRITILGAN MILLIY MEROS OBYEKTLARIDAN FOYDALANISH

Tayanch so‘zlar: UNESKO ro‘yxati, umumjahon ro‘yxati, dastlabki ro‘yxat, inventar, umumjahon merosi, reprezentativ.

5.1.Turizmda UNESKOning moddiy madaniy merosi ro‘yxatiga O‘zbekistondan kiritilgan obyektlar

Eskpert minbari. UNESKOning moddiy va nomoddiy madaniy meros ro‘yxati. O‘zbekistondan qancha obyekt bu ro‘yxatga kiradi.UNESKO-Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti. Ushbu tashkilot davlatlar o‘rtasida maorif, fan, madaniyat va kommunikatsiya sohasida hamkorlikni rivojlantirish yo‘li bilan tinchlikka va xalqaro xavfsizlikka ko‘maklashish maqsadida 1946-yilda tuzilgan. Unga 188 mamlakat, shu jumladan, O‘zbekiston 1993-yil 26-oktyabrdan a’zo. Tashkilotning yana bir muhim faoliyati jahon moddiy va nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilishdan iborat. Buning uchun tashkilot o‘ziga xos maxsus ro‘yxatlar shakllantirib boradi.

Moddiy va nomoddiy madaniy meros ro‘yxati o‘zi nima va O‘zbekistondagi qaysi obyekt ushbu ro‘yxatga kiritilgan? “Ekspert minbari” ruknining navbatdagi mehmoni O‘zR FA Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti Akbar Idiyev shu kabi savollarga javob beradi.

Moddiy va nomoddiy madaniy merosi ro‘yxati UNESKO tashkiloti tomonidan yuritiladi. UNESKO - BMTning ta’lim, fan va madaniyat ishlari bo‘yicha muassasasi. U tashkilotning ixtisoslashgan agentligi bo‘lib, ta’lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar, madaniyat, kommunikatsiya va axborot sohalaridagi dasturlar orqali tinchlik mustahkamlash, qashshoqlikni kamaytirish, barqaror rivojlanish va

madaniyatlararo muloqotni kuchaytirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Tashkilot 193 a’zo davlatdan va 11 assotsiatsiyalashgan a’zodan tashkil topgan. Qarorgohi Parij (Fransiya)da joylashgan. O‘zbekiston 1993-yilda UNESKOga a’zo bo‘ldi, 1996-yilda esa Toshkentda UNESKOning vakolatxonasi ochildi.

2021-yil holatiga ko‘ra, Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi UNESKO konvensiyasiga a’zo 167 ta davlatda 1154 ta obyekt mavjud bo‘lib, ulardan 897 tasi madaniy, 218 tasi tabiiy va 39 tasi aralash obyektlardir. Har bir obyektning o‘z identifikatsiya raqami mavjud. O‘zbekiston nomidan kiritilgan obyektlardan 4 tasi madaniy (Buxoro shahri tarixiy markazi, Samarqand-madaniyatlar chorrahasi,Ichan qal’a majmuasi, Shahrisabz shahri tarixiy markazi) va 1 ta obyekt (G’arbiy Tyan-Shan) tabiiy toifadagi obyektlar sanaladi.

Yuqorida sanalgan obyektlardan Shahrisabz tarixiy markazi 52 ta obyekt kabi xavf ostidagi obyektlar qatoridan joy olgan. Bugungi kunda O‘zbekiston tomonidan ushbu holatni bartaraf etish uchun shahar tarixiy markazini ICOMOS ekspertlari tavsiyalari asosida regeneratsiya qilish ishlari boshlangan. Shuningdek, Umumjahon merosi tushunchasi bilan bir qatorda UNESKOning *“dastlabki ro‘yxati”* tushunchasi ham mavjud.

“Umumjahon merosi konvensiyasini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”ning 62-moddasida quyidagilar belgilab qo‘yilgan:

“Dastlabki ro‘yxat”-bu Konvensiyaga a’zo davlatlar hududidagi, ular uchun yaroqli deb hisoblagan obyektlarning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilish “inventar” ro‘yxati. Shu sababli Konvensiyaga a’zo davlatlar o‘zlarining taxminiy ro‘yxatiga beqiyos global ahamiyatga ega bo‘lgan madaniy va tabiiy meros hisoblangan va davlat kelgusi yillarda umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritish uchun nomzod qilib ko‘rsatmoqchi bo‘lgan mulklar nomlarini kiritishlari kerak.

Zamonaviy taxminiy ro‘yxatga dunyoning 179 ta davlatidagi 1727 ta obyekt kiritilgan. Bir qator mamlakatlarda esa ularning soni 50 tagacha yetadi. Ya’ni global ahamiyatga ega obyektlarni aniqlash hech

qachon tugamaydi va Butunjahon merosi ro‘yxati muqarrar ravishda oshadi. Dastlabki ro‘yxat va Umumjahon merosi ro‘yxatiga obyektlarni kiritish 2003 yilda chiqqan Konvensiyani qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomaning 63-moddasida belgilangan. Unga ko‘ra a’zo davlat yilda bir (ko‘pi bilan ikki) nomzodni ro‘yxatga kiritish uchun kamida 1 fevralga qadar o‘z arizasini yuborishi lozim.

O‘zbekistondan ham juda ko‘p obyektlar mazkur ro‘yxat tarkibiga kiritilgan. Ularning umumiy soni bugungi kunda 33 tani (shundan 4 tasi tabiiy, qolgan obyektlar madaniy toifaga mansub) tashkil etadi. Ular quyidagilar:

1. Abdullaxon Bandi (18.01.2008);
2. Axsikent (18.01.2008);
3. Oq Ostonabobo (maqbarasi) (06.01.1996);
4. Qadimgi Pop (18.01.2008);
5. Qadimgi Termiz (18.01.2008);
6. Andijon (18.01.2008);
7. Arab-Ota maqbarasi (18.01.2008);
8. Bahouddin Naqshband kompleksi (18.01.2008);
9. Boysun (18.01.2008);
10. Chashmai-Ayub (18.01.2008);
11. Chor-Bakr (18.01.2008);
12. Turonning qishki sovuq cho‘llari (29.01.2021);
13. Shayx Muxtor Valiy majmuasi (maqbara) (01.06.1996);
14. Qadimgi Xorazmning cho‘l qal’alari (18.01.2008);
15. Hisor tog‘lari (18.01.2008);
16. 16.Pilla tarixiy markazi (18.01.2008);
17. Kanka (18.01.2008);
18. Xonbandi (to‘g‘on) (06.01.1996);
19. Hazorasp (18.01.2008);
20. Vobkentdagi minora (18.01.2008);
21. Mir-Said Bahrom maqbarasi (18.01.2008);
22. Poykent (18.01.2008);
23. Karvonsaroy Raboti Malik (18.01.2008);
24. Sarmishsoy (18.01.2008);

25. Shohruhiya (18.01.2008);
26. Shohimardon (18.01.2008);
27. Siypantoshning qoyatosh rasmlari (18.01.2008)
28. Varaxsha (18.01.2008);
29. Zomin tog‘lari (18.01.2008);
30. Zarautsoy qoyatosh rasmlari (18.01.2008);
31. O‘zbekistondagi Ipak yo‘lining diqqatga sazovor joylari (2010 yil 19 fevral);
32. Ipak yo‘li: Zarafshon-Qoraqum yo‘lagi (18.01.2021);
33. Toshkent mahallalari (30.12.2021).

Bugungi kunda O‘zbekiston tomonidan UNESKO umumjahon merosi ro‘yxatiga mahalliy obyektlarni kiritish ustuvor vazifa sifatida “Harakatlar strategiyasi” va “Taraqqiyot strategiya”larida belgilangan. O‘zbekistonning bu maqsadlarning 2030-yilga qadar belgilagan rejasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi 119-sonli qarori 5-ilovasida keltirilgan. Shundan 20 ta obyekt umumjahon meros ro‘yxatiga, insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxatiga 5 ta va jahon xotirasi dasturining xalqaro ro‘yxatiga 5 ta element kiritilishi rejalashtirilgan.

Moddiy madaniy meros. UNESKOning madaniyat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlari-madaniy moddiy va nomoddiy merosni asrash va kelajak avlodlarga yetkazish, madaniy turfaxillikni targ‘ib etish va tinchlik madaniyatini insonlar ongiga singdirish maqsadida madaniyatlararo muloqotni rag‘batlantirish. Dunyo miqyosida umumbashariy qadriyat deb topilgan madaniy va tabiiy merosni aniqlash, muhofaza qilish va saqlash UNESKOning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur yo‘nalish UNESKO tomonidan 1972-yilda qabul qilingan umumjahon madaniy va tabiiy meroslarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiyada o‘z aksini topgan. Konvensiyaga a’zo-davlatlar o‘zlarining milliy hududlarida mavjud bo‘lgan tarixiy meroslar nomzodini butunjahon meroslar ro‘yxatiga kiritish uchun tavsiya etishlari mumkin. Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritiladigan obyektlarning qo‘yidagi xususiyatlari hisobga olinadi:

- inson ijodining noyob namunalari;
- ajoyib madaniy, arxitektura obyektlari, hamda madaniy landshaftlarining alohida ahamiyatga ega hududlari;
- zamonaviy taraqqiyotning noyob namunalari, qurilishlari;
- inson tarixi bilan bog‘liq binolar yoki arxitektura ansambllari, landshaftlari;

O‘zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro konvensiyaga 1993-yilda qo‘shilgan. Mazkur konvensiya doirasidagi Butunjahon meroslar ro‘yxatiga quyidagi madaniy meros obidalari kiritilgan:

- Ichan qala (1990-yil);
- Buxoro shahrining tarixiy markazi (1993-yil);
- Shahrisabz shahrining tarixiy markazi (2000-yil);
- Samarqand - madaniyatlar chorrahasi (2001-yil).

5.2. Turizmda UNESKOning nomodddiy madaniy merosi ro‘yxatiga O‘zbekistondan kiritilgan obyektlar

UNESKOning nomoddiy madaniy meros ro‘yxatlari va reyestri hamda uning yuritilishi. Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish bo‘yicha UNESKO 2003-yilgi Konvensiyasi nomoddiy madaniy merosni namoyon etadigan beshta keng sohani ko‘zda tutadi: og‘zaki an’analar va ifoda shakllari, shu jumladan, nomoddiy madaniy meros ifodalovchisi sifatida til, ijrochilik san’ati, urf-odatlar, marosimlar, festivallar, tabiat va koinot bilan bog‘liq bilim va urf-odatlar va an’anaviy hunarmandchilik.

Bundan tashqari, ushbu konvensiya jamoalar va amaliyotchilarni ularning zamonaviy madaniy amaliyotlarda qo‘llab-quvvatlash vositasidir. Nomoddiy madaniy meros merosning “tirik” shakli bo‘lgani uchun uni himoya qilish choralari boshqa obyektlar qatori, uning doimiy yangilanib, kelajak avlodlarga yetkazishni ta’minlashga qaratilgan. O‘zbekiston 2008-yilda ushbu Konvensiya ishtirokchisiga aylandi.

UNESKOning nomoddiy madaniy meros ro‘yxatlari ikki turga bo‘linadi:

Shoshilinch muhofaza qilish ro‘yxati (to‘liq: Shoshilinch himoyaga muhtoj nomoddiy madaniy meros obyektlari ro‘yxati).

Shoshilinch muhofaza qilinadigan ro‘yxat Konvensiyaning 17-moddasida belgilangan. Ushbu ro‘yxatga kiritish uchun oltita mezon operatsion yo‘riqnomada keltirilgan asosda ko‘rib chiqiladi. Mazkur ro‘yxatga qo‘shilish elementning hayotiyligi xavf ostida ekanligidan dalolat beradi va tegishli hamjamiyatlarga uni amalda qo‘llash va uzatish imkonini beruvchi himoya choralari ishlab chiqiladi, zarur hollarda NMM fondi tomonidan donorlik yordami ko‘rsatiladi (100.000 AQSh dollari miqdorigacha).

Reprezentativ ro‘yxat (to‘liq: Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxati). Bu ro‘yxatdagi elementlarning ShMQRdagi elementlardan asosiy farqi ular yo‘qolish arafasida emasligidadir.Umumiy qoida shundan iboratki, Konvensiya ro‘yxatiga nomzodlar tegishli ishtirokchi-davlatlar tomonidan taqdim etiladi. Ular manfaatdor jamoalarning to‘liq ishtirokida tayyorlanishi va ularning roziligi bilan taqdim etilishi kerak. Ro‘yxatlarga kiritish uchun faqat NMMning ushbu elementlari taqdim etilishi mumkin, ya’ni urf-odatlar, vakillik va ifoda shakllari, Konvensiyada ko‘rsatilgan NMM ta’rifiga javob beradigan bilim va ko‘nikmalar. Nomzodlar Konvensiyaning istalgan ro‘yxatiga kiritilishi mumkin. Shu bilan birga, NMM elementi faqat ro‘yxatlardan biriga kiritilishi mumkin.

Konvensiya kotibiyati NMM veb-saytida ro‘yxatlarga kiritilgan barcha elementlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtiradi. Har bir band bo‘yicha ma’lumotlarga qisqacha tavsif, to‘liq ariza shakli, hamjamiyatning yozma roziligi, buyumga tegishli hujjatlar ro‘yxati, fotosuratlar va videokliplar kiradi.

O‘zbekistonning quyidagi NMM elementlari Insoniyat nomoddiy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan:

- *“Shashmaqom” (2008);*
- *“Boysun tumanining madaniy makoni” (2008);*
- *“Katta Ashula” (2009);*
- *“Askiya” (2014);*

- *“Palov madaniyati va an’analari” (2016);*
- *“Navro‘z” (2016);*
- *“Marg‘ilon hunarmandchilikni rivojlantirish, atlas va adras matolarini tayyorlash texnologiyasini saqlash markazi” (2017);*
- *Xorazm “Lazgi” raqsi (2019);*
- *Ozarbayjon, Eron, Turkiya va O‘zbekiston tomonidan birgalikda tayyorlagan “Miniatyura san’ati” (2020);*
- *“Baxshichilik” san’ati (2021);*
- *Ipakchilik va tikuvchilikda ipak ishlab chiqarish an’analari (2022);*
- *Xo‘ja Nasriddin haqida an’anaviy hikoyalar va latifalar (2022);*
- *Illyuminatsiya san’ati:tazxib, kalligrafik yozuvlar, tasvirlarni oltin suvi bilan yozish (Markaziy Osiyo davlatlari (2023);*
- *Iftor va uning ijtimoiy va madaniy an’analari (2023);*
- *O‘zbekistonda keramika san’ati (2023).*

Umid qilamiz, kelgusi yillarda o‘z navbatini kutayotgan moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari UNESKOning doimiy ro‘yxatidan joy oladi. Bu esa ushbu boyliklarning kelgusi avlodlarga yetib borishida o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Butunjahon meroslar ro‘yxatiga kiritilgan madaniy meros obidalarimizning qisqacha tavsifi.

Xiva. Dunyoning qadimiy shaharlaridan biri, xalqaro sayyohlik markazlardan biri sanalgan Xiva bejiz ochiq osmon ostidagi muzey sifatida e’tirof etilmagan. Shahar xududida miloddan avvalgi VI-V asrlardan XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrlarga taalluqli 122 dan ortiq arxeologik yodgorliklar va me’moriy obidalar saqlanib qolgan va ular Davlat muhofazasiga olingan. Ayniqsa Xiva shahrining Ichan-Qal’a qismi Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan birdan bir butun boshli shahar-yodgorlik bo‘lib, uning o‘tmishidagi taqdiri, me’moriy obidalari dunyoning eng qadimgi madaniy voha-Xorazmning tarixiy, madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘likdir.

Betakror Xiva shahri sharq xalqlarini qadimiy madaniyati beshigi bo‘lgan Xorazmning ko‘p asrlik me’moriy qurilish

an’analarini meros qilib olgan Xorazm me’morlari san’ati va mehnatining ijodiy yakunidir. Xiva shahri 1990-yil 12-dekabrda UNESKOning Kanadada bo‘lib o‘tgan 14 -sessiyasining maxsus qarori bilan Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib “Butun jahon merosi” sifatida ro‘yhatga olingan. 1997-yilda mamlakatimizning ikki azim va buyuk shahri Buxoro va Xivaning 2500 yillik yubileylari UNESKO rahnomaligida dunyo miqyosida keng nishonlanishi bu shaharlarning butun dunyoda e’tirof etilganidan dalolat beradi.

O‘zbekistonning eng ko‘hna muzeylaridan biri bulgan Xiva “Ichan-Qal’a” tarixiy me’moriy Davlat muzey-qo‘riqxonasi 26 ga maydonda joylashgan bo‘lib, “Ichan-Qal’a”ning ko‘hna devorlari bilan o‘ralgan. Muzey-qo‘riqxona hududida 54 ta mangulikka daxldor tarixiy me’moriy obidalar, 360 xonadonda 2600 nafar aholi istiqomat qiladi.

Xiva Ichan-Qal’a tarixiy me’moriy Davlat muzey qo‘riqxona ekspozitsiyalari Ichan-Qal’a hududidagi tarixiy me’moriy obidalar da joylashgan. 1920-yil 27-aprelda Xiva Davlat muzey sifatida tashkil topgan. Bu dargoh 1924-yildan 1967-yilgacha Xorazm inqilobi tarixi muzeyi, 1967-yildan Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib Xiva haqiqiy tarixiy me’moriy muzey-qo‘riqxona sifatida faoliyat ko‘rsata boshlagan. Muzey-qo‘riqxonaning 69 ta zalida joylashgan 14 ta mustaqil ekspozitsiya Xorazm va Xiva tarixining ma’lum bir davrlarini aks ettirib, uning jahon madaniyatiga qo‘shgan xissasini ochib beradi.

Xiva shaharining asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

1. Ichan-Qal’a, Saidboy masjidi va madrasasi (XVIII asr boshi)
2. Polvon Darvoza atroflari,
3. Olloqulixon madrasasi (1834 y.)
4. Qutlug‘murod-inoq; madrasasi (1804 y.)
5. Olloqulixon Timi va Karvonsaroyi (XIX asr)
6. Abdullaxon madrasasi (1865 y.)
7. Anushaxon masjidi va harami (1657 y.)
8. Toshxovli (Olloqulixonning saroyi) (1830 y.)
9. Oqmasjid (1832 y.),
10. Juma masjidi va minorasi (1788 y.)

11. Said Olovuddin maqbarasi (XIV asr)
12. Muhadmmad Aminxon madrasasi (1851 y.)
13. Muhammad Aminxon madrasasi (1871 y.)
14. Kaltaminor (1855 y.)
15. Ko‘hna Ark (1868 y.)
16. To‘ramurod minorasi (1888 y.)
17. Sherniyozxon madrasasi (1718 y.)
18. Borlandi masjidi (XIX asr)
19. Arabxona madrasasi (1838 y.).
20. Mahlavon Mahmud maqbarasi
21. Jaloliddin Manguberdi yodgorligi majmuasi
22. Najmiddin Kubro yodgorligi majmuasi

Buxoro. Buxoro atamasi sanskritcha “Vaxara” so‘zining turkiy-mo‘g‘ulcha shakli-“Buxoro”(“ibodatxona”)dan kelib chiqgan deb taxmin qilingan. Keyingi tadqiqotlarda bu atama Sug‘diycha “bug‘” yoki “bag‘” (tangri) hamda “oro” (jamol) so‘zlaridan iborat bo‘lib “tangri jamoli” degan ma’noni anglatadi degan farazlar ham mavjud.

Buxoroning islomga qadar bo‘lgan siyosiy tarixi xususidagi ma’lumotlar milodiy VII-VIII asrlar bilan chegaralanadi. 1753-yildan Buxoro amirligi deyilgan. 1920-yil sentyabrda sho‘rolar tomonidan bosib olingan. Buxoroning Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashganligi ilk davrlardan boshlab bu yerda hunarmandchilik tarmoqlari-kulolchilik,temirchilik,misgarlik, zardo‘zlik, zargarlik va boshqalar, shuningdek, savdo-sotiq rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

XVI asrdan Buxoro savdo-sotiq rivojlangan shahar sifatida butun Evropada mashhur bo‘lgan. Bu shaharda turli davlatlarning elchixonalari ochilgan. Jahon fani va madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G’ijduvoniy, Bahoviddin Naqshband, Rudakiy, Daqiqiy kabi shoirlar, Ahmad Donish Sadriddin Ayniy, Fitrat kabi yozuvchilar, jamoat arboblari Buxoroda tug‘ilib shu yerda ijod qilganlar.

Buxoro-muzey shahardir. Viloyat qo‘riqxona muzeyi hisobida 907 ta tarixiy-me’moriy yodgorliklar mavjud. Bulardan eng muhimlari: O‘rta Osiyo me’morligining noyob namunasi Somoniylar

maqbarasidir (IX-X asrlar). Buxoro shahri qiyofasida Minorai Kalon (XII asr) alohida o‘rin tutadi. Balandligi 50 metr bo‘lgan bu minora O‘rta Osiyoning shunday yodgorliklari ichida eng yuksagidir. Buxoroning eng baland joyida Turondagi ko‘hna yodgorliklardan sanalgan Buxoro hukmdorlarining qarorgohi-Buxoro Arki (miloddan avvalgi I-asr) joylashgan. Hozir Arkda Buxoro davlat me’moriy-badiiy muzey qo‘riqxonasi joy olgan.

XV asrda qurilgan Ulug‘bek madrasasi peshtoqiga-“Bilim olish har bir musulmon va muslimaning burchidir” so‘zlari yozilgan. Masjidi Kalon (12 ming kishilik), Mir Arab madrasasi, Ko‘kaldosh madrasasi (160 ta hujrasi bor), Qo‘shmadrasa, Labihovuz majmuoti, Abdulazizxon madrasasi, Chor Minor, Sitorai Mohi Xosa saroyi eng ko‘rkam me’moriy inshootlardir. XX asr boshida Buxoroda 12 mahalla, 250 dan ziyod madrasa, 390 ta masjid, 150 ta karvonsaroy, 350 ta hovuz bo‘lgan.

Qizil Armiyaning Buxoro amirligini tugatish va uning hududida sho‘rolar hokimiyatini barpo etish maqsadida uyushtirilgan bosqin vaqtida 1020-yil 28-avgust 3-sentyabr shahardagi tarixiy obidalarning 1/5 qismi butunlay vayron etilgan. O‘zbekiston mustaqilligining keyingi yillarida, xususan Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan shaharda katta obodonchilik ishlari olib borildi. Ark devorlari yangilandi. “G‘uriyon” darvozasi qayta tiklandi. Eski shahardagi barcha me’moriy obidalari tiklash, ta’mirlash ishlari olib borildi.

Buxoro shaharining asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

1. Ark (XI asr)
2. Bolo-Hovuz majmuasi (XVIII asr)
3. Ismoil Somoniy maqbarasi (IX asr)
4. Chashmai-Ayub (1380 y.)
5. Abdullaxon madrasasi (1596 y.)
6. Modari-Xon madrasasi (1556 y.)
7. Masjidi Baland (XVI asr boshlari)
8. Gavkushon majmuasi (masjid, minora, madrasa), (XVI asr),
9. Zayniddin Xoji xonaqosi (1555 y.)
10. Poyi-Kalon majmuasi (XII asr)

11. Labi-Xovuz majmuasi (XVIasr)
12. Ko‘kaldosh madrasasi (1568 y.)
13. Nodir Devonbegi xonaqosi (1620 y.)
14. Ulug‘bek madrasasi (1417 y.)
15. Abdulazizxon madrasasi (1652 y.)
16. Boloxovuz masjidi (1712 y.)
17. Sayfiddin Boharziy maqbarasi (XIII asrning ikkinchi yarmi)
18. Bayonkulixon maqbarasi (XIV asrning ikkinchi yarmi)
19. Namozgoh masjidi (XII asr)
20. Fayzobod xonaqosi (1598 y.)
21. Chorminor madrasasi (1807 y.)
22. Sitorayi Mohi-Xosa saroyi (XIX asr oxiri)
23. Chor-Bakr majmuasi (1560 y.).
24. Xoja Abduxoliq G’ijduvoniy yodgorlik majmuasi
25. Bahovuddin Naqshband yodgorlik majmuasi
26. Buxorolik yetti pirlarning yodgorlik majmualari

Samarqand. Samarqand shahri aholisi soni va sanoatlashganligi bilan Toshkent shahridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Samarqand O‘zbekistonning markazida joylashgan. Samarqand 2750 yoshda. Tarixi-hozirgi Samarqand o‘rnida miloddan avval-4 asrdan milodiy 6-asrgacha Sug‘d davlati paytaxti Marokanda shahri bo‘lgan.

Miloddan avvalgi 329-yilda A.Makedonskiy qo‘shini Samarqandni vayron qiladi.

VI asrda Samarqand turk xoqonligi tarkibiga kirgan.

712-yili Qutayba boshchiligidagi arab qo‘shini egallagan.

IX asrning 20-yillarida Samarqand Somoniylar poytaxti.

XI asrdan Samarqand Qoraxoniylar davlati.

XII asrda Samarqand Qoraxitoylar davlati.

1210-yilda Muhammad Xorazmshoh davlati tarkibiga kirgan.

1220-yilda Chingizxon Samarqandni vayron qilib o‘t qo‘ygan va aholisining ko‘p qismini qirib tashlagan.

XIV asr oxiri XV asrda Samarqand Amir Temur poytaxti.

XV asr oxirida Zahiriddin Bobur Samarqandni egallaydi.

1500-1576-yillarda Samarqandda Shayboniylar hukmronlik qiladi.

1758-1768-yillar Samarqand Buxoroga qaraydi.

1868- yili 2-mayda Samarqandni Rossiya qo‘shinlari bosib oladi.

Samarqandning tarixi Amir Temur va temuriylar, Ro‘dakiy, Xo‘ja Ahror, Jomiy, Navoiy, Ulug‘bek nomlari bilan bog‘liq. Shuningdek, Ulug‘bek rasadxonasida tadqiqotlar olib borgan G’iyosiddin Jamshid, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchilar dunyoda ma’lum va mashhur astronomlar hisoblanadi. Ulug‘bek farmoyishi bilan 1428-29-yillarda hozirda Ulug‘bek haykali joylashgan yerda rasadxona qurilgan. U uch qavatdan iborat bo‘lib balandligi 30,4 metr bo‘lgan.

Samarqanddan 20 km masofada Buxoro yo‘lidagi Xartang qishlog‘ida musulmon olamining buyuk muhaddisi Imom-al-Buxoriy hayotining so‘nggi qo‘nim topgan va dafn qilingan manzil mavjud. Bu yerda 1998-yilda O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy majmuasi qurildi. Bugungi kunda bu joy, olam musulmonlarining e’zozli ziyoratgohga aylangan.

Samarqand qadimdan jahonda tanilgan, e’zozlangan shahar bo‘lib kelmoqda. Shuning uchun ham bu shahar qadimiy va hamisha navqiron shahar deb ataladi. Jahon bankining prezidenti Jeyms D. Uolfenson Samarqandga tashrif buyurganida-“Keyingi 40 yil davomida men qariyb butun dunyoni kezib chiqdim, biroq, Samarqanddek shaharni hech joyda ko‘rmadim”, deb o‘z qalb so‘zlarini aytgan edi. Amerikadan kelgan sayyohlarning fikricha, “dunyoda bittagina Parij va bittagina Samarqand mavjud”.

Samarqandga kelish baxtiga sazovor bo‘lgan, orzulari ruyobga chiqqan xorijiy sayyohlar uni “butun dunyoga yuz ochgan shahar”, “Ming bir kechadagi afsona va ertaklar shahri” deya atamokdalar. “Musulmon dunyosining qimmatbaho durdonasi”ga dunyonning turli burchaklaridagi dindorlarning ham qiziqishlari cheksiz.

Bizlar uchun xam, ular uchun Samarqand “Olloh panohi dagi shahar”dir. O‘rta asr manbalarida ham shaharni shunday deb

ataganlar.XII asrning sayyohi Marko Polo Samarqandni “Buyuk va ulug‘vor shahar, juda ko‘p bog‘lari bor” deb tavsiflagan.

Samarqand shaharining asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

1. Afrosiyob (eramizdan oldingi VIII asr);
2. Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi (1428 y.);
3. Shoxi Zinda arxitektura majmuasi;
4. Hazrati Hizr masjidi (XIX asr o‘rtalari);
5. Bibixonim masjidi (1399 y.);
6. Ulug‘bek madrasasi (1417y.);
7. Sherdor madrasasi (1619 y.);
8. Tillakori madrasasi (1647 y.);
9. Chorsu bozori (XVIII asr oxiri);
10. Ruxobod maqbarasi (1380 y.);
11. Oksaroy maqbarasi (1470 y.);
12. Amir Amir maqbarasi (1404 y.);
13. Namozgoh masjidi (XVIII asr);
14. Ishratxona maqbarasi (1464 y.);
15. Xoja Axror majmuasi (XV-XX asrlar);
16. Cho’pon-Ota maqbarasi (1430 y.);
17. Xoja Abdu Darun qabristoni (XV asr).
18. Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi (IX-XX asr)
19. Doniyor payg‘ambar majmuasi
20. Imom al- Moturidiy yodgorlik maqbarasi
21. Islom Karimov yodgorlik majmuasi
22. Islom Karimov yodgorlik haykali

Shahrisabz-Amir Temur shahri, bu yerda hamma narsa u yoki bu tarzda uning nomi bilan bog‘liq. Bu yerda uning otasi Muhammad Tarag‘ay va ma’naviy ustozi Shamsiddin Kulol ko‘milganlar, bu yerda uning katta o‘g‘illari Jahongir Mirzo va Umarshayx Mirzolar go‘ri joylashgan. Ulug‘ Sohibqironning o‘zi ham uning joni shu yerda arshi a’loga uchib ketadi, deb o‘ylagan edi. Hattoki, maqbarani ham tayyorlab qo‘ydi. Lekin taqdir buni boshqacha hal etdi… Ulkan Movarounnahr davlatini yaratgan va uning cheklanmagan hukmroni-

amiri bo‘lgan Temur Samarqandni o‘z poytaxti sifatida tanladi. Lekin o‘zining tug‘ilib o‘sgan kichik vatanini ham hech qachon unutmay, doimo unga g‘amxo‘rlik qildi. Aslida Shahrisabz davlatning ikkinchi poytaxti edi. Temurning avlodi, Boburning yozishicha: “Kesh shahri Temurbekning tug‘ilgan joyi bo‘lgani uchun, u shaharni taxt zaminiga aylantirish uchun ko‘p g‘amxo‘rlik qilgan edi”.

Amirning buyrug‘i bilan bu yerga eng yaxshi me’morlar, quruvchilar, me’morchilik bezaklarining ustalari yuborilgan, mahalliy ustalar bilan birgalikda ular turli mamlakatlarning tajribasi va an’analarini uyg‘unlashtirib, ulug‘vor binolarni barpo etganlar. Ularning ijodi bilimlar, tajriba, an’analar va yaratuvchilik urinishlarining yaxlitlashuvi tufayli ajoyib mevalar berdi, ular XIV asr oxiri-XV asr boshi O‘rta Osiyo me’morchiligning xususiyatlarini belgilab bergan monumental uslubning asoslarini yaratdilar.

Shahrisabz shaharining asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

1. Oqsaroy (1380 y.)
2. Dorus - Saodat majmuasi (XIV asr)
3. Xazrati Imom masjidi (XIV asr)
4. Jahongir maqbarasi (XIV asr)
5. Dor-ut-Tilovat arxitektura majmuasi,
6. Ko‘kgumbaz masjidi (1435 y.)
7. Gumbazi Saidon (XV asr)
8. Shamsiddin Kulol maqbarasi (XV asr)
9. Amir Temur daxmasi yodgorligi (XIV asr)
10. Amir Temur xiyoboni
11. Umarshayx maqbarasi

Sayidlar Gumbazi. Ulug‘bek 1438-yilda Shamsiddin Kulol maqbarasining janubiy devori yonida o‘zining tug‘ishganlari va avlodlari uchun maqbara qurdiradi. XV-XVII asrdagi qabr toshlarida yozuvlar Termiz sayidlarini, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.s.)ning avlodlarini eslatadi. Shuning uchun ham, bu maqbara Sayidlar Gumbazi deb nomlangan.

Oqsaroy saroyi bayramona hukumat binosi-rezidensiyaning namunasi bo‘lishi mumkin. Saroyning qurilishi 1380-yilda boshlangan, lekin 1404 yilda ham unda pardoz ishlari tugatilayotgan edi. Bu ulug‘vor inshootning o‘qsimon gumbazi oralig‘i 22 metrdan ortiq bo‘lib, Temuriylar barpo etgan barcha inshootlar orasida eng antiqadir.

Temur va Temuriylarning davrida shahrlarning ansambllar bilan-majmuiy qurilishi keng tarqalgan. Bu Shahrisabzda ham yaqqol ko‘rinadi, bu yerda Dor-us-Tilovat va Dor-us-Saodat ansambllari ajralib turadi. Dor-us-Tilovatni sobiq mahalliy zodagonlar maqbarasida saqlanib qolgan uchta inshoat tashkil etadi. Bu Shamsiddin Kulol va Gumbazi Sayidon maqbaralari hamda Ko‘k-Gumbaz jome’ masjidi inshoatlaridir.

Shamsiddin Kulol maqbarasi eng birinchi qurilgan. Shayx 1370-yilda vafot etgan bo‘lib, uning go‘ri izzat-ehtirom qilingan edi. Uning yonida Gumbazi Sayidon-Sayidlar gumbazi nomli Ulug‘bek avlodlarining maqbarasi qurilgan. Bu kichik bino o‘zining nafis mutanosibligi va chuqur o‘ymakor naqshlar bilan qoplangan, ajoyib ishlangan kirish eshigi bilan insonni mahliyo qiladi.

Me’morchilik ansamblini mo‘g‘ullargacha bo‘lgan qurilish poydevorida qad ko‘targan Ko‘k-Gumbaz jome’ masjidi tugallaydi. Dorus-Saodat ansambli ham uchta qismidan iborat: Jahongir mirzoning go‘ri, Hazrati Imom masjidi va Temurnig maqbarasi, 1376-yilda sohibqironning sevimli o‘g‘li Jahongir mirzo o‘lganidan keyin Amir Temur shunday qayg‘uga cho‘mdiki, “sohibqironning qalbi hamdardlik uchun 30 yil yopiq edi”. “Adolatli shahzoda, jasur jangchi, yer yuzida atirguldek bir ko‘rinib yo‘qolgan” shahzodaning jasadi ajdodlariing vataniga keltirildi, bu yerda uning uchun maqbara qurildi.

Keyinroq maqbara oilaviy katta maqbara ichiga kiritilgan edi. Xona ohaktosh bilan qoplangan bo‘lib, arkali o‘yma tokchalar bo‘ylab Qur’ondan olingan foniy dunyoning bekorligi va boqiy dunyoning g‘olibligi to‘g‘risidagi oyatlar o‘yib ishlangan. Masjid va Jahongirning maqbarasiga yaqin joyda faqat Temur uchun mo‘ljallangan go‘r saqlanib qolgan maqbara bo‘lgan, lekin uning o‘zi ma’lumki,

Samarqandda dafn etilgan. Lekin Shahrisabz faqatgina buyuk amirning “taxt zamini” bo‘lmagan. Temurning tug‘ilishidan ancha ilgari u o‘z tarixiga ega edi. Avvalo bu jahonnig eng qadimgi shaharlaridan biri. Olimlarning fikricha, Shahrisabz 2700 yoshda, bu esa “Boqiy shahar” Rimning yoshidir. UNESKO qaroriga ko‘ra aynan shu sana 2002-yilda butun dunyoda nishonlangan.

Eramizdan avvalgi III asrda Iskandar Zulqarnayn lashkarlari dam olish uchun Kesh vohasida to‘xtagan. VII asrda shaharni arablar qamal qilgan, bir asr keyin esa Kesh shahri Muqanna rahbarligi ostida arablarga qarshi kuchli qo‘zg‘olonning markazi bo‘ldi. Tinch davrda shahar hech qanday to‘sqinliksiz o‘sib rivojlanar edi, bunga uning gavjum Buyuk Ipak yo‘lidagi nihoyatda qulay joylashuvi sabab bo‘lgan.

O‘rta asrlar shoiri Mahmud ibn Vali shunday yozgan: “Kesh-Movarounnahr shaharlaridan uni jahonning eng go‘zal joylaridan biri, juda yaxshi va yoqimli iqlim bo‘lgan joy deb hisoblashadi. Uning dalalari va bog‘-rog‘lari juda jozibali va zavqli”. Haqiqatan ham, Shahrisabz o‘zining “Yashil shahar” ismiga juda mosdir.

Ko‘k-Gumbaz masjidi. Ko‘k gumbaz masjidini Shoxrux Mirzo otasi Ulug‘bek nomidan qurdiradi. Markaziy gumbazning diametri 48 metrga teng bo‘lib Samarqanddagi Bibixonim masjidi gumbazidan katta. Bu masjid Shamsiddin kulol maqbarasi yaqinida qurilgan bo‘lib shaharning bosh masjidi hisoblangan. Keyinchalik Ko‘k Gumbaz masjidining bir xonasiga Amir Temurning otasi Amir Tarag‘ayning hoki ko‘miladi. Shundan boshlanib Shahrisabzga kelgan ziyoratchilar albatta Amir Tarag‘ayning qabrini ziyorat qilishadi. Hozir ham shunday.

Dor-ut-Tilovat majmuasi. Dor-ut-Tilovat majmuasi (Muborak Qur’onni o‘qish va anglash) 1370-1371-yilda Amir Tarag‘ay, Amir Temur va Bahouddin Naqshbandning ustozi bo‘lgan Shamsiddin Kulolning vafotidan keyin aziz-avliyolarga doimiy tilovat qilish uchun qurilgan.

Dor-us-Saodat. Dorut-Tilovat majmuasi Dorut-Saodat majmuasidan 200 metr masofada joylashgan. Amir Temur otasi Amir

Tarag‘ayning (Amir Tarag‘ay 1360- yilning qishida vafot etadi), otasining va o‘zining piri Shamsiddin Kulolning va bevaqt o‘lgan katta o‘g‘li Mirzo G’iyosiddin Jahongirning (1376-yilda vafot etadi) xotirasini abadiylashtirish uchun Ko‘k Gumbaz atrofida, Oqsaroyning janubida har biri uchun uchta maqbara qurishga buyruq beradi. Bu maqbaralar birgalikda Dorus-Saodat nomini oladi. Bu majmuada Amir Temur o‘ziga ham qabr tayyorlatadi. Bu qabrning qurilishi va bezaklanishi va majmuaning shuhrati sharqdagi biron-bir mamlakatda takrorlangan emas.

Jaxongir Mirzo maqbarasi. Dorus-Saodat majmuasi temuriylar dinastiyasiga mo‘ljallangan edi. Shuning uchun ham Jahongir Mirzoning qo‘qqisdan vafot etilishi natijasida uning jasadi Samarqanddan Shahrisabzga Amir Temurning avlodlari vataniga keltiriladi. Bir necha yildan keyin Amir Temur Xorazmdan eng mashhur me’morlarni Shahrisabzga chaqiradi va suyukli katta o‘g‘li Jahongir Mirzoning qabri ustiga maqbara qurishga buyruq beradi.

Umar Shayx Mirzo maqbarasi. Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li Umar Shayx Mirzo 29 yoshida (1393-1394 yillar) Eronda Kurd qal’asini qamal qilish vaqtida o‘q-yoydan otib o‘ldiriladi va Dorus-Saodat majmuasiga dafn qilinadi. Amir Temur Umar Shayx Mirzoga ham maqbara qurishga buyruq beradi. Bizning vaqtimizga kelib Jahongir Mirzo va o‘ziga qurdirgan maqbara saqlanib qolgan.

Ulug‘ sohibqiron Amir Temur farzandlari va pirlari, ustozlari xotirasini abadiylashtirish uchun mablag‘ni keragicha ajratardi. Tarixdan ma’lumki, barcha qurilishlarda u hech qachon qurilishga ajratilgan mablag‘larni ayamagan va qisqartmagan. U o‘zi uchun yer ostidan oddiy xilxona, qabr tayyorlashga buyruq berdi. Uning buyrug‘ida shunday so‘zlar bor-“Faqat toshlar va ularda mening ismim yozilsin”. Xilxona bezalmagan. Muborak Qur’on oyatlari yozilgan.

Dor-us-Saodat shayboniylardan bo‘lgan Abdullaxon II ning qo‘shinlari Shahrisabzni ishg‘ol qilgan vaqtda qisman vayron qilingan. Dor-us-Saodat majmuasidan faqat Jahongir Mirzo va Amir Temur xilxonasi saqlanib qolgan. XIX asrning o‘rtalarida Dor-us-Saodat majmuasida ko‘p xonali hazrati Imom masjidi qurilgan.



5.1-rasm. Amir Temur o‘ziga qurdirgan xilxona

Xona devorlari bejirim ishlangan toshlar bilan qoplangan va Sohibqironning tarjimai holi yozilgan qabr toshi qo‘yilgan. Lekin, hammasi boshqacha bo‘lib chiqdi. Ulug‘ Sohibqiron Amir Temur Samarqandga dafn qilindi.

Turon cho‘llari UNESKO Butunjahon tabiiy merosi ro‘yxatiga kiritildi. Hududning O‘zbekistonga doir qismi Orol bo‘yi mintaqasi va Ustyurt platosida joylashgan 2 mln. gektardan ortiq maydonni egallaydi. O‘zbekistondagi Turon cho‘llari transchegaraviy tabiat obyekti UNESKO Umumjahon tabiiy merosi obyektlari ro‘yxatiga kiritildi. Bu haqda Ekologiya vazirligi xabar berdi. Ushbu obyektni UNESKO ro‘yxatiga qo‘shish masalasi “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident qarorida ko‘zda tutilgan edi.

Mo‘tadil mintaqadagi Turon cho‘llari Umumjahon tabiiy merosi obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan O‘zbekistondagi ikkinchi obyekt hisoblanadi. Hududning O‘zbekistonga doir qismi Orolbo‘yi mintaqasi

va Ustyurt platosida joylashgan 2 mln gektardan ortiq maydonni egallagan bir-biriga chegaradosh beshta tarkibiy qism - Saygachi, Saygachi-Beleuli, Saygachi-Duana, Saygachi-Jideyli (barchasi Shimoliy Ustyurt klasteriga kiradi) hamda Janubiy Ustyurtdan iborat. 2016-yilda O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston ishtirokidagi “G’arbiy Tyan-Shan” obyekti ushbu ro‘yxatdan o‘rin olgan.



…..

Turon cho‘llarining UNESKO ro‘yxatiga kiritilishi hududning 1972-yilgi Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiyasi muhofazasida bo‘lishini taqozo etadi. Bundan tashqari, obyektni samarali boshqarish, ulardagi flora va faunani saqlash bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish va hamkorlikni yanada rivojlantirishga keng yo‘l ochishi ta’kidlanmoqda.

Buyuk Ipak yo‘lining Zarafshon-Qoraqum yo‘lagi UNESKO Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritildi. 2023-yil 10-25 sentyabr kunlari Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida UNESKO Umumjahon merosi qo‘mitasining 45-sessiyasi bo‘lib o‘tmoqda. Sessiya davomida Buyuk Ipak yo‘lining Zarafshon-Qoraqum yo‘lagi Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritildi.Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan “Ipak yo‘li. Zarafshon-Qoraqum yo‘lagi” uch davlatda joylashgan 31 ta obyektdan iborat.

Bulardan 9 tasi Tojikistonda, 15 tasi hozirgi O‘zbekiston hududida, qolganlari Turkmaniston hududida joylashgan.Turli davrlardagi barcha obyektlar tarixdagi eng muhim savdo yo‘llaridan biri - Ipak yo‘lida joylashgan bo‘lib, uzoq tarix va boy madaniy-tarixiy merosni namoyon etadi.O‘zbekiston “Buyuk ipak yo‘lining Zarafshon

- Qoraqum koridori” nominatsiyasini taqdim etish bo‘yicha loyiha koordinatori sifatida ishtirok etdi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1.UNESKO xalqaro tashkilotini ta’riflab bering?

2.UNESKO xalqaro tashkilotining qanday ro‘yxatlari bor?

3.O‘zbekistonda milliy merosning qaysi nomlanishlari UNESKOning reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan?

4.UNESKOning umumjahon merosi ro‘yxatiga qaysi obyektlarimiz kiritilgan?

5. “UNESKO va O‘zbekiston” Bobida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering?

6. O‘zbekiston “Buyuk ipak yo‘lining Zarafshon - Qoraqum koridori” Bobida ma’lumotlar to‘plang va amaliy mashg‘ulotlarda gapirib bering

VI. BOB. TURIZMDA MILLIY MADANIY MEROSDAGI MILLIY HUNARMANDCHILIK YO‘NALISHLARIDAN FOYDALANISH

Tayanch so‘zlar: me’mor, sayqal, Sharqning Rumi, Sharq Edemi, video-rolik, xizmatlar katalogi, zebigardon, tillaqosh.

6.1. Milliy madaniy merosdagi milliy hunarmandchilik yo‘nalishlari

Hunarmandchilikning mazmuni va ma’nosini, xalqimizning milliy merosidagi hunarmandchilik sohalarini, yo‘nalishlarining ta’rifini O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” bo‘yicha keltiramiz.

“Hunarmandchilik, hunarmandlik-milliy-an’anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo‘l mehnatiga asoslangan sanoat turi; shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi. Yirik sanoat ishlab chiqarishi vujudga kelishiga qadar keng tarqalgan, ayrim sohalari ham saqlangan. Kam rivojlanadigan mamlakatlarning xalq xo‘jaligida hozir ham muhim o‘rin egallaydi[1]”.

“Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillashib bordi, turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, miskarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o‘ymakorlik, kashtado‘zlik, ko‘nchilik, tikuvchilik, to‘quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va b.)ga ajraldi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, masalan, paxta va pilla bor yerda to‘qimachilik, sifatli xom ashyo bor yerda (masalan, Rishtonda) kulolchilik, jun va teri ko‘p yerda to‘qimachilik va konchilik, shunga qarab kosibchilik, o‘rmonlar ko‘p yerda yog‘ochsozlik ma’danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo‘ylarida kemasozlik va boshqalar rivoj topgan»[2].

Madaniy meros boyliklari va qadriyatlarining milliy hunarmandchilikdagi yo‘nalishlari:

1. Milliy duradgorlik maktablari (Xorazm, Urgut, Samarqand, Farg‘ona va Buxoro yo‘nalishlari)

2. Milliy kulolchilik maktablari (Buxoro, Samarqand, Xorazm, Surxondaryo, Farg‘ona yo‘nalishlari)

3. Oddiy (guldo‘z) kashtachilik maktablari (Farg‘ona, Xorazm, Namangan viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari, Farg‘ona vodiysi

4. Milliy zardo‘zi kashtachiligi maktablari(Buxoro, Samarqand, Xorazm, Urgut)

5. Milliy bosh kiyimlari (Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Farg‘ona vodiysi)

6. Milliy to‘n (chopon) kiyimlari (Samarqand, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston.

7. Milliy atlas va milliy beqasam kiyimlari (Marg‘ilon, Farg‘ona vodiysi).

8. Baxmal buyumlar (Samarqand)

9. Mahsido‘zlik va poyafzallar (Namangan, Samarqand)

Milliy meros boyliklari ichida xalqimizning hunarmandchiligi yo‘nalishlari xalqaro turizmni rivojlantirishda eng qiziqarli yo‘nalish. bo‘lishini oldindan xulosa qilishimiz mumkin. O‘zbekiston azaldan xalq hunarmandchiligi bilan mashhur bo‘lib kelgan. Hozirgi vaqtda respublikada xalq hunarmandchiligi asosida esdalik buyumlar ishlab chiqaruvchi 500 ga yaqin korxona mavjud. Ular chinni va sopol buyumlar, pichoqlar, sopol o‘yinchoqlar, zardo‘zi mahsulotlar, gilam, polosilar va milliy kiyimlar va boshqa buyumlar ishlab chiqarmoqda. Bu mahsulotlar 500 turdan ziyod nomlanishda bo‘lib, bularning ichida ijodkor xalqimizning ko‘p yillar davomida sobiq sho‘rolar davrida ataylab yo‘q qilinganlar ini qayta tiklanadiganlar ham bor.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 17-noyabrda “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5242-sonli Farmonni davlatimizda xalqimizning

betakror hunarmandchiligini asrab-avaylab kelayotgan hunarmandlarni davlatimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlash bilan birga hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, pirovard natijada xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiy darajasini ko‘tarishga qaratilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ushbu Farmoni birinchidan, xalqimiz asrlar davomida saqlab, sayqallab kelayotgan ijodiy mahsulotlarini rivojlantirish bo‘lsa, ikkinchidan, xalqimizning ijodga, taraqqiyotga, istiqbolga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, mehr-muhabbat qo‘ygan kasbini yonida ardoqlash hissiyotlarini kuchaytiradi (3-jadval).

3-jadval

Hunarmandchilikning asosiy yo‘nalishlari, ular tomonidan ishlab chiqariladigan buyumlar va tovarlar

T/r	**Asosiy yo‘nalishlar**	**Mahsulotlarning asosiy turlari**
1.	Ganch o‘ymakorligi	Qandillar, devor shamdonlari, ko‘zgu, naqshlar, stalaktitlar, muqarnas (friz), karnizlar, ustunlar elementlari, panjaralar, haykallar, panno, shift va devor bezaklari va asoslari, ganchdan yasalgan arxitektura va qurilish elementlari, boshqa amaliy bezak mahsulotlari.
2.	Qo‘lda gilam to‘qish	Gilam va gilamchalar, paloslar, xurjunlar, kigiz buyumlar, sholchalar, joynamozlar, o‘tovlar, tabiiy toladan tayyorlangan buyumlar.
3.	Qo‘lda gazlamalar to‘qish	Atlas, beqasam, adras, salla, tabiiy ipak, ip kalava, jun va sun’iy ipdan to‘qilgan matolar.
4.	Tosh o‘ymakorligi	Toshdan tayyorlangan esdalik buyumlar, mayda plastiklar, qutichalar, yozuv anjomlari, shamdonlar, panno, relyeflar va kontrreleflar, barelflar, geraldika va ramzlar, toshni

		pardozlash yo‘li bilan tayyorlangan bezaklar va boshqa bezak buyumlar.
5.	Miniatyura, rang tasvir, naqqoshlik va bo‘yoqli naqshlar	Lok miniatyurasi texnikasida tayyorlangan buyumlar: qutichalar, suratlar; devor, qog‘oz mato, teri, gazlama, pape-mashe, yog‘och, qovoq, karton, suyak va emaldagi naqshlar va rasmlar; xattotlik uslubida tayyorlangan qo‘lyozmalar, kitoblar, miniatyura va tasviriy san’at asarlari, risolalar va boshqa hunarmandchilik buyumlari; muqovalash.
6.	Kandakorlik, miskarlik buyumlari.	Mis, latun, alyuminiydan yasalgan buyumlar (choynak, qumg‘on, lagan, guldon, shuningdek bezash va amaliy maqsadlar uchun mo‘ljallagan boshqa buyumlar).
7.	Metalldan yasalgan buyumlar	Qo‘lda yasalgan metall buyumlar: eshiklar, naqshli darvozalar, panjaralar, deraza va eshik tutqichlari, ilgaklar, qo‘ng‘iroqlar, zanjirlar, shamdonlar, ketmonlar, teshalar, xaskash, panshaxalar, omochlar, barcha turdagi milliy qilich, xanjar va pichoqlar, ommaviy ishlab chiqariladigan metall buyumlar.
8.	Tunukadan yasalgan buyumlar.	Qo‘lda yasalgan tunuka buyumlar: guldor va jimjimador tarnov va quvurlar, oshxona anjomlari uy-ro‘zg‘or buyumlari va boshqalar.
9.	Milliy poyabzal tayyorlash.	Qo‘lda va yakka tartibda tikilgan milliy poyabzallar, teridan mahsi va kovushlar, kirza va kigiz etiklar, sandallar, shippaklar, tuflilar.
10.	Milliy liboslar tayyorlash	Chopon, yaxtak, nimcha, bolalar choponlari, to‘y liboslari va boshqa milliy kiyimlar.
11.	Bosh kiyimlar tayyorlash	Do‘ppi, telpak, salla, shuningdek mo‘yna, qorako‘l, teri va qo‘lda ishlov berilgan materiallardan tikilgan boshqa bosh kiyimlar.

12.	Yog‘och o‘ymakorligi	Yog‘och o‘ymakorligi uslubida bajarilgan barcha amaliy-bezak san’at turlari.
13.	Suyakka o‘yma naqsh solish	Esdalik sovg‘alari, mayda haykalchalar, netske, qutichalar, pichoq, qilich, xanjar soplari, suyakdan bezak bergan holda tayyorlangan boshqa amaliy bezak mahsulotlari.
14.	Gul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar	Turli xil matolarga gul bosish usulida tayyorlangan buyumlar: “batik”, milliy ko‘rpa va ko‘rpachalar, yostiqlar, belbog‘lar, jiyaklar, sumkalar, tasmalar, bolalar kiyimlari va boshqa chokli hunarmandchilik buyumlari.
15.	Kashtachilik	Kashtachilik va to‘qilgan buyumlar, shuningdek, qo‘lda tayyorlangan bosh kiyimlar qismlari (kashta mashina yordamida ham tayyorlanishi mumkin).
16.	Zardo‘zlik buyumlari	Metall iplardan foydalangan holda zardo‘zlik uslubida tayyorlangan barcha hunarmandchilik mahsulotlari.
17.	Musiqa asboblari	Ishlab chiqarishdan tashqari usulda tayyorlangan barcha turdagi milliy musiqa asboblari.
18.	Chinni, fayans va sopol buyumlari	Chinni, fayans va sopoldan tayyorlangan amaliy-bezak san’atining barcha turlari, arxitektura-bezak elementlari; chinni, fayans va sopol buyumlarini naqsh va trafaret bilan bezash, loydan tayyorlangan uy va oshxona buyumlari, tandirlar.
19.	Qimmatbaho metalldan yasalgan zargarlik buyumlari	Qonunchilikka muvofiq tamg‘alanishi shart bo‘lgan probali oltin, kumush, platina va platina guruhidagi metallardan ijodiy, mualliflik va milliy uslubda yasalgan buyumlar.

20.	O‘yinchoqlar	Yog‘och, metall, gips, mato, sopol va boshqa materiallardan ishlab chiqarishdan tashqari sharoitda yasalgan o‘yinchoqlar.
21.	Mayda haykaltaroshlik buyumlari	Tabiiy va sun’iy materiallar (gips, shamot, mis, bronza, alyuminiy, suyak, yog‘och, tosh, sopol, chinni, fayans, va b.)dan yasalgan barcha turdagi haykaltaroshlik buyumlari.
22.	Charm mahsulotlari	Egar-jabduq anjomlari, shu jumladan, ular uchun arqon, belbog‘, qayish anjomlar, tabiiy va sun’iy charmdan tayyorlangan milliy nimcha va bosh kiyimlar, charmdan tayyorlangan esdalik buyumlari va b.
23.	Mualliflik mebellarini tayyorlash	Amaliy-bezak san’ati predmetlariga kiradigan mebel (to‘plamlari va Alohida qismlari).
24.	Yog‘ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi mahsulotlari	Oshxona anjomlari (o‘qlov, tuzdon, non quti, juva, keli, osh taxta, chaqich), yog‘och, faner va laminatdan tayyorlangan turli hunarmandchilik mahsulotlari, belanchaklar, bolalar aravachasi, beshik va uning anjomlari, turli xontaxtalar, sandiq, jovon, eshik, rom, bezakli reykalar, surat uchun romlar (baget), tokarlik uskunasidan tayyorlangan har xil shaklli hunarmandchilik mahsulotlari, yog‘och shaxmat taxtasi va donasi, panno, yog‘ochdan qo‘lda va kichik mexanizatsiya vositalari yordamida yasalgan boshqa buyumlar.
25.	Pechka va kaminlar yasash	Pechkalar, kaminlar, shu jumladan, ular uchun havo so‘rish qurilmalari.
26.	Novdalardan buyumlar to‘qish	O‘simlik novdalaridan to‘qilgan buyumlar (qamish, tol, poxol, tok novdalari va boshqa har xil daraxt novdalari).

27.	Mozayka ishlari	Devor va shift mozaykalari, tabiiy va sun’iy materialdan mozayka pannolari tayyorlash.
28.	Ko‘zgu tayyorlash	Ko‘zgu va ko‘zgu sirtlarini tayyorlash.
29.	Shisha puflash ishlari	Badiiy pullash asosida ishlangan barcha mayda plastiklar, esdalik buyumlari, taqinchoqlar.
30.	Hajmli va shaklli qoliplarda quyilgan buyumlar	Tabiiy va sun’iy materiallardan quyma uslubda ishlangan buyumlar, shuningdek, mis, bronza, cho‘yan, alyuminiydan qo‘lda quyma uslubda ishlangan mahsulotlar.
31.	Soatsozlik	Devorga osiladigan eksklyuziv, polda turadigan, kamin va qo‘l soatlari tayyorlash, soat mexanizmlarini ta’mirlash.
32.	Emlash ishlari	Emal qoplamali buyumlarni tayyorlash, emal qoplamalarini ta’mirlash va tiklash.
33.	Esdalik buyumlari	Turli tabiiy va sun’iy materiallardan har xil rangda tayyorlangan esdalik va sovg‘a buyumlari; kamar, nishonlar, tasbeh, guldastalar, floristika, ikebana va boshqa buyumlar.
34.	Oddiy metallardan milliy uslubda tayyorlangan taqinchoqlar	Oddiy metallardan milliy uslubda tayyorlangan barcha taqinchoqlar (tumorlar, ziraklar, zebigardon, bilaguzuk, uzuk, tillaqosh va b.).

6.2. Turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlardagi milliy hunarmandchilik yo‘nalishlaridan foydalanish

Xalqimizning hunarmandchiligi mahsulotlaridan hozirgi vaqtda turizmda qisman foydalanilmoqda, ya’ni faqat hunarmandchilik mahsulotlari sotilmoqda. Bu holat ham turizmda yaxshi natijalarni berdi. Milliy hunarmandchilik sohalaridan turizmda foydalanish

ma’lum, puxta g‘oya, reja asosida tashkil qilinishi talab qilinadi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, xalqaro turistlarning aksariyat qismi xalqimizning yashash tarzi, milliy madaniyati, milliy san’ati qadimdan saqlanib kelayotgan milliy hunarmandchiligiga qiziqishadi.

Mehmonxonalarimizda xorijiy turistlarning xalqimiz milliy merosi mahsulotlari, buyumlarining namunalarini qo‘ymoqdamiz. Bu holat ham mehmonxona xodimlarining xalqimizning milliy merosi buyumlariga qiziqishlarini sezishi hisoblanadi. Lekin bunday do‘konchilar yoki kichik namunalar ko‘rgazmasini qo‘yib maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Xorijiy turistlar ko‘proq to‘xtaladigan katta mehmonxonalarimizda xalqimizning milliy merosi na’munalaridan, qiziqarli ko‘rinishlaridan rangli tasvirda katta-katta qilib mehmonxonalarning kirish zallariga xorijiy tillarda ko‘rsatish lozim. Shuningdek, xalqimizning milliy hunarmandchiligidagi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlari, masalan, gilamchilik, milliy liboslar, kulolchilikning mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlari juda tomoshabop bo‘lib, har qanday xorijiy turistni qiziqtirishi ishonchli bo‘ladi.


Mehmonxonalarda xalqimizning milliy hunarmandchiligi haqidagi reklamalar mehmonxonalarning kirish zallarida vaqti - vaqti bilan turlar bo‘yicha aylantirilib turilishi lozim, chunki,bu sohalarni birinchi marotaba ko‘rgan xorijiy turistlar qiziqishi tufayli ushbu sohaga borishi, ko‘rishi haqida buyurtma berishi mumkin. Ikkinchidan, xalqimizning milliy hunarmandchiligiga tashkil qilinadigan turistik ekskursiya xizmatlari marshrutlari davom etish muddatlari bo‘yicha reklama qilinishi lozim.

Qayd qilingan ishlarni amalga oshirish uchun birinchi navbatda Samarqand shahrida milliy meros, turistik ekskursiya xizmatlarini tashkil qiluvchi turistik firmalar faoliyat ko‘rsatishi lozim bo‘ladi. Bu turistik firmalar Samarqand shahrida quyidagi muammolarni yechishi lozim:

1. Samarqand shahridagi va Samarqand viloyatidagi milliy meros ekskursiya resurslarini, obyektlarini ro‘yxatga olib-“Milliy meros ekskursiya xizmatlari katalogini” yaratishi.

2. Samarqand shahrida mehmonxonalarda xalq milliy hunarmandchiligiga turistik ekskursiya marshrutlarini tashkil qilish uchun ushbu hunarmandchilik markazlari bilan xorijiy turistlarni olib kelish haqida kelishuv shartnomalari tuzilgan va tasdiqlangan bo‘lishi.

3. Samarqand shahridagi mehmonxonalardagi xorijiy turistlarga xalqimizning hunarmandchiligini tomosha qildirish uchun har tomonlama-mahalla+tuman+oila tizimida kelishuv shartnomalari ishlab chiqilgan bo‘lishi.



3-rasm. Milliy madaniy meros va qadriyatlardagi milliy hunarmandchilik yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun axborot-reklama tizimi

Bundan tashqari viloyatlarning tumanlari markazlaridagi Mehmonxonlarda xalqimizning milliy hunarmandchiligini reklama qilishdan oldin tuman xo‘jaliklarida yoki qishloqlaridagi milliy hunarmandchilik markazlarida hunarmandchilikni ko‘rsatishni tashkil qilish jadvallari, vaqtlari, masofa, yo‘llarining holatlari, dam olish, qaytish, joylashtirish xizmatlari puxta dastur asosida ishlab chiqilishi zarur.

Mehmonxonalarimizda, ayniqsa Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva kabi tarixiy shaharlarimizda xalqimizning eng ommalashgan milliy hunarmandchilik sohalarining ekskursiya marshrutlari reklamasini ishlab chiqishimiz maqsadli bo‘ladi. Shuningdek, bu shaharlarda xalqimizning milliy hunarmandchilik markazlari ham ro‘yxatga olinishi zarur bo‘ladi. Bu milliy hunarmandchilik markazlarining ixtisoslashuvi, ish vaqti, turistlarni qabul qilish va video yoki foto rasmlarga olishga ruxsat berish va hokazo savollarga javob topish kerak.


Milliy meros turizmi xalqimizning milliy hunarmandchiligi haqidagi ekskursiya marshrutlarini reklama qilishda quyidagi axborot resurslarini tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘ladi (3-rasm):

Mehmonxonalar ma’muriyati har bir xonalardagi televizorlarga 5-10 minutlik video-rolik ko‘rsatuvlarini tashkil qilishi;

Mehmonxonalardagi xonalarda xalqimizning milliy hunarmandchiligi tasvirlari tushirilgan disklarni televizor, DVDlari yoniga chettillarda yozib, o‘ziga xos kataloglar hosil qilishlari xalqaro turistlarni milliy meros ekskursiya marshrutlariga jalb qilishda maqsadli yo‘nalish bo‘ladi;

Mehmonxonalardagi xonalarda xalqimizning milliy hunarmandchiligi haqidagi axborot bukletlarini qo‘yish.


Hunarmandchilik yo‘nalishlarining tarkibida yana yo‘nalishlar bor. Masalan, duradgorlikning 6 ta maktablari mavjud. Kashtachilik, kulolchilik va gilamchilik, hunarmandchiligida ham 4 dan to 10 ta gacha yo‘nalishlar bor. Shuning uchun ham, milliy meros turizmida xalqimizning milliy merosidagi hunarmandchilikning barcha yo‘nilishlari bilan bog‘liq tarixni, usullarni, texnologiyalarini puxta egallagan gid-ekskursiyachini tayyorlashimiz lozim (4-rasm).



4-rasm. Milliy madaniy meros boyliklaridagi milliy “Hunarmandchilik” yo‘nalishlariga gid-ekskursiyachilar tayyorlash

4-rasm bo‘yicha hunarmandchilikning har bir yo‘nalishlari bo‘yicha gid-ekskursiyachi tayyorlanar ekan deb tushunmaslik kerak. Har bir yo‘nalish bo‘yicha gid-ekskursiyachi tayyorlash oson, lekin hozirgi turizmda bu gid-ekskursiyachiga talab kam bo‘ladi. Turistik firmaga milliy hunarmandchilik bo‘yicha turistlar va ekskursantlarga xizmat qilishi uchun 4 ta gid-ekskursiyachi kerak bo‘ladi. Albatta, moliyaviy ta’minot jihatidan turfirma ushbu hunarmandchilik xizmatlarini ko‘rsatish uchun bitta gid-ekskursiyachini taklif qiladi. Ikkinchidan, hunarmandchilikning yo‘nalishlari har xil bo‘lsa-da, ularning ko‘plab jihatlari bir-biriga yaqin.

3. *Milliy hunarmandchilik yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro milliy meros turizmi ekskursiyalarini ishlab chiqish.* Milliy meros boyliklari ichida xalqimizning hunarmandchilik yo‘nalishlari xalqaro turizmni rivojlantirishda eng qiziqarli yo‘nalish bo‘lishini oldindan xulosa qilishimiz mumkin. O‘zbekiston azaldan xalq hunarmandchiligi bilan mashhur bo‘lib kelgan. Viloyatlardagi milliy meros boyliklariga va ularning yo‘nalishlari uchun alohida yoki ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab oluvchi majmuali turistik ekskursiyalar va turistik marshrutlarni ishlab chiqish lozim (5-rasm).



5-rasm. Milliy madaniy merosdagi milliy hunarmandchilik yo‘nalishlarini turizmda rivojlantirish bo‘yicha xalqaro ekskursiyalarni ishlab chiqish

Hozirgi vaqtda respublikada xalq hunarmandchiligi asosida esdalik buyumlar ishlab chiqaruvchi 500 ga yaqin korxona mavjud. Ular chinni va sopol buyumlar, pichoqlar, sopol o‘yinchoqlar, zardo‘zi mahsulotlari, gilam, paloslar va milliy kiyimlar va boshqa buyumlar

ishlab chiqarmoqda. Bu mahsulotlar 500 turdan ziyod nomlanishda bo‘lib, bularning ichida ijodkor xalqimizning ko‘p yillar davomida sobiq sho‘rolar davrida ataylab yo‘q qilinganlarini qayta tiklanadiganlari ham bor.

Milliy hunarmandchilik yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro milliy meros turizmi ekskursiyalarini ishlab chiqish keltirilganlarni hisobga olib xalqimizning milliy merosi boyliklaridan milliy meros turizmida foydalanishda ushbu milliy meros boyliklarining har biriga va turli yo‘nalishlariga majmuali turistik ekskursiyalar va turistik marshrutlar ishlab chiqishning katta imkoniyatlari mavjud. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligining mamlakatimizdagi har bir viloyatlaridagi bo‘limlari va departamentlari o‘z viloyatlaridagi mavjud milliy meros boyliklarining mukammal ro‘yxatlarini tuzishi, makonlarini aniqlashlari bo‘yicha ma’lumotlar bazalarini yaratishlari lozim.

Dunyodagi mavjud barcha shaharlar ham misli odamlar kabi o‘zlarining betakror qiyofasiga, o‘z ko‘ngliga, o‘z harakteriga hamda, shu bilan birga o‘z hayotiga ega. Ro‘yi zaminning eng qadimiy shaharlaridan biri bo‘lmish ko‘hna va hamisha navqiron Samarqand ham bundan istisno emas.

Yer yuzida insoniyat sivilizatsiyasi madaniyatning ilk o‘choqlaridan biri bo‘lgan Vavilon va Memfis, Afina va Rim, Aleksandriya va Vizantiyalar kabi Samarqand ham o‘z boshidan juda ko‘p shiddatli voqealar va iztiroblarni kechirgan, necha martalab buzilib va yana qayta tiklangan[27].

Buyuk sarkarda va sohibqiron Amir Temur davrida Samarqand jahon imperiyasining obod va benihoyat ko‘rkam poytaxtiga aylandi. Amir Temurning sevimli nabirasi Mirzo Ulug‘bek zamonida esa Samarqand o‘rta asrdagi ilm-fan va madaniyat rivojlangan mashhur shahar sifatida dovrug‘i butun dunyo bo‘ylab tarqaldi. “Qadimgi sharqning edemi”, “Islom dunyosining qimmatbaho gavhari”, “Sharqning Rumi”, “Yer yuzining sayqali” kabi nomdor atamalar bilan

[27] Behro‘z Ma’rifiy, Samarqandga xush kelibsiz, Registon maydoni, Samarqand, 2021.-40 b.-1-2 b.

o‘tmishda Eron, Hindiston, Xitoy, Vizantiya, Misr shoirlar, tarixchilari, o‘rta asr geograflari Samarqandni ko‘klarga ko‘tarishgan.



Sharq xalqlari madaniyatining bebaho xazinasi, islom me’morchiligining beshigi deb Samarqandni haqli ravishda atashgan va madh etishgan. Bizgacha o‘tmishda ajdodlarimiz qadoq qo‘llari bilan yaratgan, go‘zalliklarda tengi yo‘q betakror tarixiy me’morchilik obidalari saqlanib qolgan.Registon maydoni Yer yuzining sayqali deb tan olingan, Amir Temur birlashtirgan 27 davlatning poytaxti bo‘lgan mashhur Samarqandning o‘ziga xos va mos bo‘lgan ko‘zgusidir.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. Nima uchun milliy hunarmandchilik deyiladi?
2. Hunarmandchilikning yo‘nalishlarini sanab va ta’riflab bering?
3. Milliy merosdagi milliy hunarmandchilik yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro ekskursiyalarni qanday ishlab chiqildi?
4. Samarqandni chet elliklarning xulosalari bo‘yicha ta’riflab bering?
5. Hunarmandchilik mahsulotlarining qaysilari xalqaro turistlar uchun xaridorbop deb hisoblaysiz?

VII. BOB. TURIZMDA MILLIY MADANIY MEROSDAGI MILLIY USTACHILIK YO‘NALISHLARIDAN FOYDALANISH

Tayanch so‘zlar: usta, chevar, qishloq yig‘ini, me’mor, kasb, hunar, qo‘l mehnati, kamon, motiga, yorg‘uchoq, o‘g‘ir, charx, urchuq.

7.1. Milliy madaniy merosdagi milliy ustachilik yo‘nalishlari

Usta 1) kasb, hunar egasi; malakali mutaxassis: pichoqchi usta, misgar usta, duradgor usta, va h.k.; 2) kasb-hunar, ilm va shu kabilarni o‘rgatuvchi, ustoz[28].

Milliy meros turizmi xalqimizning milliy buyumlar ishlab chiqarishdagi ustachiligini, tarixiy-ekologik asrlar yilnomasidan o‘tib hozirgi ko‘rinishni olgan tavsiflar, yo‘nalishlar sabr-toqatli, chidamli, mehnatkash xalqimizning ming yillar davomidagi ijodiy mehnatini asrab-avaylab,saqlab kelayotganligini turizm orqali dunyo xalqlariga tanishtirishdek ulug‘ rejalarni amalga oshirishi lozim. Biz bu yerda ustachilikni alohida bermoqdamiz. Aslida xalqimizning asrlar davomida saqlanib kelinayotgan milliy qo‘l mehnati mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning barchasi hunarmandchilik, hunarmandchilar deyiladi.

Milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridagi ustachilik san’ati yo‘nalishlari:

1. Temirchilik, qadimiy asboblar (O‘zbekistonning tarixiy shaharlari, tumanlari va qishloqlari)
2. Misgarlik (Samarkand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi, Xiva, Toshkent shaharlari)
3. Musiqasozlik (Samarkand, Xiva, Toshkent, Buxoro shaharlari, Farg‘ona vodiysi)
4. Beshiksozlik (Samarkand, Buxoro, Toshkent shaharlari, Urgut tumani, Farg‘ona vodiysi)

[28] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 11-Kitob, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat nashriyoti, Toshkent, 2005.-392 b.

5. Aravasozlik (Qo‘qon shahari)

6. Sandiqsozlik (Urgut tumani, Samarkand, Buxoro, Toshkent, Xiva shaharlari, Farg‘ona vodiysi)

7. Egarsozlik (Baxmal Tumani, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari)

8. Gilamchilik va palos to‘qish (G’allaorol, Baxmal, Nurota tumanlari Xorazm, Jizzax, Samarqand viloyatlari, Cho‘l xalqi)

9. Milliy pichoqsozlik (Urgut, Chust tumanlari, Namangan)

Olimlarimiz ustachilik-hunarmandchilikning kelib chiqishi va taraqqiyoti davrlarini ham o‘rganishgan. Ularning tadqiqotlari, xulosalari bo‘yicha ustachilik - hunarmandchilikning ilk davrlari insoniyat taraqqiyotining paleolit davridan boshlangan va neolit davrida Markaziy Osiyo xalqlarida milliy ustachilik-hunarmandchilik to‘liq tarkib topgan (4-jadval)[29].

4-jadval

Davrlararo ustachilik va hunarmandchilikning taraqqiyoti

Davrlar	Hunarmandchilik taraqqiyoti
Paleolit,so‘ngi bosqich(miloddan oldingi 40-35-10 minginchi yillar)	Haykaltaroshlik, tasviriy san’at, suyakdan taqinchoqlar yasash vujudga keldi.
Mezolit(miloddan oldingi 12-5 minginchi yillar)	O‘q-yoy(kamon, irg‘ituvchi nayza qurollari yasaldi, qoyatosh suratlari paydo bo‘ldi
Neolit(miloddan oldingi 6-4 minginchi yillar)	Tosh bolta, pona,iskana, ketmon-tesha(motiga), tosh moslamali suyak o‘roq, don yanchgich, sopol idishlar yasaldi. Suvda suzish moslamalari yasaldi. Ip yigiruvchi urchiq, to‘quv dastgohlari vujudga keldi. Jun va o‘simlik tolasidan

[29] Abdullayeva R. G., Hunarmandchilik taraqqiyotining tarixiy va institutsional asoslari. Iqtisodiyot va moliya\ekonomika i finansi, Toshkent, 2017, № 2.

	kiyimlar tikildi. Ishlab chiqarish xo‘jaligi shakllandi.
Eneolit(miloddan avvalgi 4 minginchi yillar)	Mis kashf etildi, misdan bolta, o‘roq, nayza uchlari, xanjar qurollari, taqinchoqlar va bezak buyumlari yasaldi.
Bronza(miloddan avvalgi 3-2 minginchi yillar)	Bronza ixtiro qilindi. Metaldan bolta, o‘roq, ketmon, tesha, nayza, pichoq, qilich, xanjar, zargarlik buyumlari yasaldi. Omoch, g‘ildirak, arava ixtiro qilindi. Ustaxonalar paydo bo‘ldi. Hayvonlardan transport sifatida foydalanish o‘zlashtirildi. Yorg‘uchoq, o‘g‘ir, charx-urchuq yasaldi. Savdo aloqalari vujudga keldi. Shaharlar paydo bo‘ldi.


Shuningdek, Markaziy Osiyo, O‘zbekistonning hududlarida ham ilk paleolit davridan boshlab odamlar yashagan va jadvalda keltirilgan barcha davrlarda ularning taraqqiyoti bilan bog‘liq ma’lumotlar tiklangan (4-jadvaldagi hunarmandchilikning buyumlari davrlar bo‘yicha vatanimizning ko‘plab hududlaridan topilgan va muzeylarimizga qo‘yilgan.

7.2. Turizmda milliy madaniy merosdagi milliy ustachilik yo‘nalishlaridan foydalanish

Xalqimizning nutqida, hunarmandlarga bo‘lgan muomalasida asosan xotin-qizlarning hunarmandchiligi bilan bog‘liq ishlab chiqaruvchilar usta deyilmaydi. Masalan, gilam to‘quvchi-gilamchi, kashta to‘quvchi-kashtachi, atlaschi deyiladi va milliy liboslarni (milliy do‘ppi, milliy to‘nlar, milliy ko‘ylaklar va h.k.) to‘quvchilar ham usta deyilmaydi. Ko‘p hollarda ularni qo‘li gul, chevar deb ataymiz.

Milliy meros turizmidagi milliy ustachilik yo‘nalishlarini, jahondagi davlatlarda yashayotgan xalqlarda uchramaydigan

ustachiligini jahonga ko‘z-ko‘z qilishimiz va bundan faxrlanishimiz kerak. Shuning uchun ham milliy meros turizmidagi milliy ustachilik yo‘nalishlarini va bu yo‘nalishlardagi milliy ishlab chiqarish mahsulotlarini xalqaro turizmda axborotlash-reklamalash tizimlarini yaratishimiz lozim (6-rasm).



6-rasm. Milliy madaniy merosdagi milliy ustachilik yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun axborot-reklama tizimi


Xalqaro turistlar uchun xalqimiz bilan yaqindan tanishish, xalqimizning o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan milliy merosiga qiziqish albatta kuchli bo‘ladi. Shuning uchun ham ularning bo‘sh vaqtlari yuzaga kelishi bilan qadimdan sayqallanib kelinayotgan urf-odatlarimiz, to‘y-tantanalarimizga ularni taklif qilishi, ularning bevosita ishtirok etishini ta’minlash, sharoitlar yaratishi ular uchun juda qiziqarli va quvonchli bo‘lishi shubhasizdir.

Bunday tadbirlarni o‘tkazishda albatta turoperatorlardan juda katta ustomonlikni talab qiladi. Turoperator bunday vaqtlarda milliy turmahsulotni ishlab chiqish va taklif qilish uchun mahallalardagi oqsoqollar, tumanlardagi qishloq yig‘inlari bilan mustahkam aloqada bo‘lishlari, imkon darajada mehmonxonalarga yaqin bo‘lgan mahallalar yoki tumanlardagi to‘y-tomoshalar va ommaviy bayramlar

o‘tkaziladigan vaqtlarni, aholidagi to‘ylar vaqtini bilish va ulardan xorijiy turistlarni olib kelishga ruxsatlar so‘rash lozim bo‘ladi.

Ayniqsa, bayramlardagi “Sumalak”, “Non”, “Qovun”, “Hosil bayrami”, “Navro‘z” bayrami sayllariga va uni tayyorlash jarayonlariga turistlarni ishtirok etishlarini tashkil qilish, to‘ylarimizdagi osh pishirish jarayonlariga qatnashtirish, oshni mehmonlarga tarqatish san’atini, mehmonlarni kuzatish, ularga xizmatlar ko‘rsatishni, to‘y ne’matlarini dasturxonlarga qo‘yish jarayonlarini ko‘rsatish ularda unutilmas taassurotlarni qoldiradi.

Xulosa qilganimizda, xalqimizning boy madaniy merosidan xalqaro turizmda unumli, rejali foydalanishning juda katta salohiyatli, istiqbolli yo‘nalishlari, sohalari va imkoniyatlari borligini bilishimiz va mazmunli turistik ekskursiya marshrutlarini yaratishimiz va reklama qilishning uddasidan chiqishimiz, harakatlar qilishimiz lozim bo‘ladi. O‘zbek xalqining tarixiy o‘tmish hayoti bilan bog‘liq ishlab chiqarishni tasvirlovchi milliy merosidagi eng katta guruhni millatning ustachiligi va uning turlari tashkil qiladi. Bu ustachilik yo‘nalishlariga ham bir yoki ikki mutaxassislikga ega bo‘lgan malakali gid-ekskursiyachilarni tayyorlash maqsadli hisoblanadi (7-rasm).



7-rasm. Milliy madaniy merosdagi milliy ustachilik yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha gid-ekskursiyachilar tayyorlash

Milliy madaniy meros turizmiga “Milliy ustachilik” yo‘nalishlari bo‘yicha gid-ekskursiyachi tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligidagi “Turizm qo‘mitasi”ning viloyatlardagi boshqarmalari o‘z viloyati hududlarida milliy ustachilikning qaysi turlari saqlanib qolgan va faoliyat ko‘rsatayotganligiga jiddiy e’tibor berishlari kerak.

Chunki, xalqimizning milliy merosidagi ustachilik xalqimizning tarixiy ekologik yashash sharoitlarining talablari asosida ixtiro qilingan. Tarixiy-tabiiy-ekologik sharoit insonning tili, qiyofasi, odatlari, umr kechirishi, tabiat va uning iqlim o‘zgarishlariga moslashtiradi. Inson yashash uchun kurash taraqqiyotida ana shu tarixiy-tabiiy-ekologik sharoitlarning talabidan tashqariga chiqolmaydi. Bu tavsiflarning barchasi aynan barchasi tabiiy geografik iqlim xususiyatlarining ta’siri hisoblanadi.

Viloyatda mavjud bo‘lmagan milliy ustachilik yo‘nalishlariga tayyorlanadigan gid ekskursiyachi albatta qiziqmaydi va uning aynan shu viloyatda yashashini ham hisobga olish lozim. Viloyatda tayyorlanadigan gid ekskursiyachi viloyatning hududlaridagi milliy ustachilik yo‘nalishlarigagina qiziqadi, borib ko‘radi va uning keyingi ish faoliyatlarida yengillik sharoitlarini hosil qiladi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. Ustachilikning yo‘nalishlarini sanab va ta’riflab bering?
2. Ustachilik bilan hunarmandchilikning o‘rtasida farqlar bormi?
3. Ustachilikning qaysi yo‘nalishlari saqlanib qolgan?
4. Ustachilikning qaysi mahsulotlari xalqaro turistlar uchun xaridorbop deb hisoblaysiz?
5. Milliy ustachilikni ulug‘lovchi taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering?
6. Siz yashayotgan manzilda milliy ustachilikning qaysi yo‘nalishlari saqlanib qolgan va ular ishlab chiqarayotgan milliy ustachilik mahsulotlariga ichki va xalqaro turizm bozorida xaridorlar mavjudmi?

VIII. BOB. TURIZMDA MILLIY MADANIY MEROSDAGI MILLIY O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Tayanch so‘zlar: o‘g‘il bolalarning o‘yinlari, qiz bolalarning o‘yinlari, o‘zbek milliy o‘yinlari, elshunos, folklorshunos.

8.1. Milliy madaniy merosdagi milliy o‘yinlar

Xalqimizning milliy o‘yinlaridan eng ommaviylashgani-ko‘pkari o‘yinlari asosan kuz-qish oylarida o‘tkazilib shaharlardan ancha uzoqlardagi tumanlarning qishloqlarida o‘tkaziladi va har kuni ham emas. Shuning uchun, ko‘pkari qilinadigan kunlar, manzillar, marshrut va marshrutdagi xizmatlar dasturi, axborotlar ta’minoti to‘liq va puxta ishlab chiqilgan bo‘lish talab qilinadi.

Turizm sohasida xalq milliy o‘yinlarining axborot-reklama resurslarini ishlab chiqish va turistlar uchun ekskursiya marshrutlarini tashkil qilishning muhim ahamiyatga ega ekinligidan bu ishlar quyidagi yo‘nalishlarda bajarilishi mumkin.

Birinchidan, xalqimizning milliy o‘yinlari viloyatlarimizning qaysi tumanlarida, shaharlarida ko‘proq o‘tkazilishi va qaysi oylarda, mavsumlarda o‘tkazilishini aniq bilish lozim. Chunki, xalqaro turistlar oqimi kuchaygan vaqtda bu o‘yinlarning o‘tkazilishi muddatlari to‘g‘ri kelishi lozim. Masalan, xalqimizning milliy o‘yinlaridan biri bo‘lgan ko‘pkari asosan, paxta yig‘im-terim mavsumidan keyin, noyabr, dekabr, yanvar, fevral, oylarida o‘tkaziladi.

Respublikamizning viloyatlarida asosan Sirdaryo, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida ko‘pkari milliy o‘yini juda rivojlangan. Qoraqalpog‘iston, Xorazm viloyatlarida, shuningdek, Buxoro viloyatlarida milliy o‘yinlarimizdan kurash va qo‘chqor urushtirish juda ommaviylashgan. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida milliy kurash o‘yinlari ham, ko‘pkari o‘yinlari ham hozirgacha yaxshi o‘tkazilmoqda. Shuning uchun ham, xalqaro turistlarni milliy o‘yinlarimizga, kuz-qish oylariga mo‘ljallangan ekskursiya marshrutlariga taklif qilishimiz mumkin.


Milliy o‘yinlarimiz ko‘pkari-uloq tortishuvlari xalqaro internet tarmoqlarida berilganidan buyon aynan shu o‘yinga qiziqib keluvchilarning soni tobora ko‘payib bormoqda. Bu o‘yinlarga turistlarni takliflar qilishda ham turoperatorlarimiz tolmasdan mehnat qilishlari talab qilinadi.

Mehmonxonalarda uloq-ko‘pkari milliy o‘yinlari haqidagi ekskursiya marshrutlarini biz Respublikamizning yuqorida ko‘pkari milliy o‘yini juda ommaviylashgan viloyatlarida, tumanlaridagi mehmonxonalarda reklama qilishimiz mumkin. Chunki, mehmonxonadagi ko‘pkari-uloq milliy o‘yini reklamasini ko‘rgan, qiziqib qolgan xalqaro turistlar darhol bu o‘yinlarni tomosha qilishga buyurtmalar berishi mumkin. Shuning uchun ham, milliy o‘yinlarni tashkil qilish reklamalarini ushbu o‘yinlar doimo o‘tkaziladigan va makon jihatdan mehmonxonalarga yaqin bo‘lganligini ham hisobga olish lozim bo‘ladi.

Milliy kurash, qo‘chqorlar jangi, ko‘pkari-uloq milliy o‘yinining tavsifi va ta’rifi, tarkibi, o‘tkazilishi tartibi yozilgan va o‘yinning ko‘plab jozibali, qiziqtiruvchi, hayron qoldiruvchi ko‘rinishlari tushirilgan rangli rasmlari va qayd qilingan tavsiflari yozilgan bir yoki ikki betli bukletlardan iborat bo‘lgan reklama prospektlari mehmonxonalarning kirish zallariga qo‘yilishi lozim bo‘ladi.

Turizm sohasida xalq milliy o‘yinlari ekskursiya marshrutlarini reklama qilishdan oldin quyidagi mulohazalarga to‘xtalish zarur deb bilamiz. Birinchidan, O‘zbekistondagi yirik shaharlardagi markazlarda xalqimizning milliy o‘yinlarini ro‘yxatga olish lozim bo‘ladi.

Milliy o‘yinlarimizdan milliy kurash va qo‘chqor urushtirish o‘yinlarini Buxoro, Urganch, Nukus va Navoiy, Qarshi shaharlaridagi mehmonxonalarda reklama qilish mumkin. Chunki, bu shaharlardagi mehmonxonalardan atrof tumanlar, xo‘jaliklar va qishloqlardagi to‘ylar yoki bu shaharlarda o‘tkaziladigan umumxalq milliy bayramlari tantanalariga turistlarni taklif qilish va tomosha qildirishning imkoniyatlari ko‘proq bo‘ladi. Shuning uchun ham milliy meros turizmida milliy o‘yinlarning jamlangan axborot-reklama tizimini taklif qilishimiz lozim (8-rasm).



8-rasm. Milliy madaniy merosdagi milliy o‘yin turlarini rivojlantirish uchun axborot-reklama tizimi

Shuningdek, bu shaharlarda va shaharlar atrofidagi xo‘jaliklar yoki qishloqlardagi aholilar ushbu milliy o‘yinlarni o‘zlarning deyarli barcha to‘y-tomoshalarida tashkil qilishadi. Bu holatda ham, ushbu milliy o‘yinlarning o‘tkazilish joylari va o‘tkaziladigan muddatlarini aniq o‘rganib chiqib, mahalla bilan doimiy aloqalar rejalashtirilishi zarur bo‘ladi.

8.2. Turizmda milliy madaniy merosdagi milliy o‘yinlardan foydalanish

Bu ishlarning tashkiliy, iqtisodiy tomonlari shu jumladan, huquqiy-me’yoriy tomonlari ham puxta ishlab chiqilishni talab qilinadi. Chunki, bunday o‘yingohlar doimo gavjum bo‘lishi imkoniyatlari mavjud. Yana shuni ham ta’kidlash lozimki, bu o‘yinlarga viloyatlardan kelgan turistlar ham, tub joy aholi ham juda qiziqishadi.

Milliy o‘yin turlari bo‘yicha xalqaro milliy meros turizmi ekskursiyalarini ishlab chiqish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yonida oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Qarori”da Buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an’analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o‘zbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va

rag‘batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsad qilib qo‘yilgan.

Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, xalqchillik g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan milliy sportimiz bo‘lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirish belgilangan. Jahon sportidan olingan milliy kurashimizdagi “halol”, “chappa”, “g‘irrom”, “yonbosh” so‘zlari xalqaro musobaqalarda boshqa tillarga tarjimasiz o‘z tilimizda yangramoqda. Shuning uchun ham milliy merosimizdagi xalq sport o‘yinlarini jahon tegralarida reklama qilishimiz kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi PIQ-4881-son qaroriga 1-ilovada Kurash milliy sport turini 2025-yilgacha yangi bosqichga olib chiqish Konsepsiyasida o‘zbek milliy kurashining xalqaro miqyoslardagi dovrug‘i quyidagicha keltirilgan:

1. 1992-yilda O‘zbekiston kurash federatsiyasining tashkil etilishi muhim tarixiy voqea bo‘ldi.

2. O‘zbekiston kurash Federatsiyasi tomonidan kurashni ommalashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida jahonning turli qit’alarida joylashgan xorijiy davlatlarda milliy kurash federatsiyalari tashkil etildi.

3. 1998-yil 6sentyabrda dunyoning beshta qit’asidagi 129 ta milliy federatsiyalarni birlashtirgan Kurash xalqaro assotsiatsiyasi ta’sis etildi.


4. 2017-yil 20-sentyabrda bo‘lib o‘tgan Osiyo Olimpiya kengashining 36-Bosh assambleyasida tarixda ilk bor kurash sport turi 2018- yilda Indoneziyada o‘tgan XVIII yozgi Osiyo o‘yinlari dasturiga alohida sport turi sifatida hamda 2022-yilda Xitoyda, 2026-yilda Yaponiyada o‘tadigan yozgi Osiyo o‘yinlari dasturlariga kiritildi.

5. Kurash bo‘yicha xalqaro sport tadbirlarida sportchilarimiz sovrinli o‘rinlarni egallab mamlakatimiz nufuzini munosib himoya qilib kelmoqdalar. Xususan, yurtimiz sportchilari 2019-yilda xalqaro

sport tadbirlarida 1231 ta, shu jumladan, 378 ta oltin, 402 ta kumush, 451 ta bronza medallarini qo‘lga kiritganlar. Bunda, kurashchilar xalqaro sport tadbirlarida jami 73 ta, shu jumladan, 37 ta oltin medalga sazovor bo‘lganlar.

6. Xalqimizning milliy merosi boyliklaridagi milliy o‘yin turlari bo‘yicha xalqaro milliy meros turizmi ekskursiyalarini ishlab chiqishda ham turizm operatorlari keltirilgan milliy o‘yin turlari vatanimizning qaysi viloyatlari va tumanlarida ommaviy holatlarda (xalq bayramlarida, aholining to‘ylarida, sayillarda va b.) tashkil qilinishi va o‘tkazilishlarini hisobga olishlari lozim.

Masalan, Samarqand viloyatida ko‘pkari-uloq milliy sport o‘yinlari juda ommaviylashgan. Aholi milliy dorbozlik, milliy kurash va qo‘chqorlar jangi o‘yinlari deyarli tashkil qilinmaydi. Farg‘ona vodiysidagi Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlaridagi xalq bayramlari va to‘ylarida albatda dorbozlar o‘yini tashkil qilinadi. Xalqimizning milliy madaniy merosi boyliklaridan va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni rivojlantirishda milliy o‘yin turlari bo‘yicha xalqaro milliy meros turizmi ekskursiyalarini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ishlab chiqishni tavsiya qilamiz (9-rasm).



9-rasm. Xalqimizning milliy madaniy merosi boyliklaridagi milliy o‘yin turlari uchun turizm ekskursiyalarini ishlab chiqish




Xalqimizning to‘ylari, xalq bayramlari milliy kurashsiz o‘tmagan. Milliy kurashning jahon bo‘ylab juda tez ommaviylashuvining bosh sababi, bu kurashda polvon raqibini o‘zidan yuqoriga ko‘tarib gilamga qapishtirishi kerak. Hozirgi kurashlar kabi gilamda u yoqdan bu yoqqa sudrashishlar yo‘q bo‘lgan. Tomoshabinlar haqiqiy kuchni ko‘rib zavqlanishgan. Bolalarimiz ana shu zavqlanish uchun milliy kurashga tushishmoqda.

Surxondaryo, Qashqadaryoliklar va Buxoroliklarning to‘ylari va xalq bayramlarida albatda milliy kurashni va baxshilar san’atini tomosha qilasiz. Qoraqalpog‘iston Respublikasida va Xorazm viloyatida qo‘chqorlar jangi juda ommaviylashgan. Shu sababli, milliy meros turizmidagi operatorlar va gid-ekskursiyachilar vatanimizdagi viloyatlar va tumanlardagi aholining milliy sport o‘yinlarini tashkil qilishi va o‘tkazilishi bilan bog‘liq barcha tashkiliy muddatlarni va jarayonlarni yaxshi bilishlari lozim.

Milliy xalq o‘yinlari - *millat yoshlarining g‘ururi!* O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi tashabbusi bilan Zomin tumanida “Milliy xalq o‘yinlari” festivali bo‘lib o‘tdi.



10-rasm. Bolalarimizning deyarli unutilayotgan milliy o‘yinlaridan biri

Zomin tuman madaniyat bo‘limi, O‘zbekiston “Yoshlar ittifoqi” tuman kengashi, Respublika ma’naviyat targ‘ibot markazi tuman bo‘limi, tuman xalq ta’limi bo‘limi bilan hamkorlikda tashkil etilgan festivalda tumandagi 10 dan ortiq maktablar o‘quvchilari ishtirok etdilar.

O‘zbek xalq milliy o‘yinlari o‘zining uzoq o‘tmishi, boy tarixiga ega bo‘lgan, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o‘tib kelayotgan, ma’naviy boyligimiz, qadriyatlarimizdan sanaladi, -dedi tadbirni ochib bergan O‘zMTDP Zomin tuman kengashi raisi O‘rozli Berdibekov. Zero, bolalar va o‘smirlarni har tomonlama sog‘lom, jismonan baquvvat, ma’nan zukko va topqir bo‘lib ulg‘ayishlarida har bitta milliy o‘yinimizning o‘z o‘rni bor.

Bugun unutilib borayotgan qator milliy o‘yinlarni kengroq targ‘ib etish yo‘li bilan yoshlarimizni sog‘lom turmush tarziga targ‘ib etish, ularning intellektual salohiyati bilan birgalikda jismonan barkamol bo‘lib voyaga yetishlariga xizmat qiluvchi qadimiy xalq o‘yinlarini yana bir bor yodga olish festivalning asosiy maqsadi(10-rasm). Shundan so‘ng bolalar va o‘smirlar guruhlarga bo‘lingan holda ovchilik o‘yinlaridan “Oshiq-moshiq”, “Xappak tosh”, hunarmandlik

o‘yinlaridan “Lanka”, “Ko‘z bog‘lar”, dehqonchilik o‘yinlaridan “Qo‘riqchi”, taqlidiy o‘yinlardan “Kim oladi-yo shuginani-yo”, “Xo‘roz urishtirish”, harakatli o‘yinlar turkumiga kiruvchi “Halinchak”, so‘z-harakatli o‘yinlaridan “Oq terakmi-ko‘k terak”, “Arqon tortishuv”, kurash va u bilan bog‘liq o‘yinlar sirasiga kiruvchi “Milliy kurash”, “Yelkada kurash”, “Bel olish kurashi”, chavandozlik o‘yinlaridan “Piyoda poyga”, “Eshak mindi” kabi asrlar elagidan o‘tib kelayotgan milliy o‘yinlarni mahorat bilan namoyish qila boshladilar.

Festival ishtirokchilari tomonidan namoyish qilingan har bir xalq o‘yinlari qatnashchilar va mehmonlar, tashkilotchilar tomonidan nazorat qilib borildi. Milliy o‘yinlarimizning har birida mardlik, jasurlik, rostgo‘ylik va zukkolik talab etilar ekan, - deydi festivalning eng yosh ishtirokchilaridan biri Humoyun mirzo Rahmonov. - Menga ayniqsa arqon tortishish, kurash o‘yinlari bilan birga, chaqqonlik va topqirlik talab etiladigan lanka tepish, ko‘z bog‘lash o‘yinlari juda yoqdi.

Bu festivalda men o‘zim hali bilmagan ko‘plab o‘yinlarni o‘rganib oldim. Endi o‘rtoqlarim bilan bo‘sh vaqtlarimizda ana shu o‘yinlarni ochiq tabiat qo‘ynida o‘ynaymiz. Festival so‘ngida faol ishtirok etgan yoshlar partiya tuman kengashining faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Elshunos-folklorshunos jurnalist Guljahon Mardonovaning “O‘zbek milliy o‘yinlari” kitobi muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif qator yillar davomida yurtimizning vodiy-u vohasi, tuman-u kentlari, qishloq-u ovullarini kezib, unutilib ketayotgan milliy o‘yinlarimizni nihoyatda diqqatlik bilan yig‘ib chiqdi. Kitobdan vositali, harakatli, kasb-hunarga oid, boshqotirma, voqea band, mavsumiy 118 ta: 67 ta o‘g‘il, 51 ta qiz bolalarga xos o‘yin joy olgan.

Bu noyob milliy o‘yinlar katta-yu kichikka olam va odamga hurmat mohiyatini anglash, yurtga sadoqat, elsevarlik tuyg‘ularini shakllantirish, tabiatni sevish, uyushib jamoa bo‘lish, qiyinchiliklarni birgalikda yengib o‘tish, hozirjavoblik ko‘nikmalarini o‘stirish, tezkor qaror qabul qilish, jamoadoshlarga yelkadosh bo‘lish, insonning tani sog‘ligi, harakatchanligini ta’minlash imkoniyatini beradi.

O‘g‘il bolalarning o‘yinlari: Belbog‘, Ikki belbog‘, Zar qalpoq, Qalpoq otdi, Chag‘alay, Churrak, Cho‘loq qarg‘a, Kasal echki, Echki, uning bolasi va bo‘rilar, Bo‘ri, echki va uning bolalari, Oqsoq bo‘ri va qo‘ylar, Cho‘pon va oqsoq bo‘ri, Qari bo‘ri, O‘ylab top, Mo‘ljal, O‘rda oshiq, Soqqa oshiq, Yong‘oq, To‘rt tosh, Gang,Tosh otar,To‘p otar, Qormoqchi, Qo‘loq cho‘zma, Chertmak, Guldir-gup, Juftpar, Joyingni top, Haykal, Podsho-vazir.

O‘zbek milliy o‘yinlari: Yaxshi ota, Tashlama tayoq, Qadam tayoq, Tayoq tepdi, Tayoqlar jangi, Poda to‘pi, O‘n ikki cho‘p, Chillak, Cho‘nka-shuvoq, Cho‘pon tayoq, Qorovul, Xamir-patir, Oq suyak, Chavandozlar, Eshak mindi, Kalla ko‘pkari, Chavandoz va egarchi, Xo‘rozlar jangi, Er olar, Yelkada kurash, Chuchmoma, Ko‘k qani, Chim-chim, Sir olish, Asir-asir, Urush-urush, Bo‘ron, Qal’ani egallash, Duk urdi, Sartarosh, Sichqon-mushuk, Qozon qorovul Momom bozordan keldi, Ro‘molcha tashlash, Hammom pish, Oshqovoq uzdi, Men senda ko‘ryapman, Bo‘znimi, ko‘zini, Xola-xokam, Mo‘ljal-mo‘ljal.

Qiz bolalar o‘yini: Arqon tashlash, Happak, Sopoltosh, Jambil-jambil, Chertmak, Zina, Olib qochar, Durra otar, Qiz va qushlar, Burgut keldi, Laylak keldi, Pir etdi, Qushim boshi Kim kuchli, Latta koptok, O‘rtaga tushar, Topdim-topmadim, Sandal-sandal, So‘zma-so‘z, Tapir-tupur qaldirg‘och, Qadamma-qadam, Ko‘z boylandi Oldi-soldi, Zanjir, Sovet, Kim urdi, Ko‘z bolig‘icha, Chumchuq palak Dashinmovuq, Ajina-gujina momo, Yaxshi ona, Mehmon keldi Xolakam, Ona va bola, Sovchi kutish, Kelin-kelin, Hamsoya-hamsoya, Bola boqar, Kashtachi, Ko‘rpa tikar, Nina va ip va boshqalar.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. O‘g‘il bolalarning o‘yinlarini ta’riflang va taqdimot tayyorlab, amaliy darslarda gapirib bering?
2. Qiz bolalarning o‘yinlarini ta’riflang va taqdimot tayyorlab amaliy darslarda gapirib bering?

3. O‘zbek milliy o‘yinlarini ta’riflang va taqdimot tayyorlab amaliy darslarda gapirib bering?
4. Nima uchun xalqimizning milliy merosi boyliklaridagi milliy o‘yinlar o‘g‘il bolalarning o‘yinlari, qiz bolalarning o‘yinlari va o‘zbek milliy o‘yinlariga bo‘lingan?

IX. BOB. TURIZMDA MILLIY MADANIY MEROSDAGI MILLIY SAN’ATDAN FOYDALANISH

Tayanch so‘zlar: etnik meros, milliy etiket, san’atdagi yo‘nalishlar, folklor, etika, etnos, estetika, baxshi, qabila.

9.1. Milliy madaniy merosdagi milliy san’at yo‘nalishlari

Milliy meros boyliklari va qadriyatlaridagi milliy etnik meros, milliy madaniyat va milliy san’ati meros boyliklarining axborot-reklamalari tizimini tashkil qilishda dastlab etnik, etnos va etnografiya so‘zlarining ma’nosini keltirish lozim. Etnik va etnos atamalari-xalq, etnik jamiyatning (qabila, xalq, millat) tarixiy kelib chiqishini, turmushini, moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘rganishni bildirdi, etika (odob-axloq qoidalari, me’yorlari) so‘zi ham ko‘p hollarda etnos-xalqning, millatning tarixiy taraqqiyoti davomida saqlanib kelinayotgan milliy odob-axloqni, urf-odatlarni, milliy qadriyatlari haqida gapirilganda ishlatiladi.

Milliy etiket-salomlashish, odob-axloq, ko‘rishish, milliy urf-odatlar, kattalar va yoshlarga munosabatlar, uy tutish, kelin va sunnat to‘ylari, mehmondorchilik va turli milliy marosimlarning, jarayonlarning yig‘ma atalishi hisoblanadi.

Xalqimizning milliy merosidagi milliy san’ati quyidagi yo‘nalishlarni tashkil qiladi:

Milliy qo‘shiqchilik san’ati yo‘nalishlari:

1. Xorazm yo‘nalishi
2. Buxoro yo‘nalishi
3. Farg‘ona yo‘nalishi
4. Toshkent yo‘nalishi
5. Qoraqalpoq yo‘nalishi
6. Samarqand yo‘nalishi
7. Katta qo‘shiq
8. Maqom yo‘nalishi

***Baxshilar san'ati*:**

2. Qashqadaryo-Surxondaryo yo‘nalishi

2.1. Zarafshon-Nurota yo‘nalishi

2.3. Xorazm yo‘nalishi

2.4. Qoraqalpoq yo‘nalishi

Milliy folklor san'ati yo‘nalishlari:

1. “Lazgi” folklori (Xorazm viloyati)

2. “Boysun” folklori (Surxondaryo viloyati)

3. “Ayqulash” folklori (Qoraqalpog‘iston Respublikasi)

Milliy raqs san'ati yo‘nalishlari:

1. Xorazm yo‘nalishi
2. Qoraqalpoq yo‘nalishi
3. Buxoro yo‘nalishi

4. Farg‘ona yo‘nalishi

Milliy askiya va milliy aytishuv san'ati:

1. Milliy askiyalar (Farg‘ona vodiysi)

2.Milliy aytishuvlar, laparlar (Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi)

Milliy rassomchilik va haykaltaroshlik san'ati:

1. Milliy rassomchilik (O‘zbekistonning barcha viloyatlarida)

2. Milliy san'atdagi haykaltaroshlik (O‘zbekistonning barcha viloyatlarida)

Qadimiy, milliy tarixiy tasvirlar san'ati:

1. Qoyatoshlardagi qadimiy rasmlar (Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida)

2. Tarixiy muzeylar (O‘zbekistonning barcha viloyatlarida)

9.2.Turizmda milliy madaniy merosdagi milliy san'at yo‘nalishlaridan foydalanish

Xalqaro turizm tajribalaridan ma'lumki, yevropalik va Amerikalik turistlar ko‘proq xalqimizning tarixiy obidalari va madaniyati bilan juda qiziqishadi. Ayniqsa, xalqimizning tarixiy madaniyati, urf-odatlari, milliy hunarmandchiligi va yashash tarzi

jarayonlarini ko‘rishga, keyingi vaqtlarda milliy san’atimiz va milliy o‘yinlarimizga qiziqish xalqaro miqyosda juda kuchayib bormoqda.

Butunjahon turizm tashkilotining ma’lumotlari bo‘yicha, keyingi yillarda xalqaro turizmda mamlakatlardagi aholining tarixiy madaniyati, milliy taomlari, milliy an’analari, madaniyati, hunarmandchiligi, san’ati va milliy o‘yinlariga qiziqishi juda tobora ortib boryapti.

O‘zbek xalqining milliy etiketidagi bu atamalar xalqaro miqyosda qabul qilingan bo‘lib, bu so‘zlar bilan yaratilgan reklamalar xalqaro turizmda tushunarli hisoblanadi. Shuning uchun ham, milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishda milliy etnik meros va milliy madaniyat meros boyliklarining axborot-reklamalari tizimiga xalqimizning turmush tarzi, milliy urf-odatlari, marosimlari, milliy odob-axloqi, milliy san’ati va milliy madaniyati ko‘rsatkichlari to‘liq kiritilishi maqsadli bo‘ladi (11-Rasm).



11-rasm. Milliy etnik, milliy madaniyat va milliy san’at merosi boyliklaridan turizmda foydalanishni rivojlantirishuchun axborot-reklama tizimi

O‘zbekistonda milliy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishdagi yana bir qulay imkoniyat-xalqimizning milliy o‘yinlari, milliy urf-odatlari va milliy marosimlarining ommaviyligi va

ochiqligidir. Masalan, milliy o‘yinimiz ko‘pkari-uloq, milliy kurash o‘yinlari asosan to‘ylarda tashkil qilinganligi uchun bu o‘yinlarga turistlarni (bepul) bemalol taklif qilish mumkin.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. O‘zbek xalqining milliy san’ati deganda nimalarni tushunasiz?
2. Nima uchun o‘zbek milliy san’ati turli yo‘nalishlarda shakllangan?
3. O‘zbek millatining milliy etiketi bobida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering?
4. O‘zbek milliy san’atida siz yoqtirgan yo‘nalishlar bo‘yicha taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering?
5. Farg‘ona vodiysida askiya payrovlarining rivojlanishi va saqlanib qolganligining sabablari nimalardan iborat?
6. Xalqimizning milliy san’atining hozirgi holatini baholang va tavsiyalaringizni ayting.

X. BOB. TURIZMDA MILLIY MADANIY MEROSDAGI QADRIYATLARIDAN FOYDALANISH

Tayanch so‘zlar: qadriyat, qadr, milliy qadriyat, diniy qadriyat, shaxsiy qadriyat, umumbashariy qadriyat, oilaviy qadriyat, ma’naviy qadriyat, moddiy qadriyat.

“Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi.
U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida
saqlanadiva amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi.”
Sh.Mirziyoyev

10.1. Xalqimizning milliy madaniy qadriyatlari va ularning turlari

Qadriyat voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy, axloqiy, madaniy ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. *XX asrning boshida fransuz faylasufi P.Lapi qadriyatlar nazariyasini ifodalash uchun“Aksiologiya” yunoncha axios-qadriyat, logos-fan,ta’limot atamasini muomalaga kiritdi. Qadriyat atamasi arabcha “qadr” so‘zidan olingan bo‘lib, qimmatli, foydali degan ma’noni anglatadi.*

Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo‘lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta’rif berishga intilishgan.

Holbuki, qadriyat aksiologiyaga xos kategoriyadir. Qadriyatni aksiologiya nuqtayi nazaridan talqin qilish uni kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, obyektiv asosi, namoyon bo‘lish shakllari va xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi. Qadriyat kategoriyasi faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qimmatini emas, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo‘lgan voqelikning shakllari, holatlari,

narsalar, voqealar, hodisalar. talab va tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi. Ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlari o‘zgarib boradi.

Tarixiy zaruriyatga qarab goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi. Masalan, yurtni yov bosganida - ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida istiqlol, urush davrida - tinchlik, tutqunlikda-erkinlik, kasal yoki bemorlikda-sihat-salomatlikning qadri oshib ketadi. Qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o‘z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega.

Qadriyatlar mehnat, ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, xatti-harakatlar majmuasi sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati, xatti-harakatini ma’lum yo‘nalishga buradigan, tegishli me’yorga soladigan ma’naviy hodisaga aylanadi. Qadriyatlar umumbashariy, milliy, shaxsiy bo‘lishi mumkin.

Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, qonun qoidalarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan, abadiy qadriyatlardir. Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma’naviyati, urf-odat va an’analari, o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq *qadriyatlar milliy qadriyatlardir.* Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi, umr ma’nosi, odobi, go‘zalligi bilan bog‘liq *qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir.* Qadriyatlar komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy qadriyat-har bir millatning o‘zligini saqlaydigan va sha’nini ulug‘laydigan urf-odatdir[30].

Har bir yangidan paydo bo‘lgan urf odatki, millatning uzligini yo‘qotadigan, sha’nini toptaydigan bo‘lsa millatni inqirozga olib keladi. Qadriyatlar ikkiga bo‘linadi *birinchisi milliy qadriyatlar, ikkinchisi diniy qadriyatlar.* Milliy qadriyatlar modomiki shariat asosiga zid bo‘lmas ekan, din uni inkor qilmaydi, balki bir-birini

[30] Masharipov Q., Urganch shahar “Miskin bobo” masjidi imom-xatibi

qo‘llab- quvvatlaydi, shu bilan birga dinning mukammalligiga xizmat qiladi. Masalan, dinimizda faqatgina xojatxonada qiblaga orqa va oldini qaratishdan qaytariladi xolos, milliy qadriyatlarimizda esa qiblaga oyoqni uzatmaslikka odat qilingan, bu esa millatimizni xam milliy, xam diniy qadr-qimmatini ko‘targanligini nishonasidir.

Millatimiz barcha millat va elatlar bilan azaldan o‘zaro yaxshi yashab kelgan. Biror marta millatlararo kelishmovchilik bo‘lmagan. Bu ham bizning milliy qadriyatimiz. Bugungi zamonaviy qadriyatshunoslik fonida milliy qadriyatlar kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllandi. Rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo‘ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o‘ziga xos tarzda ta’sir qiladi deyiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni kishilarning o‘zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko‘zga tashlanib turishidan hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma’naviy asosdan bilib olsa bo‘ladi.

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ularning aloqadorligi ifodasi bo‘lgan qadriyatlar tizimi, millatimizning tarixiy silsilalari, zamon zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllanib keldi. Milliy qadriyatlarimiz millatning kelib chiqishi, xususiyatlari va hududiy makoni bilan bog‘liq holda shakllandi.

Qardosh xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-hududiy qadriyatlari ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etdi. Shu tariqa millatimiz o‘ziga xos rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirib bordi.

Milliy qadriyatlar tabiatiga ko‘ra, tor doirada to‘xtab qolmaydi, balki ravnaq topib, turmush jarayonida yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan boyib boradi. Ayonki, har bir el, elat, urug‘ yoki xalqning urf-odatlarida o‘ziga xoslik bo‘ladi. O‘ziga xos qadriyatlarni boshqa joyda, boshqacha tarzda yashayotgan kishilarning tarozisi bilan o‘lchash yoki bu masalada boshqalarning hakam bo‘lishi maqsadga muvofiq emas.

Umuminsoniylik tuyg‘usi faqat o‘z xalqi qadriyatini ardoqlash, ko‘z-ko‘z qilish va boshqalar orasiga yoyish uchun intilishga asoslanmaydi, balki har bir xalq, elat, urug‘ qadriyatlarini qanday holatda bo‘lsa, shundayligicha qabul qilib, ularni hurmat qilishdan boshlanadi.

Milliy qadriyatlarimiz rivojida islom dinining ahamiyati va o‘rni juda katta bo‘lib, u milliy qadriyatlarimizni boyitdi. Ayniqsa, xalqimiz ma’naviy qadriyatlarining takomillashib borishida islom dini keltirgan insonparvar g‘oyalar sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Islom dini kelganidan keyin Markaziy Osiyo xalqlari hayotida diniy qadriyatlar tizimi yangilandi, zaminimizdan ko‘plab mutafakkirlar, qomusiy olimlar yetishib chiqdi. Shuningdek, bu din o‘zining bunyodkorlik tamoyiliga ko‘ra ko‘plab me’moriy obidalar, shaharlarning bunyod bo‘lishiga sababchi bo‘ldi.

Milliy qadriyatimizga aylangan islom dini g‘oyalari va ko‘rsatmalari millatimizning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o‘tmishi, kelajagi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlari, an’analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqalar bilan uzviy bog‘langan. U milliy qadriyatlarimiz bilan xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ldi, o‘ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qildi.

Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta’minlovchi qadriyatlar - yagona e’tiqodlilik, qarindoshlik, madaniy-ma’naviy yaqinlik, o‘tmish va ma’naviy meros, ona yurt tuyg‘usi va boshqalar barqaror hisoblanadi. Milliy qadriyatlarimiz tarkibidagi ba’zi islomiy qadriyatlarimiz kishilarning yashash joylari, turmush sharoitlari bilan bog‘liqlikda shakllandi. Shu sababli ham mintaqamizda bizning turmush tarzimiz, shart-sharoitlarimizga mos tarzda shariatning hanafiyalik yo‘nalishi rivojlandi.

Xalqimizning ma’naviy merosi, an’analari, urf-odatlari, adabiyoti, san’ati bilan umuminsoniy qadriyatlarning milliy darajada namoyon bo‘lish shakllari islomiy qadriyatlar bilan bog‘lanib ketgan. Ularda millatimizning tarixiy rivojlanish jarayonida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan madaniy xususiyatlar va jihatlarda o‘z aksini topadi.

Jannatmonand yurtimiz va dono xalqimizning buyuk tarixi, betakror qadriyatlari borki, ular milliy va diniy an’analarni asrlar davomida o‘zida ifoda etib keladi. Mazkur qadriyatlarni hech qanday kuch, tashviqot va taqiqlar o‘zgartirolmaydi, chunki bu millatimizning ajralmas qadr-qimmatiga aylanib ketgan. Bu yurtimizda doim keng nishonlanib kelayotgan diniy bayramlar-ikki iyd bayramidir. Ushbu kunlarda muhtojlarga yanada ko‘proq mehr-oqibat, xayr-saxovat ko‘rsatish xalqimizga xos fazilat.

Bu go‘zal odat o‘zida umuminsoniy qadriyatlar va barcha ilohiy ta’limotlar mazmun-mohiyatini mujassam qilgan. Aynan shu qadriyatlarimizda keksalarga hurmat ko‘rsatiladi, yoshlar izzat qilinib, yetimlar, kam ta’minlangan va ehtiyojmandlar holidan xabar olinadi. Shariatimiz ko‘rsatmasiga ko‘ra, garchi o‘ziga to‘q bo‘lsa ham, yaqin qo‘shnilar holidan xabar olish, ularning haqiga rioya qilish chin mo‘min-musulmonning insoniylik shioridir.

Milliy qadriyatlarning turlari. B.Ziyomuhammadov o‘zining “Komillikka eltuvchi kitob” asarida “Qadriyat” so‘ziga quyidagicha ta’rif beradi: “Kishini qurshab turgan cheksiz ko‘p narsa va hodisalar,shu jumladan, milliy ma’naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh yo aniq bir millat yoxud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo‘lganlarini qadriyat deyiladi. “Moddiy qadriyatlar-kishilar moddiy ehtiyojlarini qondirib, o‘ziga xos xususiyati va shakllariga ko‘ra odamlarda alohida his-tuyg‘u uyg‘otuvchi moddiy narsalarga aytiladi. Ularga buyuk inshootlar, bog‘ va xiyobonlar, antiqa uy-ro‘zg‘or buyumlari, tarixiy qimmatga ega bo‘lgan uy anjomlari, qurol-yarog‘, oziq-ovqat, shaxsiy buyumlar va shunga o‘xshash narsalar kiradi.

Qadriyatlar - umumbashariy, milliy va shaxsiy bo‘lishi mumkin:

1) Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan, umumbashariy abadiy qadriyatlardir;

2) Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, urf-odat va an’analari, o‘tmishi va hozirgi hayoti.

3) Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi, umr ma’nosi, odobi, go‘zalligi bilan bog‘liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir.

Qodirov X. o‘zining “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat hayotidagi o‘rni” nomli maqolasida: “O‘zbekiston xalqi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi. Milliy qadriyatlar quyidagilardan iborat, deb quyidagilarni sanaydi:

1. Xalqimiz hayotida jamoa bo‘lib yashash ruhining ustuvorligi;

2. Xalq ongida ustuvor bo‘lgan fikr-do‘st va yaxshi qo‘shni bo‘lib, tinchlik va totuvlikda, yaqindan hamkorlikda yashash;

3. Oila, mahalla, el-yurt, Vatan tushunchalarini muqaddas bilish;

4. Ota-ona, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat-e’tibor ko‘rsatish, butun jamiyatni hurmat qilish;

5. Millatning o‘lmas ruhi, millat ma’naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat uyg‘otish, uni sevish;

6. Kattalarga hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat-e’tibor, degan qoidaga amal qilishdi;

7. Ayol zotiga ehtirom ko‘rsatish, ya’ni, muhabbat, go‘zallik va nafosat timsoli bo‘lgan ayolni qadrlash;

8. Sabr-toqat va mehnat sevarlik;

9. Halollik, mehr-oqibatni nazarda tutadi.

Ko‘plab olimlar qadriyatlar va ularning turlariga quyidagicha yondashganlar:

Oilaviy qadriyat - bir oila uchun ma’lum bir ma’naviyat turi (masalan, tug‘ilgan kunni nishonlash);

Milliy qadriyat - millatning asrlar mobaynida yaratgan ma’naviy boyliklari, noyob tarixiy obidlarini avaylab-asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish, rivojlantirish, hurmat bilan munosabatda bo‘lish, hurfikrliklik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish, ma’naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish;

Jamoa qadriyati-ma’lum bir mahallada, qishloqda, mehnat jamoasida biron ijtimoiy hodisa (ommaviy tadbirlar, masalan, hashar) urf bo‘lgan;

Umuminsoniy qadriyat- jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi, maqsad va intilishlarini o‘zida ifoda etadi. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma’naviyat, o‘z navbatida, Islom xalqlari ma’naviyati, Hindiston xalqlari ma’naviyati, Yevropa xalqlari ma’naviyati, Sharq xalqlari ma’naviyati yo‘nalishlari quyidagicha yoritilgan:

Islom xalqlari ma’naviyati-*arab* xalqlari, forsiyzabon xalqlar, turkiy xalqlar;

Yevropa ***xalqlari ma’naviyati***- rus, ingliz, fransuz ma’naviyati va hokazolar;

Hindiston xalqlari ma’naviyati- oriy xalqlar ma’naviyati, dravid xalqlari ma’naviyati;

Sharq xalqlari ma’naviyati-*yapon* ma’naviyati, xitoy ma’naviyati.

Badiiy qadriyatlar:

Xalq og‘zaki ijodi (afsona, rivoyat, ertak, doston, maqol, qo‘shiq, raqs, aytishuv, latifa, lof, askiya, topishmoq va boshqa..;

Xalq tasviriy va amaliy san’ati (xalq yaratgan badiiy estetik san’at namunalari, xalq teatri, xalqning musiqiy san’ati).

10.2. Turizmda milliy madaniy qadriyatlardan foydalanish

Milliy qadriyatlar haqida. Nima uchun qadriyatlar muhim? Milliy qadriyatlarning aniq shakllantirilgan ro‘yxati bormi yoki bo‘lishi kerakmi?. Shu choqqa qadar olim-u-mutaxassislar “qadriyat” tushunchasiga turlicha ta’rif bergan. Ulardan ayrimlarini keltirib o‘tmiz:

“Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib,

qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim”;

“Qadriyatlar-jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”;

“Qadriyat-inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha”;

“Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha”;

Bu ta’riflardan qadriyat-biz uchun qadrli bo‘lgan urf-odat va an’analarimiz, hayotiy prinsiplarimiz, deb xulosa qilish mumkin. O‘z navbatida qadriyatlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘linadi, ya’ni millat, xalq uchun xos bo‘lgan qadriyatlar milliy qadriyatlar, butun bashariyat uchun xos bo‘lgan qadriyatlar esa umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi.

Milliy qadriyatlarni ham mohiyatiga ko‘ra, tabiiy, moddiy, ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy qadriyatlarga ajratish mumkin. Masalan, minglab yillar davomida shakllangan boy ma’naviy xazinamiz biz uchun ma’naviy qadriyat, halollik, poklik, ishonchlilik esa iqtisodiy qadriyatdir. Shunday bo‘lsa-da, ko‘pchilik mutaxassislar insonning o‘zi, hayoti, huquqi va erki, sog‘lom va farovon turmushini qadriyatlarning eng oliysi, deb hisoblaydi.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarda qadriyat masalasiga qanday qarashadi? Ayrim misollarni keltirib o‘tsak.

Amerika Qo‘shma Shtatlarining milliy qadriyatlari. Ma’lumki, Amerika Qo‘shma Shtatlari xalqini turli xil millat va elat vakillari tashkil etadi, aniqrog‘i bitta millatning yaqqol ustunligi ko‘rinmaydi, boshqacha aytganda qurama xalq. Bir qarashda ularning har biri uchun o‘ziga xos qadriyat bordek. Bu fikr ham to‘g‘ri, ammo millati va tilidan qat’iy nazar, butun mamlakat xalqi uchun bir xilda taalluqli qadriyatlar ham bor. Hatto ularning aniq ro‘yxati ham shakllantirilgan.

AQSh Davlat departamentining sayti (https://www.state.gov/ cour ses /answering difficult questions/ assets/m/resources/ Difficult Questions-AmericanValues.pdf)da berilgan ma’lumotga ko‘ra, qo‘yidagilar Amerikaliklar uchun qadriyat hisoblanadi:

1. Independence (Mustaqillik)
2. Equality (Tenglik)
3. Individualism (Individuallik)
4. Democracy (Demokratiya)
5. Nationalism (Millatparvarlik)
6. Meritocracy (Meritokratiya)
7. Directness (To‘g‘rilik)
8. Innovation (Innovatsiya)
9. Consumerism (Iste’molchilik)
10. Informality (Norasmiylik)
11. Efficient use of time (Vaqtdan unumli foydalanish)

E’tiborlisi, saytdagi manziliga qaralsa, bu ma’lumot “qiyin savollarga javob berish” (answering difficult questions) qismida berilgan. Chunki bu rostdan ham juda qiyin savol. Yaqinlaringizdan biri “bizning qadriyatlarimiz nima?” deb savol berganda javob qaytarishga urinib ko‘ring-chi.

Daniyaning milliy qadriyatlari. Daniya-Yevropadagi mittigina mamlakat, ammo u ham o‘zining shonli tarixi, bugungi taraqqiyoti va farovonligi bilan g‘ururlana oladi. *Daniyaliklar baxtiyorlik indeksi bo‘yicha dunyoda eng oldingi o‘rinlarda turadi.* Shu kichkina mamlakat ham o‘z qadriyatlari ro‘yxatini aniqlab olgan. Bunda aholi orasida so‘rov o‘tkazish usulidan foydalanildi. So‘rovda 325 ming kishi ishtirok etdi va ulardan 2500 ta taklif kelib tushdi. 2016-yilning 12-dekabrida Denmark Canon Daniyaliklar uchun qadriyatlar ro‘yxatini shakllantirgan.

1. Welfare society (Jamiyat farovonligi).
2. Freedom (Ozodlik).
3. Trust (Ishonch).
4. Equality for the law (Qonun oldida tenglik).
5. Gender equality (Gender tengligi).

6. The Danish language (Daniyaliklar tili).

7. Associations and voluntary work (Uyushmalar va ko‘ngillilar ishi).

8. Liberality/tolerance (Erkinlik/tolerantlik).

9. Hygge. Hygge is seen as a special way of being together in a relaxing, nice atmosphere (Xyugg bu- xotirjam qiluvchi yoqimli bir muhitda suhbat qurishning o‘ziga xos vositasi).

10. The Christian heritage (Nasroniylar merosi).

E’tibor qilgan bo‘lsangiz, daniyaliklar umuminsoniy ahamiyatga ega qadriyatlar bilan bir qatorda o‘zlariga xos bo‘lgan qadriyatlarni ham ilgari surmoqda. Buni ona tiliga, urf-odatlar va diniy e’tiqodga bo‘lgan hurmat misolida ham ko‘rish mumkin.

Buyuk Britaniyaning milliy qadriyatlari. Britaniyaliklar ham “Prevent” (“Oldini olish”) strategiyasi doirasida 2011-yilda o‘z qadriyatlarini aniqlab olgan. Mana ular:

• Democracy (Demokratiya)

• Rule of Law (Qonun ustuvorligi)

• Respect (Hurmat)

• Tolerance (Tolerantlik, bag‘rikenglik)

• Individual Liberty (Shaxsiy erkinlik)

Bu qadriyatlarni Britaniya maktablarida targ‘ib qilish bo‘yicha qo‘llanma ham rasman tasdiqlangan (https://www.gov.uk/ government /news/guidance-on-promoting-british-values-in-schools-published). Unda shunday deyilgan: “Biz har bir maktab Britaniyadagi asosiy qadriyatlar bo‘lgan demokratiya, qonun ustuvorligi, shaxs erkinligi va turli xil din vakillariga nisbatan hurmat va bag‘rikenglikni targ‘ib qilishini istaymiz”.

Rossiyaning milliy qadriyatlari. Rossiya ham o‘z qadriyatlarini aniqlab olgan. Rossiya Federatsiyasida 2025-yilgacha bo‘lgan davrda tarbiyani rivojlantirish strategiyasida Rossiyaliklarning belgilangan qadriyatlari sifatida:

- insonparvarlik;

- adolatlilik;

-or-nomus;

-iroda;

-shaxsiy qadr-qimmat;

-e’tiqod va ezgulik;

-o‘zi, oilasi hamda Vatani oldidagi ma’naviy burchini bajarishga intilish.

Qadriyatlar nima uchun kerak? Aytib o‘tganimizdek, dunyoda har bir millat va xalqning o‘zligini anglashi va asrashi, sha’nini ulug‘lashida qadriyatlarning o‘rni beqiyos. U o‘tmishni bugun bilan bog‘lab, kelajakka dadil qadam qo‘yishning muhim omili. U millatidan qat’i nazar mamlakat xalqini jipslashtirish va yagona kuch sifatida ertangi kunga teran nigoh tashlash vositasi.

Teran va aniq fikrlash esa rejalashtirish ufqini kengaytiradi, ertangi kun o‘zi bilan nima olib kelishiga oydinlik kiritadi. Bu esa hamma vaqt halovat beradi. Demak, jamiyatdagi tinchlik, barqarorlik, taraqqiyot va farovonlik bevosita qadriyatlar bilan bog‘liq. Qadriyatlarni belgilash va targ‘ib qilishga qaratilgan sa’y-harakatlarni ham shu bilan izohlash mumkin.

Bizda ham qadriyatlar ro‘yxatiga ehtiyoj bormi? Umuman olganda, dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lmagan millatning o‘zi yo‘q. Biz ham istisno emasmiz. Biz ham tariximiz, yashash tarzimiz, ma’naviyatimiz, madaniyatimiz bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarga egamiz. Ammo ularning eng muhimlarini belgilab olish va targ‘ib etish zaruratini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bizda ham bunga ehtiyoj bor, biroq hozircha bu borada aniq bir to‘xtamga kelingani yo‘q.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham qadriyatla rimiz o‘z aksini topgan. Buni xususan, bunyodkorlik g‘oyalariga sodiqlik, yuksak mas’uliyat, ijtimoiy adolatparvarlik, insonparvarlik, milliy totuvlik, xalqimizning urf-odatlari va an’analari, mafkuralar xilma-xilligi va erkinligi, ijtimoiy adolat, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, vijdon erkinligi, adolatli mehnat kabi tamoyillar misolida ko‘rish mumkin. Konstitutsiya bu hujjat. Konstitutsiyada belgilangan moddalarning hayotdagi ijrosini ta’minlash uchun unda aks ettirilgan g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash kerak. Buning uchun qadriyatlar bir-

biriga mos tushishi kerak. Bu yerda qadriyatlarimizni aniqlab olish va tagiga chizib qo‘yish fursati yetgandir.

Agar biz Andijon, Surxondaryo va Xorazmdagi yoshlardan qadriyatlarimiz nima, deb so‘rasak, ular bir-biriga 90% yaqin qadriyatlarni aytsa, demak bizda hammasi yaxshi. Ammo “qadriyatlarimiz” deb 100 marta eshitgan 14 yoshli bola, ularning to‘liq ro‘yxatini qayerdan ko‘rib o‘rganishi mumkin? Hammaga tanishtirilgan qadriyatlar ro‘yxati bormi, degan savol yuzaga keladi. Hozircha yo‘q. Biz ham bu borada bir to‘xtamga kelib, aniq va tiniq qilib belgilasak, u yoki bu hodisa, qonun va xatti-harakatni baholashda qo‘l keladigan prizma yoki mezonni yaratib olgan bo‘lardik.

Chunki qonun va qarorlardan tashqari qadriyatlar maydoni ham bir yoqadan bosh chiqarish, u yoki bu masalada konsensusga kelishini muhim qo‘llab-quvvatlovchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Eng muhimi, yoshlarning maktabini zamonaviy va yangi O‘zbekiston jamiyatiga tayyor va mos bo‘lib bitirishida yordam beradi. Ya’ni uyg‘unlashtirish masalasini hal etadi.

Masalaning yana bir jihati shundaki, agar qadriyatlarimiz ro‘yxatini o‘zimiz aniqlab olmasak, kimdir chetdan turib uni biz uchun aniqlab berishga urinadi. Bunday holatda taqdirimizni biz emas, boshqalar belgilagan kun tartibiga ko‘ra yaratishimizga to‘g‘ri keladi.

Yana bir boshqa variant»qadriyatlar aniq belgilab bo‘lmaydigan murakkab mavhum tushuncha va bu aniqlashtirib olish borasidagi urinishlar ish bermaydi, bu sun’iy yasama bo‘lib qolaveradi» degan xulosaga kelish. Lekin nima uchun boshqa mamlakatlarda o‘z qadriyatlarini aniqlab olish va yozib qo‘yishga ehtiyoj tug‘ildi? Nima uchun Buyuk Britaniyada ular aniqlab olindi va maktablarda Britaniya qadriyatlarini targ‘ib qilish bo‘yicha alohida qo‘llanma chop etildi? Chunki bu har bir mamlakat uchun bir qator muhim vazifalarni hal etadi: majoziy ma’nodagi DNK ni saqlab qolish, dunyo ahliga biz kim ekanligimizni va kim bo‘lib qolishimizni bildirish, uyg‘unlikni yaratish, o‘tmishdan kelajakka foydali dars, omonat, tirgak va mezonlarni yetkazish.

Har tomonidan muhokama qilingan va tasdiqlangan qadriyatlar suv va havodek kerak bo‘ladi. Buni qancha tezroq aniqlab olsak, shuncha yaxshi. Keyingi bosqich bu qadriyatlarni yoshlar bilan baham ko‘rish va ularga shu qadriyatlarga suyunish va unga sodiq qolishni tavsiya etish, bu qadriyatlar ularga yuk emas, bo‘ron paytida boshpana, oyoqdagi tosh emas, kuch beradigan tirgak bo‘lishini tushuntirish.

Agar yoshlar bu haqida fikr yuritishni lozim topib, shuni aniqlab olinadigan qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilsa va ularning zamirida katta hikmat borligiga ishonsa, demak bu qadriyatlar yashab qoladi.

Bizning milliy qadriyatlarimiz: Dunyoda har bir millat va xalqning o‘zligini anglashi va asrashi, sha’nini ulug‘lashida qadriyatlarning o‘rni beqiyos. Xalqimizning minglab yillik boy tarixi, ma’naviy merosi, turmush tarzi, hayotiy qarashlari va e’tiqodidan kelib chiqqan holda muhim milliy qadriyatlarimiz ro‘yxati sifatida quyidagilarni taklif qilmoqchimiz:

1. Ota-onaga ehtirom
2. Tozalik
3. Harakatda baraka
4. O‘zbek tili
5. Diniy bag‘rikenglik
6. So‘z erkinligi
7. Lafz (qonun, burch va kelishuvga sadoqat)
8. Yelkadoshlik
9. Mehmondo‘stlik
10. Rozi-rizolik

Albatta, ushbu qadriyatlar ro‘yxatini tugal, deyish noo‘rin. Uni takomillashtirish uchun keng jamoatchilik, ommaning ham takliflari inobatga olinishi zarur. Ro‘yxat yurt ziyolilari, muhokamalar va tahlillar, milliy maslahat orqali qancha tez aniqlansa, shuncha yaxshi. Muhimi dastlabki qadamni qo‘yish.

Joriy yilning 11-aprelida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etish borasidagi dolzarb vazifalar

muhokama etildi. Unda qayd etilganidek, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, bandligini ta’minlash, ularni IT, xorijiy til, zamonaviy kasblarga o‘qitish, sportga jalb qilish, xorijdagi yoshlar bilan ishlash, milliy va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash Yangi O‘zbekistonni barpo etishning muhim shartidir. Demak, qadriyatlar masalasini yana bir karra puxta o‘ylab ko‘radigan fursat yetdi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. Qadriyat va qadr nima?
2. Qadriyatning qanday turlari bor?
3. Shaxsiy qadriyatlar Bobida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering?
4. Moddiy qadriyatlar Bobida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering?
5. Umumbashariy qadriyatlar Bobida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering?
6. Oilaviy qadriyatlar bobida taqdimot tayyorlang, Sizning oilangizda ko‘proq qaysi qadriyatlarga amal qiladi va bu qadriyatlarni siz qanday tushunasiz?

XI. BOB. TURIZMDA MILLIY MADANIY QADRIYATLARNING TURLARIDAN FOYDALANISH

Tayanch so‘zlar: qadriyat, aksiologiya, iymon, e’tiqod, avlod, milliy qadriyat, oilaviy qadriyat, shaxsiy qadriyat, rivoyat, afsona.

11.1. Ma’naviy qadriyatlar

I.*Ma’naviy qadriyatlarning* tarkibi quyidagilardan iborat: *axloqiy qadriyatlar:*axloqiy bilimlar va ko‘nikmalar, axloq qoidalari yordamida o‘quvchining xulq-atvori, hatti -harakatlarini boshqarish tizimidir. Axloqiy madaniyat o‘quvchining ko‘p qirrali faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi. Axloqiy madaniyat ko‘rinishlari xilma-xil:

- Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik;
- Erksevarlik, faollik, ijodkorlik, ma’sumiyatlilik;
- Saxiylik, kamtarlik, poklik va shu kabilar.

Odobli, bilimdon, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Darhaqiqat, har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi. Demak, oila-barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona vatanni sevish hissini uyg‘otish o‘ta muhim hisoblanadi.

Oilada farzandlarning o‘z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas’uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunda ota-onaning o‘zaro samimiy munosabati, ularning farzandlari bilan yaqin, do‘stona munosabatda bo‘lishi, ularning kelajakdagi orzu-maqsadlarini tushunib olishlari, farzandlarning sog‘-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo‘ladi.

Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvorga, odatlarga va aql-farosat omillariga ega bo‘lgan bo‘lsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi anglaydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi, va aksincha,

qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy ko‘nikmalari oz bo‘lsa, bunday shaxs ba’zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo‘l uradi.

Hech qachon bolalarni tarbiyalashda yo‘l qo‘yilgan xato-kamchiliklardan ko‘z yummasligimiz kerak. Hozirgi turmushimizda ba’zi bir odobsiz, bilimsiz, aqlsiz, giyohvand, ota-onasiga qo‘l ko‘taradigan va o‘z bolalarining baxtsiz yashashiga sababchi bo‘layotgan kishilar uchraydi. Bundaylarning paydo bo‘lishiga asosiy sababchi ota-onalari-ku? Bolasining insoniy hatti -harakatlariga ularning tarbiyaga loqaydliklari sabab bo‘lgan.

Yaxshi tarbiya, ba’zilar o‘ylaganidek, bir soatlik yoki bir kunlik ish emas. Maqsadli tarbiya tarbiyachidan chidam, matonat, katta bilim va tajriba talab qiladi. Demak, har bir ota-ona va o‘qituvchi tarbiyaga oid bilim va malakaga ega bo‘lishi shart.

Bolalar tarbiyasida tezda ijobiy natijalarga erishish uchun ularga bilim berish bilan birga, ma’lum mehnat jarayonlariga jalb etish, kasb va mutaxassislik sir-sinoatlarini qo‘shib o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiya ishining ba’zan samarasiz bo‘lishiga asosiy sabablardan biri tarbiya jarayonida tartib-intizomning bo‘lmasligidir. Shaxs qanchalik mehr-muhabbat va tartib-intizom asosida tarbiyalansa, yomon xatti harakatlardan shunchalik uzoq bo‘ladi.

Tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarni baxtli-saodatli, o‘z zamonining aziz, hurmatli va fidoiy kishisi qilib tarbiyalashdan iborat. Tarbiyaning murakkabligi shundaki, u hech qachon tugamaydi, ya’ni kishi tug‘ilganidan to o‘lguniga qadar zarur bo‘ladi. Bundan tashqari, bir tarbiya ko‘rgan avlod o‘rniga kelgan farzandlarni yana qayta boshdan tarbiya qilish darkor bo‘ladi. Bu esa tarbiyaning tinimsiz davriyligini va abadiyligini ko‘rsatadi.

Islom ta’limotiga ko‘ra, farzand ota-ona zimmasidagi omonat bo‘lib, ular bu omonat haqida mas’uldirlar. Farzandlar tarbiyasiga e’tiborsizlik ulkan xato, omonatga xiyonat va kishi dinining nuqsonidir.

Ota-ona farzandining birinchi murabbiylari. Har qanday tarbiya, xususan, nasihat oilada boshlanadi. Tarbiyaning bosh maqsadi - bir-biriga mehr-oqibatli insonlarni voyaga yetkizishdir. Ota va onalar yana

unutmasinlarki, bugun farzandlari tarbiyasiga e’tibor bermagan kishi oradan yillar o‘tgach, uysiz, oilasiz qoladi.

Abu Homid G‘azzoliy farzand tarbiyasi haqida shunday fikrlarni bildiradi: “Bilgin! Bola tarbiyasi eng muhim ishlardandir. Farzand ota va onaga omonat. Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va suratdan xoli gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko‘ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi. Agar bola yaxshilikka o‘rganib, yaxshilik ichida voyaga yetsa, dunyo va oxirat saodatini topadi. Albatta, bu savobga uning ota-onasi, muallimi va unga tarbiya bergan har bir kishi sherikdir. Agar bola e’tiborsiz tashlab qo‘yilsa, yomonlik ichida o‘ssa, badbaxtlikka yuz tutadi va halok bo‘ladi. Bunda gunoh yuki shu ko‘yga solganlarning, ota-onaning zimmasiga yuklanadi” deydi.

Tarbiyaning ikki asosi bor: fazilatni qo‘riqlaydigan, go‘zal axloq va yaramas yo‘ldan, yomon ahvolga tushishdan saqlaydigan hushyorlik. Ota farzandini dunyo olovidan qanchalik himoya qilsa, oxirat olovidan undan-da ko‘proq himoya qilmog‘i kerak.

Odob-u tarbiya vositasida yaxshi xulqlarni o‘rgatish, yomonliklardan qaytarish, to‘kin-sochinlikka odatlantirmaslik, ziynatga muhabbat uyg‘otmaslik bilan ota farzandini oxirat olovidan asraydi.

Farzand tarbiyasi qanchalik erta boshlansa, tarbiya natijasi shunchalik samarali bo‘ladi. Chunki erta yoshda ularni yaxshilik tomon burish osonlik bilan kechadi. Tarbiyasizlikdan vujudga kelgan yomon xulq va odatlarni keyinchalik qayta tarbiyalash yo‘li bilan tuzatish mumkin. Ammo buning uchun ko‘p mehnat sarf qilishga to‘g‘ri keladi.

11.2. Milliy qadriyatlar

Milliy qadriyatlar: Milliy qadriyatlar alohida olingan xalq, millat va elatlarning o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklari, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari va millatlarning o‘zligini belgilaydigan o‘ziga xos xususiyatlarining jamlanmasidir;

Xalq amaliy san’ati, xalq o‘yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, marosimlari milliy qadriyatlarga kiradi.

Diniy qadriyatlar: Din siyosat emas, lekin ma’naviy hayotning bir qismi hisoblanadi. Diniy qadriyatlar ko‘plab millatlar, elatlar, xalqlarga taalluqli bo‘lgan. Ularni g‘oyaviy jihatdan birlashtirgan diniy talablar, g‘oyalar, rivoyatlar, marosimlar, bayramlar yig‘indisidan iborat. Diniy madaniyatning asosida sharq xalqlari kalomi, ya’ni e’tiqod ilmi, tafsir yoki Quron Karim sharhi, hadis-axloq, tarix, dunyoviy bilimlarni egallash yotadi. Diniy qadriyatlar iymon, e’tiqod, birovga yaxshilik qilish, bilim olish, kambag‘allarga yordam berish, vijdonlilik, sabr, poklik, saxovat, halollik, insoniylik kabi qadriyatlar asosida targ‘ib qilinadi.

Ma’naviy va diniy qadriyatlarimiz tarixan uyg‘un holda rivojlanib, takomillashib borgan. Ayniqsa, ma’naviy qadriyatlar rivojida an’anaviy islomning o‘ziga xos o‘rni bor. Insoniy fazilatlarning eng yuqori cho‘qqisi, shubhasiz, odob durdonalaridir. Xususan, bugungi kunda komil insonni kamol toptirishda ma’naviy qadriyatlarning ahamiyati beqiyos.

Bu borada, millatimizning ma’naviy qadriyatlari haqida gap ketganda uzoq asrlar qa’rida yuzaga kelgan, vatanparvarlik, do‘stlik, tinchliksevarlik, mehmondo‘stlik, mehnatsevarlik, muruvvat, andisha, or-nomus, halollik, mehr-oqibat, birodarlik va ahil qo‘shnichilik munosabatlari kabi ezgu insoniy fazilatlarni alohida qayd etish lozim. Mintaqamizda o‘n asrdan ortiq mavjud bo‘lib kelayotgan islom dini xalqimizning ana shunday beqiyos ma’naviy qadriyatlarida chuqur aks etib turadi.

Shu o‘rinda bitta nozik nuqtaga e’tibor qaratish zarur. Nafaqat yurtimizda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida deyarli ming yildan beri islom dini bilan bog‘liq qadriyatlarimiz Hanafiy mazhabi asosida shakllanib kelgan. Hanafiy mazhabining bag‘rikenglik tamoyillari shariatga zid bo‘lmagan milliy urf-odat va an’analarni saqlanib qolishdagi o‘rni beqiyos. Biz hozirda faxrlanib yodga oladigan ajdodlarimizning aksari mana shu mazhab vakillari bo‘lganlar.

Demak, ayta olamizki, milliy va diniy qadriyatlarimiz qatorida Hanafiy mazhabi an’analari ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Hozirda, yurtimizga chetdan kirib kelayotgan, xalqimizning asrlar davomida shakllangan e’tiqodiga zid bo‘lgan turli begona diniy oqim va firqalar nafaqat muqaddas dinimizga, balki, bevosita ma’naviy qadriyatlarimizga ham tajovuz ekanini anglab yetishimiz kerak.

Yurtimizda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari kabi buyuk ajdodlarimizning bebaho ma’naviy merosini, xususan, hanafiy mazhabi ulamolarining merosini hamda moturidiylik aqidaviy ta’limotini o‘rganish va targ‘ib qilish markazlari faoliyatiga bejiz asos solinmadi.

Demak, to‘laqonli ishonch bilan ayta olamizki, hanafiy mazhabi va moturidiylik ta’limoti-xalqimizning ma’naviy qadriyatlari bilan mujassamdir. Nafaqat bizning, balki mintaqamizdagi qardosh va dindosh xalqlarning ham muqaddas qadriyatidir. Hanafiy mazhabi an’analariga zid oqimlar va firqalarning g‘oyalarini tarqatish milliy ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizga tahdid, deb qaraladi.

Ta’kidlash joizki, mehmondo‘stlik, o‘zaro hurmat-ehtirom, ota-onaning haqlarini ado etish, ijtimoiy hamkorlik, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shnilar, xususan, jamiyatdagi ehtiyojmand qatlamlarga ko‘maklashish xalqimizga xos ezgu fazilatga aylangan. Jahonda kechayotgan koronavirus pandemiyasining eng og‘ir pallasida xalqimizning jipsiligi va ahilligi, o‘zaro yordamlashishga doimo tayyorligining jonli guvohi bo‘ldik. Agar biz g‘arbdan kirib kelayotgan individualizmga yon berib, millatimizga xos bo‘lgan jamoaviylik tamoyillarini yo‘qotib qo‘yganimizda natija qanday bo‘lar edi?

Demak, bugungi rivojlangan jamiyatda, xususan, globallashuv davrida ma’naviy qadriyatlarning o‘rni beqiyos. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqat. Ma’naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, targ‘ib qilish bugungi jamiyatning dolzarb va ustuvor vazifalari ekanligi bejizga emas. Ammo, kezi kelganda aytish kerak - bugun ijtimoiy hayotda mavjud ayrim illatlarning *“o‘zbekchilik”* deb xaspo‘shlanishi mutlaqo o‘rinsiz holatdir.

Dabdabachilik, moddiyparastlik, har qanday ishda kim o‘zarga berilib ketish, riyokorlik, xo‘jako‘rsinchalik, jinoyat botqog‘iga botirib yuboruvchi tanish-bilishchilik va korrupsiya kabi illatlar millatni va xalqni tanazzulga yetaklaydi. *“Topayaptimi qandini ursin” deyish, “uzumini yeb, bog‘ini surishtirmaslik”* millatning ofati bo‘lib xizmat qiladi.

Pul topgan, mol topgan, obro‘li bo‘lavermaydi, qayerdan qay yo‘sinda topgan, nimaga sarflayapti, birovning haqqini yeb, o‘zini harom-harishga urgan kimsa kabi kishilardagi salbiy illatlar yuzasidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilishi darkor. Xususan, fuqarolik jamiyatining muhim asoslaridan biri jamoatchilik nazoratining mavjud bo‘lishidir. Odamlar bunday holatlarga befarq va loqayd bo‘lmasliklari, eng asosiysi xayrixoh bo‘lib qolmasliklari shart.

Ko‘rinib turibdiki, globallashuv jarayonida texnologik rivojlanish bilan birga ma’naviy qadriyatlar ham jamiyat a’zolari uchun suv va havodek zarur. Zero, bugungi rivojlangan davrda jamiyat ma’naviy qadriyatlarsiz ruhan va ma’nan kemtik holatga tushib qoladi. Har qanday jamiyatda axloqiy me’yorlarning ahamiyati beqiyos.

Globallashuv sharoitida moddiy chegaralar tobora nisbiylashib, ma’naviy qadriyatlar asta-sekin umumiylashib borishi kuzatiladi. Bunday davrda milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolish, milliy o‘zlikni anglash va qadriga yetish tushunchalari ustuvor maqsadga aylanadi. Milliy o‘zlikni anglash va qadrlash jarayoni ma’naviy qadriyatlarimizning poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqimizning ma’naviy merosini yo‘qotish maqsadida unga tarixda juda ko‘p zug‘um qilingan. Taassufki, yurtimizda sobiq sovet mustabid tuzumining qadriyatlarimizni yo‘q qilishga qaratilgan zo‘ravon mafkurasi hukmronlik qilgan yillarda bizni buyuk moddiy va ma’naviy meroslarimizdan, o‘zligimiz, din-u diyonatimizdan judo qilish, xalqimizning milliy g‘ururini sindirish maqsadida mamlakatimizdagi ko‘plab qadimiy va betakror obidlarimiz buzib tashlanishi, xalqimizning moddiy va ma’naviy merosiga bo‘lgan tajovuz edi.

Lekin, moddiy va ma’naviy qadriyatlarimizni eng avvalo Alloh asradi, shu tariqa bu qadriyatlarimiz bizgacha yetib keldi. Ana shuning uchun buyuk tariximizni har tomonlama chuqur o‘rganish, undan zarur saboq chiqargan holda yo‘l tutish, boshqacha aytganda, jamiyat taraqqiyotini belgilashda ajdodlar merosi hisoblangan moddiy va ma’naviy qadriyatlarni hisobga olish kerak.

Bugungi dorilamon kunlarda erkin va ozod nafas olib yashar ekanmiz, yaqin o‘tmishimizda yuz bergan ana shunday mash’um kunlarni, ularning saboqlarini hech qachon unutmasligimiz kerak. Millat, davlat yoki jamiyatning milliy taraqqiyoti uning zamirida yaratilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlarning uyg‘unligi bilan belgilanadi. Ya’ni jamiyat taraqqiyotini o‘zida mujassam etgan milliy g‘oya bilan bog‘liqligini aks ettirishi lozim:

Shaxs hayotida, umuman ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum davrlarida moddiy va ma’naviy qadriyatlar eng dolzarb moslama bo‘lib, kelajakda hal qiluvchi vosita hisoblangandir.Milliy moddiy va ma’naviy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o‘ziga xos mezon vazifasini o‘taydi.Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros tarzida kelayotgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar uzoq tarixiy jarayonda shakllangan ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligini o‘zida mujassamlashtiradi.

Ziyorat qilish odobi. Oldindan ta’kidlashimiz lozimki, biz din sohasining bilimdonlaridan emasmiz. Shuning uchun ham ziyorat qilish odobini adabiyotlardan foydalanib keltirishimiz mumkin. Xalqimizdagi ziyoratni kuzatadigan bo‘lsak, ziyoratlar ba’zida noto‘g‘ri ma’noda bajariladi. Biz ko‘plab hollarda ziyoratni aziz-avliyolarning o‘zlariga iltijo qilish (niyatlar, so‘rov, tilak, yordam va hokazolar) bilan cheklanamiz. Bunday ziyorat noto‘g‘ri deyilmoqda. Shuning uchun ham, ziyorat odobi va tartibi haqida olimlarning tavsiyalari yoki fikrlarini keltirish o‘rinli deb hisoblaymiz. Chunki ziyoratda aziz avliyoga-odamga sajda qilish kerakmi yoki ollohgami degan savollar tobora ko‘paymoqda. Bu haqda taniqli olim Sultonmurod Olim xulosalarini to‘lig‘icha keltiramiz.

Tasavvufning boshqa ayrim sof falsafiy ta’limotlardan bir farqi shu ediki, u kishilarning bevosita o‘z g‘oyalariga amal qilishga undar edi. Boshqacha aytganda, tasavvuf bir guruh odamlar uchun falsafiy ta’limotgina emas, bevosita kun kechirish tarzi, demakki, kundalik mashg‘ulot edi. Turli davrlardagi xilma-xil ko‘rinishlari, tariqatlari, tizimlaridan qat’iy nazar tasavvuf umuman olganda insonni ruhan kamolga yetkazish nazariyasi edi.

Bu nazariyaga ko‘ra, insonni xudo o‘ziga o‘xshatib yaratganmi, Ollohning bu olamni paydo qilishdan ko‘zlagan maqsadi ham aslida inson ekanmi, demak, inson Tangrining bu muruvvatiga shukronalar aytib, o‘zini batamom Ollohga bag‘ishlashi, buning uchun esa o‘zini loyiq darajada poklashi-kamolga yetkazishi kerak. Ana shunday o‘zini oliy maqsadga chog‘lagan, jismini unutib, ruhini Ollohga yetar darajada o‘stirgan, o‘zini Ollohga yetar darajada poklagan, jism ehtiyojlari tufayli paydo bo‘ladigan jamiki insoniy illatlardan forig‘ qilgan kishilar *komil insonlar* bo‘lganlar. Tasavvufiy aqidaga ko‘ra, komil insonlar pirovardida, shubhasiz, Olloh vasliga musharraf bo‘ladilar, ruhan Tangri bilan birlashib ketadilar, vahdati, ya’ni birlikka erishdilar.

Gap shundaki, Odam Ato naslidan shunday komil insonlarning yetishib chitganligi-nainki bir xalq yoki million-million, boringki, milliard-milliard odamlar, balki bashariyatning buyuk baxti, mislsiz boyligi. Tasavvuf aqidasiga ko‘ra: “Jumla mavjudot odamzodga shuning uchun sajda qiladiki, odamlar orasida komil insonlar bor. Bas, jumla odamzod komil inson tufayli (sharafli)dir”.

Mavjudot ichra komil insondan ko‘ra ulug‘roq va donoroq narsa yo‘q, chunki komil inson eng pastdan eng yuqorigigacha martabalardagi mavjudotlarning xulosasi va qaymog‘idir va farishtalar, ruhoniy mavjudotlar va arshi kursi, samovot kirvorib-hammasi komil inson xizmatidadirlar va hamisha komil inson tegrasini tavof qilarlar va komil inson ishlarini bajo keltirarlar. Komil inson ilm mazharidir, komil inson ilohiy zot, ya’ni Olloh sifatlarining ham mazharidir. XIII asr va XIV asr boshlarida yashab, ijod etgan mutasavvif olim Shayx Aziziddin Nasafiyning “Insoni komil”

risolasidan olingan bu parcha mashhur olim, professor Najmiddin Komilov tarjimalarida keltirildi.

“Avliyolar atrofida farishtalar, barcha ruhoniy mavjudotlar, arshi kursi, samovot-u kavokib aylanib yursa-yu, uning xizmatida bo‘lsa, kishilar dardlarini ana shu avliyolar ruhiga aytsalar, zora, bu ruh farishtalarga buyursa-yu, o‘sha dardmandning iltijosini Ollohga yetkazishsa va shu tariqa o‘sha ruhga topingan odamning mushkuli kushod bo‘lib, u dardiga shifo topsa”. Mana aziz avliyolarning qabrlarining hamisha odamlar bilan gavjum bo‘lishiga bir sabab va ziyorat qilish odobi ham shunday bo‘lishi kerak.

Ziyorat odobi. Avvalo, niyatni to‘g‘rilamoq: ziyoratni xolis Alloh uchun qilmoq; yordamni, najotni, yolg‘iz Allohdan tilamoq lozim. Anbiyoi izom (ulug‘ payg‘ambarlar) va avliyoi kiromning ziyoratlari, shubhasiz, foydadan xoli emas. Ba’zi adno (mushkul) darajada qolgan bandalar Alloh taolodan hojatlarini bevosita talab etmoqqa o‘zlarida layoqat va munosabat topmagani sababli, ba’zi dunyo va oxirat maqsadlari hosil bo‘lishi uchun ularni vosita va vasila aylasalar, ular hurmatidan ushbu talabni Alloh ijobat qilib, hojatlari ravo bo‘lishi umid qilinadi. Chunonchi: “Yo Rabbim! Shu zotning qurb-u hurmatini dargohingga vosita va vasila ayladim, mening falon maqsudimni ravo qil!” deb duo qilishi mumkin. Chunonchi, bu «Ibodati islomiy»da aytilgan.

Hazrati payg‘ambar va aziz-avliyolar qabrini ziyorat qilganda asar va taassurotga voqe bo‘lishi tajriba qilingandir, tajribiyot ham tarig‘i ilmdir. Bas, payg‘ambarlarni va avliyolarni vafotlaridan keyin ziyorat qilish befoyda emas. Lekin ziyorat qilingan zotga ham foyda yetishi ahli sunnat val-jamoat mazhabida, shubhasiz, bor masaladir. Faqat ziyoratchi niyati va ixlosini to‘g‘ri qilishi lozim. Ularni tirik deb e’tiqod qilmaslik kerak. Duoni yolg‘iz Allohga qilishi kerak. So‘raydigan narsalarini qabrdagi zotdan so‘rash aslo mumkin emas. Bu shirk bo‘ladi, shirkni esa Alloh kechirmaydi. Biror kishida bunday xatolar o‘tgan bo‘lsa, chin dildan Allohga tavba qilmog‘i lozim.

1.Ziyorat paytida tahoratli bo‘lmoq sunnatdir.

Ayniqsa, hazrati Payg‘ambarimiz sollallohu alayh va sallamning muborak qabrlarini va aziz-avliyolar qabrini ziyorat etishdan oldin g‘usl qilmoq odobga muvofiqdir.

2.Qisqa muddat bo‘lsa ham dunyo mashg‘ulotini tark etib, oxiratni o‘ylamoq.

3. Ikki rak’at namoz o‘qimoq sunnatdir.

Tahoratli holda (ziyoratgohga yaqin masjidda yoki namoz o‘qish joiz bo‘lgan joyda) ikki rak’at namoz o‘qib, har bir rak’atida “Fotiha” surasidan so‘ng bir marta “Oyatul-Kursiy”ni va uch martadan “Ixlos” surasini o‘qiydi. Salom bergach, bu namozning savobini marhumga hadya etadi.

1. Ziyoratgohda viqor bilan, sokin yurmoq.

Ziyoratgohda viqor bilan, ya’ni g‘oyat sokin, vazmin, ohista yuradi. Behuda va baland ovozda so‘zlamaydi. Ehtiyoj bo‘lsa, zaruriy so‘zlarni ohista va adab bilan gapiradi.

Qabr ahliga salom bermoq.

Qabristonga borganda avval qabriston ahliga salom beriladi. Masalan, bunday deyiladi: “Assalomu alaykum, ey bu diyorning mo‘minlari va musulmonlari! Inshoolloh, bizlar ham sizlarga kelib qo‘shilarmiz. Alloh taolodan bizlar uchun va sizlar uchun ofiyat-tinchlik-omonlik tilayman!”. Biror qabriston yonidan o‘tganda ham salom berib o‘tish yaxshidir. Hadisi sharif: “Kimki biror qabr yonidan o‘tayotib, qabr ahliga salom bersa, xuddi dunyoda bilganidek, mayyit uni biladi va unga alik oladi”. Bu javob qaytarish qol tili bilan emas, balki hol tili bilandir. Hazrati Ibn Umar (roziyallohu anhumo) biror qabr yonidan o‘tsalar, albatta, salom berib o‘tardilar.

6. Oyoq tomonidan borib, mayyitga yaqin va yuzma-yuz o‘tirmoq. Ziyorat qilganda belgili qabr yoniga oyoq tomonidan borib, avval mayyitga salom beradi, hayotlik paytida unga qanday yaqin o‘tirsa, shu darajada yaqin o‘tiradi. Mayyitning yuzi va ko‘kragi to‘g‘risiga kelib o‘tiradi. Mayyit, albatta, yuzi qiblaga qaratib ko‘miladi. Shu bois ziyoratchi yuzini qiblaga emas, balki, aksincha, qabrga qaratib, marhumning bosh tarafida, unga yuzma-yuz va yaqin o‘tiradi.

7.Qabrni siypash, ushlash va o‘pishdan qattiq saqlanmoq. Ziyorat chog‘ida aslo qabrni siypamaslik, aylanib tavof qilmaslik, ushlamaslik va o‘pmaslik kerak. Bu adashganlarning odatidir.

8. Qabr boshida “Yosin” surasini yoki o‘zi bilgan boshqa sura yoxud oyatlarni o‘qimoq.

O‘tirgach, 1-marta “Fotiha” va 3-bor “Ixlos” surasini yoki o‘zi bilgan suralarni o‘qib, savobini marhumga bag‘ishlash kifoya. Yana 10-marta salavot va tasbeh aytmoq savob. Bir marta “Fotiha” va 11 mart “Ixlos” surasini o‘qish afzal. “Ixlos”ni 10 bor o‘qish ham mumkin. “Sharhi Shir’atul-Islom”da aytiladi: “Qabristonda surai Yosin”ni o‘qish mustahab ekanligi mashhur hadislar bilan sobit bo‘lgandir”. Qabristonda “Oyatul-kursiy”ni o‘qish fazilati yuqorida bayon etildi. “Taborak”ni o‘qish ham yaxshi. Bir marta “Fotiha”, “Ixlos”, “Al-falaq” va “An-nos” surlarini o‘qish ham tavsiya qilingan. Bir marta “Fotiha”, 3-marta “Ixlos” va 1 marta “Al-hokumu-t-takosur’ surasini o‘qisa, ulug‘ savob hosil bo‘ladi. Bular hammasi tavsiya qilingan savobli mollardir.

Qabr boshida biror fiqhiy masalani aytmoq, ayniqsa, savobliroqdir. Butun yer yuzidagi mayyitlar ruhi uning savobini talashadi. Ammo Hazrati Imom Buxoriy, hazrati Qusom ibn Abbos (roziyallohu anhumo), Shoh Bahouddin Naqshband, Hakim Termiziy, Abu Iyso Muhammad Termiziy, Shayx So‘fi Allohyor maqbaralari dek gavjum ziyoratgohlarda boshqa ziyoratchilarga ham tezroq navbat bermoq odobdandir. Ziyoratchilar marhumga bag‘ishlaydigan narsalarini oldindan o‘qib tayyorlab kelsalar ham bo‘ladi.

9. Ziyoratga poyabzalni yechib kirish sunnatdir. Bu haqda hadisi shariflar bor.

Izoh: “Fatoviyyi olamgiriya”da aytiladi: “Qabristonda kovush va etik bilan yurmoq bizning (Imom A’zam) mazhabimizda makruh emas”. “Sirojul-vahhoj” kitobida ham shunday deyilgan.

10. Qabrni bosmaslik lozim. Qabr usti mayyitning haqqidir. Qabrni bosish mayyitning qornini bosish kabidir. Qabr ustidan yoki qabriston ichidan o‘tish zarur bo‘lib qolsa, tasbeh “*Subhonalloh”, “Subhonallohi va bihamdihi”, “Subhonallohi val-hamdulillohi va lo*

iloha illallohu vallohu akbar” kabi tasbehlarni, tahlil (“Lo iloha illalloh), takbir, duo va istig‘for aytib o‘tsa bo‘ladi. Kimki qabristondan: *“Allohu akbar, Allohu akbar, lo iloha illallohu vallohu akbar. Allohu akbaru va lillohil-hamd”* takbirini aytib o‘tsa, qabrda yotgan kishi: “Koshki shu odam qabrim yonidan yana bir marta o‘tsa edi!” deb orzu qilib qoladi.

11.Mo‘minlarning yaxshi sifatlarini eslash sunnatdir.
12.Ziyoratdan behad sokin, vazmin holatda qaytish lozim.
Alloh taolo ziyoratingizni qabul etsin!

11.3. Oilaviy qadriyatlar

Oilaviy qadriyatlar har bir oilaga xos bo‘lgan, oila uchun ustuvor hayotiy maqsadlarni belgilaydigan, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etadigan va uning hayotiga ta’sir qiluvchi g‘oyalar to‘plamidir. Oilaviy qadriyatlar insonning biologik, axloqiy, psixologik fazilatlarini birlashtiradi, axloqning asosiga aylanadi.

O‘zimizga xos bo‘lgan mehnatsevarlik, sadoqat, samimiyat, ishonch, vatanni sevmoqlik, adolat, poklik, to‘g‘rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida ota-ona orqali farzandga beriladi. Urf-odat va an’analar oilaviy qadriyat sifatida ham farzandlarning hayot tarziga yoshliklaridan ota-onalariga ko‘mak berish, so‘ngra o‘z oilalari uchun qayg‘urish hissini singdirib borishda asosiy rolni bajaradi.

Oilaviy urf-odat va qadriyatlarga tegishli bo‘lgan holatlarni umumiy va noyob, o‘ziga xos marosimlarga ajratish mumkin. Bular:

Birinchidan, oilaviy bayramlar - tug‘ilgan kun, Navro‘z, Yangi yil, Ramazon va Qurbon Hayiti kabilar O‘zbekistonning aksariyat xonadonlarida qarindoshlar va yaqin do‘stlar dasturxon atrofida yig‘ilib, har xil esdalik sovg‘alarini topshirish, tabriklar yozish, qo‘shiqlar va raqslar kuylash odat tusiga kirgan.

Ikkinchidan, hayotdagi muhim voqealarni birgalikda kutib olish - nikoh to‘yi, hovli to‘yi, diplom olish, bola tug‘ilishi bilan barcha qarindoshlari va do‘stlarining quvonchlarini baham ko‘rish uchun ularni o‘tkazilayotgan marosimga taklif qilishadi.

Uchinchidan, oila kengashi - ko‘pchilik har kuni yoki haftada bir marta tor doirada kunning qanday o‘tgani, qanday voqealar bo‘lganligi haqida bahslashish, bu borada o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashish, maslahat berish uchun yig‘ilishadi. Mazkur kengashda hafta oxiri va yaqin kelajak uchun rejalarni muhokama qiladilar.

To‘rtinchidan, oilaviy sayohat yoki ziyoratni ko‘pchilik odat tusiga kiritib olgan. Buni ta’til davrida iloji bo‘lsa, dengizga yoki boshqa shaharga o‘z oilasi bilan birga borib o‘tkazadi. Ayrimlar dala hovliga borib yoz faslini o‘tkazishni afzal ko‘radi. Har qanday sayohat uning har bir ishtirokchisiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa oilaviy aloqalarini mustahkamlaydi.

Beshinchidan, esdalik uchun fotosuratlarga tushish yoki videofilmlarni olish orqali unutilmas kunlarni eslab turish mumkin. Fotosuratlarga tushish, ayniqsa bolali oilalarda yaxshi an’anaga aylangan.

Oltinchidan, turli tadbirlarga, ya’ni kino, teatr, ko‘rgazmalar, muzeylar, festivallarga birgalikda borish insonga qiziqarli ma’lumot beradi. Shuning uchun madaniy yoki ko‘ngilochar tadbirlarga birgalikdagi tashriflar juda yaxshi va foydali odatdir

Shaxsiy qadriyatlar: Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi, umr ma’nosi, odobi, go‘zalligi bilan bog‘liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning *“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala-bu yoshlarimizning odob-axloq, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo akssado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin”.*

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ma’naviyat va ma’rifat sohasida 9 ta yo‘nalishda muhim tashabbuslarni ilgari surdi[31]

[31] Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 22 dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Milliy g‘oyani rivojlantirish, ayollarning ta’lim olishi va kasb-hunar egallashiga e’tiborni kuchaytirish, ma’naviyat va ma’rifat maskanlari, madaniyat markazlarini ishga tushirish, teatr va kino san’atini rivojlantirish va boshqa tashabbuslar e’tiborga havola qilindi. Unda ma’naviyat va madaniyat faollari, adabiyot va san’at namoyandalari, shuningdek, Oliy Majlis palatalari, Vazirlar Mahkamasi vakillari, vazirlar va hokimlar ishtirok etdi. Davlat rahbari jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari shiddatli tus olgani, o‘ta ziddiyatli jarayonlarning ta’siri mamlakatimizda ham sezilayotganini qayd etdi.

“Tarixdan ma’lumki, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari -uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, deb ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Ma’rifatparvar bobolar g‘oyalarini o‘rganish va rivojlantirish bo‘yicha Prezident qarori qabul qilinishi belgilandi. Shuningdek, Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi ochiladi, “Jadid” nomli yangi gazeta tashkil etiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ma’naviyat va ma’rifat sohasida 9 ta yo‘nalishdagi bu muhim tashabbuslarini talabalar BOBni o‘zlashtirishda muhim topshiriqlar ma’nosida qabul qilishlari kerak.

“*Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning*

hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" degan fikrlari barchamizga dasturumol bo'lishi zarur.

Shavkat Mirziyoyev

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. Qadriyat nima, tushuntiring?
2. Oilaviy qadriyatlarning tarkibi nimalardan iborat? Siz oilaviy qadriyatlarni bilib olganmisiz?
3. O'zingizdagi shaxsiy qadriyatlarni anglagan holda "Shaxsiy qadriyatlar" bobida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering?
4. Qadriyatlarning turlariga ta'rif bering va misollar keltiring?
5. Milliy qadriyatlardagi samimiylikni, totuvlik va bag'rikenglikni tushuntiring?
9. Diniy qadriyatlarning tarkibi nimalardan iborat?
10. Ma'naviy qadriyatlarning inson komilligidagi ahamiyatini tushuntiring?
11. Umummilliy qadriyatlar nimalarga xizmat qiladi va umummilliy qadriyatlarning jamiyatdagi vazifalarini tushuntirib bering?
12. Iymon nima, uning tarkibi nimalardan iborat?
13. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ma'naviyat va ma'rifat sohasida 9 ta yo'nalishdan bir yo'nalishni tanlang, taqdimotli ma'ruza tayyorlang va amaliy darslarda chiqish qiling.

XII. BOB. TURIZMDA MILLIY MADANIY MEROS VA QADRIYATLARDAN FOYDALANIShDAGI IMKONIYATLAR

Tayanch so‘zlar: urf-odat, barkamol, komillik, an’ana, bezak, hashar, muruvvat, udum, milliy ruh, mezon, tamoyil, yorug‘ kun, sivilizatsiya.

12.1. Turizmda milliy madaniy meros qadriyatlardan foydalanish va rivojlantirish imkoniyatlari

Turizm resurslarini ro‘yxatga olishda va ma’lum bir obyektning turizm resursi bo‘la olishligi o‘rganilgandan keyin bu obyektga yoki tabiiy makonga yoki ishlab chiqarish sohasiga “turizm” so‘zini qo‘shish bilan hal qilinmaydi. Biz turizmdagi turning ma’nosi va maqsadini yaxshilab bilib olishimiz zarur. Masalan: hunarmandchilik sohasini “hunarmandchilik turizmi” kabilar. Agar milliy merosdagi “hunarmandchilikni turizmning turi” deb nomlasak, milliy merosdagi har bir yo‘nalishni turizmning turi deb nomlashimiz kerak. Bu juda katta xatolikga yo‘l qo‘yilishi bo‘ladi.

Xalqimizning milliy merosi boyliklaridagi milliy ishlab chiqarish mahsulotlarini turizm resurslariga aylantirishdagi dastlabki talab, mamlakatda xalqaro turistlarni birinchi navbatda qiziqtira oladigan soha yoki obyektni o‘rganish va aniqlash lozim. O‘rganiladigan obyekt faqatgina oddiy iste’molda emasligi, xalqimizning o‘ziga xos bo‘lgan milliy bejirim buyumlarining boshqa davlatlarda ishlab chiqarilmasligi, urf-odatlarning milliyligi yoki milliy o‘yinlarning boshqa davlatlardagi xalqlar hayotida umuman yo‘qligi, milliy san’atkorlik, hunarmandchilik ijodlari mujassam bo‘lishi birinchi navbatda chet ellik turistlarni jalb qiladi.

Milliy merosimizdagi bunday obyektlarni, masalan, milliy hunarmandchilik, yoki milliy ustachilikni olganimizda dastlab dunyoning barcha davlatlarida yashayotgan xalqlarning ham o‘ziga xos milliy hunarmandchiligi va milliy ustachiligi sohalari albatda bor. Biz ishlab chiqarishdagi milliy hunarmandchilik yoki milliy

ustachilikda o‘zimizning hunarmandchilik yoki ustachilik sohalari buyumlarining noyobligi, go‘zal-bejirimligi, mustahkamligi, bu buyumlarda san’atkorlikning, kishilarni hayratga soladigan ijod namunalarining ko‘pligidan, boshqa davlatlardagi xuddi shunday buyumlar,mahsulotlardan ancha ustunligiga e’tibor berishimiz lozim bo‘ladi. Masalan, milliy kashtachilikdagi ikki yo‘nalish: oddiy milliy kashtachilik va murakkab milliy zardo‘zli kashtachilikning boshqa davlatlarda yashayotgan xalqlarning kashtachiligidan ustunligi shundan iboratki, so‘nggi vaqtlarda O‘zbekistonga kelib-ketayotgan davlat rahbarlari, Bosh vazirlar, mashhur adiblarga, xalqaro miqyosdagi taniqli rahbarlar, sport va san’at yulduzlariga maxsus marosimlarda milliy zardo‘zli to‘n va milliy do‘ppi kiydirilmoqda. Ikkala buyum ham faqat O‘zbekistonliklar uchun milliy buyum xillari hisoblanadi.

Qo‘shnilarimiz bo‘lgan Qozog‘istonliklar, Qirg‘izistonliklar, Turkmanistonliklarning ham to‘nlari, do‘ppilari, o‘zlarining milliyligini ko‘rsatib turadi. Binobarin, Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishlari deyarli bir, yashash manzillarining yaqin-qo‘shni ekanligidan, bizdagi milliy do‘ppi va milliy zardo‘zi to‘n tikish ularda ham bo‘lishi mumkin edi. Lekin qadimiy tub joy aholining buyumlar yaratishdagi milliy urf-odatlari va iqlim xususiyatlari, bayram tantanalarda kiyinish odatlari va xush ko‘rishlari nuqtali-nazaridan, Markaziy Osiyo xalqlarida qayd qilingan ikkala buyumni tikishda turli uslub, tanlash va yo‘nalish hosil bo‘lgan. Bizdagi milliy do‘ppichilik va milliy zardo‘zi to‘n tikish qo‘shni davlatlarda rivojlanmagan ekan, dunyoning boshqa bironta davlatlarida umuman yo‘q hisoblanadi.

Milliy meros turizmida uning resurslari va obyektlarini aniqlash va ro‘yxatga olish, kuzatish, ustaxonalardagi hunarmandlar va ustalarning faoliyat va ishlab chiqargan buyumlarini tomosha qilib shunday xulosaga kelish mumkinki, milliy meros turizmida foydalanish uchun ro‘yxatga olinayotgan aksariyat resurslar va obyektlardan ichki turizmda ekskursiya tanishuv turizmida xalqaro turizmda esa qo‘shimcha tur manbalari sifatida (turistga taklif qilish,

bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, suratga yoki videoga olish va h.k.) foydalanishning quyidagi *imkoniyatlari mavjud:*

1. O‘zbekistonda milliy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning huquqiy-me’yoriy asoslari (O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilgan Farmonlari va Qarorlari) yaratilganligi imkoniyati.

2. O‘zbekistonda milliy meros turizmi resurslarining katta salohiyati mavjudligi (milliy meros boyliklarining yo‘nalishlari, tarmoqlari) imkoniyati.

3. O‘zbekistonning ko‘plab universitetlari va institutlarida turizm sohasiga oliy malakali mutaxassislar tayyorlanayotganligi imkoniyati.

4. O‘zbekistonning xalqaro turizmini rivojlantirishda xalqimizning milliy merosi boyliklaridan foydalanishni rivojlantirishning Dasturini yaratish, istiqbolli yo‘nalishlarini, amaliyot usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb muammolarini hal qilish yo‘nalishlaridagi ilmiy-tadqiqotlarni o‘tkazish imkoniyatlari.


5. O‘zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning rivojlanishi, unga bo‘lgan munosabatning ijobiy tomonga siljishi bilan belgilanadi. Respublikamiz sharoitida, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xalqaro turizmning imkoniyatlari boshqa sohalarga karaganda juda katta bo‘lib hisoblanadi. Shu tufayli respublikadagi siyosiy, iqtisodiy barqarorlik turizm tadbirkorlariga keng yo‘l ochishi bilan birga, uni jadal rivojlantirish imkoniyatlarini yaratmoqda.

O‘zbekiston hozir Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiyoti barqaror rivojlanib borayotgan davlatlardan biri bo‘lib, o‘ziga xorijiy investorlarni, ishbilarmonlarni va turistlarni jalb qiluvchi markazlardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda milliy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirish mamlakatimizda yuqorida keltirilgan omillarga o‘z hissasini qo‘shadi.

6. O‘zbekistonda turizm sohasini hududiy, mintaqaviy rivojlantirish siyosatining eng asosiy maqsadi, mamlakat ichidagi

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududlararo darajasini mumkin qadar yaqinlashtirib borishdir. Turizm sohasi rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan ma’lumki, ishlab chiqarish kuchlarini hududlarda va mintaqalarda to‘g‘ri joylashtirishda aynan ana shu hududlarda va mintaqalarda turizmning yangi yo‘nalishlarini tashkil qilish, turizm sohasini rivojlantirish eng samarali va istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi.

7. O‘zbekistonda milliy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishdagi yana bir imkoniyat xalqimizning mehmondo‘st bilan bog‘liq. Ma’lumki, milliy meros boyliklaridagi hunarmandchilik (ustachilik) mahsulotlarini ishlab chiqarish asosan hunarmandlarning uylarida amalga oshiriladi. Hozirgacha amalga oshirilgan kuzatuvlarimiz va hunarmandlar bilan o‘tkazilgan suhbatlardan ma’lum bo‘ldiki, ular o‘zlarining ustaxonalari joylashgan uylariga turistlarning olib borilishiga hech qanday monelik qilishmaydi. Aksincha, ochiq chehra bilan kutib olishadi, hatto mehmonlarga o‘zlarining mahsulotlaridan sovg‘alar ham berishadi. Bu imkoniyatdan milliy meros turizmining bo‘lg‘usi turoperatorlari ustalik bilan foydalanishlari lozim.



12-rasm. Milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishda turizmdagi asosiy turlarningbir-biri bilan qo‘shilishi imkoniyatlari

8. O‘zbekistonda milliy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishdagi yana bir qulay imkoniyat-xalqimizning milliy o‘yinlari, milliy urf-odatlari va milliy marosimlarining ommaviyligi va

ochiqligidir. Masalan, milliy o‘yinimiz ko‘pkari-uloq, milliy kurash o‘yinlari asosan to‘ylarda tashkil qilinganligi uchun bu o‘yinlarga turistlarni (bepul) bemalol taklif qilish mumkin.


9. O‘zbekistonda milliy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishdagi yana bir istiqbolli imkoniyat shundan iboratki, milliy meros turizmidagi turistlarni turizmdagi boshqa turlarga ham qiziqtirish va taklif qilish imkoniyatlari juda katta (12-rasm).

10. Xalqaro turistlarning bo‘sh vaqtlaridan samarali foydalanishda milliy meros obyektlariga ekskursiyalar tashkil qilish imkoniyati. Har qanday bo‘sh vaqtni qiziqarli, samarali o‘tkazishda tanlash va saralashning o‘zi insonni qiziqtiradi va birinchi navbatda ko‘rmaganni tanlaydi. Turizmda ekskursiya xizmatlarini, faoliyatini-turizmning yuragi deyishadi. E’tibor qilsak, insoniyatning dastlabki sivilizatsiya markazlarini hosil qilishida ham ekskursiya faoliyati muhim rol o‘ynagan. Hozirgi vaqtda turizmning har bir mamlakatda rivojlanishi ekskursiya faoliyatini qay darajalarda tashkil qilinishi va o‘tkazilishiga bog‘liqligi ham mukammal o‘rganilgan.

Taniqli ekskursiyashunos olim A.Emelyanovning xulosalari bo‘yicha turizmni rivojlantirishning asoslaridan biri ekskursiya va gid xizmatlarining qay darajada tashkil qilinishi va o‘tkazilishi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Samarqand shahridagi mehmonxonalarda xizmatlar sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda mehmonxona xizmatlari tarkibiga milliy meros boyliklari bo‘yicha ekskursiya-gid xizmatlarini kiritish eng muhim, dolzarb masalardan biri hisoblanadi.

Samarqand shahridagi mehmonxonalarning aksariyat qismida ekskursiya xizmatlarini tashkil qilish va o‘tkazish amalga oshirilib kelinmoqda. Bu ekskursiyalar asosan shahrimizning asosiy obyektlari tarixiy obidalar va ziyoratgoh joylarga uyushtirilmoqda. Samarqand shahridagi turistik firmalar ham asosan shahrimiz va ziyoratgoh maskanlarga ekskursiyalar uyushtirishmoqda. Bu holat har holda tabiiy hisoblanadi. Turizm rivojlanishida barcha davlatlar ham ushbu usulni ko‘proq qo‘llashadi.

Tadqiqotlarimizning bobidagi eng muhim masalalardan biri shundan iboratki, mehmonxonlardagi xizmatlar sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda dastlab birinchi imkoniyatlarni hisobga olish talab etiladi. Birinchi imkoniyatlarning talabi mehmonxonlarda turistlarga xizmatlar ko‘rsatishdi ularning bo‘sh qolgan vaqtlarini aniqlash hisoblanadi.



13-rasm. Milliy madaniy meros va qadriyatlaridan foydalanib turizmni rivojlantirishdagi mavjud imkoniyatlar

Ana shu bo‘sh vaqtlarni maroqli va qiziqarli o‘tkazish uchun milliy meros boyliklaridagi turli yo‘nalishlarga turistik ekskursiyalar uyushtirish to‘g‘ri yo‘nalish bo‘ladi deb hisoblaymiz. Ma’lumki, turistik oqim kuchaygan mavsum O‘zbekiston uchun aprel-oktyabr oylari hisoblanadi. Bu vaqtda mamlakatimizda yorug‘ kunning cho‘zilishi 12-13 soatgacha boradi. Fikrimizcha, ana shu vaqtda turistlarga xizmat ko‘rsatilgandan ortib qolgan vaqtda milliy meros turizmidagi turlarni taklif qilish maqsadli bo‘ladi.

Xalqaro turizm tajribalaridan ma’lumki, Yevropalik va Amerikalik turistlar ko‘proq xalqimizning tarixiy obidalari va madaniyati bilan juda qiziqishdi. Ayniqsa, xalqimizning tarixiy madaniyati, urf-odatlari, milliy hunarmandchiligi va yashash tarzi jarayonlarini ko‘rishga, keyingi vaqtlarda milliy san’atimiz va milliy o‘yinlarimizga qiziqish xalqaro miqyosda juda kuchayib bormoqda.

Butunjahon turizm tashkilotining ma’lumotlari bo‘yicha keyingi yillarda xalqaro turizmda mamlakatlardagi aholining tarixiy madaniyati, milliy taomlari, milliy an’analari, madaniyati, hunarmandchiligi, san’ati va milliy o‘yinlariga qiziqishi juda kuchayib bormoqda. Xalqaro miqyosda e’tirof etilgan bu qiziqishdan biz o‘z vaqtida foydalanishimiz lozim. Chunki Markaziy Osiyoda ayniqsa, O‘zbekistonda yashayotgan xalqlarning o‘tmishi, tarixi, madaniyati dunyo bo‘yicha yetarli darajada e’tirof etilganini yaxshi bilamiz.

Tarixiy shaharlarimizdagi mehmonxonalarda xizmatlar sifatini yaxshilash, xizmatlar turlarini ko‘paytirish va xizmatlar samaradorligini oshirishda xalqimizning milliy merosidagi yo‘nalishlarda qiziqarli va mazmunli ekskursiyalarni tashkil qilish maqsadli bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Samarqand shahridagi mehmonxonalarda xizmatlar sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda turistlarning bo‘sh vaqtlarida milliy meros turizmining quyidagi turistik ekskursiyalarni tashkil qilish tavsiya qilinadi:

- Samarqand shahridagi kulolchilik markazlariga va uylariga ekskursiya;

- Samarqand shahridagi duradgorlik ustaxonalariga ekskursiya;
- Samarqand shahridagi zardo‘zi kashtachilik uylariga ekskursiya;
- Samarqand sandiqsozlari uylariga ekskursiya;
- Samarqand Siyob bozoriga ekskursiya;
- Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining muzeyiga (o‘zbek qorako‘li milliy boyligimiz) ekskursiya;
- Samarqand shahridagi muzeylarga (Afrosiyob muzeyi, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi muzeyi, O‘lkashunoslik muzeyi va b.) ekskursiya;
- Samarqand qog‘ozga turistik ekskursiya.

Samarqand shahridagi mehmonxonalarda xizmatlar sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda mehmonxonada milliy meros turizmining turistik ekskursiyalarning majmuali boblari bo‘yicha to‘liq kataloglar yaratish Samarqand shahrida xalqaro milliy meros turizmini rivojlantirishning eng istiqbolli yo‘nalishlari dan hisoblanadi va turistlarning bo‘sh vaqtlarini samarali, qiziqarli o‘tkazishni ta’minlaydi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida qarori”da belgilangan imtiyozlardan foydalanib milliy meros turizmining infratuzilmalarini yaratish imkoniyatlari.

12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yonida takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorida belgilangan ko‘rsatmalarga asoslanib milliy meros turizmini tashkil etish va rivojlantirish ilmiy tadqiqotlarini bajarish imkoniyatlari.

Xulosa qilganimizda, O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlan tirishdi milliy meros boyliklaridan foydalanishda o‘ziga xos bo‘lgan

istiqbolli, majmuali yo‘nalishlarni hosil qiluvchi imkoniyatlari bor (13-rasm).

Bu imkoniyatlar majmuali holatda mamlakatimizning turizm sohasida faoliyat yuritayotgan davlat tashkilotlari, universitetlar, institutlar, kollejlarning professor olimlari, turizm sohasidagi tadbirkorlar, turizm firmalari va mehmonxonalarimizning rahbarlari va milliy turizm reklama agentliklari bilan birgalikda ko‘rib chiqilib, o‘zaro hamkorlikda amaliyotga tatbiq qilinishi mumkin.

Shu o‘rinda turizmning ijtimoiy-iqtisodiy soha ekinligini va bu soha o‘zining faoliyati va harakatlanishi, jarayonlari va voqeligi bilan faqat hamkorlikni xush ko‘rishini ta’kidlamoqchimiz.Turizm markazlashgan boshqaruvni yoki deklarativ buyruqlar va ko‘rsatmalarni o‘zining rivojlanishi faoliyatiga qabul qilolmaydi. Shuning uchun ham turizm yuqori darajalarda rivojlangan Yevropa davlatlari turizmni rayonlashtirib rivojlantiradi.

Turizm o‘zining faoliyati nuqtayi-nazaridan ochiq va erkin harakatlar bilan rivojlanadi. Turizmning ochiq va erkin harakatlanishi sababli unda yangi turlar, yangi texnologiyalar, yangi an’analar va yangi tajribalar kelib chiqadi.

Bu holatlarning yuzaga chiqishi albatda turizmdagi tadbirkorlikni kuchaytiradi. Turizmdagi yangi tadbirkorlik-turizmda yangi turizm mahsulotlarining yaratilishi deganidir. Jahon turizmining shiddat bilan rivojlanayotganligi va jahon turizmida istiqbolli yangi turlarning paydo bo‘layotganining bosh sababi ham shunda.

Shuning uchun ham, O‘zbekistonning milliy turizmida, turizmining barcha yo‘nalishlarida mustahkam va do‘stona hamkorlik, hamdo‘stlik, qo‘llab-quvvatlash, yelkadoshlik, mehr-muhabbat, o‘zaro beg‘araz yordam, xushmuomalalik va ma’sumiyatlilik, bag‘ri kenglik va ishonchlilik tashkil qilinishi lozim.

12.2. Turizmda milliy madaniy merosdagi urf-odat va an’analardan foydalanish

Urf-odat va an’analar *- milliy qadriyatlarni shakllantiradigan mezon sifatida.* Milliy qadriyatlarni shakllantiradigan asosiy mezonlar millatning tarixi, urf-odati, an’anasi, hayotiy qadriyatlari bilan birga ma’naviy merosi, madaniy boyliklari va ko‘hna tarixiy yodgorliklaridir. “Urf-odat an’analar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tartib-qoida; rasm-rusum, tamoyil”lar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olib, ularda o‘z ifodasini topadi.

An’analar-qadimdan insoniyat hayoti, turmushi, mehnati va ibratli hayot saboqlari bo‘lib, avloddan-avlodga, o‘tmishdan kelajakka meros bo‘lib qoladigan, barcha tadbirlarda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy faoliyat mahsulidir. Marosimlar esa an’analar va urf-odatlarning amaliy ko‘rinishidir. An’analar va urf-odatlar milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy va diniy bo‘lib, milliy qadriyatlarning ajralmas qismidir.

Chunki har qanday urf-odat, udum, rasm-rusum, marosim va an’analar milliy qadriyatlar negizida shakllanadi va milliy vijdon, milliy ruh, milliy xulq, milliy odob-axloq mevasi sifatida uni yaratgan zukko xalq tarbiyasining asosini tashkil etadi. Jamiyatni boshqarishning ma’naviy omili sifatida yoshlar qalbida mehr-muhabbatli bo‘lish, oila va Vatanni sevish, ajdodlar merosidan bahra olish va hayotni qadrlash kabi tuyg‘ularni shakllantiradi.

Milliy qadriyatlar har bir xalqning oltin merosi hisoblanadi. O‘zbekiston davlat sifatida o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin Qurbon va Ro‘za hayitlari, “Navro‘z” (bahorgi teng kunlik - yil boshi 21-22 mart), “Angom Hayit” (yozning eng uzun kuni, to‘rt unsurning yana biri Suv sayilli), “Mehrjon” (kuzgi teng kunlik 22-sentyabr), “Sado” (qishning eng uzun tuni, to‘rt unsurning biri olov bayrami) kabi xalqona qadriyatlar tiklandi.

Shuningdek, Mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni, Xotira va qadrlash kuni, O‘zbek tilida bayrami kabilar istiqlol davrining an’anaviy qadriyatlariga aylandi. Mahalla tizimining boshqaruv

sifatida yo‘lga qo‘yilishi, hasharlarning tiklanishi, odatlarga e’tibor kabilar qadimiy an’analarning bugungi kundagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Umar Hayyom o‘zining “Navro‘znoma” asarida urf-odatlarga alohida to‘xtalgan. Olim Quyosh taqvimi bo‘yicha Navro‘z kuni qanday belgilangani va bayramni qay tarzda o‘tkazganliklarini tarixiy dalillar bilan bayon qiladi. Allomaning fikricha, “Kimki Navro‘z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro‘zgacha xurram bo‘ladi va farog‘atda yashaydi”.

Umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan Navro‘z bayramida muhtojlarga yordam ko‘rsatish, bemor va yetim-yesirlardan mehr-muruvvatni ayamaslik, keksalarni ziyorat qilib, o‘tganlarni xotirlash o‘zbekona urf-odatlarning muhim qismidir. Navro‘z ayyomida urishganlar yarashishgan, gunohlar kechirilgan. Gaplashmay, yuragida kin saqlab yurish gunoh sanalgan.

“Ayni shu betakror va dilbar faslda barchamiz o‘zimizni yosharib ketgandek, vujudimizga yangi kuch-g‘ayrat, azm-u shijoat kirgandek his etamiz. Necha yuz yillik an’ana va qadriyatlarimizni yangitdan kashf etamiz, qanday buyuk tarix, qanday buyuk madaniyat vorislari ekanimizni yana bir bor anglaymiz. Va bundan qalblarimiz g‘urur va iftixorga to‘ladi” “Hammamiz yaxshi bilamiz, Navro‘z tinchlikni, sihat-salomatlikni qadrlab, asrab-avaylab yashashga da’vat etadi. Tinchlik va sog‘liqni asrasak, qolgan narsalarga albatta erishimiz”.

Ayniqsa, Navro‘z tomi bo‘lgan sumalakni pishirish va tarqatish tartibiga doir urf-odatlar kishilarni hamjihatlikka, bir jamoa ekanligini his qilishga, bir-birini tushunishga undagan.

Nikoh to‘ylarida yuzga yaqin urf-odatni bajarish azaliy qadriyat hisoblanadi. Nikoh to‘yi “unashtirish”, “non sindirish”, “kuyovga to‘y sarposi”, “nikoh o‘qish”, “ertalabki osh”, “kelinni uyidan olib kelish”, “kelin-kuyovni olovdan uch marta aylantirish”, “chimildiqda shamlar yoqish”, “ostonani ulug‘lash”, “kelin salom”, “kelinni yangi oilaga qabul qilish”, “sovg‘alar bilan kelinni ko‘rish” kabi ko‘plab marosimlarni o‘z ichiga oladi.

O‘lim bilan bog‘liq marosimlar qanchalik qayg‘uli bo‘lmasin, kishilarni bardoshli bo‘lishga, sabr-qanotga chaqiradi. Odamlarning birlashib marhumni kuzatishlari yaqinlarga madad bo‘ladi, ularga ruhiy quvvat beradi, odamlar bir-birining madadiga muhtoj ekinligini anglashadi, mehr-oqibatni oshiradi.

O‘zbekchilikda yetti avlodni bilish ham qadriyat hisoblanadi. Shunga ko‘ra, ota-ona farzandlari ulardan faxrlanishlari, hayotiy saboq olishlari uchun halol yashab, boriga qanoat qilib, mehnat qilganlar. O‘tmish ma’naviyatini o‘z ichiga olgan ana shunday qadriyatlar zanjir vazifasini o‘tab, avloddan-avlodga millat urf-odatlarini yetkazib beradi.

O‘zbek xalqining necha asrlardan buyon shakllanib kelayotgan urf-odatlarga sodiqligi shundaki, inson yashashi uchun muhim bo‘lgan qadriyatlar: suv, havo, iqlim, kerakli muhit, oziq-ovqat, uy-joy, kiyim-kechak, ishlab chiqarish vositalari, oila, yurt kabilarga alohida e’tibor bergan, ularni qadrlay olgan.

Nomuhim bo‘lgan, insonning yashashiga ta’sir etsada,uning hayotini belgilamaydigan hashamatli uylar, bezaklar, taqinchoqlar kabilarga esa o‘ta mehr qo‘yishmagan. O‘tkinchi dunyoda bunday jonsiz predmetlarga mehr qo‘yish o‘sha narsalar bilan insonning tenglashishini bildirgan. Bugungi kunga kelib anna shunday insonni ulug‘lovchi qadriyatlar unutilib borilayotgani sir emas.

Globallashuv jarayonida qadriyatlarning ko‘p hollarda o‘z o‘rnini topmayotgani nafaqat bir millatning, balki butun dunyo xalqlarining ma’naviy inqirozidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq urf-odatlari va an’analaridagi ma’naviy boylikka o‘tib hayotdan saboq beradi. Yoshlarda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, vatanga va oilaga muhabbat shakllantiradi. Xalq an’analari asrlar osha o‘zida nafaqat buyuk donishmandlikni, balki ajdodlarning hayotiy tajribasini saqlab keladi. An’ana va urf-odatlar qadriyat sifatida to‘g‘ri yashashga, xalq va Vatanga fidoyi farzand bo‘lishga da’vat etishi bilan katta ahamiyatga ega. Yoshlar asrlar osha yashab kelgan xalqona qadriyatlardan qanchalik saboq olsa, barkamol inson sifatida takomillashib boraveradi. Chunki an’anaviy xalq

madaniyatiga asoslangan qadriyatlar insonning iymon-e’tiqodi, ma’naviyatli va ma’rifatli bo‘lishiga qaratilgan.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. Siz xalqimizning urf-odatlariga amal qilasizmi?
2. Milliy qadriyatlarimizdagi iymon-e’tiqodni qanday tushunasiz?
3. O‘zbekiston milliy turizmida urf-odatlardan foydalanish Bobida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering?
4. Siz yashayotgan joyda xalqimizning qaysi urf-odatlariga amal qilinadi?
5. Xalqimizning qadimiy, an’anaviy urf-odatlari unutilib borilmoqda. Sizning fikringiz.

XIII BOB. TURIZMDA MILLIY MADANIY MEROS VA QADRIYATLARDAN FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR

Tayanch so‘zlar: Madaniy meros, qadriyat, urf-odat, barkamol, komillik, an’ana, bezak, hashar, muruvvat, udum, milliy ruh, mezon, tamoyil, yorug‘ kun, muammolar, qadriyat.

13.1. Turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanishdagi muammolar

Davlat miqyosidagi dolzarb masal-bu jamiyatda ehtiyojlarning kelib chiqishi, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining muhim talablari ham bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik yo‘nalishlariga kiritilgan turizm sohasida endigina o‘rganilayotgan yangi yo‘nalishni, milliy meros turizmi turini tashkil qilish va rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini tadqiq qilishda hozirgacha to‘plagan tajribalarimiz va turizm sohasidagi tadqiqotlarimizning natijalaridan foydalanishimiz lozim.

O‘zbekiston turizmida xalqimizning milliy merosi boyliklaridan va qadriyatlarida turizmda foydalanish yo‘nalishidagi kuzatuvlarimizdan ma’lum bo‘ldiki, hozirgacha ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning natijalarini e’lon qilish sanoqli sonlarda ekan. Bu holat O‘zbekiston turizmida madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirish yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlarning boshlanmaganligini, xalqimizning milliy merosi boyliklaridan va qadriyayatlaridan turizmda foydalanish kabi dolzarb masalalar olimlar, mutaxassislarning ham, tadbirkorlarning ham e’tiboridan chetda qolib kelayotganligidan dalolat berdi.

O‘quv qo‘llanmaning maqsadi va vazifalarini belgilash va asoslash, bajarish, shakllantirish jarayonida mamlakatimizda madaniy meros va qadriyatlardan foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirishdagi muammolarni ham aniqlashga muvaffaq bo‘ldik. Bizning xulosalarimiz bo‘yicha bu muammolar asosan milliy

madaniyatimiz, milliy san’atimiz, milliy urf-odatlarimiz, milliy meros boyliklaridagi va qadriyatlaridagi mahsulotlarni ishlab chiqarishimiz va ichki va xalqaro turizmda axborotlash va ommaviylashtirish bilan bog‘liq quyidagi muammolardan iborat:

1. O‘zbekiston turizmida milliy meros va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirish masalalari turizm sohasini rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlarda, axborot tizimlarida tashviqot qilinmagan. Shu sababli, turizm sohasida tayyorlanayotgan bakalavriat va magistratura ta’limi tizimidagi mutaxassislik fanlariga alohida bob sifatida kiritilmaganligi natijasida xalqimizning milliy merosi boyliklaridan va qadriyatlaridan turizmda foydalanishningdolzarbligi e’tibordan chetda qolgan.

Binobarin, bu bob bo‘yicha talabalar va magistrlar milliy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirishning yuzaga chiqishi bo‘yicha dastlabki ommaviylashtirishni amalga oshirgan bo‘lar edi (milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan mustaqil ishlar, kurs ishlari, magistr dissertatsiyalari va b.)

2. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ‘ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash yo‘nalishiga salohiyatli hissa qo‘shish imkoniyatlari bo‘lgan yangi, milliy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari ishlab chiqilmaganligi muammosi.

3. Xalqaro turizmni rivojlantirish dasturlariga, yurtimizda o‘tkaziladigan milliy madaniyat, milliy san’at va milliy o‘yinlar tadbirlariga hamda madaniyat markazlari tomonidan xorijiy sayyohlar uchun tashkil etiladigan madaniy tadbirlar, dasturlarni kiritish muammolari.

4. O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari vakillari orqali yurtimizda o‘tkaziladigan milliy madaniy tadbirlarni xorijiy ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish, milliy madaniyatimiz sohasida chet el mamlakatlari bilan

madaniy hamkorlikni yanada jadallashtirish, xorijiy sayyohlarni milliy madaniyat tadbirlarga, jalb qilish dasturlarining ishlab chiqilmaganligi muammolari.

5. Xalqimizning boy qadriyatlarini, hunarmandchiligini, urf-odat, an’analari, yaratuvchilik san’atini jahon xalqlariga yetkazishda milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni rivojlantirish juda muhimligini asoslash muammosi, tumanlarimizda, qishloqlarimizda dunyoning har qanday davlatlaridan kelgan xalqaro turistlarni qiziqtirish va ularni milliy hunarmandchilik uylariga olib borishni tashkil qilish muammolari.

6. Milliy meros turizmining qishloq turizmini, ziyorat turizmini, ekologik-rekreatsiya turizmini va gastronomiya turizmlarini rivojlantirishini kuchaytirishini asoslashdagi muammolar.

7. Xalqaro turizmda milliy merosimizga va qadriyatlarimizga xos noyob boyliklarni namoyish qilish va shu omillar asosida xalqaro turizmni rivojlantirish vazifalarining aniq belgilanmaganligi muammolari.

8. Xalq hunarmandchiligi va ijodiy an’analari keng rivojlangan shahar va tumanlarda hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari tashkil etish, hunarmandchilikning noyob turlarini qayta tiklash va yanada rivojlantirish, iste’molchilarga hunarmandchilik mahsulotlari yetkazib berish uchun bozor infratu zimlarini yaratishdagi muammolar.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida, “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qarori”da belgilangan topshiriqlar, ko‘rsatmalar va rejalarni bajarishdagi muammolar.

10. O‘zbekiston milliy turizmini rivojlantirishda turizm sohasiga kadrlar tayyorlayotgan institut va universitetlar milliy turizmning sohalari va turlariga ixtisoslashgan mutaxassislarni tayyorlashga

hozirgacha kirishmaganliklari muammolari. Turizmni yuksak darajada rivojlantirgan va rivojlantirayotgan AQSh, Kanada, Avstraliya va Evropa davlatlari mutaxassislarni bizdagidek umumiy turizmga emas, turizmning sohalari va turlari bo‘yicha tayyorlashadi. E’tiborimizdan chetda qolayotgan bu muhim masalani to‘g‘ri tushunib, vaqtni yuttirmasdan oliy ta’limda ko‘rib chiqishimiz kerak

11. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligining tashabbusi va rahbarligida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi va Madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti milliy turizmni rivojlantirishda alohida-alohida dasturlar bilan emas, o‘zaro hamkorlikda vatanimizda milliy meros boyliklaridan va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni rivojlantirishning bosh markazi bo‘lishi,“Strategik rivojlantirish rejasi” va “Strategiyaning taktik vazifalari” yagona “Dastur”ni ishlab chiqishidagi muammolar. Aminmizki, har qanday ishlab chiqarish sohasining dasturi va strategik rejasi bo‘lishi lozim.

Aniqlangan muammolarni hal qilishda turizm sohasidagi tadqiqotchilar, turizmdagi mutaxassislar, ekspertlar, tadbirkorlar va turizmdagi firmalar, turizmdagi tashkilotlar o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishlari lozim.

13.2.Turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanishdagi muammolarning yechimlari

Bizning xulosalarimiz bo‘yicha bu muammolarning yechimini aniqlangan muammolarning o‘zidan topishimiz to‘g‘ri bo‘ladi, milliy madaniyatimiz, milliy san’atimiz, milliy urf-odatlarimiz, milliy meros boyliklaridagi va qadriyatlaridagi mahsulotlarni ishlab chiqarishimiz va ichki va xalqaro turizmda axborotlash va ommaviylashtirish bilan bog‘liq muammolarning yechimini quyidagi tavsiflar bilan izohlaymiz:

1. O‘zbekiston turizmida milliy meros va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirish masalalari

turizm sohasini rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlarda, axborot tizimlarida tashviqot qilish. Turizm sohasida tayyorlanayotgan bakalavriat va magistratura ta’limi tizimidagi mutaxassislik fanlariga alohida bob sifatida kiritilishi natijasida xalqimizning milliy merosi boyliklaridan va qadriyatlaridan turizmda foydalanishning dolzarbligi kuchayadi.

2. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ‘ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash yo‘nalishiga salohiyatli hissa qo‘shish imkoniyatlari bo‘lgan yangi milliy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish.

3. Xalqaro turizmni rivojlantirish dasturlariga yurtimizda o‘tkaziladigan milliy madaniyat, milliy san’at va milliy o‘yinlar tadbirlariga hamda madaniyat markazlari tomonidan xorijiy sayyohlar uchun tashkil etiladigan madaniy tadbirlar, dasturlarni kiritish.

4. O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari vakillari orqali yurtimizda o‘tkaziladigan milliy madaniy tadbirlarni xorijiy ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish, milliy madaniyatimiz sohasida chet el mamlakatlari bilan madaniy hamkorlikni yonida jadallashtirish, xorijiy sayyohlarni milliy madaniyat tadbirlarga jalb qilish dasturlarining ishlab chiqish.

5. Xalqimizning boy qadriyatlarini, hunarmandchiligini, urf-odat, an’analari, yaratuvchilik san’atini jahon xalqlariga yetkazishda milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni rivojlantirish juda muhimligini asoslash, tumanlarimizda, qishloqlarimizda dunyoning har qanday davlatlaridan kelgan xalqaro turistlarni qiziqtirish va ularni milliy hunarmandchilik uylariga olib borishni tashkil qilish.

6. Milliy meros turizmining qishloq turizmini, ziyorat turizmini, ekologik-rekreatsiya turizmini va gastronomiya turizmlarini rivojlantirishini kuchaytirishini asoslash. Xalqaro turizmda milliy merosimizga va qadriyatlarimizga xos noyob boyliklarni namoyish

qilish va shu omillar asosida xalqaro turizmni rivojlantirish vazifalarining aniq belgilash rejalarini tayyorlash.

7. Xalq hunarmandchiligi va ijodiy an’analari keng rivojlangan shahar va tumanlarda hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari tashkil etish, hunarmandchilikning noyob turlarini qayta tiklash va yanada rivojlantirish, iste’molchilarga hunarmandchilik mahsulotlari yetkazib berish uchun bozor infratuzilmalarini yaratish.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida, “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qarori”da belgilangan topshiriqlar, ko‘rsatmalar va rejalarni bajarish.

9. O‘zbekiston milliy turizmini rivojlantirishda turizm sohasiga kadrlar tayyorlayotgan institut va universitetlar milliy turizmning sohalari va turlariga ixtisoslashgan mutaxassislarni tayyorlashga kirishish.

10. O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligining rahbarligida vatanimizda milliy meros boyliklaridan va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni rivojlantirishning “Strategik rejasi” va “Dastur”ni ishlab chiqish.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. Milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanish dasturini qanday tushunasiz?
2. O‘zbekiston turizmida milliy meros va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirish masalalari?
3 Milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmdan foydalanishdagi muammolarni qanday tushunasiz?
4. Milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanish Dasturi va Strategik rejasi bilan tanishib chiqing?
5. Milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishdagi muammolariga yechimlari.

XIV BOB. TURIZMDA MILLIY MADANIY MEROS VA QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNINGDASTURI VA STRATEGIYASI

Tayanch so‘zlar: dastur, standart, moziydan sado, strategik reja, imij, marketing, marosim, udum, ma’naviy qadriyat.

14.1. Turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanishning dasturi

Milliy meros boyliklari va qadriyatlarining turlari, tavsifi, tasnifi va geografiyasi bilan tanishganimizdan so‘nggi turizmda foydalanishda bu turlar deyarli tayyor holatdaligini ko‘ramiz. Bu holatda milliy meros boyliklaridan va qadriyatlaridan O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish uchun foydalanishda birinchi navbatdagi vazifa milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanish xizmatlarini aniqlash, xizmatlar ko‘rsatishning ishlab chiqish va tashkil qilish hisoblanadi.

Bu yo‘nalishda O‘zbekistonning xalqaro turizmida milliy meros turlarini rivojlantirish haqidagi reklama mahsulotlari xalqaro miqyoslarda, Respublikamizning barcha mehmonxonalarida, turistik firmalarida va turistik tashkilotlarida ko‘p tirajda bo‘lishligini ta’minlashdir. Milliy meros turizmidagi milliy meros boyliklari va qadriyatlarini reklama qilish yo‘nalishida jahonning turli tillarida O‘zbekiston xalqining ijodkorligi, yaratuvchanligi, milliy madaniyati va san’ati, hunarmandchiligi, betakror-mo‘jizali buyumlar yaratishdagi qo‘li gul ustachiligi va boshqa davlatlarda uchramaydigan turli tuman, qiziqarli milliy o‘yinlari borligi haqida internetda saytlar ochish xalqaro turizmda milliy meros turlarini rivojlantirish yo‘lidagi faol mehnatlardan bo‘ladi.

Mamlakatimizning xalqaro turizmida milliy meros, turizmdagi milliy madaniy meros va qadriyatlarni rivojlantirish uchun jahon talablariga mos keladigan, ilmiy va iqtisodiy jihatdan asoslangan, kutiladigan natijalarni rejalashtirish bo‘yicha turli muddatlarga

mo‘ljallangan grant loyihalar va biznes rejalar ishlab chiqishni amalga oshirishimiz kerak. Xalqaro turizmda milliy meros turizmini rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatlariga keng yo‘l, imkoniyatlar ochib berish vaqti keldi.

Xalqaro turizmni ommaviy rivojlantirish uchun katta imkoniyat va salohiyatga ega bo‘lgan milliy meros turizmining istiqboldagi o‘rnini belgilash uchun albatta tashkiliy-harakat dasturini tuzish soha uchun zaruriy, majburiy talab ekanligini hozirda jiddiy e’tibor berishimiz kerak. Yuqorida qayd qilingan maqsad va vazifalar ham o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini hisobga olib jamlangan holda milliy meros turizmining “Rivojlantirish dasturi”ni talab qiladi (5-Jadval).

(5-Jadval).

O‘zbekistonda milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirishning Dasturi

Bosqichlar	**Bosqichda bajariladigan ishlar**	**Bajarilish muddatlari**
I bosqich	1.1. O‘zbekistonning xalqaro turizmida milliy meros boyliklaridan va qadriyatlaridan foydalanishning me’yoriy-huquqiy asoslarini yaratish va hujjatlashtirish shakllarini belgilash. 1.2. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida, tumanlari va qishloqlarida milliy meros boyliklari va qadriyatlarining resurslarini aniqlash, tavsif va ta’riflarini tayyorlash, bu resurslardan turizmda foydalanishdagi muammolarni aniqlash, foydalanishdagi imkoniyatlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish.	2025-yildan, Davomli faoliyatlar, xalqaro turistlarni milliy meros boyliklari va qadriyatlarituri zmiga taklif qilishni boshlash

	1.3. Milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish. 1.4. Milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanish xizmatlarining tarif va tavsiflarini, standartlarini tayyorlash. 1.5. Milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishning turoperatorlarini tayyorlash.	
II bosqich	2.1. O‘zbekistondagi milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishda xalqaro turizm talablaridagi reklamalarini yaratish, manzillariga turistik marshrutlar, turistik ekskursiyalar ishlab chiqish va xalqaro turizm bozoriga chiqarish. 2.2. Milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishda ekoturizm, gastronomiya, qishloq , ziyorat va tarixiy-madaniy turizmlari bilan qo‘shilishi imkoniyatlarini, foydalanish tizimlarini ishlab chiqish. 2.3. Milliy meros boyliklari va qadriyatlarida turizmda foydalanishning maxsus, xalqaro talablarga mos infratuzilmalarini yaratish	2025-2026-yillar, xalqaro turistlarni milliy meros boyliklari va qadriyatlari turizmiga taklif qilishni kuchaytirish
III bosqich	3.1. O‘zbekistonda milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni ommaviy ravishda boshlash.	2027- yildan

14.2.Turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanishning strategiyasi

O‘zbekistonda milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirishda yuqorida aniqlangan muammolarni yechishda mehmonxonalar xo‘jaliklari, turistik firmalar, “Hunarmand” uyushmasi, reklama agentliklari va muzeylarning rahbarlari ham o‘zaro hamkorlikda Bosh markaz ishlab chiqgan dastur va tavsiyalarni birgalikda bajarish, amalga oshirish. rejalarini yaratishi lozim.

“Moziydan sado” jurnali milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni rivojlantirish bilan bog‘liq barcha masalalarini, muammolarini, tavsiyalarini va yangi tajribalari, texnologiyalarini davriy mudddatlarda yoritib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ikkinchidan, turizmda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanishning dasturi va strategiyasi ta’limning barcha bosqichlariga kiritilishi ham yosh avlodlar tarbiyasi uchun ham juda muhim hisoblanadi.Biz milliy meros boyliklari va qadriyatlarida turizmda foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirishda “O‘zbekistonda milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni rivojlantirish strategiyasi”ni quyidagicha ishlab chiqishini tavsiya qilamiz:

I. O‘zbekistonda madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni boshqarish tizimi:

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligi “Turizm qo‘mitasi”

II. O‘zbekistonda madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirishning nazariy asoslari va huquqiy me’yorlari tizimi:

a) O‘zbekistonda milliy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirishning mohiyati va mazmuni, maqsadi va vazifalari;

b) O‘zbekistonda milliy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirishning huquqiy-me’yoriy qonun-qoidalarini ishlab chiqish tizimi.

III. Tashkiliy qism tizimi:O‘zbekistonda madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirishning tashkiliy -ijtimoiy- iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish

a) O‘zbekistonda milliy meros va qadriyatlardan turizmdan foydalanishni rivojlantirishning obyektlarida infratuzilmalarni, yaratish;

b) O‘zbekistonda milliy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirishning reklama-axborot imiji va brendini yaratish;

v) O‘zbekistonda milliy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirishning investitsiya muhitini, xususiy va davlat hamkorligini yaratish.

g) O‘zbekistonda milliy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirish industriyasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

j) O‘zbekistonda milliy meros va qadriyatlardan turizmdan foydalanishni rivojlantirishning marketing tadqiqotlari tizimlarini yaratish;

z) Mahalliy aholining milliy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdor bo‘lishi tizimlarini ishlab chiqish;

i) O‘zbekistonda milliy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirishni davlat tomonidan quvvatlash tizimlarini yaratish;

y) O‘zbekistonda milliy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirishda davlat statistik axborotlaridan foydalanishda turizmda milliy meros va qadriyatlarlardan foydalanish yo‘nalishlarida ishlaydigan, faoliyat olib borayotgan firmalari, tashkilotlari, mutaxassislari va tadbirkorlari uchun shaffof muhitni yaratish.

IV. O‘zbekistonda madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirishni moliyalashtirish va soliq tizimi.

a) O‘zbekistonda milliy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirishda yuzaga keladigan asosiy va qo‘shimcha xizmatlardan olinadigan soliq tizimini yaratish.

V. O‘zbekistonda madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlash tizimi:

a) O‘zbekistondagi universitetlar, institutlar, turizm kollejlari, xalqaro tashkilotlar, xalqaro universitetlar.

Bu “Dastur” va “Strategik reja” O‘zbekistondagi barcha viloyatlar kesimida ishlab chiqilishi maqsadli hisoblanadi. Turizm va sport vazirligi har bir viloyatlardagi departamentlari va boshqarmalaridan zaruriy ma’lumotlarni talab qilishi kerak. Chunki, har bir viloyatlarimizda milliy meros boyliklarining bir-biriga o‘xshamagan, takrorlanmaydigan turlari va yo‘nalishlari mavjud.

Davlatimizning turizm sohasidagi barcha tashkilotlari ishlab chiqqan “Dastur” albatda mukammalligi bilan ajralib turishi, milliy meros turizmidagi tadbirkorlarda bu dasturdan yengil foydalanishning qulay imkoniyatlari bo‘lishi lozim. Shu o‘rinda keltirish lozimki, O‘zbekiston milliy turizmida turizm xizmatlariga ixtisoslashish hamon davlat tashkilotlari tomonidan ham, turizmdagi xususiy tadbirkorlikda ham e’tibordan chetda qolmoqda. Turizm ham har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sohalar kabi ixtisoslashish, rayonlashtirishni talab qiladi.

Milliy meros boyliklari va qadriyatlarida turizmda foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligidagi “Turizm qo‘mitasi” rahbarligida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi, Madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti “O‘zbekistonda milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni rivojlantirish strategiyasi”ning davlat variantini ishlab chiqishi lozim(14-rasm-loyiha). Milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishni rivojlantirishning Strategiyasi bilan turizm tadbirkorlari va turizm mutaxassislari albitda tanishishi maqsadli bo‘ladi.



14-rasm. Milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridanturizmda foydalanishni rivojlantirishning Strategiyasini, “Dasturi”ni ishlab chiquvchi va bajaruvchi tashkilotlar

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. Milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanish dasturini qanday tushunasiz?
2. Milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmdan foydalanish Strategik rejasini qanday tushunasiz?
3. Milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanish Dasturini va Strategik rejasini kimlar yoki qanday tashkilotlar ishlab chiqishi kerak?
4. Milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanish Dasturi va Strategik rejasi bilan tanishib chiqing, o‘qib-o‘rganing va qo‘shimchalar qilishga harakat qiling?
5. Milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanish Dasturi va Strategik rejasi bilan tanishib chiqing, bu dastur va strategik reja loyiha sifatida berilmoqda. Sizningcha, taklif qilingan mazkur dastur va strategik rejada yana qanday masalalar, yoki muammolar va tavsiya, takliflar qo‘yilishi kerak deb hisoblaysiz.

XV BOB. TURIZMDA MILLIY MADANIY MEROS VA QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

Tayanch so‘zlar: milliy etnik meros, milliy san’at, milliy madaniyat, milliy o‘yin, milliy hunarmand, milliy usta.

15.1. Milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlari


Milliy madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishda madaniy meros boyliklari va qadriyatlaridagi resurslarning geografiyasini o‘rganishdan quyidagi xulosalar kelib chiqdi:

1.O‘zbekistonning milliy turizmida yangidan tashkil qilinadigan va rivojlantiriladigan milliy madaniy meros turizmining resurslari Respublikamizning barcha viloyatlarida, shaharlarida, tumanlar va qishloqlarida bor. 5-jadvaldagi ma’lumotlar dastlabki kuzatuvlar natijasi bo‘lib, bu kabi resurslar va obyektlarning biz bilmagan manzillari ham juda ko‘plab tumanlar, shaharlar va qishloqlarda faoliyat ko‘rsatib kelayotganligini anglash, tushunish qiyin emas.

2.Milliy madaniy meros turizmining Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva va Shahrisabz shaharlaridagi resurslari va obyektlaridan turizmda majmuali foydalanishning tashkiliy jihatlari tezkor usullarda ishlab chiqilishi kerak. Chunki, O‘zbekistonga kelayotgan xalqaro turistik oqim asosan shu shaharlarimizda qayd qilinmoqda. Bu xalqaro turistlar asosan tarixiy va madaniy obidlarga va ziyoratgoh joylarga tashrif qilmoqdalar. Ana shu turistlarni ushbu shaharlardagi milliy madaniy meros turizmi resurslariga, obyektlariga va turlariga takliflar qilish, qiziqtirish usullarini qo‘llash vaqti keldi.

Bunday maqsadlarni, rejalarni amalga oshirish uchun shaharlardagi milliy madaniy meros turizmi resurslarining, obyektlarining jahon andozalari bo‘yicha shakllantirilgan, sifatli naqshlangan buklov, reklamalarini o‘zbek, rus, arab, Yevropa xalqlari

va ingliz tillarida axborot va tushuntirishlar bilan turistik firmalarga tarqatish va bu buklovlarni xorij davlatlardan kelgan turistlar bepul yoki sovg‘a sifatida olishlarini ta’minlash amalda kutilgan usullardan bo‘lishi shubhasizdir.



15-rasm. Milliy meros boyliklari va qadriyatlardan turizmda foydalanishni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari

3. Milliy madaniy meros turizmining ko‘plab resurslari, obyektlari, hunarmandchilik, ustachilik markazlari shaharlarda joylashganligi uchun shahardagi talabalarning ko‘rishlarini ta’minlash ichki milliy madaniy meros turizmning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini yaxshi anglashimiz kerak.

4.Milliy madaniy meros turizmidagi milliy o‘yinlarimizni turistik firmalar yoki turistik tashkilotlar tashkil qilishiga aslo hojat yo‘q. Bu o‘yinlarni xalqimiz o‘z mavsumlarida doimo tashkil qilmoqdalar.Turizm sohasidagi mutaxassislarning vazifasi turistlarni bu milliy o‘yinlarga taklif qilish hisoblanadi. Taklifgacha esa o‘yinlarga yetib borish marshrutlari aniqlangan va turistlarga ko‘rsatiladigan barcha xizmatlarni ko‘rsatish majmualari, sharoitlari yaratilishi lozim.

5.O‘zbekistonda milliy madaniy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishda milliy madaniy meros turizmining 5 ta asosiy resurslari guruhidan foydalanish maqsadli bo‘ladi. Istiqbolda bu

yo‘nalishlar milliy madaniy meros turizmidan alohida-alohida turizm turlari bo‘lib, shakllanishining katta imkoniyatlari ham mavjud (15-rasm).

Davlatimizning turizm sohasidagi barcha tashkilotlari ishlab chiqgan “Dastur” albatta mukammalligi bilan ajralib turishi, milliy madaniy meros turizmidagi tadbirkorlar bu dasturdan yengil foydalanishning qulay imkoniyatlari bo‘lishi lozim. Shu o‘rinda keltirish lozimki, O‘zbekiston milliy turizmida turizm xizmatlariga ixtisoslashuv hamon davlat tashkilotlari tomonidan ham, turizmdagi xususiy tadbirkorlikda ham e’tibordan chetda qolmoqda. Turizm ham har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sohalar kabi ixtisoslashtirishni, rayonlashtirishni talab qiladi.

15.2. Milliy madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlariga gid-ekskursiyachilar tayyorlash

Madaniy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirishni milliy meros turizmining istiqbolli yo‘nalishlariga ixtisoslashishdan boshlash va bu yo‘nalishlarni davlat tashkilotlari quvvatlab borishi lozim. Bizning xulosalarimiz bo‘yicha milliy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishdagi ixtisoslashish milliy meros boyliklaridan majmuali foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda dastlabki 5 ta yo‘nalishni qamrab olishi mumkin.

Milliy meros turizmini tashkil qilish va ixtisoslashishi shuning uchun ham muhimki, xalqimizning milliy merosi boyliklari turli-tuman bo‘lib, juda ko‘p yo‘nalishlardan tarkib topgan. Masalan, birgina duradgorlikdagi yog‘och o‘ymakorligining bir-biridan shakllari bilan farq qiluvchi Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent, Surxondaryo va Urgut yo‘nalishlari mavjud.

Milliy o‘yinlarimiz ham viloyatlarimiz bo‘yicha o‘ziga xos ko‘rinishlarni hosil qilgan. Shuning uchun ham milliy meros turizmini milliy meros boyliklarimizning har bir yo‘nalishiga ixtisoslashgan holda tashkil qilishimiz va rivojlantirishimiz maqsadli, natijali bo‘ladi.

Bizning xulosalarimiz bo‘yicha milliy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlari quyidagi ixtisoslashish bo‘yicha qabul qilinishi lozim:


1. Milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishning milliy etnik meros xizmatlariga ixtisoslashishi.

2. Milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmdan foydalanishning milliy san’at xizmatlariga ixtisoslash.

3. Milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishning milliy madaniyat xizmatlariga ixtisoslash.

4. Milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishning milliy o‘yinlardagi xizmatlarga ixtisoslashish.

5. Milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishning milliy hunarmandchilik xizmatlariga ixtisoslash.



16-rasm. Milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishda xizmatlarning turizmda foydalanishi bo‘yicha ixtisoslashuvi

Milliy madaniy meros turizmini tashkil qilish va ixtisoslashuvi shuning uchun ham muhimki, xalqimizning milliy merosi boyliklari turli-tuman bo‘lib, juda ko‘p yo‘nalishlardan tarkib topgan. Masalan, birgina duradgorlikdagi yog‘och o‘ymakorligining bir-biridan shakllari, usullari bilan farq qiluvchi Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent, Surxondaryo va Urgut yo‘nalishlari mavjud. Milliy hunarmandchilikdagi kulolchilik, gilamchilik yoki kashtachilikda ham har bir viloyatlardagi, ba’zida tumanlarlardagi

hunarmandlarning ham o‘z usuli, sirlari bor. Shuning uchun ham, milliy madaniy meros turizmini milliy meros boyliklarimizning har bir yo‘nalishiga ixtisoslashgan holda tashkil qilishimiz va rivojlantirishimiz maqsadli, natijali bo‘ladi (16-rasm).

Turizm ijtimoiy-iqtisodiy soha bo‘lganligi uchun ham uning sohalari va turlariga ixtisoslashish turizmdagi tadbirkorlarning aniq rejalar asosida ishlashini ta’minlaydi. Hozirgidek, turistik firmalarning har taraflama ishlashiga chek qo‘yib, ularning o‘z-o‘zidan birgalikda faoliyat ko‘rsatishi ijobiy natijalar berishini ko‘rsatadi. Birlashgan turfirmalar, mehmonxona xo‘jaliklari va turizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi boshqa tarkiblar o‘rtasida raqobat paydo bo‘ladi. Raqobatning paydo bo‘lishi albatda rivojlanishining birinchi ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Har qanday kasb mehnat faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, insonda shu kasbning asosiy xususiyatlarini belgilaydigan bilim va tajribaga ega bo‘lishni talab qiladi. Bunday bilimlar ushbu kasb yo‘nalishidagi ta’limni o‘rganishdan, tajribalar esa mehnat faoliyati davomida o‘zlashtiriladi. Turizmdagi gid faoliyati-gid kasbi yuqorida qayd qilingan bilimlar, tajribalar,ta’limni mukammal egallashni talab qiluvchi kasb. Hozir O‘zbekiston turizmidagi gid faoliyatini, uning o‘zini gid-ekskursovod, gid-etikchi, gid-ekskursiyachi, gid-boshlovchi deb atashmoqda va gid atamasi faqat turizm sohasiga taalluqli emas. Turizmdagi gid faoliyati va uning kasbiy talablarini Rossiyalik taniqli olimlarning asarlaridan o‘rganganmiz. Ularning darsliklari va o‘quv.

1. Qo‘llanmalari mukammalligi uchun turizmda asosiy mutaxassislik fanlari sifatida o‘qitiladi. O‘zbekistonda chop qilingan lug‘atlarda gid va gid-tarjimon-ekskursiyachining izohlari Rossiyalik olimlarning asirlarini tarjima qilish bilan quyidagicha berilgan.

2. *Gid* farang tilida - guide - boshlovchi - sayrbon, boshlovchi, turistik ekskursiya byurosi rasmiy vakili, turistlar va sayohatchilarga turistik obyektni ko‘rsatadi, tarixini so‘zlab beradi, shahar yoki hududning tarixiy va madaniy diqqatga sazovor joylari bilan tanishtiradi.

3. *Gid-tarjimon-ekskursiyachi-xorijliklarga* ularning mamlakat bo‘ylab turistik safarida kuzatib boradi. Marshrutda ularga xizmatlar ko‘rsatishdi bevosita ishtirok etadi, xizmatlar uchun moliyaviy hisob-kitoblarni olib boradi. Gid-tarjimon-ekskursiyachi bir nechta chet tillarda erkin so‘zlashdi, ekskursiya va marshrutlarni mustaqil o‘tkazadi,turistlarning savollariga javoblar, maslahatlar beradi. Gid-tarjimonning ish staji, kasbiy mahoratiga qarab uch darajali toifa (uchinchidan birinchigacha beriladi).

4. *Gid-tarjimon-turizmga* bog‘liq bo‘lmagan ishlab chiqarish jarayonlarida, har-xil tillardagi odamlarning o‘zaro muloqotlarida, hamkorlik faoliyatlarida, qo‘shma korxonalarning ish faoliyatlarida shartnomalar va hokazolarda tarjimonlik qiluvchi shaxs.

5. Biz milliy turizmimizda bitta gid-ekskursiyachi nomini qabul qilishimiz va uning faoliyatiga o‘rganishimiz lozim. Chunki ichki turizmda gidning tarjimonligi talab qilinmaydi. Gid-etikchi, gid-boshlovchi atamalari turizmda gid-ekskursiyachi atamasiga nisbatan ancha noaniqroq tushunchalarni keltirib chiqaradi.

6. Turizm sohasida, turistik firma rivojida gid-ekskursiyachining ma’sumiyati juda katta. U ekskursiyachilar va turistlar qiziqib tanlagan, ular uchun noaniq va birinchi ko‘rishi bo‘lgan turistik obyektni ularni qoniqtiradigan ko‘rsatuvni va ma’lumotlarni berishi, ularning savollariga to‘liq javob berishi kerak. Shuning uchun ham gid-ekskursiyachilarga quyidagi talablar qo‘yilgan:

7. 1. Intellektuallik;

8. 2. O‘z-o‘ziga ishonchli, qat’iyligi;

9. 1. Kommunikativlik;

10. 1. Kasbiy mahoratiga ishonishi yuzasidan yuqori pog‘onalarda turishini his qilish.

11. 5. Tashkilotchilik;

12. 6. Har tomonlama dunyoqarashga ega bo‘lish;

13. 7. Madaniyatlilik;

14. 8. Bilimlilik

15. 9. Tahlil qila bilish.

16. O‘zbekistonlik olimlar gid-ekskursiyachi quyidagi mezonlar bilan baholanishini tavsiya qilishgan:

17. 1. Tashqi ko‘rinishi, tajriba, zamonaviy asbob-uskunalar;

18. 2. Puxta bilimlilik, kasbiy professionallik;

19. 3. Axborotlanganlik va o‘zaro hamkorlik;

20. 4. Ijtimoiy xulq-atvorining yuqoriligi;

21. 5. Yoshi 20 yosh va undan yuqori bo‘lishi, 3 yil tajribaga ega gid-ekskursiyachining yoshi 50 yoshdan yuqori bo‘lmasligi.



17-rasm. Milliy meros boyliklari va qadriyatlaridan turizmda foydalanishning yo‘nalishlariga gid-ekskursiyachilar tayyorlash

Gid-ekskursiyachining shaxsiy fazilatiga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat bo‘ladi: yoqimli tashqi ko‘rinish; e’tiborli; kuchli xotira; ishda ijodiy yondashuv; tez qaror qabul qilish qobiliyati; tashkilotchi; o‘ziga ishonuvchan; dunyoqarashi keng; nutq madaniyati, to‘g‘ri talaffuzga ega bo‘lish, so‘z boyligiga ega bo‘lishi kerak.

Shaxsiy fazilatga to‘g‘ri kelmaydigan ko‘rsatmalar: yurak qon-tomiri kasalliklari bilan og‘riganlarga, ruhiy va asab tizimlari buzilganlarga, nutqida va jismoniy kamchiligi borlarga bu ish tavsiya etilmaydi.

Milliy meros turizmining xalqaro yo‘nalishiga gid-ekskursiyachilarini tayyorlashda yuqorida keltirilgan talablarga qat’iyan rioya qilinishi lozim. Shuning uchun hamki, milliy meros turizmiga tayyorlangan gid-ekskursiyachilar millatimizning, insoniyatning qadim madaniyat markazlaridan biri ekanligini,

millatimiz betakror odob-axloq madaniyatiga, yaratuvchilik san’atiga ega ekinligi haqidagi dastlabki ma’lumotlarni xalqaro turistlarga yetkazuvchi, milliy meros boyliklarini ko‘rsatuvchi hisoblanadi.

O‘zbekistonda milliy meros turizmining resurslaridan foydalanishda istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlab, milliy meros turizmining milliy meros boyliklaridan foydalanishi bo‘yicha ixtisoslashuvi ham ana shu yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi tavsiya qilinganligini hisobga olsak, milliy meros turizmiga gid-ekskursiyachilar tayyorlash ham shu yo‘nalishlarda tayyorlanishi lozim degan xulosaga to‘xtaldik (17-rasm).

Turizmning tarixiy-madaniy turizm, ziyorat turizmi, rekreatsiya turizmi va arxeologiya turizmi kabi asosiy turlari deyarli bir BOBli bo‘lganligi uchun bu turlarga gid-ekskursiyachilar tayyorlash milliy meros turizmiga gid- ekskursiyachilar tayyorlashga nisbatan ancha yengilroq. Chunki, mazkur turizm turlari nomlanishiga bog‘liq bo‘lib, gid-ekskursiyachi tayyorlashda o‘rganiladigan fan va bilimlar, tajribalar ham asosan bir bob bilan bog‘liq.

Tarixiy madaniy turizm turi tarixiy obidalar, tarixiy joylar va tarixiy voqealar bilan bog‘liq turizm resurslarini qamrab olganligi tufayli bu turizm turida tilni o‘rgangan tarix o‘qituvchilari ham gid-ekskursiyachi bo‘lib ishlamoqdalar. Ziyorat yoki arxeologiya turizmi haqida ham shunday xulosalarni keltirish mumkin.

Xalqimizning milliy merosi boyliklari turli-tuman va turli yo‘nalishlarni, hattoki sohalardan iborat bo‘lganligi uchun yuqorida keltirilgan turizm turlaridek umumiy yo‘nalishga gid-ekskursiyachilar tayyorlash juda murakkab bo‘lib,gid-ekskursiyachini milliy meros boyliklarining barcha turlariga va yo‘nalishlariga tayyorlash juda ko‘plab vaqtlarni oladi. Chunki xalqimizning milliy merosi boyliklari turli yo‘nalishlarni tashkil qilgan bo‘lib, bir-birini takrorlamaydi.

Milliy meros va qadriyatlar turizmiga tayyorlanadigan gid-ekskursiyachining zimmasiga quyidagi vazifalar, majburiyatlar qo‘yiladi.

- Milliy meros, qadriyatlar turizmiga, turizm marshrutlari va ekskursiyashunosligini yaxshi bilishi;

- Milliy meros, qadriyatlar turizmiga turizmi va ekskursiya obyektlarini yaxshi bilishi;
- Milliy meros qadriyatlar turizmiga turizmi va ekskursiya marshrutlarini ishlab chiqa olishi;
- Milliy meros qadriyatlar turizmiga turizmining yangi ekskursiyalari va turistik marshrutlarini ishlab chiqa olishi;
- Milliy meros qadriyatlar turizmiga turizmi xizmatlari bozoridagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida tushunib olishi va yangi milliy meros turizmi mahsulotlarini ishlab chiqa olishi;
- Milliy meros qadriyatlar turizmiga turizmining turistik marshrutlari, ekskursiyalarini o‘tkazishning metodlarini yaxshi o‘zlashtirish va yangi metodiklari bo‘yicha ma’ruzalar qila bilishi;
- Milliy meros qadriyatlar turizmiga turizmining turistik va ekskursiya marshrutlarini mohirlik bilan boshqar bilishi.

Milliy meros turizmiga tayyorlangan gid-ekskursiyachi faoliyatini baholashda quyidagi toliblar qo‘yiladi. Ya’ni gid-ekskursiyachi quyidagi malakaviy ishlarini bajarishga qobiliyatli bo‘lishi lozim:

- Ma’lum bir bobga oid turizm va ekskursiya marshrutlarini yig‘a bilishi va yangi turistik ekskursiya marshrutini tayyorlay bilishi;
- Ekskursiyaning metodlarini (texnologik xarita, marshrutlar sxemasi, ekskursiyaning dasturi, ekskursiyani o‘tkazish metodlari va boshqalar) yaxshi bilishi va amalda erkinlik bilan qo‘llay olishi;
- Ekskursiyaning o‘tishi davomida yangi metodlarni qo‘llay bilishi;
- Ekskursiyaning yo‘l-yo‘lakay yangi axborotlarini tayyorlay olishi;
- Ekskursiya davomida ko‘rgazmali qurollar bilan ishlay olishi, ularni tayyorlab qo‘yishi;
- Turistlar va ekskursiyachilarni (guruhlarni) boshqara bilishi;
- Turistik va ekskursiya marshrutlarini reklama qila bilishi.
- Milliy meros turizmining xalqaro turizmdagi yangi tendensiyalari va yangi texnologiyalarini kuzatib, o‘rganib borishi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. Milliy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishning istiqbolli qanday yo‘nalishlari bor?

2. Milliy meros va qadriyatlardan turizmda foydalanishning istiqbolli qaysi yo‘nalishlari siz uchun qiziq va tushunarli?

3. Milliy etnik meros Bobida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering?

4. Milliy o‘yinlar Bobida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering?

5. Milliy ustachilik va milliy hunarmandchilik Bobida taqdimot tayyorlang va amaliy darslarda gapirib bering.

XVI BOB. TURIZMDA MILLIY MADANIY MEROS VA QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA MUZEYLARDAN FOYDALANISH

Tayanch so‘zlar: talant, gerbariy, muza, muzey, moziy, ma’budalar, antik poeziya, uy-muzey, gimn, moziydan sado, sahrodagi Luvr, tamaddun.

16.1. Muzeylarning tarixi

Tarixiy, moddiy va ma’naviy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, o‘rganish va tashviq qilish ishlarini bajaruvchi ilmiy, ma’rifiy muassasa deyilganida, albatta, biz muzeyni tushunamiz. Muzeylar orqali o‘tmishga, insoniyat bosib o‘tgan yo‘llarning haqiqiy qiyofasini ko‘rishga muvaffaq bo‘lamiz. Muzeylar faqatgina madaniy qadriyatlar namoyishigina bo‘lib qolmasdan, ular bizni o‘tmish sayohatiga chorlovchi yo‘lboshlovchi hamdir.

Muzeylarning paydo bo‘lishi va shakllanishi haqida juda ko‘plab tadqiqotlar bilan tanishish mumkin. Osiyodagi g‘alabalari natijasida tanlangan boylik hisobidan Aleksandr Makedonskiy ustozi Aristotelga 30 ming talant (o‘sha davrdagi oltin hisobidagi pul birligi) yubordi. Bu pullarga Aristotel tabiatshunoslik muzeyini tashkil qildi. Aristotel o‘zining podsho o‘quvchisidan yangi yerlardagi noma’lum o‘simliklarning namunasini (gerbariy-o‘simliklar muzeyi, qandaydir yangi hayvonlarning tuluplarini (quritilgan ko‘rinishi) doimo yuborib turishini so‘ragan (hayvonlar muzeyi). Bu birinchi muzeylar va muzeyshunoslikning boshlanishi edi.

“Muzey” yunoncha atama bo‘lib, “muza” so‘zidan kelib chiqqan. Qadimgi Yunon mifologiyasida san’at va fan ma’budalari “muzalar” deb yuritilgan. Muzalar, ya’ni ma’budalar yoki xudolar shoir va san’atkorlarga ilhom beradi, deb e’tiqod qilingan. Shuning uchun antik poeziya asarlarining boshida ko‘pincha Muzaga murojaat qilingan. San’at va adabiyotga, tarixga oid bir qancha ma’budalar

mavjud bo‘lgan. Jumladan, antik shoirlardan Gesiod (mil.avv. 7-asr) 10 ta ma’budani sanab o‘tadi:

1. Klio-tarix.
2. Evterpa-poeziya va musiqa.
3. Taliya-komediya;
4. Melpomena-tragediya.
5. Terpsixora-o‘yin.
6. Erato-muhabbat lirikasi.
7. Poligileniya-gimnlar.
8. Uraniya-astronomiya.
9. Kalliopa-epos.
10. Appollon -Muza xudosi hisoblangan.

Muza obrazi Yevropa tasviriy san’atida o‘z ifodasini topgan. Ma’budalar-turli shakldagi haykallar alohida ehtirom bilan muqaddas sanalgan imoratlarda saqlangan. Odamlar ma’budalarni ziyorat qilaturib, orzu-istaklarini amalga oshirishini tilaganlar. Natijada muzalar joylashgan dargoh insonlarning ziyoratgohiga aylangan. Bu dargohda eng asl buyumlar, nodir, qimmatbaho ashyolar va go‘zal san’at asarlari ham saqlana boshlagan. Ular bu bino sahnini bezash bilan birga, ziyoratchilar qalbida ham alohida taassurot qoldirgan. “Muzeun”-bu go‘zal buyumlar saqlanadigan, ilhom parilari to‘planadigan joy degan ma’noni anglatadi. Shuningdek, “Moziy” so‘zining “Muzey” atamasiga monand ekanligini ham e’tirof etish kerak.

“Moziy” so‘zining lug‘aviy ma’nosi tarix, o‘tmish degan mazmunni anglatadi. Muzeylar ham vazifasiga ko‘ra tarixni, o‘tmishni namoyish qilish bilan avlodlarga bilim beradi.



Muzalar-mabudalar

Hech bir xalq yoki millat ma’naviyatini uning tarixidan, milliy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Binobarin, dunyo tamadduniga beqiyos ulush qo‘shgan ko‘hna zaminimizdagi madaniy hamda tarixiy yodgorliklar, betakror osori-atiqalar, necha ming yillik topilmalar va ashyolar, nodir qo‘lyozmalar nainki xalqimiz, balki umumjahon merosining noyob namunalari hisoblanadi. Shunday bebaho boylikni asrab-avaylash, milliy tariximiz hamda an’analarimizni chuqur o‘rganib, ilmiy asosda tahlil va targ‘ib etish, ajdodlarimiz xotirasini e’zozlash, ayniqsa, yosh avlodni ma’naviy yuksaltirishda muzeylar alohida o‘rin tutadi. Muzeylar insonning estetik didini oshirishga hamda ruhiy barkamolligini ta’minlashga katta xizmat ko‘rsatadi. Tarixiy-madaniy buyumlarni o‘zida saqlovchi bu maskanlar uzoq o‘tmishga borib taqoladi. Muzeylar jamiyatni tarix bilan bog‘lab turadi.

16.2. O‘zbekiston muzeylarining tarixi.

O‘zbekiston tarixida muzeylarning vujudga kelishi XIX asrning ikkinchi yarmiga borib taqiladi. 1876-yil Toshkentda ilk bor Turkiston muzeyi tashkil topib, uning xazinasini boyitishda mahalliy ixlosmandlar Mirza Qosimov, Akram Asqarov, Mirza Abdulla Buxoriy kabi yurtdoshlarimiz hamda rus olimlari V.Oshanin, N.Mayev, V.Vyatkin, N.Seversovlarning xizmatlari beqiyos bo‘lgan. Biroq o‘lkamizda mustamlakachilikning mudhish siyosati tufayli aksariyat qimmatbaho va benazir, xalqimizning ma’naviy va ijtimoiy-maishiy turmush tarzini o‘zida aks ettiruvchi noyob durdonalar talon-toroj qilinib, o‘zga yurtlarga turli yo‘llar bilan olib chiqib ketildi.
Shunga qaramay, mahalliy va jonkuyar ziyolilar tashabbusi bilan mamlakatimizda yangi muzeylar tashkil qilishga erishildi. 1896-yil Samarqand, 1899-yil Farg‘ona, 1921-yil Namangan o‘lkashunoslik muzeylari vujudga keldi. “Ochiq osmon ostidagi muzey” deya e’tirof etilgan O‘zbekiston shaharlari, xususan, 1969-yil Xiva, 1982-yil Samarqand, 1985-yil Buxoro muzey-qo‘riqxonalarga aylantirildi.

Yurtimizda barcha mamlakatlarda bo‘lgani kabi yo‘nalishi va faoliyatiga qarab, tarmoq va memorial muzeylar bunyod etildi. Tarmoq muzeylardan 1992-yil noyabrda Buxoroda temirchilik muzeyi, 1996-yil O‘zbekiston gidrometeorologiya muzeyi, 1996-yil 1-sentyabrda Toshkentda Osiyoda yagona bo‘lgan Olimpiya shon-shuhrati muzeyi, 1996-yil 18-oktyabrda Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, 2002-yil 27-avgustda Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi, memorial muzeylardan 1992-yil Namanganda Boborahim Mashrab muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o‘g‘li uy-muzeyi, 1993-yil 3-iyulda huquqshunos olima Xadicha Sulaymonova muzeyi, o‘zbek raqqosasi Mukarrama Turg‘unboyeva muzeyi, mashhur adiblarimiz Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor muzeylari, O‘zbekiston gimnining muallifi Mutal Burxonov muzeyi, san’atimiz darg‘alari bo‘lgan Yunus Rajabiy, O‘rol Tansiqboyevlarning muzeylari kabi ma’naviy-ma’rifiy maskanlar ning ochilishi yoshlarimizga o‘tmish sahifalarini o‘qitishda asosiy vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

Muzeylar faoliyatini yanada kuchaytirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni respublikamizdagi muzeylarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va qo‘llab-quvvatlashning muhim moddiy-huquqiy poydevori sifatida xizmat qildi.1998- yil “O‘zbekmuzey” Respublika jamg‘armasi tuzilib, 1999-yildan esa xalqimizning, ayniqsa, yoshlarimizning muzeyshunoslik borasidagi madaniyatini oshirishga ko‘maklashuvchi “Moziydan sado” jurnali ta’sis etilib, o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi.

Natijada respublika muzeylarining asosiy fondi 1999-yilning o‘zidayoq, 7544 ta tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan boyidi. Mamlakatimiz muzeylarda xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash, milliy qadriyatlarimiz va an’analarimizni yuksaltirishga xizmat qilish bilan birga yurtimizda turizm salohiyatini yanada rivojlantirish va

Jahon sayyohlik idoralari hamda tashkilotlarining o‘lkamizga bo‘lgan qiziqishini yanada ortishiga zamin hozirlovchi maskanlar sifatida ham muhim rol o‘ynaydi.

Xususan, grafika, haykaltaroshlik, tasviriy va amaliy san’at namunalari, turli arxeologik topilmalar, etnografiya buyumlari, qadimiy suratlarning o‘zida jamlagan hamda ko‘plab mamlakatlar tomonidan “Sahrodagi Luvr” nomi bilan e’tirof etilgan Qoraqalpog‘istondagi I.Savitskiy nomidagi Davlat muzeyi butun dunyoga mashhurdir.

1998-yil 29-yanvarda Fransiyaning Kann shahrida ushbu muzeyning 284 ta eksponatdan iborat ko‘rgazmasi tashkil etilib, Yevropaning hayratlantirgan bo‘lsa, 2017-yil 4-5-aprel kunlari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga qilgan tashrifi doirasida Moskvadagi Pushkin nomli tasviriy san’at muzeyida ham I. Savitskiy muzeyi ko‘rgazmasining ochilishi Rossiyalik san’at ixlosmandlarida katta qiziqish uyg‘otdi.

Muzeylar moziyning sirli xilqatlarini o‘zida mujassam etgan holda xalqlar madaniyatini, qadriyatlarini tarannum etuvchi maskan va davlatlarni bir-birligiga yaqinlashtiruvchi ko‘prikdir. Shuning uchun ham 1977-yil ilm-fan va madaniy masalalar bo‘yicha xalqaro tashkilot UNESKO tomonidan 18-may - Xolqora muzeylar kuni sifatida e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida quyidagi tanqidiy fikrlar aytilgan edi:*“Afsuski, yurtimiz tarixini o‘rganishimizda o‘tgan davrda arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmadi. Shuning uchun Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San’atshunoslik institutlari faoliyatini, oliy o‘quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur”.*Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasining 1019-yil 12-fevraldagi *“Yurtimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish hamda ularni kelajak avlodga yetkazish, mamlakatimiz muzeylarida saqlanayotgan*

tarixiy eksponatlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi” ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida muzeylar faoliyatini tartibga solish, izchil rivojlantirish maqsadida yigirmadan ortiq huquqiy-me’yoriy hujjatlar amaliyotga tatbiq qilindi. Xususan, “Muzeylar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, Prezident Farmon hamda qarorlari va boshqa hujjatlar asosida muzeylar faoliyati yangilanib, ularning moddiy-texnik bazasi zamon talablariga mos ravishda mustahkamlandi. Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi singari ma’naviy-madaniy markazlar bunyod etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida tashkil qilingan “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi barcha turdagi muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirib, ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatib kelyapti. Hozirgi kunga kelib, yurtimizdagi muzeylar soni 444 taga yetdi, hamda ularda jami 2 million 159 mingdan ortiq eksponat saqlanmoqda. O‘tmish va bugunni bog‘lab turuvchi mazkur maskanlarning 135 tasi davlat budjetidan moliyalashtirilsa, 99 tosi nodavlat, 200 dan ortig‘i kollej hamda maktab muzeylari sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorini ijro etish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “2017-2020- yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” qaror qabul qildi.

Shunday keng dasturlardan biri vatanimizning milliy turizmida yangi–“Turizmda muzeyshunoslik” fanini, amaliyotini yaratish

hisoblanadi. Bu masalaning dolzarbligini hisobga olib, O‘zbekiston Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Davlat ta’lim standartlariga “Turizmda muzeyshunoslik” fanini kiritdi. Hukumatimizning deyarli barcha qarorlariga turizmni rivojlantirish masalalari kiritilganligi milliy turizmda yangi yo‘nalishlarni, turizmning yangi turlarini tashkil qilishni talab qiladi. Navbatdagi vazifa-O‘zbekistonning milliy turizmida yangi tur-*“Muzeylar turizmi”*ni tashkil qilish va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirishimiz lozim.

16.3. Muzeylardan turizmda foydalanish.

Milliy madaniy meros turizmini rivojlantirishda muzeylardan foydalanishni quyidagi 2 yo‘nalishda tashkil qilish va rivojlantirish maqsadli bo‘ladi:

1. Ichki milliy madaniy meros turizmida muzeylardan foydalanish ekskursiya marshrutlarini ishlab chiqish.
2. Xalqaro milliy madaniy meros turizmida muzeylardan foydalanish ekskursiya marshrutlarini ishlab chiqish.

Ichki milliy madaniy meros turizmida muzeylarga ekskursiya marshrutlarini ishlab chiqish ancha muammoli masala hisoblanadi. Chunki hozirgi kunda muzeylarga ekskursiyalarni tashkil qilish ancha sustlashgan. Muzeylarga ekskursiyalar tashkil qilish sobiq ittifoq davrida davlat mablag‘lari hisobidan amalga oshirilib, bu ekskursiyalarga maktab ta’limidagi fanlar bo‘yicha asosan maktab o‘quvchilari ishtirok etishardi.

O‘zbekistonning mustaqillik yillaridagi erkin bozor tizimiga o‘tish davrida davlat budjeti hisobidan maktab o‘quvchilarining ekskursiyalarga chiqishini tashkil qilish butunlay to‘xtab qoldi. Sababi, muzeylar ekskursiyalarini ichki turizmda ham, xalqaro turizmda ham tashkil qilish muammolari bilan shug‘ullanuvchi maxsus turistik firmalar, turistik tashkilotlar hanuzgacha tashkil qilingan emas. Bu holatning asosiy sabablari, muzeylar ma’muriyatining loaqal o‘quv dasturlari bo‘yicha muzeylarga ekskursiyalarni tashkil qilishda davlat organlari va maktablar

boshqaruvlari bilan umuman hamkorlikni to‘xtatib qo‘yganligi hisoblanadi.

Ikkinchidan, muzeylarning rahbariyati to hozirgacha o‘zlarining rahbarligidagi muzeylarning faoliyatlari haqida reklamalarni, muzeylar bilan tanishtiruvchi teleradio yoki davriy matbuotlarda chiqishlarni qoniqarli amalga oshirishgan emas. Bu juda taajjubli hol hisoblanadi. Chunki muzeylardagi turli-tuman ma’lumotlar boshqa birorta tashkilotda yo‘q hisoblanadi. Uchinchidan, muzeylarda ishlovchilar boshqalarga nisbatan ancha bilimli, ehtirosli, ta’sirchan kishilardir. Chet davlatlarda muzeylarning xodimlari qandaydir kichik elementlar yoki oddiy voqelikka ega bo‘lgan manbaalarni shov-shuv darajalarida ko‘tarib chiqishadi. Natijada muzeylarga ommaviy oqim kuchayadi.

Ichki milliy madaniy meros turizmida muzeylar ekskursiyalarini tashkil qilish va rivojlantirish bizningcha quyidagicha bo‘lishi maqsadlidir:

1. Maktab o‘quvchilari uchun muzeylar ekskursiyalari.
2. Maktab o‘qituvchilari uchun muzeylar ekskursiyalari.

Ikkinchidan, muzeylarning rahbariyati to hozirgacha o‘zlarining rahbarligidagi muzeylarning faoliyatlari haqidagi reklamalarni, muzeylar bilan tanishtiruvchi teleradio yoki davriy matbuotlarda chiqishlarni qoniqarli amalga oshirishgan emas. Bu juda taajjubli hol hisoblanadi. Chunki muzeylardagi turli-tuman ma’lumotlar boshqa birorta tashkilotda yo‘q hisoblanadi. Uchinchidan, muzeylarda ishlovchilar boshqalarga nisbatan ancha bilimli, ehtirosli, ta’sirchan kishilardir. Chet davlatlarda muzeylarning xodimlari qandaydir kichik elementlar yoki oddiy voqe’likga ega bo‘lgan manbalarni shov-shuv darajalarida ko‘tarib chiqishadi. Natijada muzeylarga ommaviy oqim kuchayadi.

Ichki milliy madaniy meros turizmida muzeylar ekskursiyalarini tashkil qilish va rivojlantirish bizningcha quyidagicha bo‘lishi maqsadlidir:

1. Maktab o‘quvchilari uchun muzeylar ekskursiyalari.
2. Maktab o‘qituvchilari uchun muzeylar ekskursiyalari.

3. Alohida fan yo‘nalishlari (tarix, geografiya, biologiya, botanika, adabiyot, zoologiya va boshq.mutaxassislariari uchun muzeylar ekskursiyalari.

4. Olimlar, tadqiqotchilar uchun muzeylar ekskursiyalari.

5. Universitet, institut kollejlej talablari uchun o‘rganilayotgan fanlar bo‘yicha muzeylar ekskursiyalari.

6. Kattalar uchun dam olishda-bilim olish muzey ekskursiyalari.

7. “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” ekskursiyalari.

O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori Vatanimizda ichki turizmni rivojlantirishning istiqbolli bosqichini boshladi[32]. O‘zbekistonning milliy turizmini rivojlantirishdagi bu qaror O‘zbekston xalqlarida o‘z vatanini anglash, bilish va o‘rganish, dam olish, milliy g‘urur va vatanni sevish, unga mehr-muhabbatli bo‘lish, tabiati va tabiati boyliklarini kelajak avlodlari uchun saqlash va muhofaza qilish his-tuyg‘ularini shakllantiradi.

Prezidentimiz mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish haqidagi bu muhim qarorni o‘rganar ekanmiz, turizm sohasidagi barcha turistik firmalar va tashkilotlar, ta’lim tizimidagi barcha faoliyat yo‘nalishlarida samarali tadqiqotlar va samarali ishlash uchun shu kunning dolzarb muammolarini yechishning davlat miqyosidagi dasturlari, ko‘rsatmalari va yo‘l-yo‘riqlari, imkoniyatlari yaratilganligini, berilganligini ko‘ramiz. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanish, turizm sohasida faoliyat yuritayotganligimizdan bu qarorning bajarilishiga o‘z hissamizni qo‘shishga mas’ul ekanligimizni anglaymiz.

Bu maqsadga erishish uchun vatanimizdagi barcha muzeylarning viloyatlar, tumanlar va shaharlar kesimida to‘liq tarif va tavsiflari (manzili, turi, faoliyati, ish tartibi, yaratilgan sharoitlar, eksponatlar haqidagi ma’lumotlar va b.) katalogini, internet bazasini yaratishimiz talab qilinadi. Bu ma’lumotlar bo‘yicha muzey ekskursiyalarini tashkil

[32] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: Ichki turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent sh., 2018 yil 7-fevral, PQ-3514-son

qiluvchilar, turizmdagi tadbirkorlar, maktablar, litseylar, kollejlar, institut va universitetlarning rahbariyatlari mamlakatimizning har qanday muzeylariga qisqa vaqtlarda muzey ekskursiyalarini tashkil qilish imkoniyatlarini beradi.

Ikkinchidan, muzeylarimizning rahbarlari, xodimlari aholi markazlariga, tashkilotlarga, ta'lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga chiqishlari, kelishuvlar va shartnomalar tuzishi, davra suhbatlarini tashkil qilishlari hozirgi erkin bozorning zarur harakatlaridan hisoblanadi.

Uchinchidan, qishloqlardagi maktablarning rahbariyatlari qishloqlardagi iqtisodiy jihatdan to‘liq bo‘lgan fermerlar, ishbilarmonlar va boylarni, o‘z qishlog‘ining ertangi avlodi bo‘lgan maktab o‘quvchilarini loaqal vatanimizning birorta shahridagi muzeylarga bepul ekskursiyalar tashkil qilib berishga chaqirishi lozim.

To‘rtinchidan, ta'limning barcha tizimlariga muzeylarini ko‘rsatishi talab qilinadigan fanlarning dasturlariga “Muzeylar-bilim maskani”, “Muzeylar tariximiz”, “O‘zbekistonning hayvonot olami”, “O‘zbekistonning o‘simliklar dunyosi”, “O‘zbekistonning mashhur farzandlari”, “O‘zbekistonning mashhur adiblari” kabi BOBlar kiritilishi ham yosh avlodlarimizning vatanimizga bo‘lgan mehrini, g‘ururini, bilimini oshiradi, komillikka undaydi.

Beshinchidan, biz mutaxassislar, hammamiz nima uchun Fransiyaning “Luvr” muzeyiga har yili 5 mln. kishi tashrif buyurdi? Nima uchun AQShning “Metropoliten”iga har yili 5 mln. kishi tashrif buyuradi, kabi axborotlarga ham jiddiy e'tibor berishimiz lozim.

Xalqaro milliy madaniy meros turizmida muzeylardan foydalanish ekskursiya marshrutlarini ishlab chiqish ancha muammoli va jiddiy talablarni qo‘yadi. Bu talablarning birinchisi shundan iboratki, xalqaro turistlarni taklif qiluvchi muzeyda xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan eksponat yoki eksponatlar bo‘lishi kerak. Xalqaro ahamiyatga, xalqaro dovruqga ega bo‘lgan muzeylarimiz ham ko‘p. Ikkinchi talab bo‘yicha dunyoga mashhur muzeylarning tajribalaridan ma'lum bo‘lmoqdaki, bilimli, ziyoli xalqaro turistlar albitda birinchi navbatda kelgan mamlakatning aholisi taraqqiyoti

tarixi, milliy madaniyati, urf-odatlari-ya'ni etnografiyasi bilan qiziqishadi. Qayd qilingan ikkala talabning tahlili natijalari shundan iboratki, vatanimizdagi barcha muzeylarga xalqaro turistlarni hech ikkilanmasdan taklif qilishimiz mumkin.

Umumjahon miqyoslaridagi muzeylarimizdan xalqaro milliy madaniy meros turizmida foydalanishning va yangi texnologiya larini ishlab chiqishimiz zarur. Xalqaro milliy madaniy meros turizmida turistlar uchun muzey ekskursiyalarini Toshkent shahridagi Temuriylar tarixi davlat muzeyiga, O'zbekiston Davlat tarixi muzeyi, O'zbekiston amaliy san'at muzeyiga mukammal ravishda ishlab chiqish ham muzeylarimizning xalqaro miqyoslardagi shon-shuhratini oshiradi. Bu muzeyga vatanimizga tashrif buyurgan davlatlarning boshliqlari birinchi navbatda kirishmoqda.

Samarqand shahridagi "Afrosiyob" muzeyi, Qoraqalpog'istondagi I.V.Savitskiy nomidagi davlat tarixiy muzeyi dunyoning noyob eksponatlariga boy muzeylar hisoblanadi. Ma'lumki, faranglarning Luvr muzeyi insonlarning tashrifi bo'yicha dunyodagi birinchi o'rinni egallagan muzey hisoblanadi (yillik tashrif 5 mln.). Faranglar va Amerikaliklar esa Savitskiy nomidagi davlat tarixiy muzeyini "Sahrodagi Luvr" deb tushadi. AQShdagi mashhur "Metropoliten" muzeyi dunyoda birinchilardan bo'lib, bu muzeyni dunyoning eng qiziqarli, insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq tarixiy eksponatlar boy muzey deb tan oldi. Bunday xalqaro reklamalardan unumli foydalanishimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori vatanimizdagi muzeylar faoliyatini taraqqiyotga boshlaydi. Bu taraqqiyotga qo'shilish uchun milliy madaniy meros turizmida muzeylardan foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirishga jadal kirishish kerak. Ikkinchidan, mamlakatimizda so'nggi yillarda xalqimizning, ayniqsa yosh avlodlarning muzeylarga qiziqishi va tashrif buyurishlari, bu tashriflarni tashkil qiluvchi tashabbuskorlik ham, ayni vaqtda, dunyo xalqlarining, xalqaro turistlarning,

vatanimizga tashrif qilgan dovlat rahbarlarining muzeylarimizga qiziqishlari ham yildan-yilga kuchayib bormoqda (6-jadval).

Samarqand davlat muzeyi qo‘riqxonasi tasarrufidagi 10 ta muzeylarga 2024-yilda 364609 kishi kelgan. Mahalliy sayyohlarning soni 190079 turistni tashkil qiladi. Xorijdan kelgan turistlarning eng ko‘pi 121911 turist Mirzo Ulug‘bek muzey majmuasida, 58326 turist Afrosiyob muzeyida bo‘lgan, shulardan 2582 nafari o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar. Mahalliy sayyohlarning tarkibidagi o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar soni 58617 ta. 2023-yilgi nisbatan o‘sish 6,2 % ni tashkil qilmoqda.

Ulug‘ yozuvchi Sadriddin Aynining O‘zbekistondagi yagona muzeyiga Samarqand shahrida ekinligi va muzeyda yozuvchining hayoti va ijodi bilan bog‘langan noyob, tarixiy ma’lumotlar va materiallar, eksponatlar haqida ichki va xalqaro turizm bozoriga zamonaviy turizm talablari asosida reklama va marshrutlarni chiqarish lozim. Kattaqo‘rg‘on shahri tarixi, Ishtixon tarixi muzeyi, Paxtachi tumani tarixi muzeyi va Ergash Jumanbulbul yodgorlik muzeylarida bir yilda 4588 ta katta yoshdagilar, 11614 ta 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar bo‘lishgan. Jadval ma’lumotlari bo‘yicha tumanlardagi muzeylarga o‘quvchilarning qiziqishiga jiddiy e’tibor berishimiz kerak.

6-jadval

Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi tasarrufidagi muzey va tarixiy obidalarga 2024- yilda tashrif buyuruvchilar

№	Muzey va yodgorliklar nomi	Maxalliy sayyoxlar		Xorijiy sayyoxlar		Jami tashrif buyuruvchilar	Bepul tashrif	
		Kattalar	18 yoshgacha bolalar	Kattalar	18 yoshgacha bolalar		Xorijiy sayyoxlar	Maxalliy sayyoxlar
1	O‘zb. madaniyati tarixi davlat muzeyi	3 909	4 383	1 765	85	10 142	126	4860
2	Viloyat o‘lkashunoslik muzeyi	736	4 272	1 695	5	6 708		4104
3	Mirzo Ulug‘bek muzey-majmuasi	105 245	37 539	119 806	2 005	264 595	7644	22124
4	Afrosiyob muzeyi	8 060	4 000	57 749	577	70 386	2640	6349
5	S. Ayniy uy-muzeyi	1 699	1 053	629	109	3 490	29	642
6	Kattaqo‘rg‘on shaxar tarixi muzeyi	94	4 409			4 503		3450
7	Ishtixon tuman tarixi muzeyi	299	585			884		134
8	Paxtachi tuman tarixi muzeyi	474	2 003			2 477		1112
9	Ergash Jumanbulbul yodgorlik muzeyi	503	82			585		98
10	Maxmudxuja Bexbudiy muzeyi	42	48			90		
11	Xoja Abdulaziz Abdurasulov uy muzeyi	17	59			76		
12	Buyuk ipak yo‘li ko‘rgazmasi	236	101	105		442		60
13	Xalklar xamdustligi ko‘rgazmasi	165	142			307		
14	Muzeylar bo‘yicha jami	121 462	58 617	181 749	2 781	364 609	10 439	42 933
15	Amir Temur maqbarasi	99 311	16 472	175 348	4 305	295 436	8733	15728
16	Bibixonim masjidi	80 715	19 390	127 826	221	228 152	3230	14955
17	Bibixonim maqbarasi	15 336	3 294	3 777	22	22 429		3040
18	Nodir Devonbegi madrassasi	3 582	1 446	1 123		6 151	10	4129
19	Yodgorliklar bo‘yicha jami:	198 961	40 661	308 074	4 548	552 244	11 973	37 852
20	Muzey va yodgorliklar bo‘yicha jami:	320 423	99 278	489 823	7 329	916 853	22 412	80 785

Jadval ma’lumotlaridan ma’lum bo‘ladiki, muzeylarimizga ham, tarixiy yodgorliklarimizga ham tashriflar bo‘yicha xorijiy sayyohlar oldinda. Jadvaldagi muzeylarga 180 179 vatandoshlarimiz kirishgan bo‘lsa, xorijliklarning bu ko‘rsatkichi-184 530 turistni tashkil qilmoqda (2%ga ko‘p). Tarixiy yodgorliklarimizga tashriflar bo‘yicha ham xorijliklar ancha oldinda. Tarixiy obidlarimizga 239 622 mahalliy turistlar, 426 220 xorijiy turistlar tashrif buyurishgan(77,8% ko‘p).

Registon ansamblida yuqoridagi ko‘rsatkichlarning aksini ko‘ramiz. 2024-yilga kelib bu ulug‘ makonga keluvchilar pandemiyadan oldingi ko‘rsatkichni tashkil qildi. Hozirga kelib har yili milliondan ziyod odamlarimiz, bolalarimiz xalqimizning bu ulug‘ makonini ziyorat qilib, tomosha qilib, qalblarida o‘chmas g‘ururni mahkamlab ketmoqda (7-jadval).

7-jadval

Registon ansambliga 2019-2024- yillarda tashrif buyuruvchilar, ming kishi

Yil	Registon ansambli	Maxalliy sayyohlar		Xorijiy sayyohlar		Jami tashrif buyuruvchilar
		Kattalar	18 yoshgacha bolalar	Kattalar	18 yoshgacha bolalar	
2019y	Registon ansambli	654 456	348 318	152 290	4 703	1 159 767
2020y	Registon ansambli	118 675	60 045	9 501	267	188 488
2021y	Registon ansambli	483 419	164 416	31 359	1 070	680 264
2022y	Registon ansambli	621 791	292 795	109 460	3 905	1 027 951
2023y	Registon ansambli	572 880	249 237	195 099	8 294	1 025 510
2024y	Registon ansambli	696 905	168 585	285 308	9 902	1 160 700
	Jami:	3 148 126	1 283 396	783 017	28 141	5 242 680

O‘zbekistondagi eng ko‘p tashrif buyuruvchilarga ega.muzeylar nomi e’lon qilindi.

18-may-Xalqaro muzeylar kuni. Davlat statistika qo‘mitasi soni munosabati bilan, O‘zbekistondagi muzeylarga oid qator raqamlarni keltirdi.Unga ko‘ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistondagi muzeylar soni 127 tani tashkil etib, ularga 2021-yil davomida 5 million 100 ming kishi tashrif buyurgan. Tashrif buyuruvchilar soni esa muzeylar kesimida quyidagicha ko‘rsatilgan:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi I.V.Savitskiy nomidagi davlat muzeyi - 48,3 ming kishi.

- Temuriylar tarixi davlat muzeyi - 86,5 ming kishi;
- Xivadagi “Ichan-Qal’a” majmuasi - 211,9 ming kishi;
- Buxoro davlat badiiy me’morchilik muzey qo‘riqxonasi - 399,4 ming kishi.
- Samarqand davlat badiiy muzey qo‘riqxonasi - 683,9 ming kishi.

Qo‘mita ma’lumotida qayd etilishicha, bugun mamlakatdagi barcha muzeylarga kirish bepul. Xabarda shuningdek, hududlar kesimida qancha muzeylar mavjudligi borasidagi ma’lumotlar ham ochiqlangan. Unga ko‘ra:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi - 4 ta;
- Andijon viloyati 2 ta;
- Buxoro viloyati - 19 ta;
- Jizzax viloyati - 7 ta;
- Qashqadaryo viloyati - 10 ta;
- Navoiy viloyati - 6 ta;
- Namanang viloyati - 2 ta;
- Samarqand viloyati - 13 ta;
- Surxondaryo viloyati - 8 ta;
- Sirdaryo viloyati - 1 ta;
- Toshkent viloyati - 5 ta;
- Farg‘ona viloyati - 17 ta;
- Xorazm viloyati - 3 ta;

- Toshkent shahri - 30 ta muzey bor.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. Muzey so‘zi nimalarga asoslanib kelib chiqgan? Tilimizdagi moziy so‘zining muzey atamasiga aloqasi bormi?

2. Muzalar-ma’budalar kimlar? Bu ma’budalarning har biri nimalarning homiysi hisoblanadi?

3. O‘zbekistonda muzeylarning tashkil qilinishi tarixidagi milliy olimlar, tashabbuskorlar va chet ellik olimlarni o‘rganing va amaliy mashg‘ulotlarda gapirib bering?

4. Yangi ma’lumotlar bo‘yicha O‘zbekistonda nechta muzeylar bor va bu muzeylarga tashriflar qanday?

5. Hozirgacha qaysi muzeylarni ko‘rdingiz. Ko‘rgan muzeylaringizdagi eng qiziqarli eksponat haqida taqdimot tayyorlang.

XVII BOB. TURIZMDA MILLIY MADANIY MEROS OBYEKTLARIDAN VA QADRIYATLARIDAN FOYDALANISHDA TURISTLARNING HAYOTI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Tayanch so'zlar: turizmda xavf, turistik muhitda xavf, turistik faoliyatda xavf, kutilgan va kutilmagan xavflar, biologik xavflar, muzeylardagi xavflar.

17.1. O'zbekistonda turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari.

Respublikamizda xalqaro turistlarning mamlakatimizdagi turistik faoliyati davomida ularning hayoti xavfsizligini ta'minlashning "Nizom"i hukumatimizning maxsus vazirliklari tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. "Sayyohlarning O'zbekiston Respublikasiga kelishi va ketishi tartibi to'g'risida nizom"ga muvofiq quyidagi moddalar sayyohlarning hayoti xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan:

- xavf-xatar manbalari bo'lgan hududlarga chet ellik sayyohlarni olib chiqishlaridan oldin, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining tegishli boshqarmalaridan baxtsiz hodisalar yoki xavf-xatarlar kelib chiqishi mumkin bo'lishi yoki bo'lmasligi yuzasidan tegishli ma'lumotlar olish;
- ruxsat etilgan xavfsiz yo'nalishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining tegishli hududiy boshqarmasi bilan kelishilgan holda belgilangan xavfsiz yo'nalish bo'yicha sayohat qilishni ta'minlash;
- belgilangan yo'nalishning xususiyati va sayyohlarning hatti-harakatiga bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatar manbalari haqida ularning o'zini xabardor qilish va xavfsizligini ta'minlash;
- qabul qiluvchi turistik tashkilot chet el sayyohlari bilan xavfsizlik choralariga rioya etishlari, O'zbekiston Respublikasida

bo‘lish tartibi, ekologik xavfsizlik talablari, milliy urf-odatlarga hamda sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilishlari to‘g‘risida tegishli tushuntirish ishlarini o‘tkazadi.

Turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlash O‘zbekistonda turizmni tashkil qilish va rivojlantirish sohasidagi dastlabki qonunlarda alohida moddalar bilan belgilangan. Ana shunday dastlabki qonun-O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida” gi qonuni hisoblanadi.

Bu qonun 18- iyul 2019-yilda qabul qilingan bo‘lib, qonundagi 35, 36, 37-moddalar turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlashdagi chora-tadbirlar tizimini yaratishga asos bo‘ladi. Turizm ta’limidagi barcha mutaxassislar ushbu qonun moddalarini yaxshi o‘zlashtirishi, mukammal bilishi nuqtali-nazaridan qayd qilingan moddalarni keltirish o‘rinli bo‘ladi.”Turizm to‘g‘risi”da qonunning:

35-modda. Turistlar va ekskursantlarning xavfsizligi kafolatlari. O‘zbekiston Respublikasi hududida turistlar va ekskursantlarning xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanadi. Vakolatli davlat organi manfaatdor vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda turistlar hamda ekskursantlarning xavfsizligini va himoya qilinishini, jamiyat va davlat manfaatlarini, turizmdan shaxslarning qonunga xilof migratsiyasi, ularning mehnatini ekspluatatsiya qilish hamda ularni boshqacha tarzda ekspluatatsiya qilish maqsadida foydalanishga qarshi kurashishni ta’minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

Xavfsizlikni ta’minlash chora-tadbirlari turistlar va ekskursantlarning shaxsiy xavfsizligi, ularning mol-mulki but saqlanishi, atrof tabiiy muhitga, jamiyatning moddiy hamda ma’naviy qadriyatlariga, davlat xavfsizligiga zarur yetkazilishining oldini olishni ta’minlanishini nazarda tutadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari barcha turistik yo‘nalishlar bo‘yicha turistlar va ekskursantlarning himoya qilinishini va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha hududiy dasturlar ishlab chiqadi hamda ularning bajarilishini tashkil etadi.

Turizm sohasi subyektlari turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlash, tabiiy ofatlar chog‘ida, ular jarohatlanganda, kasallikka chalinganda hamda boshqa hollarda tibbiy va o‘zga tarzda yordam ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi. Vakolatli davlat organi turoperatorlarni, turagentlarni, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) turistlar hamda ekskursantlarning xavfsizligiga nisbatan tahdid to‘g‘risida xabardor qiladi, shuningdek xavfsizlikka nisbatan tahdid mavjud bo‘lganligi sababli borib ko‘rish uchun tavsiya etilmaydigan mamlakatlar (joylar) ro‘yxatini ommaviy axborot vositalariga, shu jumladan, o‘zining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

Muassislari (hammuassislari) davlat organlari bo‘lgan ommaviy axborot vositalari vakolatli davlat organigi turistlar va ekskursantlarning xavfsizligiga nisbatan tahdid haqidagi axborotni e’lon qilish imkoniyatini darhol va bepul taqdim etadi.

Turistlar va ekskursantlar yuqumli kasalliklarning yuqori darajadagi xavfiga uchrashi mumkin bo‘lgan vaqtincha bo‘lishi mamlakatiga (joyiga) sayohatni amalga oshirish boshlanguniga qadar xalqaro tibbiy talablarga muvofiq profilaktikadan o‘tishi shart. Turistlar va ekskursantlar guruhlarini kuzatib boruvchi shaxslar birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish uchun dasturiy asosda minimal tibbiy tayyorgarlikka, tibbiy buyumlarga hamda dori qutichasiga ega bo‘lishi shart.

36-modda. Turoperatorlar va turagentlar tomonidan turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlashga doir chora-tadbirlar. Turoperatorlar, turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida:

- mustaqil turizmni amalga oshiruvchi turistlar va ekskursantlar murojaat qilgan taqdirda, turistlar va ekskursantlarni yo‘nalishning xususiyati hamda ularning o‘z xatti-harakatiga bog‘liq holda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf manbalari haqida xabardor qilishi, turistlar va ekskursantlarni jarohatlanish hamda baxtsiz hodisalarning oldini olish va ulardan himoyalanish usullari bilan

tanishtirishi, shuningdek , yo‘nalishdagi xavfsizlik texnikasi bo‘yicha turistlar va ekskursantlarga, yo‘l-yo‘riq berishi;

- falokatga uchragan turistlar va ekskursantlarga tezkor yordam ko‘rsatishi;
- tog‘, trek, chang‘i, velosiped, mototsikl, g‘or turizmi (tabiiy yer osti yo‘laklari-g‘orlarga sayohatlar) va turizmning boshqa maxsus turlarini tashkil etish hamda amalga oshirishdagi xavfsizlikning alohida talablarini ishlab chiqishi va amalga oshirishi;
- sayohat vaqtida turistlar, ekskursantlar bilan sodir bo‘lgan favqulodda hodisalar to‘g‘risida, shuningdek sayohatdan qaytib kelmagan turistlar hamda ekskursantlar haqida vakolatli davlat organini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini va manfaatdor shaxslarni darhol xabardor qilishi;
- turistlar va ekskursantlarga sayohatlarning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida, shuningdek sayohat qilish chog‘ida ular duch kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar haqida to‘liq ma’lumotlar taqdim etishi hamda turistlar va ekskursantlarning shaxsiy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ogohlantiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishi;
- tog‘li hududda tog‘, trek, chang‘i, velosiped, mototsikl va g‘or turizmi hamda turizmning otda sayr qilish turlarini tashkil etish va amalga oshirishda yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilar xizmatlaridan foydalanishi shart.

Ushbu modda birinchi qismining ikkinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilarida ko‘rsatib o‘tilgan majburiyatlar turagentlarning ham zimmasiga yuklatildi. Sayohatlarni turistlar va ekskursantlarning harakatlanishini faol shakllaridan foydalangan holda tashkil etishga ixtisoslashgan turoperatorlar, turistlar hamda ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlash, ekstremal vaziyatlarda ularga yordam ko‘rsatish va ularni himoya qilish maqsadida qidiruv-qutqaruv xizmatlari, shoshilinch operativ xizmatlar hamda boshqa qutqaruv xizmatlari bilan xizmat ko‘rsatilishi uchun shartnomalar tuzadi.

37-modda. Turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan, qutqaruv va shoshilinch

xizmatlar. O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida falokatga uchragan turistlar va ekskursantlarga zarur yordam ko‘rsatish ixtisoslashtirilgan xizmatlar tomonidan amalga oshiriladi.

Qidiruv-qutqaruv xizmatlari, shoshilinch operativ xizmatlar va boshqa qutqaruv xizmatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek sog‘liqni saqlash, aloqa, ichki ishlar organlari, davlat o‘rmon xo‘jaligi, gidrometeorologiya, fuqaro aviatsiyasi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadi.

38-modda. Turizm sohasida sug‘urta qilish turistlar va ekskursantlarni sug‘urta qilish ixtiyoriydir, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno hamda turistlar va ekskursantlar tomonidan bunday faoliyatni olib borish huquqiga ega bo‘lgan tegishli sug‘urta tashkilotlari bilan tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Turoperatorlar va turagentlar turistik mahsulotning xususiyati hamda shakliga qarab turistlar va ekskursantlarda sug‘urta polisi mavjud bo‘lishi to‘g‘risida talab belgilash huquqiga ega. Turoperatorlar o‘zining fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilishi shart.

17.2. Xalqaro sayohatlarda davlatlarning turistlarhayot xavfsizligini ta’minlashdagi ma’qulligi

Turizmning xalqaro xavfsizligidagi xalqaro tajribalarni Butun jahon turizm tashkiloti (BTT) tadqiq qiladi va tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarni turizm to‘g‘risida qonun va huquqiy me’yoriy hujjatlar qabul qilgan davlatlarga ko‘rsatma yo‘llanma sifatida taqdim etiladi.

Sayohatchilarning xavfsizligini ta’minlash haqidagi Partiya 1985-yil Butunjahon turistik tashkilotining Bosh assambleyasining VI-sessiyasida qabul qilingan. Xartiya tarkibi 9 ta modda va turistik kodeksi, bu kodeks ham 9 ta moddadan iborat. Partiyaning VI-moddasida turistlarning sog‘ligi va hayotiy xavfsizligini ta’minlashda, ularning buyumlarining saqlanishi, har bir davlat hududlarida erkin

harakat qilishida qo‘yidagi toliblar bajarilishi dunyodagi barcha davlatlarga tavsiya qilingan.

Davlatlarning mas’ulligi: a) turistlarga imkoniyatlar yaratishi o‘z davlatining va chet ellik turistlar uchun sayohatlar davrida Birlashgan Millatlar tashkiloti, Xalqaro grajdanlar aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro dengiz tashkiloti, Xalqaro bojxona hamkorligi kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlarning turizm to‘g‘risidagi, xalqaro turizm to‘g‘risidagi “Xolatlar”, “Dasturlar”, “Huquqiy me’yorlar” bilan tanishish, o‘rganish, foydalanish sharoitlarini yaratishlari;

b) turistlarning ongi, shuuri, tushunchasi o‘chishida hamkorlik qilishi va yetib kelgan davlatlarning mahalliy aholisi bilan bo‘lgan muloqotlarda, aloqalarda o‘zaro tushunish, o‘zaro do‘stona muhitlarni yaratishi;

v) sayohatlarda turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlash va buyumlarini saqlash chora-tadbirlarini xalqaro qonunlarga mos holda ishlab chiqishi;

g) gigiyena va sog‘liqni saqlash xizmatlariga murojaat qilish, yordam olishning barcha shart-sharoitlarini yaratishi, yuqumli kasalliklar va baxtsiz hodisalardan saqlanish haqida ogohlantirish;

d) turizmda fohishalik maqsadlarida qilingan har qanday hatti-harakatlarning oldini olish;

e) turistlar va mahalliy aholini giyohvandlik moddalaridan nolegal foydalanish manbalaridan himoya qilish tizimlarini ishlab chiqishi;

Xalqaro Xartiyaning VI-moddasida turistlarning sayohati davrida butunjahon turizm tashkilotiga a’zo bo‘lgan davlatlarning mas’ulligi quyidagicha belgilangan:

a) o‘z davlatining turistlari va chet ellik turistlarning davlat hududlarida erkin harakat qilishlarini chegaralovchi to‘siqlar, tadbirlarni belgilamasliklari, ba’zi hollarda aholining milliy manfaatlarini himoya qilish uchun chegaralashni belgilashlariga huquqlari borligi;

b) turistlarga nisbatan tahqirlash, kamsitish, haq-huquqini chegaralab qo‘yish tadbirlarining paydo bo‘lishiga qarab qat’iyan yo‘l qo‘ymasliklari;

Xartiyada ta’kidlanishicha xartiyaning barcha moddalari va xartiyadagi “turist kodeksi” moddalarining turizm faoliyat ko‘rsatayotgan davlatlarda qabul qilinishi va amal qilinish turistlarning etik jihatdan barcha davlatlarda o‘zini boshqara bilishiga, davlatlardagi xalqlar, elatlar bilan xalqaro do‘stlik rishtalarini yaratishiga, xalqaro muhitni insoniyat baxti saodati uchun saqlash, dunyoni saqlash imkoniyatlarining kuchayishiga olib keladi.

Xalqaro sayohatlar bo‘yicha Manila deklaratsiyasi. Butunjahon turizm tashkilotining davlatlar o‘rtasida obro‘yini ko‘targan va bu konferensiyalarda ishlab chiqilgan tavsiyalar, ko‘rsatmalar, yo‘llanmalarning aniqligi, joriy etishga qulayligi va tushunarli ekinligi bo‘yicha BTTning “Jahon turizmi bo‘yicha Manila deklaratsiyasi”ni qabul qilgan “Turizm bo‘yicha jahon konferensiya”si bo‘ldi. Konferensiya 1980-yil 27-sentyabrdan 20-oktyabrgacha Filippin davlatining poytaxti Manila shahrida bo‘lib o‘tdi. Konferensiyaga 107 davlatning delegatsiyalari va 91 ta delegatsiya kuzatuvchi sifatida qatnashdi.

Manila konferensiyasidagi eng muhim qaror va tavsiyalar xalqaro miqyosida va davlatlarda turistlarning hayoti xavf-xatarsizligini, sog‘ligini ta’minlash va ularning buyumlarini saqlash, davlatlarda turistlarning erkin harakatlariga barcha shart-sharoitlarni yaratish natijasida xalqlar, elatlar va millatlarning do‘stona aloqalariga asoslar yaratildi, millatlar o‘rtasidagi urf-odatlarni o‘rganish, qiziqish natijasida bir-biriga yaqinlik qiluvchi davlatlararo madaniyat markazlariga kelib chiqadi:

- Insonda aqliy, ma’naviy kamolotga yetishishi, intilish hislari kuchayadi;
- Insonning shaxs sifatiga xar tomonlama garmonik kamol topishiga ishonch hosil bo‘ladi;
- Ongida voqelikni bilish, tarbiyalanganlik darajalari ortib boradi;

- O‘z taqdirini belgilashida jahon xalqlaridagi din, urf-odat, madaniyat, ma’naviyat, qadriyat xususiyatlarini ko‘rib, bilib foydalanadi;
- Xalqlarning urf-odatlari, an’analari, madaniyati, ma’naviy qadriyatlarini tan olish va hurmat qilish kuchayadi.

Konferensiyaning tinchlik shiori – “Dunyoda tinchlik, hamkorlik, hamjihatlikni saqlash, xalqlarning madaniy merosini rivojlantirishda turizmning hissasi” Bobi qabul qilindi. Manila konferensiyasida 27- sentyabr “Butunjahon turizm kuni” deb belgilandi. Xalqaro turizmda va davlatlar turizmida xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha aniq va jiddiy tavsiyalarni ishlab chiqqan xalqaro konferensiyalarning eng obro‘lisi, tan olinganligi butun jahon turizm tashkilotning “Turizm bo‘yicha Gaaga deklaratsiyasi” ni qabul qilish bo‘ldi.

Butunjahon turizm tashkilotining dunyo davlatlari Parlamentlarining turizm bo‘yicha xalqaro konferensiyasi Niderlandiyaning Gaaga shahrida 1989-yilning 30-martdan 14-aprelgacha bo‘lib o‘tdi. Konferensiya ishida Parlamentlararo ittifoqi (MGTS) vakillari ham qatnashdi. Konferensiya birinchi navbatda BMTning jahon davlatlarida turizmni rivojlantirishda Butun jahon turizm tashkilotining mehnatlari va muhim mavqeda ekanligini e’tirof etdi.

Ikkinchidan, jahon turizmining rivojlanayotganligida xalqaro tashkilotlar: Xalqaro mehnat tashkiloti (HMT), Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (BSST), BMTning fan va madaniyat, maorif tashkiloti (UNESKO), Xalqaro grajdan aviatsiyasi (MKAO), atrof muhit bo‘yicha BMT Dasturi (YuNEP), Xalqaro jinoiy qidiruv politsiyasi (INTERPOL) va xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotlari BTT bilan mustahkam aloqada bo‘ldilar, yordam berdilar. *Xalqaro sayohatlar bo‘yicha Gaaga deklaratsiyasi.* Turizm bo‘yicha Gaaga deklaratsiyasi 10 ta prinsipni qabul qildi va dunyo mamlakatlariga tarqatdi. Deklaratsiya jahonda turizmning rivojla nishida turizm xavfsizligi xalqaro miqyosida ta’minlanishi shartligini

ta’kidladi. Bunga erishish uchun quyisidagilarni amalga oshirishni tavsiya qilindi:

- Turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlash me’yorlarini ishlab chiqib va turizmda joriy qilish;
- Jamoatchilikka aniq axborotlarni yetkazish va tarqatish;
- Turistlarning xavfsizligini o‘rganuvchi va ta’minlovchi ayniqsa ekstremal vaziyatlarda xavfsizlikni ta’minlashni tadqiq qiluvchi institutsional markazlar tashkil qilish;
- Turistlarning xavfsizligini ta’minlashda xalqaro, davlatlararo, regionlararo va qit’alararo hamkorlikni tashkil qilish va harakatlantirish.

Gaaga deklaratsiyasi qayd qilingan tavsiyalyar bilan birga xalqaro turizm milliy turizm xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha 7 va 8 prinsiplarni alohida-alohida muhokamadan so‘ng quyidagicha qabul qildi: Gaaga deklaratsiyasining turistlarning sog‘ligi va hayoti xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tavsiyalari: Turistlarni hurmat qilish, qadr-qimmatini himoya qilish, huquqini va xavfsizligini himoya qilish turizm rivojlanishining ajralmas qismidir. Shuning uchun ham:

- turistlarning qadr-qimmati, hayoti xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari ular xarakatlanadigan barcha turistik obyektlarda, safarda, sayohatda, mehmonxonalarda ishlab chiqilgan va bartaraf etilgan bo‘lishi;
- turistlarning qadr-qimmatini hurmat qilish, turistlarni va turistik obyektlarni himoya qilish, hayoti xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishiga qaratilgan samarali turizm muhitini yaratish siyosatini shakllantirish;
- turistik obyektlarga va turistlar hayotiga xavf soluvchi vaziyatlar va omillar haqidagi barcha axborotlar, ma’lumotlarni turistlarga o‘z vaqtida yetkazilishini ta’minlash;
- har bir davlatda turistlarning erkin harakat qilish, xavfsizligini ta’minlashning huquqiy me’yorlari ishlab chiqilishi va qabul qilinishga erishish, har bir davlatda turistlarning huquqini himoya qilish, organlariga o‘z vaqtida murojaat qilish, o‘zining haq-huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarining yaratilishiga erishish;

- turistlarni himoya qilishayotgan xavfsizligini ta’minlashdagi huquqiy me’yorlarni ishlab chiqish, xavfga qarshi chora-tadbirlar tizimini yaratishda har bir davlatlarning BTT bilan o‘zaro hamkorlik qilishini ta’minlash;

Gaaga deklaratsiyasida qabul qilingan yana bir muhim hujjat shundan iborat bo‘ldiki, terrorizm turizm va turistik harakatlanishning rivojiga real xavf deb tan olindi. Jahondagi davlatlarga terroristlarga har xil siyosiy sababalarni ro‘kach qilib boshpana berish hollari jahon miqyosida qoralanishi e’tirof etildi.

Xalqaro turizm sayohati xavfsizligi va sayohatlarda turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlashda Butunjahon turizm tashkilotining 2001-yil 30-sentyabr 1-oktyabr Yaponiyada (Ming yillikning Osaka deklaratsiyasi) o‘tkazilgan konferensiyasi, MDH davlatlarining “Turizm sohasida hamkorlik” - Ashxobod 23-dekabr 1993 yil, 29-oktyabr 1994-yil, 4-noyabr 1994-yil Osaka deklaratsiyasi, Turistik faoliyatni tashkil qilish Yevropa kengashi, 2-noyabr 1981-yil Nepaldagi Xalqaro mehmonxona qoidalari assotsiatsiyasi muhim qarorlar qabul qildi, tavsiyalar ishlab chiqib dunyo mamlakatlariga tarqatdi.

Shuningdek, “Afina konvensiyasi” xalqaro sayohatlar vaqtida turistlarning yuklarini tashishdagi xalqaro huquq me’yorlarini ishlab chiqdi. Turagentliklar assotsiatsiyasining butunjahon federatsiyasi (UFTAA) va butunjahon mehmonxonalar assotsiatsiyasi (MGA) mehmonxonalarida turistlarni joylashtirish, ularning faol xarakatlarini tashkil qilish, sog‘ligi va hayoti xavfsizligi ta’minlashning xalqaro huquqiy mezonlarini ishlab chiqdilar va bu haqida Butunjahon turizm tashkilotiga a’zo bo‘lgan davlatlar o‘z milliy turizm siyosatiga mos bo‘lgan huquqiy me’yorlarni qabul qilishini tavsiya qildi.

Qayd qilish lozimki, Butunjahon turizm tashkiloti 1994-yil o‘z boshqaruvi tarkibida “Turistik xizmatlar sifati” bo‘yicha qo‘mita tashkil qildi. Bu qo‘mita xalqaro turizmda sayyohlarning xavfsizligiga masalalariga ham javob beradi. Xuddi shu yili butunjahon turizm tashkiloti dunyoning 73 mamlakatida “Sayyohlarni, turistik

obyektlarni himoya qilish va xavfsizligi” Bobida xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirdi.

Butunjahon turizm tashkilotining tashabbusi bilan 1995-yilning yozida Shvetsiya davlatining Esterund shahrida “Sayohat davrida xavflarni kamaytirish va turizm xavfsizligini ta’minlash” bobida II-xalqaro konferensiyasi o‘tkazildi.

BBT qo‘mitasi (1994-yil) va Esterund II-xalqaro konferensiyasi (1995-yil) o‘tkazgan tadqiqiotlardan ma’lum bo‘ldiki, 71% davlatlarda turistik obyektlar turizmning maxsus politsiyasi tomonidan mukammal qo‘riqlanadi. Bu politsiya davlat va munitsipal politsiyadan iborat. Turizm mamlakatlarining 21% da maxsus turizm politsiyasi tashkil qilingan bo‘lib, bu politsiya faqat turizm faoliyati bilan shug‘ullanadi. Turizm politsiyasi zimmasiga turizm resurslarini va atrof muhitni muhofaza qilish, giyohvandlikka qarshi kurashish, mahalliy etnik guruhlarni himoya qilish vazifalari ham yuklatilgan.

Lekin turizm politsiyasi faqat 9% davlatlarda qonun yo‘li bilan tashkil qilingan. Boshqa davlatlarda esa «zimmasiga yuklatilgan». 41% davlatlarning turistik politsiyasi chet el tillarini o‘rganmoqda, 37% davlatlarning politsiyasi turistik tashkilotlar,turistik firmalar va oddiy politsiya bilan hamkorlik qilmoqdalar, 26% mamlakatlarning politsiyasi “turizm fanlari” ni o‘rganmoqda.

Xalqaro turizm amaliyotidan ma’lum bo‘ladiki ko‘pgina davlatlarning turizm boshqaruvi o‘z turistlarining dunyo davlatlariga, mintaqalariga borishi yoki bormasliklari, xavfsizlikning holati, darajalari, ushbu davlatlarda turizm siyosati va himoya tizimi xalqlarning urf-odatlari, tili butunlay boshqacha bo‘lgan mamlakatlarga sayohatga chiquvchi turist faqat ushbu, u tanlagan mamlakatdagi sayohati davrida o‘z hayoti xavfsizligini ta’minlanishini (ushbu davlatda bu sohada qabul qilingan qarorlar, qonunlar, huquqiy-me’yoriy hujjatlar va boshqalar) aniq bo‘lganidan keyingina bexavotir holda ishonch bilan o‘z harakatini boshlaydi.

Shuning uchun ham, turizm sohasini rivojlantirishda turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, turistlarning hayotiga xavf soluvchi vaziyatlar, holatlar va

omillarni aniqlash, guruhlash, xavfli vaziyatlarga tushib qolgan turistlarga o‘z vaqtida tezkor yordam berish usullarini ishlab chiqish respublikamizda turistik oqimni jadal kuchaytirishda, umuman turizm sohasini xalqaro talab va me’yorlarda rivojlantirishdagi eng muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

17.3. Turizmda milliy madaniy meros obyektlari va qadriyatlaridan foydalanishda turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlash

Xalqaro turistlarni xalqimizning milliy hunarmandchiligini ko‘rsatish jarayonlariga va milliy o‘yinlariga taklif qilishda va o‘tkazishda turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlashning chora-tadbirlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Ish jarayonida, sexlarda elektr simlari ochiq hollarda bo‘lishi mumkin yoki ustaxonalarda qandaydir asboblar, gazlar chiqaradigan uskunalar bo‘lishi mumkin, yoki hali sotuvga chiqarilmagan buyumlarga qo‘l bilan ushlab ko‘rish mumkin emasligi (qandaydir dorilangan, ranglangan, gazlangan va hokazolar) bo‘lishi mumkin:

2. Turistlar o‘zlarining davlatlaridagi qandaydir erkinliklarga o‘rgangan bo‘lib, bizning davlatimizda ham turistik ekskursiya vaqtida milliy hunarmandchilik ish jarayoniga aralashishi mumkin, qandaydir ruxsat berilmagan joylarga kirishi mumkin, gazlangan joylarda sigaret chekishi mumkin, bu holat natijasida yong‘in chiqishi mumkin.

Mehmonxonalardagi xorijiy turistlarni xalqimizning milliy o‘yinlariga taklif qilish, tomoshalarni ko‘rsatish vaqtlarida quyidagi xavfli holatlar kelib chiqishi mumkin:

1. Shaharlar, tumanlarning markazlarida bayramlarda, xalq sayillarida, to‘y-tomoshalarda xalq o‘yinlariga faqat tomosha qilmasdan ruxsatsiz aralashish natijasida (uloq-ko‘pkari, qo‘chqor urishtirish, milliy kurash,parrandalar jangi va boshq...) yoshlar o‘rtasida qandaydir kelishmovchiliklarga qo‘shilib qolishi mumkin;

2. Turistlarning hayoti xavfsizligiga xavflar, vaziyatlar, holatlar ayniqsa ko‘pkari o‘yinlarini tomosha qilishda yuz berishi mumkin.

Masalan, ko‘pkari o‘yini aksariyat hollarda daryo yoqlarida, katta maydonlarda, notekis joylarda, kuz-qish oylarida, yomg‘ir va qorli kunlarda ham o‘tkazilaveradi. Bunday sharoitli joylarga borishda birinchidan ishonchli, yangi, maxsus transport vositalari bo‘lishi yoki tanlanishi kerak.

3. Xorijiy turistlar qiziqqan va so‘ragan taqdirda ham ularga ot berilmaslik, ularni o‘yinga tushirmaslik lozim. Shu bilan birga otlar g‘uj chopadigan joylarga turistlarni yaqinlashtirmaslik ham oldinda kutilayotgan ko‘plab ko‘ngilsizliklarning oldini oladi.

Mehmonxonalarda turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlash xalqaro turizmda ham, ichki turizmda ham jiddiy, majburiy masalalarning muhim hisoblanadi. Bu masalani mehmonxonalarda ko‘rib chiqilganda turistlarning hayoti xavfsizligi turist biror bir tadbirga qatnashganida yoki bo‘sh vaqtida deyilmaydi.

Mehmonxonalarda turistlarning hayoti xavfsizligi uning mehmonxonada bo‘lgan davrini, vaqtini hisobga olinadi va quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- Kutilmagan yong‘inlardan hayot xavfsizligini ta’minlash. Yong‘in esa mehmonxona ma’muriyatning aybi bilan, turistning aybi bilan yoki uchinchi bir tomonning aybi bilan yuz berishi mumkin: Yong‘in qo‘shni imoratlaradn o‘tishi mumkin;
- Yong‘in tabiiy ofatlar (er qimirlashi, chaqmoq, elektr tokining kuchlanishi, gaz bosimining kuchayishi yoki pasayishi va b.) natijasida yuzaga kelishi mumkin;
- Yong‘in terroristik harakatlar natijasida yuz berishi mumkin;
- Turistlar mehmonxonalarning restoranida sifatsiz ovqatlardan zaharlanishi mumkin. Ko‘p hollarda milliy taomlardan ham zaharlanish qayd etilgan.
- Turistlar mehmonxonalarda notanish kishilarning qo‘qqisdan qilgan hujumlariga ham duch kelishi mumkin.
- Turistlar mehmonxonalarda har xil zo‘ravonliklarga ham uchrashi mumkin.
- Turistlar mehmonxonalardagi suv hovuzlarida, basseynlarda cho‘milganlarida ham falokatlarga uchrashi mumkin.

- Turistlar mehmonxonalardagi ommaviy tadbirlarga ehtiyotsizlik oqibatida jarohatlar olishi mumkin va hokazo sabablarni sanash va keltirish, izohlash mumkin.

Yana shu holatlarni qayd qilish lozimki, hozirgi vaqtda turizm sohasida turistlarning hayoti xavfsizligini va uning buyumlarini, mablag‘larini sug‘urtalashning o‘nlab turlari ishlab chiqilgan. Turistlarga, ayniqsa, xalqaro turistlarga xizmat qiluvchilar uchun turistlarning hayoti xavfsizligi bo‘yicha juda ko‘plab muqobil tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Lekin, baribir ham bir mamlakatdan ikkinchi bir mamlakatga keluvchi turistlarning hayotiga xavf soluvchi omillar juda ko‘plab uchrashi mumkin.

Aksariyat hollarda turistlar bu mablag‘ni berishni xohlashmaydi. Lekin, boshqa davlatlardagi havo bosimi, havoning ifloslanganligi, ichimlik suvlari, mevalar yoki poliz ekinlaridan zaharlanish turizmdagi oddiy holatlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham, xalqaro turistlarga xizmat qiluvchilar ularga faqat Mehmonxonlarda emas balki kutib olishdan to kuzatib qo‘yguncha hayot xavfsizliklarini ta’minlash talab qilinadi. Chunki, turist ma’lum muddatga mehmonxonaga joylashadi. Kuni bilan tur marshrutda bo‘lib yana kechga ushbu mehmonxonaga qaytib keladi.

Mehmonxonlarda turistlar uchun ommaviy tadbirlar tashkil qilinganda har bir turist mehmonxona xizmatchilarining diqqat markazida bo‘lishlari talab qilinadi. Chunki, ommaviy tadbirlarda mehmonxonaga boshqa tashkilotlardan ham ko‘plab notanish mehmonlar tashrif buyurishi, ular bilan tanishishi, ayniqsa spirtli ichimliklar ichiladigan tadbirlarda turistlar bilan ko‘plab mojarolar chiqishi xalqaro turizmda kuzatilgan, isbotlangan holatlar hisoblanadi.

Mehmonxonalarda turistlarning buyumlarini muhofaza qilish ham jiddiy va murakkab vazifalar qatorida turadi. Hafta-o‘n kunlik muddatlarga kelgan turistlar albatta bir-ikki kundan so‘ng tanish-bilishlar, do‘stlar orttirishdi va aksariyat hollarda ushbu “do‘stlar” yoki aldab yoki tunab ularni pullarini yoki buyumlarini o‘g‘irlab ketishadi.

Ko‘p hollarda, katta mehmonxonalarda turistlar belgilangan, ogohlantirilgan xavfsizlik masalalarini unutishib qo‘yishadi. Ular

o‘zboshimchalik bilan kechqurunlari shaharga sayrlarga chiqishib kech qaytishadi va ba’zi hollarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘g‘rilarning qo‘liga tushib qolishadi.

Yana bir muhim omil borki, xalqaro turistlar tunaydigan mehmonxonalar atrofida tilni juda yaxshi biladigan, tarixni, xalqaro hayotni yaxshi gapiradigan, o‘zini tarbiyali, ziyoli olim yoki mansabdor shaxs qilib ko‘rsatadigan, har qanday turistning ishonchiga kiradigan, aslida pixini yorgan o‘g‘ri kazzoblar ham doimo aylanib yurishadi. Bundaylarga duch kelgan ehtiyotsiz turistlar yoki hamyonidan ayriladi yoki zo‘ravonlikka duch keladi. Shuning uchun ham, har qanday turistni mehmon deb qabul qilish va uning hayoti xavfsizligi haqida, buyumlarining saqlanishini ta’minlash haqida doimo hushyorlik talablari qo‘yilishi turizmning rivojiga ijobiy ta’sir qiladi.

Mehmonxonalarda turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlashda har bir xonada gaz ta’minoti xizmati, elektr ta’minoti, suv komunikatsiyalari xizmati, tibbiy yordam xizmati, favqulodda hodisalar xizmatlarining tezkor xizmatlar ko‘rsatishi bo‘yicha telefonlari aniq, ravshan raqamlarda yozilishi va birinchi navbatda mehmonxonadagi doimiy navbatchiga ulangan bo‘lishi talab qilinadi.

Ayniqsa, yong‘indan saqlanish va himoya qilish xizmatlari alohida navbatchiga doimiy ulangan bo‘lishi zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Chunki, xalqaro turizm statistikalaridan ma’lumki, jahondagi turistik mehmonxonlarda yuz berayotgan yong‘inning 25%i aynan turistlarning ehtiyotsizligi (sigaret chekish, televizor yoki dazmollarning elektr tokiga ulanib ishdan chiqishi, qo‘lbola elektrda choy qaynatish, elektr simlaridagi nosozliklar va b.) natijasida yuz berishi alohida qayd qilinmoqda.

Turistlarning hayotiga xavf soluvchi omillar quyidagicha ta’riflanadi:

1. Zararli omillar;

- jarohat olish xavfi;
- yong‘inda qolib ketish xavfi;
- biologik ta’sir qilish xavfi (atrof - muhit);

- ruhiy-jismoniy yuklama olish;
- kimyoviy zararlanish xavfi;
- tutundan va gazdan zaharlanish xavfi;
- turistning tavakkalchasiga harakatlanishidan kelib chiqadigan xavflar.

2. Biologik omillar;

- mikroorganizmlar (mikroblar) dan zararlanish xavfi (oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi);
- zaharli o‘simliklardan zaharlanish xavfi;
- zaharli sudralib yuruvchilar (ilonlar, hasharotlar), hasharotlar (chayon, qoraqurt, ari) dan zaharlanish xavfi;
- yuqumli kasalliklar tashuvchi yovvoyi va xonaki hayvonlar, parrandalardan har xil kasalliklarni yuqtirish xavfi;
- allergiya va boshqa kasalliklarni chaqiruvchi o‘simlikzor, o‘tloqzor va o‘rmonzorlarda ushbu kasalliklarni yuqtirish xavfi;
- mevalar, sabzavotlardan zaharlanish xavfi.

3. Kutilmagan omillar;

- turistlar joylashtirilgan joylarda tabiatning favqulodda hodisalari (suv toshqini, qor ko‘chishi, ob-havoning keskin o‘zgarishi va hokazolar)dan kelib chiqadigan xavflar;
- turistlar joylashgan joylardagi aholi, jamoatchilikdagi tartib-intizomning bo‘shligidan kelib chiqadigan xavflar;
- turistlar foydalanayotgan mehmonxona, lager binolarining texnik holati, kanatli sim yo‘llar, chang‘i yo‘llari, avtomagistrallar, so‘qmoqlar va boshqa obyektlarning texnik sozligi holatidan kelib chiqadigan xavflar.

Muzeylardan foydalanishda turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlash. Turistlarning hayotiga xavf soluvchi vaziyatlar oldindan ma’lum bo‘ladi yoki kutilmaganda ham kelib chiqishi mumkin. Shuning uchun turistlar kelib joylashgandan dastlab mehmonxonalardagi xavfsizlik talablari bilan tanishtiriladi. Bu tanishtirish og‘zaki suhbat yoki sxematik (buklov, bukletlar) izohlashlarda ham bo‘lishi mumkin. Ko‘p hollarda mehmonxonalarda turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlash mehmonxona

xodimlarining zimmasida bo‘lishadi. Ularning bu sohadagi xizmatlarini turistik hatto sezmasligi, bilmasligi ham mumkin.

Muzeylarda turistlar va ekskursiyachilarning hayoti xavfsizligini ta’minlashda gid-etikchining birinchi vazifasi muzeylardagi eksponatlarga qo‘llarini tegizmaslik bo‘yicha ogohlantirish hisoblanadi. Chunki ko‘plab muzeylardagi eksponatlar asosan yemirilishdan saqlash uchun kimyoviy moddalar bilan dorilangan bo‘ladi. Ayniqsa tabiatshunoslik muzeylaridagi flora va fauna namunalarining barchasiga kimyoviy moddalar sepilgan. Ikkinchidan, Muzeylarning qavatlariga chiqishda zinapoyalardan sekin yurib o‘tish ham xavfsizlik talablaridan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda sirpanchiq kafellardan ishlangan zinapoyalarda sirpanib yiqilish hollari ham uchrayapti.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonunida turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlashning chora-tadbirlari qanday belgilangan?
2. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonunida turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlashda sug‘urta qilish qanday belgilangan?
3. Turizmda xavf-xatar masalalarini qanday tushunasiz?
4. Turizmda xavf-xatarlarni bartaraf qilishdagi xalqaro me’yorlarni qanday tushunasiz?
5. Turizm marshrutlarida kutiladigan va kutilmaydigan xavf-xatarlarning kelib chiqishini aniqlang va marshrut tuzib, bu marshrutda qanday kutiladigan xavflarni yozib chiqing.

XVIII BOB. TURIZM XIZMATLARIDA DUNYO DAVLATLARIDA YASHAYOTGAN XALQLARNING XULQ-ATVOR VA IMO-ISHORALARIDAGI XUSUSIYATLARNI O‘RGANISHNING ZARURLIGI

Tayanch so‘zlar: urf-odatlar, xulq-atvor, jestlar, imo-ishoralar, qo‘l harakatlar, chap qo‘l, o‘ng qo‘l, ta’zim, sovg‘a.

18.1. Dunyo xalqlaridagi xulq-atvor va imo-ishoralar haqida

Xalqaro turizmdagi turistlar bilan bo‘ladigan barcha muloqotlar (kutib olish,ovqatlantirish, joylashtirish, marshrutda birga bo‘lish, suhbatlashish, hikoya yoki tushuntirish va b.) asosan gid-ekskursiyachi, gid-tarjimon bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham, vatanimizga keladigan xalqaro turistlar bilan birga ishlovchilar, turoperatorlar, gid tarjimon va boshqalar xorij davlatlaridagi xalqlar, millatlarning xulq-atvor va imo-ishoralarini o‘rganishga majbur bo‘ladi. Bu juda muhimligini quyidagi ma’lumotlar bilan tanishganingizdan so‘ng bilib olasiz.

Dunyo xalqlaridagi xulq-atvor haqida. Turizmda turistlar o‘zlarining turistik faoliyati davomida dunyoda mamlakatlarida yashayotgan xalqlar, millatlar, elatlar bilan kutilgan va kutilmagan holatlarda, ba’zida qisqa uchrashuvlarda, suhbatlarda muloqotda bo‘ladilar. Ana shu muloqotlarda o‘zga xalqlarning xulq-odobi yoki imo-ishoralarining ma’nosini bilish turizmda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Ayniqsa, gid-ekskursiyachining bu xususiyatlarni bilishi marshrutning ko‘ngilsiz, tasodifiy voqealarsiz o‘tishini ta’minlaydi.

O‘zga millatlar, xalqlarning urf-odatlari, imo-ishoralari mazmuni bilan tanishish va ushbu xususiyatlarning ma’nosini yaxshi o‘zlashtirib olish turistik faoliyatga qiziqadigan har bir inson uchun juda zarur hisoblanadi.

Ikkinchidan, bu xususiyatlarni bilish insonning ziyoliligi, madaniyatliligini ham anglatadi. Chunki, o‘zga davlatlarda odamlar bilan tasodifan uchrashish yoki suhbatlashish vaqtida O‘zbekiston

xalqlaridagi yoki aynan o‘zbeklardagi “ha”- tasdiqlash ma’nosini bildiruvchi ishora yoki belgi, bildirish xalqlarda “yo‘q” yoki butunlay “inkor” qilish ma’nosini berishi mumkin.

Imo-ishoradagi yoki xulq-atvordagi xususiyatlar insonning nutqi, gapirishi davomida boshini, barmoqlarini, qo‘llarini harakatlantirishi orqali bildirildi. Turizmga bag‘ishlangan adabiyotlarda, ilmiy maqolalarda imo-ishorani tushunmaslik natijasida mahalliy mezbonlar bilan turistlar o‘rtasidagi oddiy harakatlar to sudlashuvgacha davom etgan.

Masalan, Moskvalik shunday hikoya qiladi-Yaqinda aeroportda menga chet ellik turist yaqinlashdi va salomlashib yaqin orada yuk saqlash xonasi bormi deb so‘radi. Men ingliz tilida kerakli so‘zlarni topib, uning to‘g‘ri kelayotganligini, yuk saqlash xonasi borligini, hatto bepul ekinligini xam tushuntirdim va xursandligimdan bosh va ko‘rsatgich barmog‘imni aylana holida qilib “OK” dedim.

Men uning rahmat aytishini kutgandim. Lekin uning avval rangi oqardi so‘ngra esa meni qo‘pol so‘zlar bilan haqoratlay boshladi. Men ham qarab turmadim, o‘rtada janjal chiqdi. Mojaroni militsiya bo‘limida tajribali tarjimon yordamida hal qildik. Ma’lum bo‘ldiki, turist Tunis davlatidan kelgan bo‘lib, men unga bosh barmog‘im va ko‘rsatgich barmog‘imni aylana qilib ko‘rsatib “OK” deganim va qo‘limni yon tarafga yozib yo‘l ko‘rsatganim ularning tushunishi bo‘yicha - “men seni o‘ldiraman” degani ekan. Men undan kechirim so‘radim. U xo‘mrayganicha tarjimon bilan militsiya bo‘limidan chiqib ketdi.

Jestlardagi bosh barmoqni yuqoriga ko‘tarish Amerikaliklarda yo‘lovchi mashinalarni to‘xtatish, iltimosni bildiradi. Ko‘p xalqlarda esa bu jest “xommasi a’lo darajada” degani. Yevropa davlatlarining ko‘pchiligida mazkur jest - “yo‘qol” degani, Gretsiya davlatida - “jim bo‘l” ma’nosini bildiradi. Endi, yo‘lovchi avtotransportni to‘xtatmoqchi bo‘lgan Amerikalikning Yevropa davlatlari va Gretsiya davlatidagi ushbu jest bilan qilgan urinishlarining qanchalik befoyda ekanligini o‘zingiz tasavvur qiling.

Shuningdek, arab davlatlarida qo‘l va barmoqlarning yuqoridagidek harakati- “beodoblik, ahloqsizlik” hisoblanadi. Saudiya Arabistonida ham qayd qilingan jestning ma’nosi-“bu yerdan tezroq yo‘qol” degan ma’noni bildiradi. Umuman islom dini tartibi hukumron davlatlarda chap qo‘l “toza emas” ma’nosida qabul qilinadi. Shuning uchun bu davlatlarda sovg‘a yoki boshqa biror narsani chap qo‘l bilan uzatsangiz bu harakatingiz bilan siz ularni haqoratlagan bo‘lasiz.

Barmoq bilan boshni ko‘rsatish MDH va boshqa ko‘plab davlatlarda-“sen haqiqiy axmoqsan” deyilgani. Bizda ham shunday. Gollandiyada esa teskarisi - “shunchalik aqllisan” ma’nosini anglatadi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, bosh va ko‘rsatgich barmoqni dumaloq, aylana qilib ko‘rsatish “OK”-“hammasi joyida”-xursandman degani va bu jest butun Angliyada juda ommaviylashgan. Angliyaliklar faxrlanadigan ushbu jest ko‘plab davlatlarda haqorat hisoblanadi. Masalan, Fransiyada ushbu jest - “sen nolsan, axmoqsan” deganidir.

Germaniyalik haydovchi xizmat postida turgan avtonazoratchiga postdan o‘tish vaqtida angliyaliklarning “ok” ini ko‘rsatib go‘yoki o‘rtoq politsiyachi hammasi joyida demoqchi bo‘ldi. Lekin politsiya xodimi uning ustidan sudga ariza topshirdi. Sud jarayonida ma’lum bo‘ldiki, postda turgan avtonazoratchi asli Kipr davlatidan bo‘lib ularda germaniyalik haydovchi ko‘rsatgan jest - “erkaklarni ayollarga tenglashtiruvchi belgi” ma’nosini bildirar ekan.

Bizlarda xayrlashuvda aksariyat xollarda qo‘limizni bir tomondan ikkinchi tomonga silkitamiz - bu harakat bizning mehmonga yaxshi boring deganimiz. Lotin Amerikasidagi davlatlarda bu jestning ma’nosi - “tezroq oldimga kel” ma’nosini bildiradi.

Ba’zi davlatlarining xalqlarida juda ta’ajubli salomlashish qiliqlari mavjud. Masalan, Tibet xalqlari siz bilan birinchi uchrashganida sizga tilini chiqarib salomlashadi. Bu - “Men senga nisbatan xech qanday tashvish keltirmayman. Xotirjam bo‘lgin” degani. Eng muhimi, bu holatni siz masxarabozlik deb tushinmasligingiz kerak. Shuning uchun ham so‘ngi vaqtlarda Tibetga boruvchi Evropalik turistlarga Tibet xalqlarining urf-odatlari va imo-

ishoralari haqida maxsus ko‘rsatmalarni o‘rgatishadi va aksincha Tibetliklarga Evropada umuman salomlashishdan voz kechishni uqtirishadi. Chunki, tibetliklar dastlab Evropaga borishganida o‘zlarining salomlashishlari bilan ko‘plab ko‘ngilsizliklarga uchragan.

18.2. Davlatlarning xalqlaridagi imo-ishoralarhaqida

Hindistonda ko‘rsatkich barmog‘ingizni zanjirsimon qilib aylantirsangiz mahalliy xalq bilan albatta ko‘ngilsiz mojaro yuz berishi mumkin. Ularda bu jest-“sen yolg‘onchisan” degan ma’noni bildiradi. Italiya, Meksika va Ispaniyaliklar qoyil qolganliklarini bildirish uchun uchta barmog‘ini birlashtirib labiga bosadi va o‘pich ovozini chiqaradi. Biz uchun bu ancha o‘ng‘aysizlik bo‘lishi mumkin, lekin ular sizning o‘ng‘aysizligingizga parvo ham qilishmaydi.

Bruneyda sariq buyum kiyish man qilingan. Chunki bu davlatda sariq kiyim faqat sultonning kiyimi hisoblanadi. Shuningdek, bu davlatda jamoat joylarida aksa urish, burunni qattiq tortish, uchrashuvda qo‘lni qattiq siqish, xotin-qizlar bilan qo‘l berib ko‘rishish, barmoqlar bilan biror narsani ko‘rsatish va bir qo‘lni ikkinchi qo‘lga urish kabi holatlar ham qonun yo‘li bilan man qilingan hisoblanadi.

Tunisda, Emiratda va Lordaniyada harbiylarni, prezident saroyini, politsiyachilarni, xotin- qizlarni suratga olish mumkin emas. ***Italiyada*** agar turist restoranda sigaret cheksa 200 yevro va ushbu tartibsizlikka yo‘l qo‘yganligi uchun restoran direktoriga 2000 yevro jarima solish qonuniylashtirilgan.

Angliyada jamoat joylarida sigaret chekuvchiga 1000 funt jarima solishadi. Butan qirolligida sigaret chekish umuman man qilingan. Bu qirollikda sigaret kontrabanda mahsuloti deb e’lon qilingan.

Tailandda oyoqning har qanday qismini umuman ko‘rsatish mumkin emas. Odamni yoki biror narsani qo‘l yoki oyoq bilan ko‘rsatish haqorat hisoblanadi. Hatto qirol oilasi portretlarga, Budda tarafga oyoqni cho‘zib o‘tirish yoki ko‘rsatish og‘ir jinoyat deb belgilangan.

Nepal *qirolligida* turistlar ayniqsa yevropalik turistlarga juda ehtiyotlik talab qilinadi. Masala shundaki, bu qirollikda tananing biror qismi ochiq bo‘lsa jinoiy ish qo‘zg‘atiladi va turist qirollikdan chiqarib yuboriladi. Ya’ni turistlar quyidagilarga amal qilishlari lozim.

- ayollar barcha yeri yopilgan holatda yurishlari
- o‘tirgan kishining oldidan yurib o‘tmasliklari
- mahalliy xalqdan biror narsani olishda yoki berishda faqat o‘ng qo‘l bilan berishi yoki olishi.
- turistlar uchun hind ibodatxonalarigi kirish taqiqlangan
- Budda ibodatxonalari hamma uchun ochiq.
- tilanchilarga sadaqa ibermaslik
- barcha ibodatxonalarni ko‘rishda faqat soat millari yo‘nalishida haraktlanish va boshq..

Lordaniya Xoshimit Qirolligida xotin-qizlarning tor buyum kiyishi, tananing ba’zi joylarini ochiq qoldirishi bu yerlik erkaklarda ular haqida noto‘g‘ri xulosalarning kelib chiqishiga asos bo‘ladi.

Singapurda sigaret qoldig‘ini tashlovchilarga 500 Singapur dollari miqdorida jarima solinadi. Spirtli ichimliklar ichuvchilar va ularni mamlakatga olib keluvchilarga hatto o‘lim jazosi belgilangan. Tananing ba’zi bir joylarini ochiq qoldirish pornoga tenglashtirilgan va bunday holatlarda qamoq jazosini qo‘llaydilar.

Ispaniyada sigaret qoldig‘ini tashlovchilarga 90 yevro, Islandiyada chiqindilarni tashlovchilar uchun 300 yevro, Bangkokda 50 dollar majburiy jarima solig‘i belgilangan.

Dunyo davlatlarida yashayotgan xalqlarning urf-odatlari va imo-ishoralarining juda kichik qismi bilan tanishdik. BOBda qo‘yilgan maqsad shundan iboratki, turizm marshrutlarini boshqaruvchi gid-ekskursiyachilar mamlakatlardagi bu imo-ishoralar, jestlarning ma’nolarini iloji boricha ko‘plab o‘rganishlari lozim bo‘ladi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. Xalqlarning urf-odatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Imo-ishora va jest deganda nimani tushunasiz?
3. O‘zbek xalqidagi imo-ishoralar va jestlarni ko‘rsating va tushuntiring?
4. O‘zbek xalqidagi imo-ishoralar va jestlarga o‘xshashlari yana qaysi xalqlarda bor?
5. O‘zbeklarda imo-ishoralar bilan salomlashish to‘g‘rimi. Sizning fikringiz qanday?

GLOSSARIY

Aksiologiya*-yunoncha* axios-qadriyat, logos-fan, ta’limot

Axloqiy qadriyatlar*-axloqiy* bilimlar va ko‘nikmalar, axloq qoidalari yordamida o‘quvchining xulq-atvori, hatti-harakatlarini boshqarish tizimidir. Axloqiy madaniyat o‘quvchining ko‘p qirrali faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi. Axloqiy madaniyat ko‘rinishlari xilma-xil: Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik,mehnatsevarlik; Erksevarlik, faollik, ijodkorlik, ma’sumiyatlilik; Saxiylik, kamtarlik, poklik va shu kabilar.

An’analar*-*qadimdan insoniyat hayoti, turmushi, mehnati va ibratli hayot saboqlari bo‘lib, avloddan-avlodga, o‘tmishdan kelajakka meros bo‘lib qoladigan, barcha tadbirlarda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy faoliyat mahsulidir. Marosimlar esa an’analar va urf-odatlarning amaliy ko‘rinishidir. An’analar va urf-odatlar milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy va diniy bo‘lib, milliy qadriyatlarning ajralmas qismidir.

Ansambllar*-tarixan* tarkib topgan hududda aniq ko‘zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me’moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo‘lgan, ijtimoiy, ma’muriy, diniy, ilmiy, o‘quv-ta’lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati, me’morchilik asarlari bilan bog‘liqlikda alohida yoki o‘zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek, tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlari, imoratlarning qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog‘-rog‘ san’ati asarlari (bog‘lar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar, sayilgohlar).

Badiiy qadriyatlar*-xalq* og‘zaki ijodi (afsona, rivoyat, ertak, doston, maqol, qo‘shiq, raqs, aytishuv, latifa, lof, askiya, topishmoq va

boshqa...;Xalq tasviriy va amaliy san’ati(xalq yaratgan badiiy-estetik san’at namunalari, xalq teatri, xalqning musiqiy san’ati).

Gid farang tilida-guide-boshlovchi-sayrbon, boshlovchi, turistik ekskursiya byurosi rasmiy vakili, turistlar va sayohatchilarga turistik obyektni ko‘rsatadi, tarixini so‘zlab beradi, shahar yoki hududning tarixiy va madaniy diqqatga sazovor joylari bilan tanishtiradi.

Gid-tarjimon-ekskursiyachi-*xorijliklarga* ularning mamlakat bo‘ylab turistik safarda kuzatib boradi. Marshrutda ularga xizmatlar ko‘rsatishda bevosita ishtirok etadi, xizmatlar uchun moliyaviy hisob-kitoblarni olib boradi. Gid-tarjimon-ekskursiyachi bir nechta chet tillarda erkin so‘zlashadi, ekskursiya va marshrutlarni mustaqil o‘tkazadi, turistlarning savollariga javoblar, maslahatlar beradi. Gid-tarjimonning ish staji, kasbiy mahoratiga qarab uch darajali toifa (uchinchidan birinchigacha beriladi).

Gid-tarjimon-*turizmga* bog‘liq bo‘lmagan ishlab chiqarish jarayonlarida, har-xil tillardagi odamlarning o‘zaro muloqotlarida, hamkorlik faoliyatlarida, qo‘shma korxonalarning ish faoliyatlarida shartnomalar va hakozolarda tarjimonlik qiluvchi shaxs.

Diqqatga sazovor joylar-*inson* va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo‘lgan hududlar, shu jumladan, xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan, harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko‘hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.

Diniy qadriyatlar-*din* siyosat emas, lekin ma’naviy hayotning bir qismi hisoblanadi. Diniy qadriyatlar ko‘plab millatlar, elatlar, xalqlarga taalluqli bo‘lgan. Ularni g‘oyaviy jihatdan birlashtirgan diniy talablar, g‘oyalar, rivoyatlar, marosimlar, bayramlar yig‘indisidir iborat.

Dunyoning yetti mo‘jizasi-*Misr* ehromlari, Bobilning osma bog‘lari, Artemida ibodatxonasi, Galikarnas maqbarasi, Quyosh xudosi- Gelios haykali, Aleksandr Mayoqi, Olimpiya xudosi-Zevs haykali

Dunyoning yangi yetti mo‘jizasi-*Buyuk* Xitoy devori, Rio-de-Jineyrodagi Iso Masih haykali, Ay-Petra tosh shahri, Machu-Pikchudagi inklarning tosh shahri, Chichen-Itsadagi mayyalar ibodatxonasi, Rim Kolizeyi, Tojmahal.

Jamoa qadriyati-*ma’lum* bir mahallada, qishloqda, mehnat jamoasida biron ijtimoiy hodisa (ommaviy tadbirlar, masalan, hashar) urf bo‘lgan.

Yodgorliklar-*tarixiy*, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy va bezak san’ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek, memorial uylar, xonadonlar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san’at asarlari, fan va texnika obyektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio, video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san’at asarlari, arxiv, qo‘lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo‘lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo‘lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o‘yib solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari.

***Muzey**-yunoncha* atama bo‘lib, «muza» so‘zidan kelib chiqqan. Qadimgi Yunon mifologiyasida san’at va fan ma’budalari «muzalar» deb yuritilgan. Muzalar, ya’ni ma’budalar yoki xudolar shoir va san’atkorlarga ilhom beradi, deb e’tiqod qilingan. Shuning uchun antik poeziya asarlarining boshida ko‘pincha Muzaga murojaat qilingan. San’at va adabiyotga, tarixga oid bir qancha ma’budalar mavjud bo‘lgan. Jumladan, antik shoirlardan Gesiod (mil. avv. VII asr) 10 ta ma’budani sanab o‘tadi.

***Ma’budalar**-turli* shakldagi haykallar alohida ehtirom bilan muqaddas sanalgan imoratlarda saqlangan. Odamlar ma’budalarni ziyorat qilaturib, orzu-istaklarini amalga oshirishini tilaganlar.

Madaniy meros turizmi- bu madaniyat va tashrif joylaridagi madaniy muhit, aholining an’analari, ularning yashash tarzlari, badiiy madaniyati va san’ati, mahalliy aholining bo‘sh vaqtlarini o‘tkazish shakllari bilan tanishishdan iborat turizmdir». Xorij davlatlarida milliy madaniy meros turizmini madaniy meros turizmi deb nomlashgan.

***Milliy etiket**-salomlashish,* odob-axloq, ko‘rishish, milliy urf-odatlar, kattalar va yoshlarga munosabatlar, uy tutish, kelin va sunnat to‘ylari, mehmondorchilik va turli milliy marosimlarning, jarayonlarning yig‘ma atalishi hisoblanadi.

***Milliy qadriyat**-muayyan* bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, urf-odat va an’analari, o‘tmishi va hozirgi hayoti. Milliy qadriyatlar alohida olingan xalq, millat va elatlarning o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklari, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari va millatlarning o‘zligini belgilaydigan o‘ziga xos xususiyatlarining jamlanmasidir; Xalq amaliy san’ati, xalq o‘yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, marosimlari milliy qadriyatlarga kiradi.

Milliy qadriyat-*millatning* asrlar mobaynida yaratgan ma’naviy boyliklari, noyob tarixiy obidlarini avaylab-asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish, rivojlantirish, hurmat bilan munosabatda bo‘lish, hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish, ma’naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish.

Muzeun-bu go‘zal buyumlar saqlanadigan, ilhom parilari to‘planadigan joy degan ma’noni anglatadi. Shuningdek, “Moziy” so‘zining “Muzey” atamasiga monand ekanligini ham e’tirof etish kerak. “Moziy” so‘zining lug‘aviy ma’nosi tarix, o‘tmish degan mazmunni anglatadi.

Nomoddiy madaniy meros obyektlari -tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati),shuningdek, ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

Yo‘riqchi-*yo‘l boshlovchi*-turistik yo‘nalishlarda turistlar va ekskursantlarga hamrohlik qilish hamda ularning xavfsizligini ta’minlash uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxs.

Oilaviy qadriyat-*bir* oila uchun ma’lum bir ma’naviyat turi (masalan, tug‘ilgan kunni nishonlash). Oilaviy qadriyatlar har bir oilaga xos bo‘lgan, oila uchun ustuvor hayotiy maqsadlarni belgilaydigan, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etadigan va uning hayotiga ta’sir qiluvchi g‘oyalar to‘plamidir.

Turizm sohasining subyektlari-*turistik* xizmatlar majmuini yoki ularning bir qismini ko‘rsatish, qo‘shimcha turistik xizmatlarni (ishlarni) bajarish hamda turistlar va ekskursantlarga tovarlarni realizatsiya qilish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

Tur-turistik xizmatlarning kamida ikkita turini o‘z ichiga olgan turistik xizmatlar majmui bilan ta’minlangan, belgilangan yo‘nalish bo‘yicha aniq muddatlardagi sayohat;

Turizm-jismoniy shaxsning vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo‘nab ketishi (sayohat qilishi);

Turist-*vaqtincha* bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda vaqtincha bo‘lish mamlakatiga (joyiga) yigirma to‘rt soatdan ketma-ket o‘n ikki oygacha bo‘lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo‘lish mamlakatida (joyida) kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs;

Turistik vaucher-*turistning* tur tarkibiga kiruvchi xizmatlarga bo‘lgan huquqini belgilovchi va ularning haqi to‘langanligi faktini tasdiqlovchi hujjat;

Turistik yo‘nalish-*sayohat* vaqtida turist, ekskursant tashrif buyuradigan asosiy joylarning ro‘yxati bo‘yicha turistning, ekskursantning rejalashtirilgan harakatlanish yo‘li;

Turistik xizmatlar-*joylashtirish*, ovqatlantirish, transport, ekskursiya va maslahat xizmati ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar, shuningdek turist va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan xizmatlar;

Qadriyat atamasi-arabcha “qadr” so‘zidan olingan bo‘lib, qimmatli, foydali degan ma’noni anglatadi. “Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari,

hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim”. Qadriyat voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha.

O‘zbekistondagi yetti mo‘jizasi-1.Registon ansambli (Samarqand); 2.Igor Savitskiy nomidagi san’at muzeyi (Nukus); 3.Toshkent teleminorasi (Toshkent); 4.Forumlar saroyi (Toshkent); 5.Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi (Samarqand); 6.Ichan qal’a qadimiy shahri (Xiva); 7.Amir Temur maqbarasi (Samarqand).

UNESKO-Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti. Ushbu tashkilot davlatlar o‘rtasida maorif, fan, madaniyat va kommunikatsiya sohasida hamkorlikni rivojlantirish yo‘li bilan tinchlikka va xalqaro xavfsizlikka ko‘maklashish maqsadida 1946-yilda tuzilgan. Unga 188 mamlakat, shu jumladan, O‘zbekiston 1993-yil 26-oktyabrdan a’zo. Tashkilotning yana bir muhim faoliyati jahon moddiy va nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilishdan iborat. Buning uchun tashkilot o‘ziga xos maxsus ro‘yxatlar shakllantirib boradi.

Hunarmandchilik, hunarmandlik-milliy-*an’anaviy* mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo‘l mehnatiga asoslangan sanoat turi.

Usta-1) kasb, hunar egasi; malakali mutaxassis: pichoqchi Usta, misgar Usta, duradgor Usta va h.k.; 2) kasb-hunar, ilm va shu kabilarni o‘rgatuvchi, ustoz.

Umumbashariy qadriyatlar-*olam*, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan, umumbashariy abadiy qadriyatlardir. Umumbashariy qadriyatlarga faqat qirg‘in-barot urushlar inqirozli ta’sir qilishi mumkin.

Etnik va etnos atamalari-xalq, etnik jamiyatning (qabila, xalq, millat) tarixiy kelib chiqishini, turmushini, moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘rganishni bildiradi.

Etik-odob-*axloq* qoidalari, me’yorlari) so‘zi ham ko‘p hollarda etnos-xalqning, millatning tarixiy taraqqiyoti davomida saqlanib kelinayotgan milliy odob-axlog‘i, urf-odatlari, milliy qadriyatlari haqida gapirilganda ishlatiladi.

Ekskursant-vaqtincha bo‘lish mamlakatida (joyida) tunab qolmasdan yigirma to‘rt soatdan oshmaydigan davrda sayohat qiluvchi jismoniy shaxs;

Ekskursiya yetakchisi-turistlar va ekskursantlarni muayyan turistik resurs bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxs.

Shaxsiy qadriyatlar-*inson*, uning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi, umr ma’nosi, odobi, go‘zalligi bilan bog‘liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning *“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axlog‘i, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks - sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin”.*

TESTLAR

1.UNESKOning “Jahon merosi” ro‘yxatiga Shahrisabzning tarixiy markazi qachon qabul qilindi?

A.2000-yilda

B.2001-yilda

C.2003-yilda

D.2005-yilda

2.UNESKOning “Jahon merosi” ro‘yxatiga Buxoroning tarixiy markazi qachon qabul qilindi?

A.1993-yilda

B.1994-yilda

C.1995-yilda

D.2010-yilda

3.Qadriyat atamasi:

A.arabcha “qadr” so‘zidan olingan

B.forscha “qadr” so‘zidan olingan

C.hindcha “qadr” so‘zidan olingan

D.lotincha “qadr” so‘zidan olingan

4.Badiiy qadriyatlar:

A.xalq og‘zaki ijodi

B.shaxs og‘zaki ijodi

C.oilaning og‘zaki ijodi

D.jamoaning og‘zaki ijodi

5.Aksiologiya:

A.yunoncha axios-qadriyat, logos-fan, ta’limot

B.arabcha axios-qadriyat, logos-fan, ta’limot

C.forscha axios-qadriyat, logos-fan, ta’limot

D.grekcha axios-qadriyat, logos-fan, ta’limot

6.Milliy qadriyat:

A.muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, urf-odat va an’analari, o‘tmishi va hozirgi hayoti

B.muayyan bir jamoaning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, urf-odat va an’analari, o‘tmishi va hozirgi hayoti

C.muayyan bir oilaning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, urf-odat va an’analari, o‘tmishi va hozirgi hayoti

D.muayyan shaxsning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, urf-odat va an’analari, o‘tmishi va hozirgi hayoti

7.Shaxsiy qadriyatlar:

A.Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi,umr ma’nosi, odobi, go‘zalligi bilan bog‘liq qadriyatlar

B.jamoa,ularning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi,umrlari ma’nosi, odoblari, bilan bog‘liq qadriyatlar

C.oila,uning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi,umrlari ma’nosi, odoblari, bilan bog‘liq qadriyatlar

D.jamiyat,uning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi,umrlari ma’nosi, odoblari, bilan bog‘liq qadriyatlar

8.UNESKOning “Jahon merosi” ro‘yxatiga Samarqanddagi Registon ansambli qachon qabul qilindi?

A.2001-yilda

B.2002-yilda

C.2003-yilda

D.2004-yilda

9.UNESKOning “Jahon merosi” ro‘yxatida qancha tarixiy, madaniy yodgorliklar bor?

A.721 ta

B.621 ta

C.521 ta

D.421 ta

10.Buxoro viloyatida turizm obyektlari sonini aniqlang?

A.521 ta

B.121 ta

C.321 ta

D.421 ta

11.Turizm sohasining iste’molchilari kimlar?

A.turistlar

B.xizmatchilar

C.turagentlar

D.oshpazlar

12.“Turizm to‘g‘risida”gi qonunning 18-moddasi qanday nomlanadi?

A.“Turistlarning xavsizligi kafolati”

B.Turistlarning xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari

C.Turistlik marshrutdagi joylashtirish xizmatlarida hayot xavfsizligini ta’minlash

D.Turistlarni sug‘urta qilish

13.“Turizm to‘g‘risida”gi qonunning 20-moddasi qanday nomlanadi?

A.“Turistlarni sug‘urta qilish”

B.Turistlarning xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari

C.Turistlarning xavsizligi kafolati

D.Turistlik marshrutdagi joylashtirish xizmatlarida hayot xavfsizligini ta’minlash

14.Turistlar joylashtirilgan joylarda tabiatning favquloddagi hodisalaridan kelib chiqadigan xavflar qaysi omil tarkibiga kiradi?

A.kutilmagan omillar

B.zararsiz omillar

C.biologik omillar

D.zararli omillar

16.Turizmni tashkillashtiruvchilar kimlar?

A.turoperatorlar, turagentliklar

B.savdogarlaro‘qituvchilar

C.xizmatkorlar

D.xizmatkorlar,savdogarlar

17.Ekskursiya marshruti qanday tartibda tuziladi?

A.tematik

B.tizimli

C.bevosita

D.kombinatsiyali

18.O‘zbekistonda qaysi ziyorat turizmi rivojlangan?

A.ichki ziyorat turizmi

B.xalqaro ziyorat turizmi
C.hududiy ziyorat turizmi
D.mintaqaviy ziyorat turi

19.Ekskursiyaning maqsadlari

A.vatanparvarlik, mehnatni sharaflash, estetik va ekologik tarbiya, shahar tarixi va uning davlat iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasini o‘rganish, o‘lka tabiati bilan tanishish va boshqalar
B.vaqtinchalik kelgan joyida faoliyati to‘lanmaydigan, doi-miy yashaydigan mamlakat chegarasidan tashqariga turistik maqsadlarda safar qilish
C.shahar va hududlarning ekskursiya imkoniyat-laridan kelib chiqib, turistik korxonaning doimiy mijozlari ehtiyojiga asoslangan holda, ekskursiyaga yangi boblar ishlab chiqishdir
D.ekskursiya xududlari haqida ma’lumotlar olish

20.Tur bu?

A.muayyan yo‘nalish bo‘yicha turistik xizmatlar majmui (joy bandlash, joylashtirish, ovqatlantirish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar) bilan ta’minlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat
B.bo‘sh vaqtni o‘tkazishning maxsus dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha faoliyatdir
C.tashrif buyurayotgan mehmonlarga jahon talablariga mos keladigan xizmatlarni taklif etish
D.shahar va hududlarning ekskursiya imkoniyat-laridan kelib chiqib, turistik korxonaning doimiy mijozlari ehtiyojiga asoslangan holda, ekskursiyaga yangi boblar ishlab chiqishdir

21.Ziyorat marshrutlaridagi birinchi talab nimalar?

A.ziyoragohdagi ziyorat qilish infratuzilmalarining taxt bo‘lishligi
B.ziyoratgohda joylashtirish xizmatlarining taxt bo‘lishi
C.ziyoratgohda transport xizmatlarining taxt bo‘lishligi
D.ziyoratgohda ovqatlantirish xizmatlarining taxt bo‘lishligi

22.O‘zbekiston yerlarida ibtidoiy odamlar bo‘lganmi?

A.O‘zbekiston ibtidoiy odamlar tomonidan o‘zlashtirilgan
B.O‘zbekistonda ibtidoiy odamlar yashamagan

C.O‘zbekistonda ibtidoiy odamlar yashaganligi bahsli
D.O‘zbekistonda ibtidoiy odamlar qisman yashagan

23.Turizmning qaysi obyektlari kelajakda istiqbolli bo‘lishi mumkin?

A.sirli ko‘rinishlarga ega bo‘lgan obyektlar
B.tarixiy obidalar
C.suv omborlari
D.o‘rmonlar

24.O‘zbek milliy davlatchiligi qachondan boshlanadi?

A.3 ming yil oldin
B.4 ming yil oldin
C.2 ming yil oldin
D.6 ming yil oldin

25.Abduholiq G’ijduvoniyning 9000 yilligi qachon nishonlandi?

A.2003- yilda
B.2004- yilda
C.2005 -yilda
D.2006- yilda

26.Xoja Ahror Valiyning 600 yilligi qachon nishonlandi?

A.2004- yilda
B.2005- yilda
C.2006 -yilda
D2007- yilda

27.Temuriylar muzeyi qachon qurildi

A.1996- yilda
B.1997- yilda
C.1998 -yilda
D.1999- yilda

28.O‘zbekistonda turizmni rivojlanish bosqichlari nechiga bo‘linadi?

A.5 ga
B.4 ga
C.3 ga
D.2 ga

29.Quyida keltirilgan qaysi muzey milliy mahsulotlarni ishlab chiqarish muzeyi ro‘yxatiga kiradi?

A.“Samarqand qog‘oz” ishlab chiqarish uyi

B.Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy muzeyi

C.Samarqand Davlat universitetining “Geologiya” muzeyi

D.Mirzo Ulug‘bek muzeyi

30.Xiva shahridagi qaysi obida UNESKO ro‘yxatiga olingan?

A.Ichan qala

B.Registon maydoni

C.Minorai kalon

D.Juma masjidi

31.Buxorodagi eng keksa tarixiy obidani aniqlang.

A.Ismoil Somoniy maqbarasi

B.Minorai Kalon

C.Ark

D.Mir Arab madrasasi

32.Gid nutqi madaniyatiga qo‘yilgan talablar-

A. to‘g‘ri talaffuz, og‘zaki nutqdan ko‘proq foydalanish

B. to‘g‘ri gapirish

C.mimikalardan foydalanish

D. mustaqil fikrga egalik

33.Qo‘yidagi ta’riflardan qaysi biri «ichki turizm» tushunchasini beradi?

A.O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan fuqarolarning O‘zbekiston xududi bo‘ylab qiladigan sayohati

B.bir mamlakat fuqarosining boshqa mamlakatga sayohat qilishi

C.biror bir mamlakat fuqarosining o‘z aholisi bo‘lmagan mamlakatga sayohat qilish uchun kelishi

D.uzoq qarindoshlarni ko‘rish va sog‘liqni tiklash maqsadida davolanish

34. Kiruvchi turizmga ta’rif qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A.O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan fuqoralarning O‘zbekiston xududi bo‘ylab qiladigan sayohati

B.vaqtinchalik bo‘ladigan mamlakatda sayohatchilarni sayyohlik resurslari bilan tanishtirish maqsadidagi faoliyatni tashkillashtirish bo‘lib, bunda joylashtirish yuzasidan xizmat ko‘rsatish nazarda tutilmaydi

C.jismoniy shaxslarning doimiy yashash joyidan 12 oydan oshmagan muddatga, boradigan joyida ish haqi to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmasdan, davolanish, o‘rganish, ish yoki boshqa maqsadda sayohati hisoblanadi

D.vaqtinchalik kelgan joyida faoliyati to‘lanmaydigan, doimiy yashaydigan mamlakat chegarasidan tashqariga turistik maqsadlarda safar qilish

35.Xalqaro turizmga ta’rif qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A.shaxsning turistik maqsadlarda doimiy yashaydigan mamlakatidan tashqariga sayohati

B.vaqtinchalik bo‘ladigan mamlakatda sayohatchilarni sayyohlik resurslari bilan tanishtirish maqsadidagi faoliyatni tashkillashtirish bo‘lib, bunda joylashtirish yuzasidan xizmat ko‘rsatish nazarda tutilmaydi

C.o‘z davlati chegarasi doirasida doimiy yashovchi fuqarolarni vaqtinchalik tashrif buyurovchi joyda (to‘lanadigan faoliyatsiz) turistik maqsadlarda sayohat qilishga aytiladi

D.vaqtinchalik kelgan joyida faoliyati to‘lanmaydigan, doimiy yashaydigan mamlakat chegarasidan tashqariga turistik maqsadlarda safar qilish

36.Chiquvchi turizmga to‘g‘ri ta’rif berilgan qatorni belgilang?

A.O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan fuqarolar ning o‘zga mamlakatlarga qilgan sayohati

B.faoliyati to‘lanmaydigan turistlik maqsadlarda doimiy yashamaydigan shaxslarni o‘zga mamlakat hududiga tashrifi, sayohati hisoblanadi

C.vaqtinchalik bo‘ladigan mamlakatda sayohatchilarni sayyohlik resurslari bilan tanishtirish maqsadidagi faoliyatni tashkillashtirish bo‘lib, bunda joylashtirish yuzasidan xizmat ko‘rsatish nazarda tutilmaydi

D.jismoniy shaxslarning doimiy yashash joyidan 12 oydan oshmagan muddatga, boradigan joyida ish haqi to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmasdan, davolanish, o‘rganish, ish yoki boshqa maqsadda sayyohati hisoblanadi

37.Turistik resurslarga to‘g‘ri ta’rif berilgan qatorni belgilang.

A.tabiiy, tarixiy, ijtimoiy - madaniy va boshqa obyektlarga turistlarni qiziqtiradigan, insonning jismoniy, ruhiy va aqliy kuchini tiklashi va rivojlanishi ehtiyojlarini qondirishga qodir obyektlarga aytiladi

B.inson tomonidan yaratilgan noyob, tarixiy va arxitektura yodgorliklari majmuasi

C.insonlarning hayoti, urf-odat va milliy bayramlarining namoyish bilan bog‘liq resurslar

D.inson tomonidan yaratilgan noyob asarlardan turizm maqsadida foydalanish

38.Shayx Xovandi Taxur maqbarasi, Qaldirg‘ochbiy maqbarasi, Yunusxon maqbarasi; Hazrati Imom majmuasi; Abubakr Muhammad Qaffol Shoshiy maqbarasi; Shayx Zayniddin bobo maqbarasi kabi tarixiy yodgorliklar qayerda joylashgan?

A.Toshkent shahrida

B.Qashqadaryo viloyatida

C.Xiva shahrida

D.Surxondaryo viloyatida

39.Hakim at-Termiziy majmuasi; Sulton Saodat ibodatxona yodgorligi,Fayoztepa ibodatxonasi kabi tarixiy yodgorliklar qayerda joylashgan?

A.Surxondaryo viloyatida

B.Qashqadaryo viloyatida

C.Jizzax viloyatida

D.Toshkent shahrida

40.Samarqand shahri «Registon» maydonidagi qaysi madrasa birinchi va kim tomonidan qurilgan?

A.“Ulug‘bek” madrasasi, Mirzo Ulug‘bek tomonidan

B.“Sherdor” madrasasi, Bahodur Yalangtush tomonidan

C.“Tillokori”madrasasi, Mirzo Ulug‘bek tomonidan

D“Sherdor” madrasasi, Mirzo Ulug‘bek tomonidan

41.Samarqand shahri «Registon» maydonidagi qaysi madrasa birinchi va kim tomonidan qurilgan?

A.“Ulug‘bek” madrasasi, Mirzo Ulug‘bek tomonidan

B.“Sherdor” madrasasi, Bahodur Yalangtush tomonidan

C.“Tillokori” madrasasi, Mirzo Ulug‘bek tomonidan

D.“Sherdor” madrasasi, Mirzo Ulug‘bek tomonidan

42.Qo‘yidagilardan qaysi biri Termiz shahriga xos yodgorliklar sanaladi?

A.Fayoztepa ibodatxonasi (I asr)

B.Chorsu bozori (XVIII asroxiri)

C.Ismoil Somoniy maqbarasi (IX asr)

D.Dorus-Saodat majmuasi (XIV asr)

43.Atlas-shoyi ishlab chiqarish birlashmasi qaysi shaharda joylashgan?

A.Shahrisabz

B.Buxoro

C.Marg‘ilon

D.Termiz

44.Islom dinining markaziy ziyoratgohi qaysi shaxarlar hisoblanadi?

A.Makka va Madina shaxarlari

B.Madina shaxri

C.Makka shaxri

D.Buxoroyi sharif shaxri

45.Quyida keltirilgan qaysi muzey milliy mahsulotlarni shlab chiqarish muzeyi ro‘yxatiga kiradi?

A.“Samarqand qog‘oz” ishlab chiqarish uyi

B.Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy muzeyi

C.Samarqand Davlat universitetining “Geologiya” muzeyi

D.Mirzo Ulug‘bek muzey

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari

1.O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy me’ros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent sh., 2001- yil 30- avgust, 269-II-son

2.O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. “Xalq so‘zi” gazetasi,1999- yil 14-sentyabr

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish to‘g‘risidagi Farmonlari, Qarorlari va asarlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5242-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvarda “Moddiy, madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5181-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 3-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda “Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustda “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrda “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4881-sonli Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevralda “Ichki turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3514-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2018 y.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 y.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Navro‘z umumxalq bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zi. 21- mart 2019.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-oktabrda “Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to’g’risida”gi 881-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-dekabrda “Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2017-2020-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va adabiyotlar

1. Александрова А.Ю. Структура туристического рынка. -М.: пресс-соло00, 2002. -384 с.

2. Александрова А.Ю. Международный туризм. -М.: KnoRUS, 2010. -492 с.

3. Abdullayeva R.G. Hunarmandchilik taraqqiyotining tarixiy va institutsional asoslari. Iqtisodiyot va moliya”экаономика и финансы, -T.: 2017, № 2.

4. Bekmurodov M.B., Rashidova M.X. Muzeyshunoslik. O‘quv qo‘llanma. -T.: 2005. -110 b.

5. Behro‘z Marufiy, Samarqandga xush kelibsiz, Registon maydoni, -S.:, 2021. -40 b.

6. Всемирное культурное и природное наследие: документы, комментарии, списки обьектов. -М.:, 1999. -267 с.

7. Горбунова М.Ю. Организационное основания культурного туризма // проблемы и перспективы развития культурного туризма Саратовской области. -Саратов, 2006. -223 с.

8. Долженко Г.П., Экскурсионное дело. «Издателъский центр» МагТ-Москва-Зостов на-Дону, 2006. -301 с.

9. Ziyomuhammadov B. “Komillikka eltuvchi kitob. -T.: “TURON-IQBOL” nashriyoti, 2006. -73 b.

10. Ibrohimjon Said. Andijon “Sayyid Muhyiddin maxdum” O‘rta maxsus islom bilim yurti murabbiysi

11. Jo‘rayev Z. Muzeyshunoslik fanidan ma’ruza matnlari. -T.: 2014. -157 b.

12. Jalolov H. Oila, mahalla va maktab hamkorligi. Tarbiya. №2-son. 2006. -13 b.

13. Эмелянов Б.В. Основи экскурсоведение. Учебное пособие, SRIB, «Турист», -М.: 1985. -218 с.

14. Karamanova G.K., Muzeyshunoslik. -Nukus, 2007. -74 b.

15. Qiyom Nazarov. O‘zbekiston ensiklopediyasi

16. Коржанова А.А., Преспективы направления развития культурно-познавателъного туризма в России. Фундаментальные исследования., № 2-18, -М.: 2015. -с 4044-4047.

17. Мягтиной Н.В. Музейеведение: Учеб. пособие Владим. гос. ун-т. -Владимир: Izd-vo VlGU, 2010. -114 с.

18. Muxamedova M.S., Muzeyshunoslik. O‘quv qo‘llanma. -T.: 2013. -174 b.

19. Mamatqulov X.M., Bektemirov A.B., Tuxliyev I.S., Norchayev A.N. Xalqaro turizm. Darslik. Toshkent, “O‘zbekiston faylasuflar ilmiy jamiyati”, 2009. -192 b.

20. Mamatqulov X. M. Turizm va servisga oid izohli lug‘at. -S.: SamISI, 2010. -362 b.

21. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. -М.: 1999. -с 913.; Русско-Узбекский словарь, Том II. Т, 1984. -770 с.

22. Отнюкова М.С. Культурний туризм и социоальное конструирование достопримечательности // Проблеми и преспективы развития культурного туризма Саратовской области. -Саратов, 2004. -125-136 с.

23. Obidxo‘jayev U. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti11/05/2023 12:12

24. Соколова М.В. История туризма. Учебное пособие. Издателство Мастерство”, -Саратов. 2002. -349 с.

25. Samarqand davlat muzey qo‘riqxonasi hisobotidan

26. Samarov X.Q. Milliy madaniy meros turizmi. Monografiya. -T.: 2022. -187 b.

27. SamarovX., Kayumov R., Registon-Samarqand ramzi, Moziydan sado jurnali № 3, -T.: 2020. -36-39 b.

28. Самаров Х. “Роль виртуальных музеев в развитие музейное дело в Узбекистане” Тенденции виртуальных музеев в развитие музейное дело в Узвекистане. Материали международной научно-практической конференсии «тенденции и преспективы културной интегратции». Казакстан, г. Астана, 27-28 ноября, 2014 г. -с 252-255.

29. Samarov X.Q. “O‘zbekistonda yangi-milliy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning maqsadi va vazifalari”, “SERVIS” jurnali, 4-son, -S.: 2020. -120-126 b.

30. Samarov Khonkul. Monografie-Politechnika Lubelska, Tangible Cultural Heritage of the Silk Roadfrom the Area of Modern Uzbekistan “The Registan Ensemble - an Architectural Jewel of the Silk Road” 2021. 9-16 p.

31. Tuxliyev N., Kremenseva A. O‘zbekiston Respublikasi, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, -T.: 2002. -462 b.

32. Tuxliyev N., Kremenseva A., Моя страна. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, -T.: 2012. -382 b.

33. Тухлиев Н., Абдуллаева А. Экологический туризм: сущност, тенденции и стратегии развития, O‘quv qo‘llanma, гос. изд. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. -T.: 2006. -415 c.
34. Tarbiya ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, -T.: 2010. -509-510 b.
35. Tillayeva G., Yusupov Q., Boboyev N., Xaldibekova F., Yusupov A. Shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari va vositalari. Toshkent: “Falsafa va xuquq instituti” 2009. -16 b.
36. Temirova N.E. Qadriyatlar va yoshlar kamoloti. -T.: Falsafa va huquq instituti. 2008. -26 b.
37. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B., Tursunova G., Turizm asoslari, Darslik, -T.: “Fan va texnologiya”, 2014. -332 b.
38. Tuxliyev I. S., Qudratov G’. H., Pardayev M. Q., Turizmni rejalashtirish. Darslik, -T.:”Iqtisodiyot-Moliya, 2010. -264 b.
39. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 11-Kitob, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat nashriyoti. -T.: 2005. -392 b.
40. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 11-Kitob, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat nashriyoti. -T.: 2005. -393 b.
41. XaitboyevR., R.Amriddinova, Turizmning maxsus turlari, -S.: SamISI, 2008, -63 b.
42. Hayitboyev R., Haydarov S., Abduhamidov S., va b. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish, O‘quv qo‘llanma. “Ilm nur fayz” MChJ, -S.: SamISI, 2016. -175 b.
43. Hayitboyev R., O‘zbekistonning cho‘llarida turizmni rivojlantirish istiqbollari, MChJ “Navro‘z poligraf”, -S.: 2021. -175 b.
44. Hayitboyev R. Ekologik turizm. O‘quv qo‘llanma. -T.: 2021. -375 b.
45. Hayitboyev R. O‘zbekistonning cho‘llarida turizmni tashkil qilish va rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari. Monografiya. -S.: 2022. -175 b.
46. Romania: geography a. tourism / [Mihai Ielenicz a. o.; ed. by: Ioan Mihailescu; pict.: Felics Florian Munteanu a. o.]. Bucharest: Royal Company, [2001]. 327 p.: col. ill., maps.